O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIY MEROS AGENTLIGI
Y. G‘ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND
ARXEOLOGIYA INSTITUTI

# O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

**(2024-yilning 14-may sanasida o‘tkazilgan yosh olimlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari)**



SAMARQAND-2024

**O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi**
**Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti**

# O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

**Madaniy meros agentligi Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutida 2024-yilning 14-may sanasida o‘tkazilgan yosh olimlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**
**MATERIALLARI**

**Samarqand—2024**

To‘plam Madaniy meros agentligi Samarqand arxeologiya instituti Ilmiy Kengashining 2024-yil 19-dekabirdagi 12-sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

**Mas’ul muharrir:**
M. Saidov

**Tahririyat:**
M.H. Pardayev, A.A. Rayimkulov, B.E. Sayfullaev, B.H. Matboboyev, B. Abdullayev, A.N. Xolmatov, A. Ataxodjayev, K.A. Raximov, H.B. Hoshimov, A.N. Sandiboyev, N. N. Rashidov

**Taqrizchilar:**

J. Mirzaaxmedov
O. Ergashov

Kompyuterda tayyorlovchi: **M.Z. Asadov**

ISNB 978-9910-8826-1-6 Samarqand arxeologiya instituti

# SO'Z BOSHI

Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avloldardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridian biridir. Konferensiyada ko'tarilgan masalalar respublikamizda olib borilayotgan tarixiy tadqiqotlar, jumladan, har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishga va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo hududi Qadim svilizatsiyalarning makoni va turli savdo yo'llarining chorrahasi bo'lib kelgan. Yirik tarixiy-madaniy o'lkalari qatoridan O'zbekiston respublikasi hududida joylashgan madaniy meros ob'ektlari ham munosib o'rinni egallagan. Mamlaktimizda ham ilk insoniyat manzilgohlari va qadimgi davrlarga oid yangi arxeologik yodgorliklar ko'plab kashf etilmoqda. Tarixning deyarli barcha davrlariga oid yodgorliklarni bizning hududimizda uchratish mumkin, bunda yodgorliklarning xronologiyasi ibtidoiy davrdan to antik, o'rta asrlar, yangi va eng yangi tarixgacha bo'lgan katta davrni qamrab oladi. Bugungi kun yoshlaridan asosiy talab qilinadigan narsa esa yer ostida ko'milib yotgan tariximizni mukammal o'rganish va o'tmish saboqlaridan to'g'ri xulosalarni chiqarib bera olishdir.

O'zbekiston tarixi, boy madaniy merosi va ajoyib an'analari bilan ajralib turadi. Bu tarixiy meros nafaqat bizning bugungi hayotimizni, balki kelajak avlodlarimizni ham shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, yosh tadqiqotchilarning bu jarayondagi o'rni nihoyatda muhimdir. Ularning zamonaviy fikrlash uslublari, innovatsion yondashuvlari va bilimlari tarixiy tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Har bir yosh olimning o'ziga xos qarashlari, kashfiyotlari va tajribalari, albatta, bizning tarixiy bilimlarimizni boyitadi.

Anjumanning ilmiy yo'nalishlari O'zbekistonda arxeologiya fanining rivoji, hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi, mamlakatimizda olib borilgan eng so'nggi arxeologik qazishmalar va topilmalarning ilmiy tushuntirilishi, O'zbekiston tarixini yoritishning dolzarb muammolari, shuningdek, arxeologiyada zamonaviy texnologiya va yo'nalishlarning qo'llanilishi kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishlar, albatta, bizning tarixiy bilimlarimizni yangilash va kengaytirish uchun zarur.

Ushbu anjumanning maqsadi tadqiqotchilarning o'z ilmiy natijalarini, yangiliklarini va kashfiyotlarini keng jamoatchilik o'rtasida muhokamaga olib chiqish, ilmiy muomalaga kiritish, yutuq va kamchiliklarini muhokama qilishdir. Yosh olimlarimiz nafaqat o'z ilmiy faoliyatlarini rivojlantirishda, balki madaniy merosni asrash va kelajak avlodga yetkazishda ham faol ishtirok etadilar. Shu bois, madaniy merosni asrashning muhimligini va bunda yetishib kelayotgan yosh avlodning o'rni naqadar katta ekanligini ko'rsatish anjumanning aso-

siy maqsadlaridan biridir.

Muhokama qilinadigan muammolar qatoriga O'zbekiston arxeologiya fanining rivoji va hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning o'rganilishi tarixi, mamlakatimizda olib borilgan qazishmalardan olingan topilmalarning ilmiy tushuntirilishi, O'zbekiston tarixini yoritishdagi muammolar, arxeologiyada zamonaviy texnologiya va yo'nalishlarning qo'llanilishi kiradi. Ushbu muammolarni muhokama qilish, tadqiqotlarimizni yanada rivojlantirish va yangicha yondashuvlar kiritish uchun muhim ahamiyatga ega.

Har bir ishtirokchining o'z fikr va mulohazalarini bildirishiga, o'z tajribalarini o'rtoqlashishiga va bir-biridan o'rganishiga umid qilamiz. Kelinglar, birgalikda O'zbekiston tarixining muhim masalalarini tahlil qilaylik, yangi bilimlar va kashfiyotlar bilan boyiting, o'zaro fikr almashaylik. Har birimizning hissamiz O'zbekiston tarixining yanada boy va rang-barang bo'lishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, anjumanning samimiy va ijodiy muhitda o'tishini tilayman. Kelinglar, ushbu tadbir davomida bir-birimizga ilhom beraylik va yangi g'oyalar, innovatsion yondashuvlar bilan tajribalarimizni boyitaylik.

***M. Saidov, Samarqand arxeologiya instituti direktori.***

**A.U. Abdug‘aniyev**
*Samarqand arxeologiya instituti kichik ilmiy xodimi*
*abdulxayabduganiyev19970828@gmail.com*

# QIZLARTEPA YODGORLIGINING O‘RGANILISH TARIXI

O‘rta Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri Samarqand o‘tgan asrdan boshlab olimlarning e’tiborini tortdi. Afrosiyob qo‘rg‘onida ko‘plab arxeologik ishlar olib borildi. Arxeologik tadqiqotlar olimlarga shahar rivojlanishining asosiy bosqichlari, shaharning asos solingan sanasi, rivojlanishining asosiy bosqichlari va shaharning vayron bo‘lish vaqtini aniqlashga imkon berdi (Шишкин, 1969 С. 2).

Turar joyning turli qismlarida stratigrafiyasini o‘rganish uchun bir qancha qazishmalar o‘tkazilgan (dastlab Afrosiyobning g‘arbiy va shimoliy tomonida). Shaharning g‘arbiy tomoni, aeroportga olib boruvchi zamonaviy yo‘lning chap tomonida, relyefga qaraganda, shaharning markazidan ko‘ra yoshroq qismidek taassurot qoldirdi. Bu taxminni bizning qazishmalarimiz tasdiqladi.

Samarqand viloyati hududi ilk o‘rta asrlardagi yodgorliklarini o‘rganish uchun qisqa ekspeditsiya tashkil etildi. Yodgorliklarning sezilarli hajmini Samarqand shahridagi xo‘jaliklar va qurilish tashkilotlari tomonidan yodgorliklarni tezda yo‘q qilishga moyilligini hisobga olib, o‘rta asrlarning boshlarida Samarqand shahridagi yodgorliklarini yanada to‘liq o‘rganishga qaror qilindi. 1989-yilda bir qator yodgorliklar qo‘shimcha ravishda yanada to‘liq o‘rganishga qaror qilindi. 1989-yilda bir qator yodgorliklar qo‘shimcha ravishda tadqiq qilindi. Qizlartepa, Arabmozortepa, Choshtepa, Arabxonatepa, ikki Nomsiztepa, Qunduzso‘fi yodgorliklarida tadqiqotlar olib borildi (Лебедова, 1989 С. 4).

Samarqandda joylashgan yodgorliklarni o‘rganish XIX asrning 30-yillarida boshlangan. 1935-36-yillarda Zarafshonning janubidagi ko‘plab joylar, jumladan, Samarqand shahri hududidagi yodgorliklar keng qamrovli tadqiq qilingan.

Xususan Qizlartepa yodgorligi Zarafshon daryosining yuqori terrassasida joylashgan. Yodgorlik kattagina ark va uninng sharq va janub tomonidagi qoldiqlardan iborat. Ark to‘rtburchak shaklga ega bo‘lib, balandligi 18 metr, yuqorisida shimolda 50 m, g‘arbda 60 metrga teng maydon ko‘rinishida sath shakllangan. Maydonni markazida esa balandligi 5 m, tomonlari 16 metr bo‘lgan tepalik kuzatiladi (1-rasm). Ushbu tepalik va arkning janubiy chekkasi oralig‘ida chuqurlik qayd qilinadi. Boshqa tomonda chuqurlik kuzatilmasada, nisbatan pastlik kuzatiladi. Qal’aga ko‘tarilishi izlari mudofaa devorining sharqiy qismida ko‘tarma-yo‘lak ko‘rinishda joylashgan (Сухарев, 1948 С. 195).



Городище Кизляр-тепа. Общий вид цитадели городища с южной стороны. Близ к. Кизляр, в окрестностях Самарканда, 1937 г., В.И. Котовский, И.А. Сухарев. №12582

*1-rasm. Yodgorlikning* 1948-*yilda olingan surati*

Arkning yonlari buzilishi natijasida janubiy qirqimda xom g‘ishtdan ko‘tarilgan devorlarning yuza qismi qoldiqlari ochilib qolgan. Unga tashqi tomondan boshqa devor tutashtirilgan holda qurilgan bo‘lib, u keyinchalik qulab tushgan. Janubiy burchakda balandligi 4 metr bo‘l-gan ikkita tor xona qayd etiladi. Shimo-liy qirqimda uch metr balandlikda ikki qator pishiq g‘isht qalamasi kuzatilib, tozalanishi natijasida pol qoplamasi ekanligi aniqlandi. G‘isht o‘lchami 23x37x3,5 sm bo‘lib, yuzasida xom g‘isht bo‘laklaridan iborat tuproq uyumi joylashganligi ma’lum bo‘ldi. Shu bilan birga qirqimda ichida chirigan organik qoldiqlar, o‘rik va gilos danaklari, hayvon suyaklari, sirlanmagan idish parchalari va bitta butun baland dastali idish hamda ikkita pishirilmagan bulla-muhr qayd etildi. Bitta muhr butun bo‘lib, sariq loydan qilinib oval ko‘rinishda (Лебедова, 1989 С. 2).

Shu bilan birga Suxarevning qayd etishicha, arkdan tashqari Qizlartepa mudofaa devorga ega bo‘lganligi va u arkdan 40-50 m sharq  va janubda joylashganligini qayd etgan. Ya’ni tashqi mudofaa devori 200x200 m maydonni o‘rab olgan.

Keyinchalik yodgorlik 1987-yilda Yu. Buryakov va T.I. Lebedevalar tomonidan qayta ro‘yxatga olingan. T. Lebedeva 1972 yilda O.M. Rostovsev tomonidan yodgorlik topoplani olinganligini qayd etib, uning tarhi qaytadan olinganligini yozadi. U 1987 yilga kelib yodgorlikni shimoliy tomoni asfalt yo‘li o‘tkazish chog‘ida, sharqiy tomoni kolxoz bog‘ini kengaytirish cho‘gida buzilganligini ta’kidlab o‘tadi. Shu bilan birga yodgorlikni janubiy sharqiy chekkasi qulab tushgan (Лебедева, 1994. С. 7).

Yodgorlikda ilk rejali qazuv ishlari T. Lebedeva tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, qazuv ishlari yodgorlikni bir necha qismlarida amalga oshiriladi. Qazishmalar yodgorlik tepa qismida, yodgorlikni shimoliy va sharqiy chekkalarida olib boriladi (2-rasm). Shu bilan birga, ayrim joylarda tozalash ishlari olib boriladi. Yodgorlikning 3 ta qismida qazuv ishlari olib borildi. Transheyani ustki qatlamini tozalash davomida tik holatda yotqizilgan xom g‘isht qalamasi kuzatiladi. Tozalangan qatlamdan XIII-XIV asrga oid sopol parchasi topildi.

Kvadrat shakldagi xonaning shimoli-sharqiy chekkasida XIII-asrga oid ikkita bronza tanga topilgan.

Bir tomonida tangalar chiqarilgan joy Samarqand yozilgan bo‘lsa, ikkinchi tomonda shu tangani olishni istamagan har bir kishi uchun yomon bo‘ladi mazmunidagi tahdidli yozuv tushirilgan.




*2-rasm. 1989-yilda olib borilgan qazuv*

Tangalar B.D. Kochnev tomonidan o‘qilgan. Qazishma o‘rtasida paxsadan qilingan ustiga xom g‘ishtlar tik holatda joylashtirilgan paxsa devor qoldig‘i kuzatildi. Ochilgan joyda ilk o‘rta asrlarga oid g‘ishtlarning uchrashi qal’a V-VIII asrlarda bunyod etilganligidan dalolat beradi. XIII asr ikkinchi yarmiga oid tangalar hamda sopol parchalarini uchrashi esa tepalik XIII asrda qayta o‘zlashtirilganligini ko‘rsatmoqda.

VIII asrda xarobaga aylangan yodgorlik, ustki qismi tekislanib, nazorat punkti sifatida to Temuriylar davriga qadar foydalanilib kelingan (Лебедова 1989 24-б).

2023-yil may-iyun oylarida Samarqand arxeolgiya instituti va Koreya madaniy meros fondi bilan hamkorlikda 17x14 m maydonda arxeologik qazuv ishlari olib borildi. Dastlabki qazuv ishlari davomida yodgorlikning atrofi tozalandi va himoya vositalari o‘rnatildi. Yodgrolikni yangi topoplani olinib, GPR qurilmasida yodgorlik tahlil qilindi. Qo‘lga kiritilgan tahlilar asosida 17x14 m o‘lchamdagi maydon 12 qismga bo‘lib olindi (3 -rasm). Dastlab chim qatlami olindi va undan so‘ng har bitta qismda 40 sm pastga tushildi. Bunda qazishma yuzasida devorlar-ning qoldiqlari kuzatildi.

Qayd etish joizki qazishma maydoni T. Lebedeva tomonidan o‘tkazilgan 1- va 2-qazishmalarni qamrab oldi.



*3-rasm. Yodgorlikning 2023-yilda dastlabki qazuv natijalari*

T. Lebedeva tomonidan belgilan -gan qazishma raqamlanishi davom ettirilib, mavjud qazishma 4 soni bilan raqamlandi. 2023-yil oktabr–noyabr oylarida 5-qazishmaning g‘arbida 14 x8 m maydonda davom ettirilib, 4a soni bilan raqamlandi.

Natijada 4a qazishmada 7 ta xona qoldiqari qayd etildi.

Devorlarning pastki qatlami paxsa, tepa qismi esa g‘ishtlar yotqizib terilgan. chuqurlikdan simobdon topildi.

Tadqiqot davomida yodgorlikdan 7 ta xona ochildi. Shimoliy qismda 3ta xona ochildi, ular zal shaklda qurilgan. Xonalarning uzunligi 5 m eni esa 2,3 m tashkil etadi. Devorlarning yuqori qismida g‘ishtlar tik yotqizilgan va tepadan pastga qarab kichrayib borgan bu yodgorlikning tom qismi arkasimon ko‘rinishda yopilganini bildiradi. G‘ishtlarning o‘lchami 45x30x12 sm ni tashkil qiladi. Yodgorlikning janubiy qismida 4 ta xona aniqlangan bo‘lib 7-xonadan kul va yongan qatlam izlari kuzatildi. Bundan tashqari yodgorlikning sharqiy tomonida aylana shaklda ko‘tarilgan qurilma qayd etildi.Tadqiqot davomida 2- va 3-xonalardan ilk o‘rta asrlarga tegishli so‘g‘d tangasi topildi. Qayd qilingan kulollik idish bo`liklari asosan kulolchilik charxida yasalgan bo`lib, ko`za kabi idishlarning bo`laklaridan iborat.Yodgorlikda qazuv yakunlangandan so‘ng dron yordamida suratga olindi va yodgorlikning 3D modeli yaratildi. Qazuv ishlari yakunlangandan so‘ng konservatsiya qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra Qizlartepa yodgorligi qurilishi ilk o‘rta asrlar so‘g‘d podsholarining qarorgohi emas balki harbiy qal’aga ko‘proq o‘xshash chunki yodgorlik mudofaa devorining bir necha marta tamirlanganligi va qurilish jihati ko‘proq harbiy sohaga moslab qurilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qizlartepa yodgorligi Samarqand shahrining shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib ilk o‘rta asrlarga tegishli yodgorlik hisoblanadi. Yodgorlik hududi 0,8 ga hajmni tashkil etadi. Ushbu yodgorlikda bir necha bor arxeologik qazuv ishlari olib borilgan. Suxarev yodgorlik ilk o‘rta asrlarga tegishli Sug‘d ixshidlarining yozgi qarorgohi, deb ma’lumot beradi. T. Lebedova arxeologik ishlar olib borib yodgorlikning mudofaa devorida bir nechta ta’mirlash ishlari olib borilganligini, bunda bir nechta qurilish davri borligini va yodgorlikning paydo bo‘lishi, ilk o‘rta asrlarga borib taqalishini va VIII asrga qadar foydalanilib temuriylar davrigacha nazorat punkti vazifasini bajarganligini aytib o‘tadi. Bugungi kunda Arxeologiya instituti va Koreya madaniy meros fondi bilan hamkorlikda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan yodgorlikda zamonaviy texnologiyalar va metodlar asosida qazuv ishlari o‘tkazilyapti.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Бурякова Э.Ю., Лебедева Т.И.* Научный отчет по своду археологических памятников Самарканд-сельского района //Архив Института археологии АН РУз,1987.
2. *Лебедева Т.И.* Сельская округа и ее роль в формировании раннесредневеко-вого

Самарканда (по материалам сельской округи Самарканда) // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Самарканд, 1994.

3. *Лебедева Т.И.* Кызларт епа – раннесредневековый замок правителей Самарканда // Археология ва тарих фанинингдолзарб муаммолари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 1-қисм.Самарқанд, 2005.
4. *Лебедева Т.И.* От чёт о работ ах в округе города Самарканда // Архив Института археологии АН РУз,1989.
5. *Сухарев И.А.* Паспорт а археологических памят ников Самаркандских районов/ материалы к археологической карте УзССР. Архив Самаркандского Государственного историко-архитектурного и искусствоведческого музея-заповедник №557, АН Уз ССР, 1948.
6. *Шишкин В.А.* К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей. "Афрасиаб", вып. I, Т. 1969. Изд. ФАН УзССР.

**N.Alimov**
*Samarqand arxeologiya instituti tayanch doktoranti*

# RABINJON YODGORLIGINING TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI

Rabinjon Markaziy Sug'dning yirik shaharlaridan biri bo'lib, yozma manbalarda Rabinjon, Arbinjon, Oromijon nomlari bilan qayd etilgan. Xususan al-Istaxriy, ibn Havqal, as-Sam'oniy asarlarida shahar haqida ma'lumotlar berilgan. Yozma manbalarda qayd etilgan Rabinjonning o'rni Narpay tumani, Toshko'prik mahallasida joylashgan yirik shaharlar xarobalaridan biri bo'lgan.

Rabinjontepa arxeologik yodgorligi bilan lokalizatsiya qilingan (Якубовский, 1940. C. 157). Yodgorlikning umumiy maydoni 100 gektar, sharq shaharlariga xos bo'lgan ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat. Hunarmandchilik mahallalari esa shahardan tashqarida uning janubi-sharq tomonida joylashgan. Shahar atrofida Sakon yoki Askon, Sankabot, Furfora va Karzon (hozirgi Xo'ja Karson) kabi qishloqlari joylashgan va bu qishloqlardan Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Arbinjaniy (Abdulloh ibn Abdurahmon as-Samarqandiy, Sa'id ibn Hosh al-Kog'aziy, Ahmad ibn Ayyub al-Bazashiy va boshqa muhaddislardan hadis rivoyat qilganlar), Abu Muslim Omir ibn Muqotil al-Hamadoniy al-Arbinjaniy (Abu Salama Yahyo ibn al-Mug'ira, Hoshim ibn Qosim al-Harroniy, Horun ibn Muso al Faraviy va Salama ibn Shubaybdan hadis rivoyat qilganlar), Ismoil ibn Hotam al-Arbinjaniy al-Karobisiy, Abu Ali as-Sakkoniy (nomlari va nasablari haqida ma'lumot berilmagan Sa'id ibn Mansurdan hadis rivoyat qilganlar), Abul Hasan Ahmad ibn Rabi as-Sankabosiy (faqih Abdusamad ibn Abdulaziz an-Nasafiydan ta'lim olganlar), Sulaymon ibn Muoz as-Sug'diy al-Furforiy (Abd ibn Humayd al-Keshiydan hadis rivoyat qilgan), Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad al-Korzaniy al-Arbinjaniy (Korzan qishlog'ining raisi edilar.

Ota-bobolari muhaddis bo'lib, ulardan hadis rivoyat qilganlar) kabi muhaddis olimlar yetishib chiqqan (as-Sam'oniy, 2018. 187-b; Бартольд, 1963. C. 148). Narpay kanali shahar va uning qishloqlarini suv bilan ta'minlab turgan. Narpay kanalining suv o'tkazish imkoniyati 70 m3/s. Sug'orish maydoni 42,2 ming ga. ni tashkil etadi ( O'zME. 2000. 77-b). Bu kanaldan 370 dan ziyod ariqlar suv ichadi. Bundan tashqari Zarafshon daryosi va Zirabuloq tog'laridagi buloqlardan ham suvlar oqib turgan (G'. Mahamadiyev, 2023. 107-b). Al-Istaxriy asarida Rabinjon va Dabusiya Xurosonga boradigan katta yo'l ustida joylashganligini qayd etadi. Shuningdek, Sug'd Buxoroga sharqdan tutashadi va Karmanadan boshlanadi. Undan O'tgandan so'ng Dobusiya, Rabinjon, Kushoniya, Ishtixon va Samarqand keladi, ular Sug'd qalbidir.

Dabusiyadan Rabinjongacha yengil marhala, Rabinjondan Kushoniyagacha bo‘lgan masofa 2 farsax bo‘lgan. Ya’ni, qadimgi Rabinjon Dobusiya va Kushoniya orasida joylashgan yirik shahar bo‘lgan. (Istaxriy, 2019. 165-, 183-, 190-b).

Ibn Xordadbehning ta’rifiga ko‘ra esa, Rabinjon Samarqanddan 12 farsah, Dobusiyadan 5 farsah masofada joylashgan (Ibn Xordadbex, 1988. 64-b).

Noma’lum muallif tomonidan yozilgan «Hudud ul-olam (Movarounnahr tasnifi)» asarida Karmana, Dobusiya va Rabinjon Sug‘d shaharlari bo‘lib, ular Samarqanddan Buxoroga boradigan yo‘l ustida joylashgan, obod, noz-ne’matlar, oqar suvlar va daraxtlari ko‘pligi borasida ma’lumotlar uchraydi (Hudud ul-olam, 2008. 12-b).

Ibn Havqal Dobusiya va Arbinjon Sug‘d daryosidan janubda, Arbinjon shaharning rustoqlari va qishloqlari Dobusiyadan kattaroq, aholisi ko‘proq va boyroq bo‘lganligini zikr etgan. Shuningdek, Xuroson va Movarounnahr viloyatlaridagi pochta sohiblariga qo‘shimcha yigirmanchi pul to‘lovlari ham mavjud bo‘lib, bunda Samarqand 750 dirham Rabinjon esa 300 dirham to‘lagan (Ibn Havqal, 2011. 25-, 52-, 65-b). At-Tabariyda quyidagicha ma’lumotlar keltiriladi: “80/699-yilda arab lashkarboshisi al-Muxallab o‘z o‘g‘li Xabibni Buxoro hukmdori huzuriga Rabinjonga yuboradi, Buxoro hukmdori esa 40 ming qo‘shin bilan kutib oladi. Xabib esa orqaga qaytib ketadi”.

“Bahiliylar aytadilar: Qutayba daryoni o‘ng tomonda qoldirib, yurdi va yetib keldi (Buxoroga). U buxoriylarni o‘zi bilan birga borishga da’vat etib, yurdi va Arbinjon shahri (Arbinjon kigizlari chiqarilgan joy) ga yetib borgach uni turklar, shoshiylar va farg‘onaliklarning katta qo‘shini boshida So‘g‘d hukmdori (Gurek) kutib oldi. Katta jangsiz ular o‘rtasida bir nechta otishmalar bo‘lgan. Har safar musulmonlar g‘alaba qozondi. 104/722-yilda Devashtich Rabinjan shahrida qatl etilgan va tanasini novus ustiga mixlab qo‘yishgan. Shahar va uning atroflarida katta miqdorda kigiz ishlab chiqarilgan va bu kigizlar qo‘shni mamlakatlarga olib ketilgan” (Tabari, 1987. 81, 141, 200 б). Shuningdek, Rabinjon shahridan Bag‘dod bozoriga misdan yasalgan idishlar chiqargan.

An-Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” asarida Muqanna boshchiligidagi Oq kiyimlilar qo‘zg‘alonida Sug‘dning boshqa shaharlari qatori Arbinjon nomini ham tilga olgan. Bundan tashqari somoniy hukumdorlar aka-uka Amir Nasr va Amir Ismoil o‘rtasida 275/888-yilda bo‘lib o‘tgan hal qiluvchi jangni tasvirlar ekan, Amir Nasr o‘z lashkarlari asbob-anjomlarini Rabinjonda tayyorlaganligini yozadi (Narshaxiy, 1991. fors tilidan A. Rasulev tarjimasi. 46 б).

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) «Qonuni Mas’udiy» asarida har bir iqlimda turli shaharlarning uzunlik va kengliklarini jadvallar asosida bergan bo‘lib, bunda 5 iqlimga

Sug‘d shaharlarini ham kiritgan va ular orasida Arbinjan ham bor (Beruniy, 1973. 426 б). Arbinjon Xorazmshoh El Arslon tomonidan 553/1158-yilda vayron qilingan (as-Sam’oniy, 2018. 187-b).

Yuqorida keltirilgan tarixiy manbalardagi ma’lumotlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, Rabinjon o‘rta asrlarda Markaziy Sug‘dning yirik, aholisi ko‘p va hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan shaharlaridan bo‘lgan. Shu bilan birga siyosiy hayotda ham muhim o‘rin tutgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Abdulkarim as–Sam’oniy Nasafnoma* (An – Ansab). (VIII – XII asrlarda yashagan O‘zbekistonlik olimlar haqida ma’lumot). Arab tilidan o‘zbek tiliga Sh.S. Kamoliddin tarjimasi. – Toshkent, 2017.
2. *Abu Rayxon Beruniy* "Qonuni Mas’udiy", II-jild. Toshkent, Fan, 1965. 284 б.
3. *Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy* Buxoro tarixi // Fors tilidan A. Rasulov tarjimasi. Meros turkumi. – Toshkent, 1991.
4. *Ат-Табари Мухаммад* Ист ория ат -Табари. Ташкент: Фан, 1987.- 440 с.
5. Istaxriy. Kitab al-masalik val-mamalik (yo‘llar va o‘lkalar kitobi) / Arab tilidan o‘zbek tiliga R.T. Xudayberganov tarjimasi. Toshkent, 2019.
6. *Ibn Havqal* Kitob surat al-ard // Arab tilidan o‘zbek tiliga Sh.S. Kamoliddin tarjimasi. – Toshkent, 2011.
7. Hudud ul–olam (Movarounnahr tavsifi) / Fors tilidan tarjima, so‘z boshi, izohlar va joy nomlari ko‘rsatgichi muallifi O. Bo‘riyev. – Toshkent, 2008.
8. *Бартольд В.В.* Ист ория культ урной ж изни Туркист ана / Соч. Т. II (1). – М., 1963.
9. *Якубовский А.Ю.* Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину 1934 г. (Из дневника началника экспедиции) / Труды Отдела Востока ГЕ. ТИИ. Л., 1940
10. *G‘. Mahamadiyev* Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixi, moddiy va ma’naviy madaniyati (qadimgi davrdan hozirgi kungacha) (Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari), Samarqand 2023 224 b.
11. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. 2 – Toshkent, 2000

**Y.E. Altiboyev**
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*
*tarix yo‘nalishi 2-bosqch talabasi*
*ORCID-0009-0003-0673-3344*
*yaltiboyev@gmail.com*

## QADIMIY KESH VOHASI MADANIY OBIDALARINING O‘RGANILISH TARIXI

Ushbu maqolada Kesh vahasi va bu hududda bunyod etilgan madaniy obidalarning o‘rganilish tarixi haqida tarixiy manbalar asosida ma’lumotlar keltirilgan. Milodning boshlarida Keshning So‘g‘d davlatida tutgan mavqei katta edi. Qashqadaryo vohasi milodning V-VII asrlarida bosqinlar chorrahasiga aylanib, bu joyda bir qancha vaqt kidariylar, xioniylar, eftaliylar hukm suradi. Shu davrda Qang‘ davlati ham janub yerlariga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshlaydi. Ayni paytda esa, Kesh vohasining mavqei oshib, Naxshab ham Kesh viloyati tarkibiga kirganligi manbalarda zikr etiladi.

Kesh viloyatining antik davrlarga taalluqli 12 ta madaniy xo‘jalik tumanlari vohaning sharqiy qismida vujudga kelgan. Bular – Sho‘robsoy, Kitob, Oyoqchisoy, Chimqo‘rg‘on, Qizildaryo, Tanxozdaryo, Qatag‘on, Qayrag‘och, Guldara, Langarsoy, Gavmurdin, G‘ishatepa manzillaridir. Vohada ilk temir davriga nisbatan o‘troq aholi qo‘nim topgan joylar miqdori ikki hissa ortgan. O‘sha davrlarda qishloqlar oralig‘i uncha olis bo‘lmasdan, 1,5 –2 km bo‘lgan. Tog‘li tumanlardagi qishloqlarning bir-biridan uzoqligi 1–2 chaqirimga teng edi. Alohida tumanlar orasidagi uzilish 7–9 chaqirimdan oshmagan. Holbuki, ilk temir davrida aholi manzillari orasidagi yo‘l o‘rtacha 7–22 chaqirimga yetardi. Afsuski, antik davrlarga xos bo‘lgan manzillarning ko‘pi sovet davrida izsiz yo‘qoldi. Yakkabog‘ tumanidagi II –VII asrlarga oid 37 ta manzildan 27 tasi saqlanib qolgan (Хушвақов, 2023).

Dastlab Keshda sug‘oriladigan dehqonchilik ilk temir davrlarida tog‘oldi hududlarida paydo bo‘ldi. Yakkabog‘ tog‘i etaklaridagi Guldarani shu yodgorliklar sirasiga kiritish mumkin. Bu yerda milodga qadar bo‘lgan I ming yillik o‘rtalaridagi paykallar daryo suvi bilan sug‘orilgan. Qadimiy Kesh shahri joylashgan Sangirtepa, Uzunqir va Podayotoqtepa obidalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, yodgorliklar miloddan oldingi davrlarda yuksak mavqei tutganligini ko‘rsatadi. Qadimshunoslar fikriga ko‘ra, Qashqadaryoning irmoqlaridan bo‘lgan Sho‘robsoy bo‘yida qad ko‘targan Sangirtepa manzilining ilk shakllanish davri miloddan burungi IX - VIII-asrlarga to‘g‘ri keladi. Hozirda saqlanib qolgan tepalikning balandligi 8 metr, to‘rt burchakli ko‘rinishda bo‘lib, xajmi esa,

85 x 65 metrdan iborat. Yodgorlikning janubiy va g‘arbiy tomonlari istehkom devorlari bilan o‘rab olingan. Qal’ada Sug‘diyona davlati hududida ilk Zardushtiylik ibodatxonasi bunyod etilgan va maydoni 3 gektarni tashkil etadi.

Sho‘robsoy qirg‘og‘ida Sangirtepadan 650 metr shimolroqda Uzunqir arxeologik yodgorligi mavjud. Tepalikning janubi-g‘arbiy qismidagi devoridan 450 metr chamasi saqlanib qolgan. Devorning balandligi 6 metrga yetadi, devorning asosi hayratomuz tarzda qalin, ya’ni, 26 metr va 3 qator. Bu joydan sopol idishlar, hayvon suyaklari, o‘simlik urug‘lari topilgan. 1984-yilda kulolchilik buyumlari, kul qatlamlari ochilgan. Bu osori atiqalar yoshi miloddan oldingi I ming yillik mahsullari bilan tenglashtirilgan. Uzunqir obidasi o‘rni 70 gektar maydonni qamrovchi, o‘z davrining eng yirik shaharlaridan biridir. Uzunqir, Podayotoq va Sangirtepa hududlarida dehqonchilik sug‘orish madaniyatiga asoslangan.

Miloddan oldingi asrlarda Qashqadaryo vohasining tog‘oldi, daryo bo‘ylari va pasttekisliklarida kishilik manzillari ko‘p bo‘lib, iqtisodiy hayot chorvachilik va dehqonchilikka asoslangan. Masalan, Qashqadaryoning o‘rta oqimida –Chimqo‘rg‘on suv havzasi va uning tegrasida vujudga kelgan obidalar ham tasdiqlashi mumkin. XX asrning 50 -yillari boshlarida Chimqo‘rg‘on qishlog‘i yonidan o‘tadigan Qashqadaryo oqimida to‘g‘on qurish, suv omboriga asos qo‘yish ishlari boshlanadi. Suv havzasi tagida qoladigan qadimiy obidalar tezkor usulda qadimshunoslik nuqta’i nazaridan o‘rganib chiqildi. Suv ombori o‘rnida 45 km. kv. li doirada o‘tmishga mansub 20 dan oshiq yodgorlik mavjudligi aniqlangan. Suv ostida qoladigan Ovultepa, Kindiklitepa, Jangaltepa arxeologik jixatdan ko‘zdan kechirilganda, yodgorliklarda miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalarida yasalgan sopol ashyolari mavjudligi aniqlandi. Jangaltepada kulollik xumdoni, yupqa piyola, tovoq, kosa va xurmachalar topilgan. Jangaltepa idishlari asosan chorvador aholiga tegishli bo‘lib, sut uchun foydalanilgan idishlar hisoblanadi. Topilmalar orasida chaqaloqlarga sut emizishga mo‘ljallangan, chumakli jajji idishlar xam uchraydi. Idishning baldog‘i mavjud va bo‘yi 9,6 sm, eni 5,5 smni tashkil etadi. Urchuqbosh, tosh tugmachalar, qayroqdon, yanchgich kabi buyumlar ham uchraydi (Кабанов. 1965, С. 84-90.).

Ovultepa obidasi o‘rnidan esa o‘roqlar, kichik teshalar - temir buyumlar topilgan. Kesh viloyatidagi arxeologik yodgorliklar hisoblab chiqilganida, Chiroqchi tumani hududida 38 ta, Qamashi tumanida 29 ta, Yakkabog‘ tumanida 200 ta obida o‘rni aniqlangan. Milod boshlari va V–VII asrlarga taalluqli yodgorliklar orasidan Xuzor, Subax,

Iskifagn, Navqad-Quraysh, Qamaytepa, Oltintepa, G‘ishatepa, Kishmishtepa, Chechaktepa, Sariqtepa manzillarini ko‘rsatish mumkin.

Milodning boshlarida bu manzillar dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik rivojlangan tumanlar edi. Yakkabog‘ tumanda joylashgan Chechaktepadagi arxeologik qazishmalar paytida 45 dona har-xil idishlar topilgan. Idishlarning 90 foizi dastgohlarda, 10 foizi esa qo‘lda tayyorlangan.

Qadim kulolchilikning o‘ziga xos buyumlaridan biri “Dasturxon” deb ataluvchi xontaxtalardir. Sopol xontaxtalar hajmi 35 sm.dan 80 sm.gacha boradi. Chechaktepadan chiqqan dasturxon ham o‘z turdoshlariga o‘xshaydi (Дресвянская, 1994, C. 7.). Yakkabog‘ tumaniga qarashli G‘ishatepa, Chiroqchi tumani markazi yaqinidagi Kishmishtepa ham, qadimshunoslar fikricha qadim shaharlar sirasiga kiradi.

Qamashi tumani hududida Qamaytepa, Oltintepa yodgorliklari mavjud. Biri Chim qishlog‘i, ikkinchisi Qovchin qishlog‘ida joylashgan. Sariqtepa obidasi Turk xoqonligi davrida vujudga kelgan. Uning maydoni 240 metr kv. dan iborat bo‘lgan (Лунина, 1984, C. 26)

Kesh tevarak-atrofida aholi gavjum yashaganidan Qalakontepa, Xontepa, Xo‘jaqulitepalar obidalari ham dalolat beradi. Bu obidalardan don yanchadigan keli, kichik temir pichoq, sopol idishlar topilgan. Xontepadan olingan chiroqlarni XII asrga nisbat beradilar. Xumlar, xumchalar, tog‘ora, ko‘za, qozon, qopqoqlar va simob ko‘za qoldiqlari davr manzarasini yoritishda muhim ashyoviy manbalar bo‘ladi. Xontepa manzilida hayot VI asrdan to XII asrgacha uzluksiz davom etadi.

Milodning VIII–IX asrlariga kelib, bu aholi manzillarining aksariyatida hayot to‘xtab qolgan. Manzillar tashlab ketilgan. Bu, shubhasiz, shu davrda yuz bergan arablar istilosi bilan bevosita bog‘liq, deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Milod boshlariga kelib, O‘rta Osiyo hududida tarixan muhim siyosiy o‘zgarishlar yuz beradi. Voqea-hodisalar markazida kidariylar, xioniylar va eftaliylar turadi. Xitoy manbalarida Bey-shi yilnomasida, masalan, jujanlar hujumidan bezor bo‘lgan yuechji yo‘lboshchisi o‘z qarorgohini Bolo shahriga ko‘chirdi, degan ma’lumot uchraydi. Yilnomalarda yuechjilarning shundan so‘ng jasur hukmdori Sidolo ya’ni, Kidar qo‘shinlari bilan tog‘lar oshib, shimoliy Hindistonga hujum qilganligi, beshta davlatni o‘ziga tobe’ etganligi haqida xabar beriladi.Kidariylar, kelib chiqishi jihatidan kushaniylarga yuechjilar qondosh elat yoki ularning tarkibiga kiruvchi qavmlardan bo‘lgan. Xioniylarni tarixchilar kidariylarga mansub, deb qaraydilar. Kidariy va xioniylar Sosoniy Eron hukmdorlariga qarshi hujumlar uyushtirib, ularni halokat yoqasiga keltirib qo‘ygan edi. Eftaliylar bilan bo‘lgan kurashlar Feruz (459–484) davrida kuchayadi.

Feruz jangda halok bo‘ladi. Janglar Vaalam hududida ham kechadi. O‘zaro qondosh bo‘lgan Kidariylar, Xioniylar va Eftaliylar Eron hukmronligiga barham beradi. Sosoniylar V asr oxirlarida eftaliylarga bosh egib, tovon to‘lab turishga majbur bo‘ladi.

Shunday qilib, Kesh III asr oxirlari va IV asr boshlaridagi So‘g‘dning asosiy shahri nisbasini, shu tariqa, keyingi asrlarda ham saqlab qoladi. Muarrix Yoqubning ma’lumotlariga qaraganda, Kesh VII asr boshlaridan kuchayish yo‘liga kiradi. Bu davrda Keshning hokimi Ticho Fichje Sishi Ki-sheshe shahrini quradi. Qo‘shni mamlakatlarga elchilar yuborib, ular bilan aloqani mustahkamlashga, Kesh viloyatining qudratini ko‘tarishga intiladi. Tangalar zarb ettiradi. VII asr o‘rtalarida Keshga Shisheppa Shishpar podshoh bo‘ladi. Uning davrida ham Keshda tangalar zarb qilish davom etadi. Tangalarga “Ixshid Shishpar”, degan yozuv bitiladi.

Kesh xududidan topilgan tanga-pullar Keshning Sug‘ddagi siyosiy mavqeini yoritishda katta yordam beradi. Kesh hokimi mustaqil ravishda o‘z tanga pulini zarb qilgan. Kesh tangalarini birinchi bo‘lib ilmiy jarayonga olib kirgan O.I. Smirnovaning fikricha, Kesh tangalarining ters tomonida sug‘d yozuvida nom, hukmdor unvoni va u hukmronlik qilgan joy bitilgan. Tadqiqotchi xukmdorning nomini dastlab Axurdatn “Axura takdim etgan”, deb, keyinroq “Axurpat” deb o‘qigan (Смирнова, 1971, C. 98). Barcha numizmat-tadqiqotchilar ikkinchi so‘zni “xukmdor” deb o‘qiganlar. Masalan D. Davidov ham O. Smirnovaning fikriga qo‘shilib, Axurpat tangalarini Kesh bilan bog‘laydi hamda 727-yilda Xitoyga elchilar yuborgan Kesh xokimi Axubido nomini asos qilgan.

V.A. Livshis esa ushbu tangadagi yozuvni “Axurpat Kesh xokimi” deb o‘qishni taklif qiladi. Yozma manbalarda ma’lum bo‘lgan Kesh hukmdorlari nomi bilan tangalardagi yozuvni taqqoslasak, bu nom nafaqat “Axubido”dan tashqari, 656-660-yillarda hukmronlik qilgan Shi-Axe (Shir) – Axura nomiga xam mos tushishi mumkin. Kesh viloyati hududidan Sug‘d ixshidlari Shishpirdan tortib (642–656 y.y.) Turgargacha (738–750 y.y.) hukmronlik qilgan davrlarga oid ham bronza tangalar topilgan, ammo ularning hammasi ham to‘liq o‘qib chiqilmagan. 751-yilda Abu Muslim davrida qatl etilgan, Kesh xukmdori Ixrid tomonidan chiqarilgan felslar esa VIII asrning o‘rtalari yoki ikkinchi yarmiga oid bo‘lishi mumkin. Ularning o‘ng tomonida arab alifbosida “Ixrid Kesh dehqoni”, ters tomonida esa “Bu fels Keshda zarb etilgan” degan yozuvlar bitilgan (Хушвақов, 2023, 12 б).

Arab muallifi Yoqub asarlarida “Kesh mulkining kuchayishi VII asr boshlaridan boshlanadi” degan fikr mavjud. Kesh shahri VII asrda So‘g‘d davlatining poytaxti darajasiga ko‘tarilib, Xitoy bilan ijtimoiy-madaniy aloqalar yo‘lga qo‘yiladi.

Keshning milod boshlaridagi ravnaqi Turk xoqonligi tutgan mavqei bilan chambarchas bog‘liq edi. Manbalar shahodaticha, Kitob o‘rnida vujudga kelgan qadimiy Kesh X asrda ham vayron bo‘lgan holicha qolgan. Aholi janub sariga siljigan va barpo etgan yangi manzilga ham Kesh nomi bilan atalgan. M.Y. Masson Amir Temur davridagi shahar

mudofaa devorining qurilish davrini 1378–1379-yillar, degan xulosaga kelgan.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Milodning boshlarida Keshning So‘g‘d davlatida tutgan mavqei katta edi. Qashqadaryo vohasi milodning V–VII asrlarida bosqinlar chorrahasiga aylanib, bu joyda bir qancha vaqt Kidariylar, Xioniylar, Eftaliylar hukm suradi. Shu davrda Qang‘ davlati ham janub yerlariga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshlaydi. Kesh vohasining mavqei oshib, Naxshab ham Kesh viloyati tarkibiga kirganligi manbalarda zikr etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:


1. *Кабанов С.К.* Руины поселения III-V вв. в долины Кашкадарьи // ИМКУ Вып. 6. 1965, С-84-851.
2. *Дресвянская Г.Я.* Основные результ ат ы изучения раннесредневекового Чечак-тепе. Культура и юга Узбекистана в древности и раннесредневековье. Т. 1987. С-25.
3. *Дресвянская Г.Я.* Раннесредневековые мет аллические изделия Чечакт епе. ОНУ. №6. 1994. С-7
4. *Лунина С.Б.* Города Юж ного Согда VIII-XI вв. Т.Фан. 1984. С-26.
5. *Смирнова О.И.* Мест а домусульманских культ ов в Средней Азии// Ст раны и народы Востока, вып. 10. М., 1971. -С. 98.
6. *Хушвақов Н.* Кеш т арихи ва маданият и (Шаҳрисабз давлат музей- қўриқхонаси материаллари асосида) Тарих фанлари доктори диссертацияси автореферати. 2023 й. 12 б.

**B.P. Avzgeldiyev**
*Samarqand arxeologiya instituti, kichik ilmiy xodimi.*
*bavazgeldiyev@gmail.com*

# MAYOLIKA BO‘LAKLARIDAGI POLIXROMATIK BEZAKLARINING ELEMENT TARKIBINI XRF-SPEKTROMETRI YORDAMIDA TAHLIL QILISH

Buxoro viloyati Masjidi kalon me’moriy yodigorligidan olib kelingan devorlarning tashqi qismini bezatishda ishlatilgan mayolika bo‘laklari energiya dispets NEX DE rentgen floraesent yordamida tahlil qilinganda o‘sha davr usta hunarmandlari turli ranglarni xosil qilishda kimyoviy moddalardan juda mohirlik bilan foydalangani ko‘rishimiz mumkin. Ranglar tahliliga ko‘ra qora jigarrangni Mn ning turli oksid aralashmalari hosil qilganini, yashil rangni asosan Cu elementining birikmalari, bundan tashqari Co, Zn, As larning birikmalaridan turli ranglar hosil qilishda foydalanilgan. O‘z navbatida ko‘k, oq, sariq ranglarni hosil qilishda Co, Sn, Sb elementlarining oksid va murakkab birikmalaridan yuqori haroratda ranglar hosil qilingan.

Sopolsozlik materiallarini tahlil qilish orqali o‘tmishdagi odamlar  va ularning jamiyatiga madaniy qoldiqlari orqali bilvosita yaqinlashish, ularning texnologiyasi atrofdagi jismoniy va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri haqida xulosa chiqarish imkonini beradigan ajralmas vosita ekanligi isbotlangan. Kulollik buyumlari va devorlarni bezashda ishlatilgan sirlangan sopoldan foydalanish X–XII asrda boshqa shaharlar singari Buxoroda ham juda keng rivojlangan bo‘lib Buxorodagi Masjidi Kalon memoriy obidasi  bunga yaqol misol bo‘ladi. Buxoroning eski shahar qismida joylashgan Masjidi Kalon rivojlangan va so‘nggi o‘rta asrlarning o‘ziga xos me’moriy inshooti bo‘lib Mo‘g‘ullar bosqini davrida vayron etilgan buyuk Jomiy masjidi o‘rnida, Shayboniylar davrida Masjid Kalon sifatida qayta qurilgan (Sultonov, 2023).

Masjid o‘rta osiyoda saqlanib qolgan Juma masjidlari orasida Bibixonimdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Bu bir vaqtning o‘zida 12 000 kishilik sig‘imga ega (Kilichov, 2018). Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra hozirgi masjid ostida ko‘xna masjid qoldiqlari mavjud. Ko‘xna masjid qoraxoniylardan Arslonxon (1102–1130) hukumronligi yillarida 1121-yilda qurilgan. Arslonxon qurdirgan masjidining o‘lchamlari mavjud bino bilan bir xil bo‘lgan (Axmitov, 2010) Masjidning hozirgi ko‘rinishining ko‘pgina qismlari Shayboniylar sulolasiga mansub xonlar Ubaydullaxon, Abdulazizxon va Abdullaxon davrida qurilgan (To‘raev, 2020). 1514-yilda u qayta qurila boshlagan va XVI asrning o‘rtalarida uning bunyod etilishi yakunlangan.

Bu masjid Samarqanddagi Bibixonim masjidiga oʻxshash kompozitsion tuzilishi jihatidan qadimiy tipda qurilgan (Atabekova S., 2022). Me'moriy obidaning bunyod etilishida xom va pishgan gʻisht, loy, yogʻoch, tosh, ganch va chorsu pishiq gʻishtidan keng foydalanilib mozaika va mayolika usulda sirlangan koshinlar bilan bezatilgan (Abdullaev, 2021). Bu yerda ayniqsa nafis naqshlar bilan bezatilgan mehrob (XVI asr) diqqatni oʻziga jalb etadi. 1997-yili Buxoro shahrining 2500 yilligiga tayyorgarlik jarayonida Poyi Kalon me'moriy majmuasida Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi kabi jami yigirma sakkizta madaniy meros inshooti toʻliq ta'mirlandi, Buxoro shahri markazidagi tarixiy me'moriy yodgorliklar jumladan Masjidi Kalon ham UNESKO jahon madaniy merosi roʻyxatiga kiritildi (Болтаев, 2023).

Oʻrta Osiyoda arablar hukmronligi davrida qurilish texnikasi takomillashtirilgan binolar IX–X asrlarda asosan gʻishtdan qurilgan. Monumental binolarda gumbazli konstruktsiyalar keng qoʻllanilgan. Islom dini aqidalariga asosan tirik mavjudotlar tasvirini aks etirish man etilishi tasviriy san'atning oʻsishiga imkon bermagan, biroq rassomlik rivojlana boshladi. Masjidlar, maqbaralar, saroylar, madrasalar naqshlar bilan bezatila boshlangan. VII–IX asrlarda, ayniqsa Buxoro viloyatida badiiy uslub rivojlangan. XII asrning Afro-oq sopol idishlarda naqshlar, gullar va baliq va qushlar kabi hayvonlarning tasvirlari mavjud boʻlib ular turli ranglarda sirlangan (Toʻlqinovich, 2023). Har bir mintaqa va hukmron sulola oʻz uslubi yoki savdo belgisini ishlab chiqqanlar shu sababli turli davr va mintaqalarda turlicha dizayn, ranglar va uslublarni keltirib chiqargan. Eng qadimgi ishqorli sirlangan buyumlar Misr va Yaqin Sharqda miloddan avvalgi 4-ming yillikda (ilk sulola davri) uchraydi.

Sirlashda ikki xil – yuqori va past haroratli sirlash usullari mavjud boʻlib, yuqori haroratli sir ~ 1100-1350 ºC orasida (CaO va BaO) kabi ishqoriy yer metall oksidlaridan foydalanilgan ammo oz miqdorda $Na_2O$, CaO va yoki $K_2O$ qoʻshib ham yuqori haroratli sirlarni olish mumkin. Qoʻrgʻoshinli sirlar - bu qoʻrgʻoshin oksidi (PbO) dan oqartiruvchi vosita sifatida olingan va past haroratda ~ 900-1050 ºC da ($SiO_2$) qum bilan aralashtiriladi (Аскаров, 1987). Eron va Oʻzbekistondan topilgan eramizning IX-XII asrlariga oid sopol buyumlar ham yuqori haroratda qoʻrgʻoshinli sirlangan.

Rang hosil qilish uchun xromofor elementlaridan (Fe, Mn, Cu, Co va Cr) sirga umumiy rang berish uchun sirda eritiladi (Pradell, 2020). Arxitektura inshootlarini bezash uchun ishlatiladigan plitkalar bir necha ming yillar oldin qadimgi Misr va Bobil odamlari tomonidan ishlatilgan boʻlsada, oʻrta asrlarda Osiyodan bunday materialni ishlab chiqarish texnikasi yevropaga kirib bordi (Мурина, 2022). Misrning loydan plitka yasash boʻyicha

birinchi san’ati Mavriy Ispaniya ustalari tomonidan qabul qilingan, chunki bu ikki davlat o‘rtasida barqaror savdo aloqalari mavjud edi. Ispaniyalik hunarmandlar tomonidan tayyorlangan kulollik buyumlari Italiyaga ham yetkazib berilgan (Кубе, 1976).

**Materiallar va metodologiya**. Namunalar Buxoroning eski shahar qismida joylashgan Shayboniylar davriga tegishli Masjidi Kalon memoriy yodgorligining qurilishida ishlatilgan MK -A 28,5 sm ga 18,3 smli va MK-B 29 sm ga qavariq tomoni 18,5 smli ikkita yirik mayolika bo‘laklari element tarkibini o‘rganish uchun tanlab olindi. Sopol namunalari yuqori aniqlikdagi energiya dispersiv rentgen-fluoresans (EDXRF) spektrometri yordamida analiz qilindi.

**Natijalar tahlili**. Keramika jismlarining kimyoviy tahlili va ketma-ket statistik analitik ma’lumotlarni qayta ishlash amalga oshirildi. NEX DE energiya dispersiv rentgen fluoressens spektrometri yordamida MK-A va MK-B larning turli qismlaridan olingan element spektral tahlili namuna tarkibida Si, K, Ca, Ti, Mn, Fe, Zn, Rb, Sr, Y va Zr kabi elementlar borligini ko‘rsatdi. Sifat tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki ikkala namuna tarkibida ham umumiy elementlar borligi sopol namunalarning yasalishi va pishirilishi o‘xshash ekanligini ko‘rsatdi. Sopol namunaning MK-A1 qismidagi qora sirlangan joydan olingan natijalar taxlilini 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Mayolika sirtidagi qora rangli bezaklar asosan tasviriy bezakni belgilovchi nozik chiziqlarga va gul bezaklarida ishlatilgan bo‘lib XRF tahlillari barcha qora ranglarning turli konsentratsiyalarda marganets va temir mavjudligi bilan ajralib turishini tekshirishga imkon beradi, shuning uchun bezakning qora rangi hosil bo‘lishida sir aralashmasiga marganets va temir oksidlarining qo‘shilishi natijasida bo‘lishini ko‘rsatdi.

Tegishli element analiz natijalarni tahlil qilish namuna tarkibidagi qora rangni Mn va Fe element birikmalari hosil qilishini sifat va miqdor jihatdan ko‘rsatdi bu rang aslida qora emas balki to‘q jigarrang ekanligini mikraskop ostida ham ko‘rish mumkin (1-jadval).




*1-rasm. Kalon masjidi devorlarini bezashda ishlatilgan mayolika bo‘laklari.*




*2-rasm. MK-A va B namunalarning NEX DE spektori tasviri.*

| No. | Component | Result | Unit | Stat. Err. | LLD | Element line | Intensity(cps/μA) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Na | ND | mass% | | | | |
| 2 | Mg | ND | mass% | | | | |
| 3 | K | 6,12 | mass% | 0,0841 | 0,106 | M:K-Kα | 0,52073 |
| 4 | Ca | 8,11 | mass% | 0,0793 | 0,120 | M:Ca-Kα | 1,08081 |
| 5 | Ti | 0,359 | mass% | 0,0126 | 0,0226 | M:Ti-Kα | 0,10715 |
| 6 | V | 0,104 | mass% | 0,0063 | 0,0139 | M:V-Kα | 0,05072 |
| 7 | Cr | 0,0426 | mass% | 0,0039 | 0,0099 | M:Cr-Kα | 0,03285 |
| 8 | Mn | 9,56 | mass% | 0,0260 | 0,0062 | M:Mn-Kα | 10,95952 |
| 9 | Fe | 1,57 | mass% | 0,0100 | 0,0159 | M:Fe-Kα | 2,88984 |
| 10 | Co | 0,0288 | mass% | 0,0020 | 0,0051 | M:Co-Kα | 0,06917 |
| 11 | Ni | 0,0219 | mass% | 0,0010 | 0,0022 | M:Ni-Kα | 0,07941 |
| 12 | Cu | 1,50 | mass% | 0,0052 | 0,0017 | M:Cu-Kα | 7,22685 |
| 13 | Zn | 0,0290 | mass% | 0,0008 | 0,0016 | M:Zn-Kα | 0,19977 |
| 14 | Al | 2,56 | mass% | 0,0312 | 0,0594 | L:Al-Kα | 0,56334 |
| 15 | Si | 38,4 | mass% | 0,0406 | 0,0141 | L:Si-Kα | 31,60661 |
| 16 | P | 0,428 | mass% | 0,0053 | 0,0108 | L:P-Kα | 0,64716 |
| 17 | S | ND | mass% | 0,0089 | 0,0301 | L:S-Kα | 0,00000 |
| 18 | Cd | ND | mass% | | | | |
| 19 | Pb | 24,8 | mass% | 0,0264 | 0,0015 | M:Pb-Lα | 146,64366 |
| 20 | Sn | 5,87 | mass% | 0,116 | 0,185 | M:Sn-Lα | 0,31471 |
| 21 | Sb | (0,488) | mass% | 0,131 | 0,409 | M:Sb-Lα | 0,02921 |
| 22 | Zr | 0,0397 | mass% | 0,0007 | 0,0018 | M:Zr-Kα | 0,69729 |

*1-jadval. MK-A1 namunaning NEX DE da olingan elementlarning jadval ko‘rinishi.*

Buning isboti sifatida Mn ning (II) va (III) oksidlari tabiatda binafsha va jigarang ko‘rinishida bo‘ladi. Ammo Mn (II) oksidi nisbatan beqaror bo‘lib Mn (III) oksidi bilan muvozanatda bo‘ladi, ishqoriy muhitning yaratilishi oksidlar aralashmasidagi Mn (III) oksidining miqdorini oshiradi bu esa binafsha-jigarrang intensivligini yanada ko‘paytiradi.

MK-A2 nuqtadan olingan analiz natijalarni namuna tarkibida K, Ca, Fe, Cu, Al, Si, Zn, Pb, Sb lar borligini sifat analiz qilsa miqdori jadval ko‘rinishda quydagicha bo‘ladi.

XRF tomonidan tahlil qilingan namunalarning yashil bezaklarining kimyoviy tarkibini

kuzatish turli miqdorda mis, temir va qo'rg'oshin borligini, xrom va kobalt esa yo'qligini aniqlash imkonini beradi. MK-A2 namunaning NEX DE da olingan elementlarming ko'rinishi 2-jadvalda berilgan.

Darhaqiqat, XRF tomonidan tahlil qilingan namunalar yashil bezaklarining kimyoviy tarkibida surmaning mavjudligi zaffera deb ataladigan asosiy tarkibiy qismlar bo'lgan qadmiy, nikel va mishyakdan iborat ya'ni ko'k rangga javob beradigan birikma, surma va qo'rg'oshin antimoniti yuqori haroratida zaffera qatlami bilan qo'shilib yashil rang hosil qilishini ko'rishimiz mumkin.

Spektrofluorimetr natijalari har-bir element uchun alohidaligi biz namuna tarkibidagi ranglarni taxlil qilishda birmuncha qulayliklarga va sifat jihatdan baho berishga imkon beradi. Miqdor jixatdan esa ularning yasalishi pishirish harorati haqida dastlabki xulosalarni beradi. Ko'k rang nafaqat mayolika bezaklarida balki sopol buyumlarni keng miqiyosda bo'yashda juda ko'p ishlatilgan rang sifatida ta'kidlasak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir namuna bo'yicha XRF tahlillarini o'tkazish ko'k sirlarning kimyoviy tarkibi nikel va mishyak bog'lanishi mumkin bo'lgan kobalt mavjudligi (2-jadval) mis turli konsentratsiyada, ko'k rangning intensivligini oshirishga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan margenes mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

| No. | Component | Result | Unit | Stat. Err. | LLD | Element line | Intensity(cps/μA) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Na | ND | mass% | | | | |
| 2 | Mg | ND | mass% | | | | |
| 3 | K | 5,11 | mass% | 0,0943 | 0,164 | M:K-Kα | 0,48135 |
| 4 | Ca | 9,06 | mass% | 0,0894 | 0,0941 | M:Ca-Kα | 1,29974 |
| 5 | Ti | 0,387 | mass% | 0,0145 | 0,0250 | M:Ti-Kα | 0,12818 |
| 6 | V | ND | mass% | | | | |
| 7 | Cr | ND | mass% | | | | |
| 8 | Mn | 0,0885 | mass% | 0,0037 | 0,0069 | M:Mn-Kα | 0,11596 |
| 9 | Fe | 1,27 | mass% | 0,0088 | 0,0050 | M:Fe-Kα | 2,67321 |
| 10 | Co | (0,0145) | mass% | 0,0018 | 0,0049 | M:Co-Kα | 0,04640 |
| 11 | Ni | 0,0214 | mass% | 0,0011 | 0,0024 | M:Ni-Kα | 0,10213 |
| 12 | Cu | 3,17 | mass% | 0,0078 | 0,0017 | M:Cu-Kα | 20,03379 |
| 13 | Zn | 0,0267 | mass% | 0,0008 | 0,0018 | M:Zn-Kα | 0,23968 |
| 14 | Al | 3,20 | mass% | 0,0321 | 0,0560 | L:Al-Kα | 0,82058 |
| 15 | Si | 34,3 | mass% | 0,0380 | 0,0139 | L:Si-Kα | 32,43306 |
| 16 | P | 0,957 | mass% | 0,0065 | 0,0103 | L:P-Kα | 1,75308 |
| 17 | S | ND | mass% | 0,0096 | 0,0339 | L:S-Kα | 0,00001 |
| 18 | Cd | 5,14 | mass% | 0,151 | 0,255 | M:Cd-Lα | 0,19480 |
| 19 | Pb | 34,3 | mass% | 0,0396 | 0,0017 | M:Pb-Lα | 235,59820 |
| 20 | Sn | ND | mass% | | | | |
| 21 | Sb | 2,85 | mass% | 0,157 | 0,439 | M:Sb-Lα | 0,17845 |
| 22 | Zr | 0,0288 | mass% | 0,0009 | 0,0024 | M:Zr-Kα | 0,51654 |

*2-jadval. MK-A2 namunaning NEX DE da olingan elementlarming jadval ko'rinishi.*

Ko'k rangni Co (II) oksidi xosil qiladi, kobaltning bu oksidi ikki xil tetra va oktaeydral fazoviy shaklda bo'ladi. Tetraedral shaklda CoO oksidi ko'k okdaeral shaklda esa binafsha

rangda bo'ladi. Bu ikkala fazoviy shakl birgalikda uchrasa-da ishqoriy muhit yuqori tempraturada pishirish kobalt ikki oksidini ko'k rangda bo'lishni taminlaydi. Yana bir element ko'k sirni xarakterlovchi nikel bo'lib zaffera tarkibida kobalt, mishyak bilan birga uchraydi.

Biroq olingan analiz natijalarida mishyak yo'qligi zaffera ranggining o'zgarishiga katta ta'sir qilmaydi, chunki marganest mavjudligi rangning qorayishga olib keladi.Bundan tashqari mis va temir elementining birikmalari ham ko'k rangning intinsivligi oshishiga yordam bersa, margenets elementi ko'k rangni qoraytirish uchun ishlatiladi. Oq rang qadimdan sirlangan sopol buyumlarning asosini bo'yashda keng ko'lamda ishlatilgan, sirlangan sopol mahsulotlar dastlab oq rangga, keyin esa ustida turli qimatbaxo metallar - oltin, kumush orqali bezak berish yokiy har-xil ranglarni bir-biridan ajratishda chegara sifatida keng qo'lanilganligi, bu rangni olish qadimda unchalik qiyin bo'lmagani quydagi jadvalni taxlil qilish orqali bilish umkin.

Oq rangni hosil qilishda (Sn) qalay ustunlik qiladi va boshqa ranglarga qaraganda ko'proq nisbatda uchraydi (Абдуразаков, 1987). Turli xil oq ranglardagi yashil soyalarni o'rganish, albatta, ko'k dog'larda mis oksidining noto'g'ri qo'llanilishi bilan bog'liq. O'zining o'zgaruvchan tabiati tufayli u rang chegaradan tashqarida tarqaldi. Oq rangni olishda qalaydan foydalanish qadimda qalay mirallari qalaytosh-kassiterit $SnO_2$ va stannin $Cu_2FeSnS_4$ ning keng tarqalgani rang olishning imkonini oshirgan. MK-B2 nuqtadagi sariq rangdan olingan natijalar yuqoridagi natijalar kabi umumiy elementlar va alohida sariq rang hosil qiluvchi moddalar mavjudligini ko'rsatdi.

XRF orqali element tahlil o'tkazilganda bezakning sariq va to'q sariq qismida kuzatilgan qo'g'oshin, surma, temir (5-jadval) sariq rangni xosil qilsa, qalay va rux bu rang xosil bo'lishiga hissa qo'shadi. Qo'rg'oshinning yuqori ulushi sariq rangni olish uchun juda keng tarqalgan qo'rg'oshin antimonatidan (Neapol sariq) foydalanishni ko'rsatadi. Sariq va to'q sariq qatlamlarning tabiati va tarkibi qo'rg'oshin antimoniati barcha tahlil qilingan namunalarida mavjudligini tasdiqlovchi Pb2Sb2O6(O,OH) formulasiga mos keladigan ikkita antimonit pigmenti mikro-Raman spektri bilan ham aniqlangan.

Biroq analiz natijasida aniqlangan rux ham temir ham pigment formulasiga kirishi mumkin Sb ning kristall qatordagi o'rnini bosishi bir nechta tahliliy ishlar bilan tasdiqlangan (Chiarantini, 2014; Iñañez., 2013; Maggetti., 2009). Bundan tashqari sariq rangni hosil qilishda surma oksidi, emalda surma to'rt oksidi ($SbO_2$ ) yoki metaantimon kislotasining $nSbO_3(SbO)m$ antimonil tuzi ko'rinishida eng barqaror shakl uchraydi, bu oksidlar aralashmasini Sb ni qizdirish orqali ham olinishi mumkin, ya'ni havoda S bilan

antimanat xosil qiladi. Sariq va to'q sariq rang bilan bezatilgan namunalarda sariqdan turli xil to‘q sariq ranglargacha bo‘lgan intensivligi surma oksidi-temir oksidi aralashmasining turli nisbatlariga bog‘liq. Temir Fe (III) oksidi shaklida bo‘lib uning tetraedral tuzilishini hisobga olgan holda sirlar hosil bo‘lishiga yordam beradi va sariqdan qizil ranggacha bo‘lgan ranglar oralig‘ini ta’minlaydi.

| No. | Component | Result | Unit | Stat. Err. | LLD | Element line | Intensity(cps/μA) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Na | ND | mass% | | | | |
| 2 | Mg | ND | mass% | | | | |
| 3 | K | 2,56 | mass% | 0,0739 | 0,147 | M:K-Kα | 0,28915 |
| 4 | Ca | 9,96 | mass% | 0,110 | 0,225 | M:Ca-Kα | 1,83019 |
| 5 | Ti | ND | mass% | | | | |
| 6 | V | 0,172 | mass% | 0,0085 | 0,0161 | M:V-Kα | 0,09932 |
| 7 | Cr | 0,116 | mass% | 0,0055 | 0,0104 | M:Cr-Kα | 0,10839 |
| 8 | Mn | 0,159 | mass% | 0,0048 | 0,0074 | M:Mn-Kα | 0,22184 |
| 9 | Fe | 2,58 | mass% | 0,0133 | 0,0047 | M:Fe-Kα | 5,73141 |
| 10 | Co | 0,0292 | mass% | 0,0025 | 0,0067 | M:Co-Kα | 0,09842 |
| 11 | Ni | 0,0269 | mass% | 0,0012 | 0,0024 | M:Ni-Kα | 0,13578 |
| 12 | Cu | 0,0799 | mass% | 0,0015 | 0,0020 | M:Cu-Kα | 0,53275 |
| 13 | Zn | 0,0124 | mass% | 0,0008 | 0,0019 | M:Zn-Kα | 0,11711 |
| 14 | Al | 2,60 | mass% | 0,0326 | 0,0599 | L:Al-Kα | 0,73740 |
| 15 | Si | 19,0 | mass% | 0,0331 | 0,0153 | L:Si-Kα | 20,51776 |
| 16 | P | 0,462 | mass% | 0,0055 | 0,0119 | L:P-Kα | 1,14990 |
| 17 | S | 1,25 | mass% | 0,0129 | 0,0374 | L:S-Kα | 8,42036 |
| 18 | Cd | ND | mass% | | | | |
| 19 | Pb | 42,7 | mass% | 0,0446 | 0,0028 | M:Pb-Lα | 319,94728 |
| 20 | Sn | 17,0 | mass% | 0,192 | 0,179 | M:Sn-Lα | 1,19804 |
| 21 | Sb | (1,33) | mass% | 0,193 | 0,596 | M:Sb-Lα | 0,10282 |
| 22 | Zr | ND | mass% | 0,0010 | 0,0031 | M:Zr-Kα | 0,00027 |

*5-jadval. MK-B2 namunaning NEX DE da olingan elementlarming jadvali*

Xulosa. Tanlangan mayolika namunalari bo‘yicha rentgen fuloresens usulidan foydalangan holda qayd etilgan ma‘lumotlar o‘ziga xos xulosa chiqarish imkonini berdi.

Mayolikani bezash uchun qo‘llaniladigan ranglarning kimyoviy tarkibi tekshirish vaqtlarda NEX DE spektroskopiyasi elementlarni aniqlash imkonini bergan asosiy rangli birikmalar ko‘k ranglar kobalt asosidagi birikmalar yordamida olinadi, sariq ranglarda qo‘rg‘oshin antimoniat bilan temirning borligini ko‘rsatadi. Jigarrang qora bezaklarda margenes hamda o‘zgaruvchan miqdorda temir aniqlandi, yashil rangni mis, kadmiy elementlarining birikmalari borligini ko‘rish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

**1.** *Abdullaev O. E.* Architectural Image of Bukhara in the XVI-Early XX Centuries // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. 2021. – T. 8. №. 12. – P. 235-242. DOI: http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v8i12.3275

2. *Atabekova S.* XVI asr II yarmida Shayboniylar davridagi tarixiy me'moriy obidalarini o'rganilganligi // Innovation in the modern education system. Indoneziya – 2022. – T. 2. – №. 24. – C. 52-60.
3. *Axmitov M.M., Mirzayev Sh.R.* Me'morchilik, 1-qism me'morchilik tarixi "TAFAKKUR" nashryoti Toshkent-2010, 179-182 -b.
4. *Baxter M. J., Buck C. E.* Data handling and statistical analysis //Chemical analysis-new york-interscience. John Wiley. – 2000. – C. 681-746.
5. *Otabekova S.* XVI asr II yarmida Shayboniylar davridagi tarixiy me'moriy obidalarini o'rganilganligi // Innovation in the modern education system. – 2022. – T. 2. – №. 24. – P. 52-60.
6. *Pradell T., Molera J.* Ceramic technology. How to characterise ceramic glazes // Archaeological and Anthropological Sciences. – 2020. – T. 12. – №. 8. – P.189.
7. *Qilichov M.* Buxorodagi ipak yo'li (O'ZBEKISTON). Merosni yuksaltirish va mahalliy taraqqiyot // Tsentr nauchnyx publikatsiy (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
8. *Sultonov I. Z., Maxmatqulov I. T.* Scientific Analysis Of Monuments Included In The List Of Cultural Heritage Of The Islamic World In Bukhara //Journal of Architectural Design. – 2023. – T. 15. – C. 14-23.
9. *To'raev H.* Buxoro tarixi //Durdona" nashriyoti. B. – 2020.
10. *Tohirboy M. J.* Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida Jo'yboriy xoja Muhammad Islomning tutgan o'rni //Proceedings of International Educators Conference. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 97-100.
11. *Абдуразаков А.А.,* Химические составы керамики и глазурей архитектурных памятников Узбекистана // ИМКУ, вып. 21. Ташкент, 1987 г. С 176-189
12. *Болтаев А.* СН Юренев Илмий меросида ўлкамиз тарихи масалалари // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2023. – Т. 28. – №. 28.
13. *Мурина, Н.В.,* М913 Основы производственного мастерства в керамике: учеб. пособие / Н.В. Мурина. Красноярск: Сиб.федер. Н - Т ,2019.-200.

**A.H. Baxronov,**
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*
*tarix fakulteti Arxeologiya kafedrasi assistenti*
*abdullobaxronov7g@mail.com*

**Sh.A. Tojiyev**
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*
*"Arxeologiya" kafedrasi l bosqich*
*tayanch doktaranti.*

# URGUT TUMANI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O‘RGANILISHI TARIXI VA ISTIQBOLLARI

Yurtimiz hududida ibtidoiy davr yodgorliklarini o‘rganish, bu davrda yashagan jamoalarning hayoti bilan qiziqish XX asrning 30–40 yillarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida yanada jonlandi. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng arxeologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotchilarga zamonaviy tadqiqot uslublaridan foydalangan holda dunyo miqyosiga chiqishlariga sharoit yaratdi. Dunyoning ilg‘or arxeologiya maktablari bilan xalqaro hamkorlik borasida bir qator shartnomalar imzolandi va xalqaro hamkor arxeologik ekspeditsiyalar tashkil qilindi. Bunday tadqiqotlar respublikamizning Urgut tumani hududida ham olib borilib bir qator muvaffaqiyatlarga erishildi.

Urgut tumani hududi Zarafshon tog‘ tizmalarining davomi bo‘lgan Chaqilkalon va Qoratepa tog‘larining shimoliy yon bag‘rida joylashgan. Tuman hududining sharqiy, janubiy va g‘arbiy qismlari Chaqilqalon va Qoratepa tog‘lari adirlar va qirlardan iborat. Shimoliy va markaziy qismlari past-baland tekisliklar bo‘lib bir qancha soyliklar ham mavjud. Tog‘ yon bag‘irlari slanes va ohaktoshli qoyalardan mavjud, daryo vodiylari tor va chuqur, qirg‘oqlari tik. Adirlar va bo‘sh cho‘kindi jinslardan tashkil topgan, shu sababli soylar uncha chuqur bo‘lmagan keng vodiylar hosil qiladi. Urgut tumani hududida joylashgan Chaqilkalon va Qoratepa tizmalari va tog‘oldi tekisliklari tektonik jihatdan Zarafshon botig‘ida joylashgan. Zarafshon vodiysini janubdan o‘rab turgan tog‘lar palezoy erasining yuqori qismida sodir bo‘lgan. Urgut tumanida o‘rtacha balandlikdagi tog‘larda jigar rang tuproqlar tarqalgan. Ular asosan archa va butazorlardan tashkil topgan. Urgut tumanida o‘simliklar va hayvonot dunyosi, tuproqlar kabi vertikal mintaqalar bo‘ylab o‘zgaradi. Bu yerda ko‘proq dasht, tog‘ va yaylov o‘simliklari tog‘oldi tekisligidan yuqoriga qarab o‘zgarib boradi.

Urgut tog‘i arxeologik yodgorliklarga boy o‘lka ekanligini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. Zarafshon tog‘ining shimoliy sarhadlari Urgut tumani hududlariga to‘g‘ri keladi.

Urgut tumani o'rta paleolit davridan boshlab o'zlashtirilgan. Zarafshon vohasida mustye davriga oid bir necha yodgorliklar topilib o'rganilgan bo'lib, shulardan Omonqo'ton makoni Urgut tumani tosh davri arxeologiyasida muhim o'rin egallaydi.

Omonqo'ton g'ori ochilgan paytlarda MDH davlatlari hududida 166 ta paleolit davriga oid yodgorliklar aniqlangan edi.(Ефименко, 1945 С. 310.) D.N. Levning ta'kidlashicha, o'sha davrda P.P. Yefimenko boshchiligidagi paleolitchilar guruhi paleolit davri yodgorliklarini o'rganishning g'arbdagidan ancha taraqqiy qilgan uslublarini yaratganlar (Громов, 1948 С. 60.). O'sha davrlardayoq arxeologik tadqiqotlarda geologiya, paleontologiya va etnografiya kabi fanlarning ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Omonqo'ton g'ori Samarkand viloyati Urgut tumani hududidagi Omonqo'ton qishlog'idan 2 km sharq tomondagi Bulbulzorsoyning baland sohilida joylashgan (Zarafshon tog' tizmasi). G'orda 1947-1957 yillarda arxeolog D.N.Lev qazishma ishlarini olib borgan. Bu yodgorlik Zarafshon vohasida mustye davriga oid birinchi bor topilib o'rganilgan makon hisoblanadi. Uning tadqiq qilinishi Zarafshon vohasida keng arxeologik ishlari yo'lga qo'y-ishda boshlang'ich nuqta bo'lib qoldi va bu esa shu regionni chuqurroq o'rganilishining istiqboli borligini ko'rsatdi. G'or dengiz sathidan 1400 metr balandlikda joylashgan. Uning koridor bilan uzunligi 29 metr, balandligi esa 2,6 metr va eni ayrim joylarda 2,5 metrini tashkil qiladi. Kishi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan topilmalar asosan g'orining kirish qismida joylashgan ekanligi ma'lum. Madaniy qatlamining qalinligi 25 sm dan 1,5 metrga-cha etadi. Undan 220 ta tosh ashyoviy topilmalar yig'ib olingan bo'lib, qurollarning asosiy qismi chaqmoq toshdan yasalgan. Bu yerdan topilgan 30 ga yaqin turli xildagi nukleuslar qurol yasash texnikaviy uslublarni o'rganishda katta yordam beradi. Qurollar orasida, ayniqsa, gardishsimon va yarim prizma shakldagi nukleuslar qiziqarlidir.

Bir necha tosh paraqalari bo'lib, ularning ayrimlariga kertish usulida ishlov berilgan. Bu pichoqsimon qurollardan kesuvchi uskunalar sifatida foydalanilgan. Paraqalar levalua-mustye texnika madaniyatini eslatadi. Bunday qurollarning namunalarini Qo'tirbuloq va Zirabuloq makonlaridan to'plangan kolleksiyada ham ko'rish mumkin, Omonqo'ton materi-ali orasida 22 nusxa tosh uchirindi mavjud bo'lib, ular uzunchoq uchburchak shaklda nukleuslardan ham mehnat orqali qurol yasash uchun ustalik bilan ajratib olingan.

Ibtidoiy kishilar bu paraqalardan, pichoqsimon qurollar va nayza tig'lari ishlab chiqqanlar.

Nukleuslardan paraqa sindirib olish jarayonida ajratib olingan tashlandiq siniqlar o'sha davrdagi toshni qayta ishlash texnika uslubini ko'rsatadi. Bu yerda otsheplar

qo‘polligicha qolgan. Shulardan 2 tasi yaxshi ishlangan qo‘l sixchasi va 2 tasi qirg‘ichsimon qurollar muste davri kishilarining did bilan toshni qayta ishlash uslubini ko‘rsatadi.

Qurollarning ayrimlari randasimon bo‘lib ular ham tosh paraqalardan yoki otsheplardan yasalgan. Kertish texnikasi paraqalarning ichki hamda ust tomonidan bajarilgan. Natijada, qurol tig‘lari tig‘isimon, to‘lqinsimon bo‘lib chiqqan. Kolleksiyada bargsimon paraqalardan ishlangan qurollar ham mavjud bo‘lib, ularning ikkala tomoniga ishlov berilgan. Bu qurollar nayza tig‘i sifatida va pichoq sifatida ham qo‘llanilgan. Shuningdek, tosh qirg‘ichlar, teshgichlar va keskich qurol ham topilgan. Arxeolog N. Toshkenboev Omonqo‘ton materiali bilan qisman tanishgan holda bu yodgorlikni o‘rta paleolitning so‘ngi davriga oid degan fikrni bildiradi. Omonqo‘ton g‘orini ko‘p yillar tadqiq qilgan atoqli arxeolog D.N. Lev Omonqo‘tonlik ibtidoiy kishilarning qurol yasash texnikaviy uslub madaniyati o‘zining barcha xususiyatlariga ko‘ra, ilk va rivojlangan muste davriga mansub deb hisoblaydi. (Жўракулов, 1994. 13-бет) Yodgorlik Teshiktosh va Qo‘tirbuloq makonlariga ancha yaqindir. Umuman bu yerdan ikkita madaniy qatlam topilgan. Bu qatlamlar birbiridan ohakli tuf qatlami bilan ajratilgan. G‘ordan topilgan mehnat qurollari diorit, kvars va chaqmoqtoshdan yasalgan dag‘al qirg‘ichlar, tig‘i qirrali qo‘pol pichoqlar, nayzasimon tosh qurollar va disksimon nukleuslardan iborat bo‘lgan. Bu yerdagi madaniy qatlamda arxar, qo‘ng‘ir ayiq va boshqa hayvonlarning suyak qoldiqlari uchraydi. Suyaklar uzunasiga yorilgan va ularda olovda kuyganlik izlari bor.

Omonqo‘ton g‘orining ilmiy ahamiyati bu yerdan topilgan hayvonot dunyosi qoldiqlariga ham bog‘liqdir. Hozirgacha O‘rta Osiyo hududidan topilib o‘rganilgan birorta makon va qarorgohlardan bunday boy material topilganicha yo‘q. Yuqorida qayd etilganidek, to‘plangan materiallar O‘zbekistonning janubiy qismidagi jumladan, Zarafshon vohasining pleystotsen davridagi iqlimi va tabiiy sharoiti haqida fan uchun zarur materiallar berdi.

**O‘zbekiston-Polsha xalqaro hamkor ekspeditsiyasining Omonqo‘ton g‘orida amalga oshirilgan tadqiqotlari.**

1995-yilda O‘zbekiston-Polsha xalqaro hamkor ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan D.N. Lev tomonidan ochib o‘rganilgan Omonqo‘ton g‘ori tadqiq qilindi (Лев Д.Н. 1956. С. 9-21). G‘orning kirish qismidan 7–8 m masofada joylashgan chap tarafidagi kichik bo‘linish joyidan torf ichidagi kichik maydonda saqlanib qolgan qo‘ng‘ir loy aniqlandi. Ushbu maydon g‘orning devoriga yopishib turardi. Torfning tagidagi qo‘ng‘ir loyda esa hayvon suyaklarining bir nechta bo‘laklari va stalaktitlar aniqlandi. Loyli torf bo‘lagi stalaktit va suyak qoldiqlari bilan birga tahlillar uchun olindi. Tahlillar uchun ikkinchi

namuna g'orning kirish qismidagi o'ng devor tagidan olindi. Uchinchi namuna g'orning ichkarisidan olindi va bu yerda prof. T. Madeyskayaning (Varshava universiteti professori) fikricha turli davrlarga oid generatsiya kuzatiladi.

G'or to'liq o'rganilgan, deb hisoblanishiga qaramasdan, uning ayrim joylarida qazilmagan maydonchalar bo'laklarini topish mumkin va ushbu maydonlarda odam faoliyati izlarini hamda hayvon suyaklari qoldiqlarini topiladi

Omonqo'ton makonida mutloq sanalashni amalga oshirish istiqboli juda muhim, negaki, Zarafshon vohasi tosh davri yodgorliklarining anchayin intensiv o'rganilganligiga qaramasdan ular faoliyati bilan bog'liq sanalarning barchasi nisbiydir (Гречкина, 1996. С. 8-9.).

Omonqo'ton g'origa yaqin joylashgan yodgorliklardan biri Takalisoy g'ori muste davri qarorgohi bo'lib, 1952 yilda D.N. Lev tomonidan tadqiq qilingan edi. Bu yerdan bir necha chaqmoqtosh siniqlari ishlov berish uchun tayyorlangan tosh xom-ashyolari, gulxan izlari , hayvon suyaklarining bo'laklari topilgan. G'orda neandertal odamlari vaqtincha yashagan bo'lishlari kerak. Topilmalar tarkibida uchburchaksimon uzun uchirindi mavjud bo'lib, uning yon tomonlari kertish usulida o'tkirlangan pichoqsimon quroldir. Bu yerdan topilgan tosh uchirindilar nukleuslardan ajratib olingan. D.N. Lev bu texnikaviy uslubga asoslanib, qarorgoh muste davrining so'ngi bosqichlariga mansubdir , degan xulosaga keladi.

Urgut tumanidagi shunday tipdagi makonlardan yana biri Go'rdara bo'lib, Zarafshon tog' tizmasiining shimoliy-sharqiy qismidagi balandlikda joylashgan, yodgorlik 1966 yili N. Toshkenboyev tomonidan ochilgan va qisman o'rganilgan. Topilma tosh inventar tarkibida o'zaklar, ishlov berilgan paraqa va turli shakldagi uchrindilar mavjud.

Bu makon ayni vaqtda to'liq o'rganilgan emas. Topilmalar N. Toshkenboyevning xulosasiga ko'ra mustye davriga oid, degan tushunchani ilgari surishga asos bo'lgan (Ташкенбоев, 1980 С 66).

Urgut tumanida joylashgan tosh asrining keyingi bosqichi mezolit davriga oid makon Samarqand shahridan janub tomon 40 km masofada Sevasoy yon qayiri Katta xarsangtosh o'ngirida joylashgan (Samarqand-Kitob avtomagistral yo'lidan 4 km) Zamichatosh yodgorligi hisoblanadi. Xarsangtosh janubiy qismi hisoblanuvchi bu o'ngir ich tomoniga 4 m, kengligi esa 10 m hajmga ega. Makon 1989-yili O'zR FA Arxeologiya instituti paleolit otryadi xodimlari tomonidan ochilgan. Makonda hammasi bo'lib 30 $m^2$ maydon sathi o'rganilib, 2 ta madaniy qatlam (40–60 sm qalinlikda bo'lgan) aniqlanib, 1-madaniy qatlamdan o'choq qoldig'i, 40 donadan ortiq (chaqmoqtosh, xalsedon, kvarsit kabi materiallardan tayyorlangan) tosh buyumlar,

ko‘plab hayvon suyagi qoldig‘i topilgan. 2-madaniy qatlamdan nisbatan kamroq – 21 dona tosh buyum topilgan bo‘lsa-da, lekin suyakdan yasalgan bir nechta qurol uchratilgani ahamiyatlidir. Makon o‘z tosh industriyasining mikrolitli xususiyati bilan Sazag‘on madaniyatiga taalluqli hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida Urgut tog‘i arxeologik yodgorliklarga boy o‘lka ekanligini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. Bu hudud juda qadim-qadim zamonlardan boshlab jamoalar tomonidan o‘zlashtirilgan. Urgut tumanida bronza, temir, antik va ilk o‘rta asrlarga oid yodgorliklar ham ko‘p uchrashini hisobga olsak, mintaqaning arxeologik jihatdan o‘rganish uchun muhim va katta istiqbolga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Громов В.И.* Палеогеографическое и археологическое обоснованиестратиграфии континентальных отложений чпериода на территории СССР. Труды института геологических наук. 1948.
2. *Ефименко П., Береговая Н.А.* Палеолит ические мест онахож дения СССР. Материалы к исследованию по Арменской ССР. 1945.
3. *Журакулов М.Ж Амиркулов Б. Аванесова Н.* Зарафшон вохасининг ибт идоий маданияти. Самарканд 1994.
4. *Лев Д. Н.* Археологические исследования СамГУ в 1955-1956 гг. // Труды Самаркандского Государственного университета. Вторая часть. - Самарканд: Изд-во СамГУ, 1960.
5. *Лев Д.Н.* Древний палеолит в Аман-Кутане (предварительное сообщение) // Труды Узбекского государственного университета им. А. Навои. – Самарканд.
6. *Ташкенбоев Н.Х. Сулейманов Р.Х.,* Культ ура древнекаменного века долины Зарафшан.Ташкент-1980.
7. *Ташкенбоев Н.Х. Сулейманов Р.Х.,* Культ ура древнекаменного века долины Зарафшан.Ташкент-1980.

**A.A. Diyarov**
*Samarqand arxeologiya instituti kichik ilmiy xodimi*
anvardiyarov4@gmail.com

# KUSHONLAR DAVRIGA OID BUDDAVIY IBODATXONALARDA FOYDALANILGAN QORA RANGLI BO‘YOQ TAHLILI

Ko‘p ming yillik insoniyat tarixi davomida har xil rangga, har xil kimyoviy tarkib va tuzilishga ega bo‘lgan rangli bo‘yoqlardan juda qadimdan foydalanib kelingan. Bugungi kungacha saqlanib kelayotgan qadimiy bo‘yoqlarni qay usulda tayyorlanganligi va qanday tarkibiy qismlarga ega ekanligi barcha uchun qiziqarli. Shuningdek, arxeologik topilmalarni o‘rganish orqali o‘sha davr haqidagi tasavvur va bilimlarimizni yanada boyitishimiz va arxeologik topilmalarni restavratsiya va konservatsiya qilish jarayonida bu ma’lumotlardan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari butun dunyo amaliyotida arxeologik topilmalarni o‘rganishda zamonaviy texnologiya va fizik-kimyoviy usullardan foydalanilmoqda.

O‘zbekistonda ham zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilmoqda, ammo hali yetarli darajada emas.

Qadimda qora rangni hosil qilish uchun paleolit davrida pigment sifatida marganets oksididan keng foydalanilgan. So‘nggi antik davr va ilk o‘rta asrlarda qora pigment tayyorlashda aksariyat hollarda uglerod rangidan foydalanib bo‘yoq hosil qilingan. Sopol idishlar, ganchli devor bezaklari shuningdek ayrim tosh jihozlarni bo‘yash uchun ishlatilgan qora rangli mineral bo‘yoqlar olish uchun ko‘mir (C) yoki qurumni ehtiyotkorlik bilan maydalash usuli keng tarqalgan (Siddall, 2018).

Qadimiy Baqtriya-Marg‘iyona arxeologik majmuasiga tegishli bo‘lgan hududning ma’muriy va diniy markazlaridan topilgan qora va to‘q kulrangga bo‘yalgan topilmalar tahlil qilinganda, pigmentning asosini maydalangan ko‘mirlashgan organik moddalar va ko‘mir tashkil etgan. (Юминов, 2018) Izlanishlarga ko‘ra adabiyotlarda qora rangli bo‘yoqlar tayyorlashning ikki xil usuli bo‘lgan (Реутова, 2019). Birinchi usulda o‘simlik-yog‘och kuydirilib, ko‘miridan tayyorlangan. Qirib olingan bo‘yoqni mikroskop ostida tekshirib ko‘rilganda ko‘mirga aylangan yog‘och bo‘lakchalarini ko‘rish mumkin bo‘ladi (Бирштейн, 1982).

Qora pigment olishning ikkinchi usulini xitoyliklar kashf qilgan bo‘lib, ular chinnidan yasalgan konus ostida yog‘och bo‘laklari, kunjut va boshqa yog‘larni yoqib, konusning devorlariga yopishgan kuyik qatlamini soatiga 3-4 marta yig‘ib olganlar (Беленький, 1974).

**Materiallar va usullar**. O‘rganilgan namunalar qadimiy Termiz shahrinig shimoli-sharqiy qismida joylashgan, Qoratepa yodgorligida 2003-yilda o‘zbek–yapon qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi qazishmalari jarayonida yodgorlikning shimoliy tepaligi, g‘arbiy burchagidan topilgan. Topilmalar ganchdan yasalgan bo‘lib qora rangga bo‘yalgan bo‘laklar tanlab olindi.




*1- rasm. Qoratepa yodgorligi, qora rangga bo‘yalgan*

Mazkur O‘zbekiston-Yaponiya qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi 1998-yilda mashhur o‘zbek arxeologi Sh.R. Pidayev va taniqli yapon tadqiqotchisi professor K. Kato boshchiligida boshlanib Qoratepa yodgorligida keng ko‘lamdagi tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Ekspeditsiya o‘z ishini 2010-yilgacha davom ettirdi (Iwamoto, 2019). Ekspeditsiyaning asosiy e’tibori Qoratepaning shimoliy tepaligini o‘rga-nishga qaratilgan bo‘lib u yerda buddizm madaniyatiga oid monumental yer yuzasidagi inshootlari joylashgan. O‘zbekiston-Yaponiya ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Qoratepani o‘rganishda yangi bosqichni ochib berdi. Yodgorlikning shimoliy tepaligida monumental ibodatxona binosi topilgan (Пидаев, 2019)

Natijalar Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi O‘zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsion markazida, skanerlovchi elektron mikroskopda (SEM-EDS) Jeol JSM-IT200LA, shuningdek, Samarqand Davlat Universitetida joylashgan zamonaviy analiz usullari laboratoriyasida IQ-Fure spyektrometr IRAffinity-1S va NEX DE energiya dispersiv rentgen fluoressenti spektrometrida olindi.

Natijalar. SEM-EDS va optik mikroskop tasvirlari shuni ko‘rsatadiki tekshirilayotgan topilmaning yuzasidagi bo‘yoq qatlam uzoq yillar davomida tuproq ostida bo‘lganligi sababli yuqori namlik, tuzlar va boshqa agressiv moddalar ta’sirida yuza qismida yorilishlar, buzulishlar shuningdek yopishgan tuproq va tuz qatlamlari borligini ko‘rish mumkin (2-rasm). natijasida kuzatilgan buzilish belgilarini ko‘rsatadigan skanerlash elektron mikrograflari (A) optik mikroskopda olingan 50 marta, shuningdek (B) hamda (C) lar SEM-EDS da olingan 170 va 1000 barobar kattalashtirilgan tasvirlar.. SEM-EDS da olingan kimyoviy tahlil natijalariga ko‘ra (3-rasm) qora bo‘yoq tarkibini sifat jihatdan $O_2$, C, Na, Mg, Al, Si, P, S, K, Ca, Fe, kabi elementlar tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Qora rangga bo‘yalgan namunaning SEM-EDS qurilmasi yordamida _xarakteristik rentgen nurlarini tahlili natijasi

shuni ko'rsatdiki (1-jadval) miqdor jihatdan eng ko'p uchraydigan elementlar $O_2$, C, S, Ca, Si va Al, Fe kabi elementlarni asosiy qismni egallashini ko'rishimiz mumkin.




*2-rasm. Optik mikroskop va skanerlash elektron mikroskop tekshiruvi*




*3-rasm. Qora rangga bo'yalgan namunaning SEM-EDS spektrlari.*

Bu natijalardan yuqori darajada kislorod saqlaydigan birikmalar aluminosilikat, gips va uglerodli organik moddalardan iboratligini aytishimiz mumkin (Ali, 2022). Qora rangga bo'yalgan namunani Rigaku firmasining NEX DE energiya dispersiv rentgen fluoressenti spektrometridan foydalanib tahlil qilib ko'rilganda SEM-EDS qurilmasi yordamida olingan tahlil natijalariga yaqin natijalar olingan. Uskunaning texnik imkoniyatiga ko'ra davriy jadvalida 11-o'rinda joylashgan elementdan keyingilarni sifat va miqdoriy tahlil qilish imkoniyatiga ega. Energiya dispersiv rentgen fluoressenti spektrometri tahlili natijalariga ko'ra Ca, Fe, Al, Si, S, larning miqdori yuqoriligini ko'rish mumkin (Diyarov, 2023).

IQ-Fure spyektrometr IRAffinity-1S uskunasida, qora rangga bo'yalgan bo'lakni tahlilidan quyidagi natijalar olingan (4-rasm). Qora rangga bo'yalgan namunani IQ spektrlari organik moddalar, gips va kaolinitga mos keladigan cho'qqilar mavjudligini ko'rsatdi. Tahlil natijasiga ko'ra ikki xil silikat asosidagi birikmalar mavjud bo'lib, birinchisi 600 $sm^{-1}$ da simmetrik Si-O-Si ning cho'zuvchi tebranishlari (kvarts) va 669 $sm^{-1}$ da S-O ning

(1-jadval)

| Element | Line | Mass% | Atom% |
|---|---|---|---|
| C | K | 23.08±0.16 | 33.38±0.24 |
| O | K | 46.49±0.27 | 50.48±0.30 |
| Na | K | 0.72±0.04 | 0.54±0.03 |
| Mg | K | 0.70±0.03 | 0.50±0.02 |
| Al | K | 3.04±0.05 | 1.96±0.03 |
| Si | K | 7.69±0.07 | 4.76±0.05 |
| P | K | 0.47±0.02 | 0.26±0.01 |
| S | K | 5.23±0.06 | 2.83±0.03 |
| K | K | 0.93±0.03 | 0.41±0.01 |
| Ca | K | 10.20±0.09 | 4.42±0.04 |
| Fe | K | 1.46±0.05 | 0.45±0.02 |
| Total | | 100.00 | 100.00 |
| Line_001_wholespectrum | | | Fitting ratio 0.0373 |

*1-Jadval. Qora rangli namunaning element tahlili natijalari.*

| No. | Component | Result | Unit | Stat. Err. | LLD | Element line | Intensity(cps/µA) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Mg | ND | mass% | | | | |
| 2 | K | 0,994 | mass% | 0,0263 | 0,0519 | M:K-Kα | 0,12063 |
| 3 | Ca | 58,4 | mass% | 0,0721 | 0,0255 | M:Ca-Kα | 9,94722 |
| 4 | Cr | ND | mass% | 0,0029 | 0,0086 | M:Cr-Kα | 0,00000 |
| 5 | Mn | 0,0568 | mass% | 0,0028 | 0,0060 | M:Mn-Kα | 0,03978 |
| 6 | V | (0,0407) | mass% | 0,0053 | 0,0139 | M:V-Kα | 0,01174 |
| 7 | Fe | 4,40 | mass% | 0,0128 | 0,0035 | M:Fe-Kα | 5,00535 |
| 8 | Co | ND | mass% | 0,0020 | 0,0061 | M:Co-Kα | 0,00000 |
| 9 | Ni | 0,0332 | mass% | 0,0009 | 0,0016 | M:Ni-Kα | 0,08477 |
| 10 | Cu | 0,247 | mass% | 0,0018 | 0,0012 | M:Cu-Kα | 0,84844 |
| 11 | Zn | 0,0070 | mass% | 0,0004 | 0,0008 | M:Zn-Kα | 0,03493 |
| 12 | Al | 3,21 | mass% | 0,0420 | 0,0733 | L:Al-Kα | 0,75254 |
| 13 | Si | 9,63 | mass% | 0,0311 | 0,0189 | L:Si-Kα | 8,94264 |
| 14 | P | ND | mass% | 0,0059 | 0,0176 | L:P-Kα | 0,03303 |
| 15 | S | 22,6 | mass% | 0,0197 | 0,0040 | L:S-Kα | 144,63193 |
| 16 | Cl | 0,352 | mass% | 0,0026 | 0,0053 | L:Cl-Kα | 2,92785 |
| 17 | Na | ND | mass% | | | | |

*2-jadval. Qora rangga bo‘yalgan bo‘lakni NEX DE natijalari*

tebranish tasmasi (gips) bilan birga ko‘rinadi. Shuningdek 1280 dan 1000 sm$^{-1}$ gacha bo‘lgan cho‘qqilar esa Si-O- Al va Si-O-Si anti-simmetrik cho‘zish tebranishlari natijasida kelib chiqadi. Ushbu hududda cho‘qqilar 1109, 1058 va 1002 sm$^{-1}$ da ko‘ringan va kaolinit gidroksil ionlari bilan bog‘liq O-H cho‘zilish chastotalari 3697 sm$^{-1}$ dagi xarakterli tasmasi bilan birgalikda kaolinit ($Al_2(Si_2O_5)(OH)_4$) mavjudligi haqda fikr bildirish mumkin (Schiavon, 2021). Gips sulfat guruhlarining tebranish cho‘qqilari 1109, 669 sm$^{-1}$ hamda 3526, 3406, 1681va 1619 sm$^{-1}$ da O-H bog‘lanishlarining xarakterli cho‘qqilarni ko‘rsatadi va tahlillar natijasida ko‘p miqdorda Ca, S, O kabi elementlar aniqlanganligi uchun gips ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$) mavjudligi aniqlandi. Gematit va temir oksidlari IQ-Fure spyektromyetr orqali aniqlanmadi, chunki ularning oksidlar 600 sm$^{-1}$ dan yuqori darajada yutilmaydi




*3-rasm. Qora rangga bo'yalgan bo'lakni IQ-Fure spyektromyetr yordamida olingan spektri. Atom bog'lanishlari cho'zish va egilish bilan bog'liq (X o'qi = To'lqin raqami sm-1, Y o'qi = o'tkazuvchanlik*

Uglerod asosidagi organik moddalarning IQ-Fure spektrometri Spektrlariga qarasak 2919 va 2872 $sm^{-1}$ C–H bog'i uchun xarakterli cho'qqilarni ko'rsatadi. 3406 $sm^{-1}$ va 2926 $sm^{-1}$ da ushbu cho'qqilar asosan OH, $CH_3$, $CH_2$ va CH guruhlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 1740, 1600 $sm^{-1}$ va 1620 $sm^{-1}$ diapazonlar esa lignin va gemitsellyuloza keton-larining tebranishi (C=O) guruhlari yutilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2865 $sm^{-1}$ bo'l-gan tebranish $CH_3$ guruhlarining cho'zilishi hududiga to'g'ri keladi. ~1600 $sm^{-1}$ da yuqori intensiv chiziqni taqdim etadi. Bu odatda aromatik halqalarning C=C guruhlari tebranishi, aromatik birikmalarning mavjudligi bilan bog'liq, shuningdek 1510 va 1680-1640 $sm^{-1}$ (C=C) da bandning mavjudligi ham aromatik halqalarning mavjudligini ko'rsatadi (Dias Júnior, 2019)

**Xulosalar**. Qora rangga bo'yalgan topilmaning analitik fizik-kimyoviy tahlillari shuni ko'rsatdiki qora rangli pigment uglerod (C) rangidan hosil qilingan bo'lib, buni SEM-EDS natijalarida (atom % 33,38 C) va IQ-Fure spektrometri natijalarida yog'ochdan olin-gan ko'mir spektrlariga mos keladigan (sellyuloza qoldig'i, aromatik halqalar va boshqalar) yuqori intensiv chiziqlarni taqdim etadi.

Shuningdek tahlillar natijasiga ko'ra bo'yoq tarkibida ko'p miqdorda gips ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$), kvarts (Si-O-Si) va kaolinit ($Al_2(Si_2O_5)(OH)_4$) oq gil tarkibining asosiy qismi bo'lib,

bo'yoq hosil qilishda oq gildan foydalanilgan bo'lishi mumkin. Chunki oq gil tarkibida qo'shimcha sifatida $Fe_2O_3$, $SiO_2$ lar uchraydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Ali M. F., Moussa A., El-Sayed S. H.* Analytical physicochemical survey of the recently excavated murals at the tomb of iwrakhy/hatia at saqqara, egypt //Scientific Culture. – 2022. – T. 8. – №. 1.
2. *Diyarov A. A., Avazgeldiyev B*. P. Fizik-kimyoviy usullar, rentgyen fluoressenti yordamida arxeologik topilmalarni tarkibini o'rganish //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 16-24.
3. *Dias Júnior A. F.* et al. Infrared spectroscopy analysis on charcoal generated by the pyrolysis of Corymbia. citriodora wood //Matéria (Rio de Janeiro). – 2019. – T. 24. – C. e12387.
4. *Iwamoto A. A* Study on the and Decline of Buddhist Sites in Northern Bactria: Kara Tepe and Zurmala Prosperity. – 2019.
5. *Siddall R.* Mineral pigments in archaeology: their analysis and the range of available materials // Minerals. – 2018. – T. 8. – №. 5. – C. 201.
6. *Schiavon N.* et al. A multi-analytical study of Egyptian funerary artifacts from three Portuguese museum collections //Heritage. – 2021. – T. 4. – №. 4. – C. 2973-2995.
7. *Mahmoud H. M.* et al. Saving The Mummy's Shell: An Interdisciplinary Approach for Analysis and Restoration of Cartonnage Mummy Case from El-Lahun Excavations, Middle Egypt //Mediterranean Archaeology and Archaeometry. – 2021. – T. 21. – №. 1. – C. 185-185.
8. *Беленький Е.Ф., Рискин И.В.* Химия и т ехнология пигмент ов. Москва, 1974.
9. *Бирштейн В.А.* Идент ификация минеральных компонент ов грунт ов и пигмент ов росписей Каратепа и других среднеазиатских памятников с помощью физико-химических методов // Буддийские памятники Кара-тепе в Старом Термезе. Москва, 1982. С.
10. *Пидаев Ш. Р.* [и др.] Археологические работ ы Узбекист ано-Корейской экспедиции в буддийском культовом центре Каратепа в Старом Термезе в 2011-2014 гг. [Отчет]. - Тэджон, 2019. С. 30-35.
11. *Реутова М.А., Фрай Д.* Минеральные краски в древней живописи Афрасиаба// История и археология Турана №4. Самарканд, 2019. С.286-295.
12. *Юминов А. М., Блинов И. А.* Сост ав раст ерт ого мат ериала в каменных орудиях Гонур-Депе (Юго-Восточные Каракумы) // Геоархеология и археологическая минералогия. – 2021. – Т. 8. – С. 72-75.

**Sh.D. Djurakulov**
*Sharof Rashidov nomidagi Samrqand davlat universiteti*
*Arxeologiya kafedrasi tayanch doktoranti*

# SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ARXEOLOGIK EKSPEDITSIYASINING O‘RTA ZARAFSHON VOHASI PALEOLIT DAVRINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI

Zarafshon vohasi paleolit davri arxeologisini o‘rganilishida Samarqand davlat universiteti arxeologik ekspeditsiyasining o‘z o‘rni bor. SamDU arxeologiya kafedrasi huzuridagi arxeologik ekspeditsiya bir nechta yodgorliklarda, jumladan, Omonqo‘ton g‘or makoni, Samarqand makoni, Zirabuloq makoni kabi paleolit davri yodgorliklarining arxeologiya faniga kiritilishida katta hissa qo‘shdi.

Samarqand viloyatining qadimgi tarixini arxeologik jihatdan o‘rganishga bo‘lgan e’tibor, asosan, XIX asrning 2-yarmidan boshlangan bo‘lsa-da, ammo XX asrning 40-60-yillarida bu sohada yirik ilmiy kashfiyotlar qilindi. Harakatga tushgan arxeologik ekspeditsiyalarning izlanishlari voha paleolit, ya’ni qadimgi tosh davrining o‘rta bosqichidayoq, bundan 100 ming yillar ilgari odamzod tomonidan o‘zlashtirilib, o‘z davriga xos yuksak madaniyat yaratganligi va bu tarixiy jarayon uzluksiz, peshma-pesh rivojlanishda bo‘lganligi masalalari ilmiy jihatdan isbotlandi (Джуракулова, 2009 3–5 б.).

Vohaning eng qadimgi tarixini arxeologik izlanish yo‘li bilan o‘rganishni dastlab boshlab bergan olimlardan biri D.N. Lev bo‘lib, uning ilmiy faoliyati esa alloma ustozlar I. Mo‘minov, Ya. G‘ulomov, V. Shishkinlar tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlanib turganligi tufayli samarali natijalarga erishildi. D.N. Lev Samarqand davlat universitetida mehnat qilgan yillari (1943-1969) tarixchi talabalar va aspirantlar ishtirokida vohada keng ko‘lamli dala arxeologik qidiruv ishlarini amalga oshirib, muhim ilmiy natijalarga erishdi.

Zarafshon vodiysi, uning tog‘li rayonlari odamzodning ilk ajdodlari tomonidan qadimgi tosh davrining muste bosqichidan boshlab o‘zlashtirilgan. Bu haqda dastlabki ma’lumotlarni Samarqand davlat universitetining arxeologi D.N. Lev asarlarida o‘qish mumkin.

Ma’lumki, 1938-yil Surxondaryoning Boysun tog‘ida o‘rta paleolitga oid Teshiktosh makonining o‘rganilishi fanda katta shov-shuvlarga sazovor bo‘lgan edi. Teshiktosh g‘or makonining o‘rganilishi Vatanimiz tarixini qariyb 100 ming yillarga chuqurlashtirib yuborilganligi bilan ham ahamiyatli edi.

Bu ilmiy yangiliklar Zarafshon havzasida arxeologik ishlarni yangitdan yo‘lga qo‘yishga ham muhim omil bo‘ldi. Arxeolog D.N. Lev ibtidoiy davrda Boysun tog‘ida

odamzodning tanho yashamaganligini g'oyaviy jihatdan asoslab, Zarafshon vodiysi tarkibidagi Samarqand vohasini arxeologik o'rganishni maqsad qilib olib, ekspeditsiya uyushtirdi va 1947–1964-yillar davomida tosh davrining deyarli barcha taraqqiyot bosqichlariga mansub moddiy madaniyat yodgorliklarini topib o'rgandi, natijada Samarqand mintaqasining ibtidoiy davr tarixini ilmiy jihatdan tiklashga erishdi. Jumladan, Omonqo'ton, Takalisoy o'rta paleolit davri yodgorliklarini o'rganib, Samarqand vohasi bundan 100 ming yillar ilgari odamzod tomonidan o'zlashtirilib kelinganligi va madaniy hayot uzluksiz davom etganligi isbotlab berildi.

1939-yilning martida Samarqand muzeyi arxeologi N.G. Xarlamov tomonidan **Samarqand makoni** ochildi. Makon Samarqand shahri markazida, uncha katta bo'lmagan Chashmasiyobning o'ng sohilida (Zarafshon daryosi irmog'i) joylashgan. Soyning oqimi bo'ylab pastroqda platina bilan o'ralgan va shu tarzda makon terrasasimon tumshuqda, sun'iy ko'l sathidan 4–5 metrlar balandlikda joylashgan (Yoshlar ko'li). Yodgorlik topilganidan keyin rekognossiyalovchi xarakterdagi qazishmalar o'tkazilgan.

Yodgorlikni keyingi tadqiqotlari boshlanib qolgan ikkinchi jahon urushi tufayli to'xtab qoldi. Shu yillarda O'zbekistonga SSSR FA, Belorussiya FA va qator Oliy o'quv yurtlarining jamoalari evakuatsiya qilindi. Ular SSSR FA O'zR filialining shakllanishiga asos soldilar. 1943-yilda Leningraddan Samarqandga tosh davri mutaxassisi D.N. Lev evakuatsiya qilingan va Samarqand makonining uzoq davom etgan tadqiqotlari uning nomi bilan bog'liqdir. Shuningdek, uning tomonidan Omon-Qo'ton va Takaliksoy g'or makonlari ham ochib o'rganildi.

Omon-Qo'ton g'ori 1947-yilda ochilgan. Makon Chaqulqulyon tog'larida dengiz sathidan taxminan 1300 m balandlikda, Samarqand shahridan 45 km janubroqda joylashgan. Tadqiqotlar 10 yil davom etgan. Omon-Qo'ton g'ori tarix fakulteti talabalarining amaliyoti uchun malakaviy tajriba maydon sifatida foydalanilgan va uning uzoq yillar o'rganilishi aynan shu bilan bog'liq. Topilmalarning juda katta qismini hayvonlarning suyak qoldiqlari tashkil qiladi (barcha topilmalarning 80 %). G'orning tosh buyumlari kolleksiyasi 200 tadan ortiqroq artefaktlardan iborat. D.N. Lev tosh industriyasining tahlili asosida Omon-Qo'ton Teshik-toshga nisbatan ham qadimgiroq davrlar bilan sanalangan va Teshik-tosh uning merosxo'ridir. Keyinchalik ushbu nuqtai-nazarni A.P. Okladnikov qo'llab quvvatlagan (Окладников, 1966 стр. 144–158).

D.N. Lev 1952-yilgi dala tadqiqotlari mavsumida Takalisoy g'orini ochgan va u Samarqanddan 50 km janubiy-sharqda joylashgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan 10 taga yaqin tosh buyumlar va hayvon suyaklari bo'laklari yig'ib olingan. Takalisoy

industriyasining tahlili asosida D.N. Lev yodgorlikni so‘ngi muste davri bilan sanaladi (Лев, 1955 стр. 21–28). N.X. Tashkenbayev va R.H. Sulaymonovlar «Takalisoyning kvarsli industriyasini ishlab chiqarish texnologiyasi va tipologiyasiga ko‘ra Qo‘tirbuloqning quyi qatlamlariga o‘xshashdir» deb topishgan (Ташкенбаев, 1980 стр. 68–69).

D. Lev tomonidan boshlangan tadqiqotlar uning shogirdi M.D. Djurakulov rahbarligidagi arxeologiya kafedrasi jamoasi tomonidan O‘rta Zarafshon vohasi tosh davri jamoalari moddiy madaniyati tadqiqoti izchillik bilan davom ettirildi. Xususan, M. Djurakulov Samarqand makoni tadqiqotini muvaffaqiyatli ravishda davom ettirgan. Keyingi yillardagi Qo‘tirbuloq paleolit makoni, Siyobcha va Xo‘jamazgil makonlari tadqiqotida, shuningdek, Afrosiyob shaharchasi o‘rnidan, Registon maydonidan, Samarqandga yaqin Darg‘om kanalining yonlaridan ko‘plab tosh davri jamoalariga tegishli qiziqarli arxeologik manbalarning ham qo‘lga kiritilishida Samarqand davlat universitetining M.Djurakulov rahbarligidagi ekspeditsiyasi xodimlarining ishtirokini alohida e’tirof etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shu tariqa jarayon oydinlashtirildiki, Samarqand muzofotining paleolit davrida odamzodning yashash va madaniyat yaratish uchun qulay tabiiy ekologik o‘lkalardan biri bo‘lganligi, fauna va flora hamda odamzod hayoti uchun boshqa tirikchilik resurslariga serobligi boy arxeologik va paleontologik manbalar zamirida isbotlandi. D.N. Lev rahbarligidagi SamDU arxeologik ekspeditsiyasi 50-60-yillarda tosh asrining turli bosqichlariga mansub qator yodgorliklarni o‘z shogirdlari M. Djuraqulov, Yu. Xolyushkin, Ye. Amarsova, N. Toshkenboyev va keyinchalik B. Sayfullayev, N. Xolmatov, O. Ergashevlar ishtirokida o‘rganilib, natijalari yangi tahlil va yondashuv asosida fanga kiritildi. Jumladan, Zirabuloq, Ziyovuddin, Qo‘tirbuloq, Go‘rdara o‘rta paleolit, Samarqand, Xo‘jamazgil, Siyobcha kabi so‘nggi paleolit davriga mansub makon-u manzilgohlar o‘rganilib, voha tarixining birlamchi manbaviy asoslari tubdan boyitildi (Джуракулов и др., 1991 стр. 14).

Tosh davrida tirikchilik uchun o‘tkir, ixcham mehnat qurollarini ishlab chiqarish xom ashyosi muhim hayotiy talablardan biri bo‘lgan. Shuning uchun odamlar sifatli chaqmoqtosh zahiralarini qidirish, izlab topish va foydalanishni hayotiy zaruriyat deb tushungan. Arxeologlarimiz ibtidoiy odamlar foydalangan sifatli chaqmoqtosh konlarini topib o‘rgandilar. Shulardan, Samarqand shahridan 6–7 km sharqroqda joylashgan Cho‘ponota yassitog‘i tepaligidan, Navoiy shahri yaqinidagi Uchtut qishlog‘i atrofidan sifatli chaqmoqtosh konlari topilib o‘rganildi (Эргашев, 2023). Bu konlardan odamzod guruhlari butun tosh asri davomida foydalanib kelishganlar. Jumladan, Samarqand so‘nggi

paleolit davri (bundan 50–12 ming yillar avval) jamoalari, Sazag‘on mezo-neolit (mil. avv. 12–4 ming yillik) jamoalari Cho‘ponota konidan keng foydalanganligi ma’lum bo‘ldi.

Masalan, Samarqand paleolit makonida, Uchtutda chaqmoqtoshdan qurol yasash ustaxonalari mavjud bo‘lganligi aniqlandi. Kishilar zaruriyatga binoan yirik tosh bo‘laklarini manzilgohlariga keltirib, texnik parchalash yo‘li bilan ehtiyojga ko‘ra turli keskir qurollar ishlab chiqqanlar. Tajribali ustalar yosh avlodga o‘z davrining qurol yasash texnologiyasini zukkolik bilan o‘rgatishganlar va bu soha doimiy takomillashtirilib borilgan. Masalan, qulay tosh parchalaridan bolta, iskana va o‘tkir chiqindilardan yoy o‘qlari, teshgich, keskich, parmalovchi kabi asboblar yasashganlar. Mehnat qurollarining takomillashuvi tirikchilik talablaridan kelib chiqqan holda rivojlana borgan. Qurol yasash ilg‘or texnologiyalari jamoalararo talabga binoan foydalanilgan bo‘lib, bu hodisa jamoalar va qabilalararo madaniy tajribalarning uyg‘unlashuvi va uzluksiz rivojlanishiga muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Kafedra o‘z ilmiy va ta’lim faoliyati yillarida davriy «Arxeologiya, qadimgi tarix va etnografiya masalalari», «Zarafshon vodiysi arxeologiyasi masalalari» nomli ilmiy maqolalar to‘plami nashr etib kelinmoqda. Shuningdek, kafedra professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari shu o‘tgan yillar davomida 20 ga yaqin monografiya (xorijiy tilda ham nashr etilgan), ko‘plab ilmiy maqolalar nashr etishgan. Xususan, prof. M.D. Djurakulovning “O‘rta Osiyo ibtidoiy davr arxeologiyasi” (1984), “Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии” (1987), “Самаркандская стоянка как эталон верхнего палеолита Средней Азии” (Kishinev, 2000) kabi monografiyalari, ilmiy maqolalari xorijiy mamlakat-larning markaziy nashriyotlarida ham e’lon qilingan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, SamDU arxeologik ekspeditsiyasi faoliyati Samarqand viloyati tosh davri yodgorliklari manbalarini yangi zamonaviy yondashuv asosida o‘rganish, bu yerda yashagan odamzod jamoalarining ijtimoiy hayoti, ma’naviy dunyosi haqida ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo‘ldi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Джуракулов М.Д., Холматов Н.У.* Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. – Ташкент, 1991.
2. *Джуракулова Д.М.* Зарафшон водийсининг т ош ва бронза даври қабилалари маданияти. Номзодлик диссертацияси автореферати. -Самарқанд, 2009
3. *Лев Д.Н.* Новые данные по палеолит у Узбекист ана // Труды инст ит ут а ист о-рии и археологии. – Ташкент: Изд-во АН УзССР – № 7. 1955

4. *Окладников А.П.* Древние связи культ ур Сибири и Средней Азии // Бахрушинские чтения 1966 г. –Вып. 1: методология истории, всеобщая история, археология. Новосибирск, 1968. –С. 144-158.
5. *Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х.* Культ ура древнекаменного века долины Зарафшана. – Ташкент: ФАН, 1980
6. *Эргашев О.Т.* Место памятников Кукаяз 1-8 в классификации центральноазиатских мастерских каменного века. Археология Евразийских степей №1, 2023

**R. Ergasheva**
*Namangan davlat universiteti talabasi*
*ergashevarano42@gmail.com*

# EYLATON MADANIYATININGNING O‘RGANILISH TARIXI

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysidagi arxeologik yodgorliklarning biri – Andijon viloyatining Izboskan tumanida joylashgan ilk temir davriga oid bo‘lgan Eylaton madaniyatining o‘rganilish tarixi tahlil qilingan.

Farg‘ona vodiysi azaldan o‘zining betakror tabiati, unumdor tuprog‘i-yu hayvonot olami bilan barchani o‘ziga jalb etib kelgan. Shuning uchun bo‘lsa kerakki, qadimdan bu hudud turli xalqlar uchun vatan bo‘lgan. Vodiyning qulay iqlim sharoiti ushbu hududda yashovchi insonlarning o‘troq turmush tarziga o‘tishiga omil bo‘lgan. Bu vodiyda 1885-yil fevral oyida rus arxeologi N.I. Veselovskiy, 1930-, 1933–1934-yillarda B.A. Latinin rahbarligida va boshqa bir qancha olimlar tomonidan ilmiy arxeologik ekspeditsiyalarni amalga oshirilgan.

O‘troq turmush tarzi odamlarning xo‘jaligini ham o‘ziga moslashtiradi. O‘troqlarga xos bo‘lgan dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik vodiy aholisini ham o‘z sohasida yetakchi bo‘lishga undadi. U yerda metalga ishlov berish, konchilik, ipakchilik, kulolchilik kabi bir qator hunar turlari ayniqsa shuhrat qozondi. Kulolchilik san’atida esa antik davrlarga kelib Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan bellasha oladigan darajada rivoj topdi.

2019-yil 4-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy merosnining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 846-sonli Qarorida tasdiqlanishicha, Farg‘ona vodiysida hozirgi kunda antik davrga oid yodgorliklar 301 tani tashkil qiladi. Shulardan, Andijon viloyatida 190 ta, Namangan viloyatida 58 ta, Farg‘ona viloyatida 53 ta ekanligi qayd etildi. Bular orasida Quva, Axsikent, Mingtepa, Eylaton va boshqa shu kabi yodgorliklarning tarixiy va madaniy qiymatini alohida qayd etish lozim.

Arxeolog tadqiqotchilar Farg‘ona vodiysining qadimiy shaharlaridan biri sifatida o‘rganilayotgan Eylaton madaniyatini (ba’zi adabiyotlarda Eylaton-Oqtom madaniyati, deb ham yozilgan) va yodgorlik bilan yonma-yon holda joylashgan Sho‘raboshot madaniyati ilk temir davriga kelib rivojlanganligini ta’kidlaydi.

**Tadqiqot.** Mintaqa tarixini o‘rganishda yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan xitoy manbalarida, xususan xitoylik tarixchi Sima Syanning Shiszi asarida 3 ta shaharning nomi tilga

olinadi: Yuan (Farg‘ona), Ershi (Mingtepa), Yuchen (Eylaton).

Miloddan avvalgi IV asrda shimoli-sharqiy Farg‘onada Maylisuv daryosining delta qismida urbanizatsiyalashgan dehqonlar qarorgohi shakllanadi. Mil. avv. II asrda xitoy yilnomasi Shiszida tilga olingan Yuchen shahri hozirgi Eylaton yodgorligi o‘rnida bo‘lgan. Yuchen shahri konfederativ Farg‘ona davlati tarkibiga kirgan hududiy davlatning poytaxti hisoblanib, vodiyning sharqida joylashgan (Anorboyev, 2022 102-b). Eylaton madaniyati mil. avv. VII–IV asrlarga tegishli, Qoradaryo bo‘yida joylashgan bo‘lib, u ziroatkorlar yurti sifatida tilga olingan. Manzilgoh ichki va tashqi qismdan tashkil topgan bo‘lib, pastki qismi guvala va yuqorisi xom g‘ishtdan 4 m qalinlikda barpo etilgan. Manzilgoh birinchi devoridan 500 m masofada, unga parallel qilib qurilgan ikkinchi devor joylashgan. Ehtimol, ikkinchi shahriston harbiy xavf tug‘ilgan vaqtda aholi chorva mollarini himoya qiladigan joy bo‘lishi mumkin. Mudofaa devorlari kvadrat burjlar bilan kuchaytirilgan. Murakkab tuzilishiga ega bo‘lgan bunday fortifikatsiya Chust madaniyatining shahar turidagi manzilgohlarda uchramaydi, aksincha, O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlari uchun xos (Ibragimov, 2022 148-b). 20 gektarga teng bo‘lgan ark maydoni esa kuchli himoya qilingan. Saqlanib qolgan devorning eni 4 m, balandligi esa 2,5 m bo‘lganligi aniqlangan. Mudofaa devori bo‘ylab, har 55-60 m da burch (mo‘la) o‘rnatilgan. Burchlar to‘rtburchak shaklda bo‘lib (o‘lchamlar 10,5 x 10 m), umumiy devordan oldinga chiqib turgan (O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005 21-b). Mudofaa devorlarining qurilishi ular atrofida xandaqlar qazilganligidan dalolat beradi. Bu yerdagi izlanishlarning natijasiga ko‘ra, joy ma’lum reja asosida, juda mukammal qurilgan ilk shahar va o‘z zamonasining yirik me’moriy muhandislik obidasi, deyish mumkin.

Eylaton madaniyati haqida birinchi ma’lumotni gidrogeolog I. A. Anboyev bergan. U 1926-yilda yodgorlik joylashgan hududda imzo qo‘yilgan stakanni topdi va buning natijasida keyinchalik arxeologik izlanishlarni amalga oshirgan. 1930–1933-yillarda B. A. Latinin qadimiy manzilgohni o‘rganib, 1934-yilda kichik qazishmalar olib bordi. Biroq, u vaqtda mintaqadagi qadimiy madaniyatlar o‘rganilmaganligi sababli hamda qo‘lda yasalgan sopol idishlarning bo‘yoqli nashrlari fanda ma’lum bo‘lgan Turkmanistondagi Anov madaniyatiga qisman o‘xshaganligi tufayli Eylaton madaniyatini “Ziroatkorlar madaniyati”, deb ta’riflagan (Латинин, 1935 110-с). 1960–1970-yillar davomida vodiyning sharqida Y.A. Zadneprovskiy, mintaqaning g‘arbi hamda janubi-g‘arbida N.G. Gorbunova o‘z dala tadqiqotlarida Eylaton qadimgi dehqonchilik madaniyati ekanligi to‘g‘risidagi fikrlarini himoya qilib arxeologik izlanishlarni amalga oshiradi. Lekin, vodiyning sharqida bu madaniyatga tegishli bo‘lgan qabr-qo‘rg‘onlar va Sho‘raboshot ziroatchi madaniyatiga oid

manzilgohlar topilgan. Mintaqaning g'arbi va janubi-g'arbida esa, faqat qabr-qo'rg'onlar borligi aniqlangan. Farg'onashunos arxeologlarning ta'kidlashicha, Eylaton yoki Eylaton-Oqtom madaniyatida Eylatondan tashqari boshqa shahar qoldiqlari topilmagan. Biroq, Eylaton shahri va Simtepa manzilgohidan boshqa barcha ochilgan yodgorliklar qabr-qo'rg'on ekanligiga qaramay, uni qadimgi dehqonchilik madaniyati deb qabul qilingan.

Madaniyatning ziroatchilikka yoki chorvadorlikka oid yodgorlik ekanini aniqlash borasida bir qancha izlanishlar va tortishuvlar bo'lganligi ko'rinib turibdi. XX asrning 60-yillaridayoq bunday fikrlar ayrim tadqiqotchi olimlar tomonidan shubha ostiga olinib, bu madaniyat ko'chmanchi sak qabilalariga tegishli ekanini arxeologik va yozma manbalar asosida tahlil qilib berilgan.

Eylaton madaniyatiga oid 50 dan ziyod manzilgohlar o'rganilgan. Bu manzilgohlar ahamoniylar shaharsozligi usulida barpo etilib, ularni yozma manbalarda qayd etilgan shaharlar bilan qiyoslash mumkin (Ibragimov, 2022 149-b). Bu madaniyat tarkibiga kiruvchi vodiydagi eng katta shahar Eylaton yodgorligidir. Bu shahar 1932-yilda aniqlangan bo'lib, shu kungacha B.A. Latinin, Y.A. Zadneprovskiy, T.G. Oboldueva, S. Qudratovlar arxeologik qazishmalar o'tkazganlar. Tekshiruvlarga ko'ra, yodgorlikning maydoni 200 gektar bo'lganligi uchun ham yuqorida "Vodiydagi eng yirik shahar" iborasi ishlatildi. Eylaton hunarmandlar shahri bo'lgan. Unda kulolchilik, to'qimachilik va qisman temirchilik kabi sohalari rivoj topgan.

2021-yil Xonobod shahar tog' yonbag'rida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ikkita qabr ochib o'rganilgan va Farg'ona vodiysidagi Eylaton hamda Sho'raboshot madaniyatiga oid topilmalar aniqlanganligi qayd etilgan. "Vodiy qadim madaniyatiga oid ilmiy konsepsiyalar ketma-ket joylashgan Eylaton va Sho'raboshot manzilgohlarida sopol namunalarining bitta madaniy qatlamdan olinganligini ko'rsatishga qaratilgan edi. Bu hol ularning o'tgan asrning 70–90-yillarida ayrim tadqiqotchilarning nazariy xulosalarida keltirilganidek, ketma-ket emas, balki bir vaqtda yoki parallel ravishda mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Qo'shtepadagi tadqiqot natijalari esa buni tasdiqlamoqda (Abdullayev, 2020). Eylaton madaniyatiga oid manzilgohlarda 1934–1952-yillarda arxeologik qazishmalar olib borildi. Bu ekspeditsiyada turarjoylar va topilgan kulolchilik buyumlari o'rganilgan. Olimlarning keying maqsadi yodgorlikning mudofaa holati bilan tanishish bo'lgan.

Manzilgohda foydalanilgan qurilish texnikasi va materiallari Chust madaniyati me'morchiligi bilan bir qator o'xshashliklarga ega. Lekin, Chust va Sho'raboshot madaniyatlariga taalluqli bo'lgan shaharlar hajmi va shakliga ko'ra Eylatondagilardan farq qilgan.

Chunki, bu yodgorlikdagi shaharlar yagona muhandislik rejasiga asosan barpo etilgan va shu davrda markazlashgan davlatchilik shakllanayotganligidan dalolat beradi. "Eylaton Farg'ona vodiysida ushbu davrning iqtisodiy, savdo va ma'muriy boshqaruv markazi bo'lgan", deydi – Boqijon Matboboyev.

**Xulosa.** Eylaton madaniyatida kulollik sohasi rivojlanganligi to'g'risida ma'lmotlar mavjud. Bunga misol qilib qidiruv ishlari natijasida sopol idishlar pishiradigan 2 xumdonning topilganligini aytish mumkin. Idish xillari va ko'plab sopl idishlar parchalariga qaraganda ular kulolchilikda charxdan foydalanligi ham ko'rinib turibdi. Kulolchilik mahsulotlari hajman kattalashgan bo'lib, ulardagi bo'yoqli naqshlarning an'anaviylikdan o'zgacha ko'rinishda bo'lgan nusxalari Eylaton madaniyatining Oqtom va Qo'g'ay manzilgohlaridagi qabr-qo'rg'onlardan topilgan. Ularning yashash xonasidan tashqari yordamchi xo'jalik majmuasi: o'ralar, maydonlar va o'choqlar ham borligi aniqlangan. Xo'jalikning asosini esa sug'orma dehqonchilik tashkil qilgan. Dehqonchilikda arpa, bug'doy va tariq ekilgan. Xo'jalikning ikkinchi tarmog'i chorvachilik hisoblangan. Chorvachilikda asosan kichik tuyoqli chorva mollari boqilgan. Chorvachilikda ikkinchi o'rinni qoramol va yilqichilik egallagan.

Bu yodgorlikda arxeologik ekspeditsiyalar hali nihoyasiga yetganicha yo'q. Yodgorlik O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishayotgan vaqtlarda, ya'ni 1990–1991-yillarda S. Qudratov tomonidan o'rganilgan. Shundan keyin bu yerda izlanishlar ma'lum muddat to'xtab qolgan va 2023-yildan yana ekspeditsiyalar faoliyati davom ettirila boshlandi. Bu yodgorlikda qadimgi tarixning hali ochilib ulgurmagan qancha sirlari tuproq ostida saqlanib turibdi. Yodgorlik ziroatkorlar yoki charvadorlar yurti ekanligiga oid hali aniq javoblar yo'q. Bu yerni o'rgangan har bir olim o'z izlanishlaridagi nazariyasini keltirib o'tgan. Qidiruv izlarini tadrijiy davom ettirib, shu kabi savollarga javob topish har bir "o'zini arxeologman", degan shaxsning zimmasida turgan vazifalardan biridir. Barcha yodgorliklarning to'liq o'rganilishi O'zbekistondagi hududlarning qadimiy tarixi mavjudligini yana bir bor aks ettirishi aniq.

Ushbu maqolada keltirib o'tilgan xulosaning asoslari oldingi tadqiqotchilar tomonidan shakllangan nazariy ishlanmalar hamda hozirda olib borilayotgan arxeologik izlanishlar yakunidagi qiyosiy solishtirma natijalaridan kelib chiqqan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Anorboyev A*. "Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyoda tutgan o'rni". "FAN". T: – 2022. – B. 139.

2. *Ibragimov R.* “Arxeologiya”. “FAN”. T: – 2022. – B. 236.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti”. T: – 2005. – B. 283.
4. *Латынин Б. А.* “Работы в районе проектируемой гидростанций нар. Нарыне в Фергане”. – ИГАИМКБ 1935. –С. 110.
5. *Abdullayev B. M.* “Andijon qadimiyat tamaddunlar chorrahasida”. 17.10.2020.
6. https://uz.m.wikipedia.org
7. https://cyberleninka.ru

**A. A. Imomov**
*Samarqand arxeologiya instititi tayanch doktoranti*
*azizimomov91@mail.ru*

**I.A. Kandaxarov**
*Samarqand arxeologiya instititi tayanch doktoranti*
*iftixorqandaxarov61@gmail.com*

**F.N. Tursunqulov**
*Samarqand arxeologiya instititi tayanch doktoranti*
*fozilbektursunqulov661@mail.com*

## ZARAFSHON VOHASIDA O'RTA PALEOLIT DAVRI MADANIYATLARINING TISHSIMON MUSTE VARIANTI MUAMMOSI

O'rta paleolit davri yodgorliklarini fatsial differensatsiya qilish dastavval F. Bord tomonidan Fransiyadagi muste madaniyatlari variabelligini yanada to'laroq aks ettirish maqsadida XX asrning 50–60 yillarida taklif qilingan edi. Aniqlovchi tosh buyumlar tiplarining foiziga hamda ayrim texnologik ko'rsatkichlarga (levallua indeksi, plastinalar indeksi, fasetkalashtirilgan zarb maydonchalar indeksi va h.k.) asoslanib yodgorliklar 5 ta yirik guruhlarga («klassik muste kompleksi») –tipik, Lya Kina-Ferassi, levallua, ashel an'anali va tishsimon mustega ajratilgan edi. Keyinchalik ushbu sxema Yevrosiyoning boshqa hududlariga ham ko'chirildi. Shunday qilib, o'rta paleolit davri yodgorliklarini fatsiyalarga ajratish ishlari 1960–1970 yillarda Markaziy Osiyoning g'arbiy qismida Yevropaning paleolitshunosligidagi bilan hamohang kechdi (Sayfullaev, 2022 44-bet).

Xo'sh, tishsimon muste nima?

Tishsimon muste – Qirg'ichlar kam sonli, ayrim atipik qo'l cho'qmorlari va yelkali pichoqlar ko'p sonli bo'lishi, juda o'xshash tishsimon qurollarning mavjudligi bilan xarakterlangan (Thiébaut, 2010 346-bet).

O'zbekistonda – Ko'lbuloq, Bo'zsuv, Burgalik, Qizilolma-2, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, To'polon, Qopchig'oy, Qizilqum topilmajoylari kiritilgan. O'rta Osiyoda tishsimon muste madaniyati Toshkent vohasidagi Ko'lbuloq topilmajoyi materiallari asosida M. Qosimov (1972) tomonidan ajratilgan va bu barcha mutaxassislar tomonidan yakdillik bilan qabul qilingan. T. Omonjulov, N. Kulakovskaya va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan edi.

2000-yillarning boshlarida F. Bordning tishsimon muste madaniyatiga ajratishi tanqidga uchradi. Fransuz tadqiqotchisi S. Tyubua avvalgi tadqiqotchilar tomonidan mexanik xarakterdagi tosh industriyalarining yanglish ravishda tishsimon muste madaniyatiga kiritib yuborilganligini aniqladi.

Bunda S. Tyubua mexanik tarzda hosil bo'lgan soxta retushlarning paydo bo'lish mexanizmlarini hamda mezonlarini ishlab chiqdi:

1. Negativlarning yangiligi;
2. Buyumlar hajmining nisbatan kichikligi;
3. Qirraning notekisligi;
4. Zarb tekkan qirraning kuchli darajada ezilganligi;
5. Bitta qurolda turli xil qirralarning birga uchrashi;
6. Dorsal tarafdan berilgan retushlarning ustunligi;
7. Qirralarda retushli va retushsiz maydonlarning ketma-ket kelishi;
8. Retushlarning notekisligi, tikligi;
9. Ketma-ket joylashgan retushlarning mavjudligi (zigzag);
10. Retushlangan qirralarga qarama-qarshi yoki boshqa tomonlarda ayrim fasetkalarning mavjudligi.

Ana shu belgilarga ko'ra soxta retushlarni intensional retushlangan qurollardan osongina ajratib olish mumkin. (Thiébaut, 2005 106-bet).

Bunday retushlarning kelib chiqishi tabiiy jarayonlar (sel oqimidagi mexanik shikast) yoki tasodifiy harakatlar (qadimgi odamlar yoki fauna vakillarining), tasodifiy bosib olishlari oqibatida sodir bo'lgan. Ushbu yo'nalishdagi ishlarda eksperimental tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular har ikkala tipdagi maqsadli ishlov berilgan qurollar va psevdoretushlar orasidagi chegarani tushuntirib bera oladi (Thiébaut,2010 348-bet) (1-rasm).

Qolaversa, Samarqand arxeologiya instituti tosh davri bo'limi xodimlari bilan birgalikda S. Tyubua kabi eksperimental tadqiqot ishlarni olib bordik. Natijada 9 ta tosh qurollardan 5 tasi ventral qismida, qolgan 4 tasi dorsal qismida psevda retush izlari paydo bo'ldi (2-rasm).

Tishsimon muste makonlaridagi haqiqiy industriyalar va psevdoretushli industriyalar orasidagi tafovutni tushuntirib berish maqsadida S. Tyubua (Provans Universiteti, Fransiya) qayta tahliliy tadqiqotlar olib bordi.



*1-rasm. S.Tyubuaning eksperimental tadqiqoti*



*2-rasm. Samarqand arxeologiya instituti tosh davri bo`limi xodimlarining eksperimental*

U psevdoretushlarni aniqlash maqsadida qator tayanch yodgorliklarda tadqiqotlar o'tkazdi (Suriyadagi Yabrud, Italiyadagi Riparo Mochi, Dordoniyadagi Komb Grenalning 28-qatlami va h.k. yodgorliklarda). Natijada tishsimon mustega oid yodgorliklar G'arbiy Yevropada Fransiyaning janubida va Ispaniyaning shimolida jami 9 ta ekanligi aniqlandi. (Thiébaut, 2010 359-bet).

2007–2010 va 2013-yilda O'zbekiston-Rossiya xalqaro ekspeditsiyasi S. Tyubua usuli yordamida Toshkent vohasidagi Ko'lbuloq makoni materiallarini tadqiq qildi. Qo'lga kiritilgan xulosalar yodgorlikning materiallari sel oqiziqlari yordamida yuqoridan oqizib kelingani, bu yerdagi "tishsimon qurollar" mexanik tarzda hosil bo'lganligi va Ko'lbuloq makonining tishsimon muste madaniyatiga kiritilishining asossiz ekanligini ko'rsatdi. (Павленок и др., 2014)

Zarafshon vohasida ham huddi Ko'lbuloq yodgorligiga o'xshash Zirabuloq va Qo'tirbuloq nomli yodgorliklari mavjud (3-rasm).

Zirabuloq makoni Ziyovuddin tog'lari etaklaridagi shu nomli chashma atrofida Qo'tirbuloq makonidan 1,5 km sharqroqda, dengiz sathidan 475 m balandlikda joylashgan. Yodgorlik 1971-yilda Yu.F. Buryakov rahbarligidagi Samarqand arxeologik guruhi tomonidan aniqlangan va dastavval N.X. Toshkenboev tomonidan qazib o'rganilgan. Yodgorlik 1977–1978 yillarda Samarqand davlat universiteti tomonidan o'rganilgan va minglab tosh buyumlar yig'ib olingan (Sayfullaev, 2022 6-bet).

Zirabuloq makoni Ziyovuddin tog'lari etaklaridagi shu nomli chashma atrofida Qo'tirbuloq makonidan 1,5 km sharqroqda, dengiz sathidan 475 m balandlikda joylashgan.




*3-rasm. Qo`tirbuloq va Zirabuloq yodgorligining xaritada ko`rinishi*

Yodgorlik 1971-yilda Yu.F. Buryakov rahbarligidagi Samarqand arxeologik guruhi tomonidan aniqlangan va dastavval N.X. Toshkenboev tomonidan qazib o‘rganilgan. Yodgorlik 1977–1978 yillarda Samarqand davlat universiteti tomonidan o‘rganilgan va minglab tosh buyumlar yig‘ib olingan (Sayfullaev, 2022 6-bet).

Tadqiqotimiz ham bevosita Zirabuloq toshlariga bag‘ishlangan bo‘lib, Asosan 1977 –1978- va 1992-yilgi qazishmadan chiqqan toshlardan foydalandik. To‘plamimizda 1 tosh qayroqtoshdan yasalgan uchirindi. Hajmi 74x32x11 mm. Dorsal tarafi tabiiy qobiq bilan qoplangan. Ushbu uchirindimizning proksimal qismi sinib, distal qismi saqlanib qolgan. Uchirindining chap va o‘ng lateriali dorsalga yo‘nalgan psevda retushlar bor (4-rasm,1). Navbatdagi uchirindimiz kulrang kremniydan ishlangan.Hajmi 81x26x14 mm. Uchirindining o‘ng laterialida dorsalga yo‘nalgan psevda retush mavjud va xuddi shu tomonda kichik bo‘lsada mayda retushlar ham bor. Hamda uchirindining chap laterialida ventralga yo‘nalgan psevda retushni ko‘rishimiz mumkin (4-rasm,2). Keyingi toshimiz ham kulrang kremniydan yasalgan. Hajmi 30x38x13 mm. Uchirindining ko‘ndalang distalida ventralga yo‘nalgan psevda retush mavjud. Bundan tashqari uchirindining o‘ng laterial ventral qismida psevda retush izlari bor. Zarb maydonchasi buzilgan (4-rasm,3).

Navbatdagi toshimiz slanesdan yasalgan plastinaning medial qismi bo‘lib, hajmi 44x37x10. Plastinaning chap va o‘ng lateriali dorsalga yo‘nalgan psevda retushlar mavjud. Dorsalning chap lateriali teng yarmi tabiiy qobiq bilan qoplangan (4-rasm, 4).

Kolleksiyamizda navbatdagi tosh slanesdan yasalgan texnik yo‘nilg‘i hisoblanib, aksident uchirindilar qatoriga kiradi. Aksident degani bu teng ikkiga bo‘linib ketgan

uchirindini tushunamiz. Hajmi 45x17x8 mm. Proksimal qismi mavjud emas, singan. Faqat distal qismi saqlanib qolgan. Uchirindining o‘ng lateriali dorsalga yo‘nalgan psevda retush izlari bor. Bundan tashqari haqiqiy retush ham mavjud (4-rasm, 5). Keyingi tosh qumli slanes yasalgan uchirindi hisoblanadi. Hajmi 43x26x14 mm. Zarb maydonchasi tekis. Dorsalning chap laterialining teng yarmi tabiiy qobiq bilan qoplangan. Uchirindining o‘ng va chap lateriali dorsalga yo‘nalgan psevda retushlar mavjud. Ventralning distal qismi yumaloq sharner holatda (4-rasm, 6).

Keyinggi toshimiz ham slanesdan yasalgan uchirindi bo‘lib, hajmi 48x29x8 mm. Zarb maydonchasi fasetkalashtirilgan. Dorsalidagi yo‘nilg‘i negativlari uzunasiga subparallel xarakterga ega. Uchirindining chap lateriali proksimal qismida dorsalga yo‘nalgan psevda retush bor. Chap laterial distal qismida dorsalga yo‘nalgan haqiqiy retush ham mavjud. Bundan tashqari o‘ng laterial distal qismida ham psevda ham haqiqiy retushni ko‘rishimiz mumkin (4-rasm, 7). Navbatdagi tosh qumli slanesdan yasalgan uchirindi.

Hajmi 44x26x8 mm. Zarb maydonchasi ikki qirrali. Dorsalidagi yo‘nilg‘i negativlari uzunasiga subparallel xarakterga ega. Uchirindining chap lateriali dorsalga yo‘nalgan psevda retush bor (4-rasm, 8). Keyingi toshimiz jigarrang kremniydan ishlangan plastinaning proksimal qismi. Hajmi 44x31x12 mm. Zarb maydonchasi fasetkasimon. Plastinaning chap va o‘ng lateriali dorsalga yo‘nalgan psevda retush izlari bor (4-rasm, 9). Slanesdan ishlangan



*4-rasm. Zirabuloq yodgorligining psevda qurollari (soxta qurollar).*

keyingi toshimiz uchirindi bo'lib, hajmi 37x22x10 mm. Uchirindining o'ng va chap laterialida dorsalga yo'nalgan psevda retush mavjud. Shu bilan birgalikda 2 dona haqiqiy retush ham bor. Bu esa psevda retush o'zidan avvalgi haqiqiy retushni buzib yuborgandan dalolat beradi (4-rasm, 10). Kolleksiyamizdagi so'nggi tosh kulrang kremniydan ishlangan plastinaning medial fragmenti bo'lib, hajmi 31x24x7 mm. Plastinaning o'ng va chap lateriali dorsalga yo'nalgan psevda retush izlari mavjud.T. Omanjulov va L.I. Kulakovskayalar tomonidan "tishsimon" elementlar foizining kattaligiga asoslangan talqinlari, ya'ni Zirabuloq industriyasining tishsimon muste fatsiyasiga kiritganliklarining asossiz ekanligi isbotlandi.

Subparallel levallua tipidagi yo'nilg'ilar foizining ko'pligi Paleolit SSSR jildi mualliflari tomonidan Qo'tirbuloq va Zirabuloqni tipik muste fatsiyasiga kiritilishini ham shubha ostida qoldirdi. Zirabuloq makoni o'rta paleolit davri tosh industriyasi shu davrning oxirlariga oidligi va muste-levallua fatsiyasiga xosligi isbotlandi ( Sayfullaev, 2022 235-bet). Qo'tirbuloq yodgorligiga keladigan bo'lsak, R.H. Sulaymonov va B.Q. Sayfullaev Qo'tirbuloq materillarini ko'rib, Obirahmat madaniyatiga yaqinligi tufayli levallua variantiga kiritganlar. T. Omonjulov va L.V. Kulakovskalarning fikricha, Qo'tirbuloq tishsimon-muste variantiga, V.A. Ranov va Z.A. Abramovlar esa Qo'tirbuloqni tipik-muste variantiga kiritganlar. Xo'sh, Qo'tirbuloq makoni o'rta paleolitning qaysi variantiga kiradi? Bizning fikrimizcha, Qo'tirbuloq yodgorligida levallua texnikasi elementlari kuchliroq. Tishsimon elementlar ham mavjud. Ammo ko'pgina tosh qurollardagi retushlar (tishlar) mexanik xarakterga ega (Imomov, 2023 7-bet).Shuning uchun bu borada hali yakdil xulosa qilishga shoshilmaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Sayfullaev B.Q* O'rta Zarafshon vohasi tosh davri madaniyatlari (Zirabuloq makoni materiallari asosida) Samarqand – 2022. 41-48 bet
2. *Thiébaut C.* Denticulate moustérian: Myth or Réality? // Middle Paléolithic Human Activity and Paleoecologiy: New Discoveries and Ideas. Wroslaw: Stadia Archeologiczne XI.I. 2010. -P. 345-385
3. *Thiébaut C.* Le Moustérien à denticulés Variabilité ou diversité techno-économique 2005. -P. 645
4. *Павленок К.К., Шнайдер С.В., Колобова К.А., Лазарев С.Ю., Раджабов А.*
5. «Зубчатое мустье» стоянки Кульбулак: новые данные и интерпретатsiи История, Политология: Журнал теоретических и прикладных исследований N. 4/1 (84/1) /2014 161-168
6. *Imomov A* Qo'tirbuloq yodgorligining levallua texnologiyasi asosida yasalgan tosh qurollari // O'zbekiston arxeologiyasi jurnali № 1 (29) Samarqand – 2023 8 bet.

**Q. Islamova**
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*Gumanitar fanlar fakulteti*
*Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.*
*qunduzislamova949@gmail.com*

# O‘ZBEKISTONDA ARXEOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ushbu maqolada arxeologiyaning insoniyat tarixini o‘rganishda tutgan o‘rni, zamonaviy arxeologiyaning paydo bo‘lishi haqida ma’lumotlar beriladi. Zamonaviy arxeologiyaning yurtimizga kirib kelishi, olib borilgan dastlabki arxeologik qidiruv ishlari, ilk topilmalar haqida so‘z boradi. Eng mashhur manzilgohlar va ulardagi noyob arxeologik buyumlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Tarixni va moziyni yaxshi o‘rganishni istagan har qanday olim va tadqiqotchi, avvalambor, arxeologik topilmalarga murojaat etadi. Chunki arxeologik topilmalar anchayin ishonchli dalil bo‘lib, aynan shu yerda kimlar yashaganligi, qanday buyumlardan foydalanganliklari, sivilizatsiya darajasi qanchalik rivojlanganligini namoyon etadi. Har qanday topilgan arxeologik topilmalar bizga o‘tmishning eng ajib sirlarini so‘zlab beradi. Chunki hali yozuv vujudga kelmasdan oldin, yozma manbalarni topishning iloji bo‘lmagan davrlarda ham, albatta, arxeologik topilmalar va dalillar mavjud bo‘lgan. Vazifamiz esa o‘sha arxeologik topilmalarni izlab topish, o‘rganish va ularni tadqiq etishdan iboratdir. Aynan mana shunday dalillarni o‘rganish orqali biz vatanimiz tarixini kengroq yozish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Arxeologiya so‘zi yunonchadan tarjima qilinganda “arxeo”-qadimgi, “logos”-fan degan ma’noni bildiradi. Arxeologiya tarix bilan bevosita chambarchas bog‘liq bo‘lib, tarixni qayta tiklashda muhim rol o‘ynaydi. Hattoki, olimlar orasida shunday gap ham borki, unga ko‘ra, butun insoniyat tarixini 24 soat, deb oladigan bo‘lsak, shu bugunga qadar paydo bo‘lgan yozma manbalar oxirgi 4 daqiqasini tashkil etar ekan.

Shuning o‘ziyoq arxeologik manba naqadar muhim ekanligini isbotlab beradi. Ushbu atama antik davrdan boshlab muomalaga kiritilgan. Bu davrda yashagan rimlik mutafakkir Tit Lukretsiy “Narsalarning tabiati to‘g‘risida” nomli asarida (mil. avv I asr) insoniyat tarixini tosh, mis, bronza va temir davrlariga bo‘lib, arxeologiya bilimiga tamal toshini qo‘ygan edi (Ibragimov, 2022 5-b). Ibtidoiy qurollardan tortib, eng qadimgi uy-joy makonlari, yuksak darajada rivojlangan sivilizatsiya markazlarini ham topib o‘rganish arxeologlarning vazifasidir. Har qanday topilma shunchalik ahamiyatliki, hattoki mavjud tarixni qayta ko‘rib chiqishga majbur etadi.

Qadimiy ashyo va buyumlar azaldan insonlarni o‘ziga jalb qilib kelganligiga qaramasdan ilk ilmiy arxeologik qazishmalar XVIII asrdan boshlangan. XIX asrga kelib esa dunyo bo‘ylab juda ulkan qamrovli arxeologik qazish ishlari keng tarqaldi. Dastlab bu ishlar bilan asosan yevropalik olimlar shug‘ullanishgan. Eng mashhur topilmalar Qadimgi Sharq davlatlari hududlari qadimgi Misr, Mesopotamiya, Eron kabi hududlardan topilgan bo‘lib, qimmatbaho moddiy va yozma manbalar ko‘plab insonlarni o‘ziga jalb eta boshladi. Genrix Shliman Troya shahri xarobasi(1870-1873-yillar) va Mikendagi podsholar qabrida qazishmalar olib borgan. Ayniqsa, ulardan hukmdor Agamemnon dafn etilganligi taxmin qilingan qabrning (1876) o‘rganilishi arxeologiya fanining o‘z davridagi muhim yutug‘i hisoblanadi.

O‘rta Osiyoga zamonaviy arxeologiyaning kirib kelishi bevosita Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni o‘z mustamlakasiga aylantirganligi bilan bog‘liqdir. Rossiya imperiyasi qo‘l ostidagi mustamlakalarini tabiiy boyliklarini, arxeologik yodgorliklarini chuqur o‘rganish va boshqarishni osonlashtirish uchun bir nechta olimlarni O‘rta Osiyoga yuboradi. Ular orasida eng taniqlilardan biri akademik Bartold bo‘lib aynan u 1895-yilda O‘rta Osiyoda havaskor arxeologlar to‘garagini ochadi. Bu to‘garak dastlab Ashxabod shahrida ish boshlagan bo‘lsa, keyinchalik Samarqand shahriga ko‘chiriladi. Mazkur to‘garak 1917-yilgacha faoliyat yuritgan. Bu to‘garak ishtirokchilarining asosiy vazifasi Bartold boshchiligida Turkistondagi eng qadimiy obidalarni izlab topish, ulardagi arxeologik, yozma, numizmatik ashyolarni yig‘ish va ularni tadqiq qilishdan iborat edi. 1896-yilda Toshkentda to‘garak muzeyi tashkil qilindi. Uning rahbari N.P. Ostroumov bo‘lgan (Egamberdiyeva, 2011 13-b.).

Bu kabi arxeologik izlanishlar O‘zbekiston arxeologiyasining ilk bosqichiga to‘g‘ri keladi. Mashhur olimlardan Jukovskiy, Veselovskiy, Kun, Kerx kabi insonlar ham O‘zbekistonga kelib arxeologik qazishma va tadqiqot ishlarida ishtirok etganlar. Mahalliy aholi vakillaridan havaskor arxeologlar Akram Asqarov, Mirza Buharov, Mirza Abdulin, I. Mirmuhammedovlar qazishma ishlarida qatnasha boshlashgan. Ancha davrlar mobaynida yer ostida qolib ketgan, e’tibordan chetda qolgan ko‘pgina arxeologik ashyolar, manzilgohlar qayta ochib o‘rganila boshladi. O‘rta Osiyo xususan, O‘zbekistonning boy tarixini yoritishda olib borilgan ilmiy arxeologik tadqiqotlarning o‘rni beqiyosdir.

Arxeologik izlanishlarning ikkinchi bosqichi 1917-yildan 1991-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladigan bu davrda O‘zbekiston hududida tarixda hali noma’lum bo‘lgan ko‘plab shaharlar, manzilgohlar ochildi va o‘rganildi. Ayniqsa, XX asrning 30–40-yillarida olib borilgan keng miqiyosidagi arxeologik qazishma ishlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1933-yilda M.Y. Masson boshchiligidagi Termiz arxeologiya ekspeditsiyasi, 1937-yilda S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm ekspeditsiyasi, 1934-yilda B.A. Latinin boshchiligidagi Farg'ona ekspeditsiyasi, 1937-yilda V.A. Shishkin boshchiligidagi Quyi Zarafshon ekspeditsiyasi juda katta natijalarga erishgan. Bu izlanishlar natijasida O'zbekistondagi eng qadimgi manzilgohlar topilib ularda arxeologik izlanishlar olib borildi. Unga ko'ra dunyoda juda noyob bo'lgan bir nechta qadimgi odam qoldiqlari ham aynan O'zbekiston hududida topilgan. Bu esa juda katta tarixiy kashfiyotlardan biri bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston ham eng qadimgi odamlarning yashagan o'lkalardan biri ekanligi, ularning vaqt davomida shu yerda yashab manzil qurganliklarini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Bu topilmalar arxeologiyaning juda mustahkam poydevorini qurishga asos bo'ldi.

Quyida eng mashhur arxeologik manzilgohlar va topilmalarning bir nechtasiga to'xtalib o'tamiz.

Farg'ona vodiysidagi So'x daryosi vohasida, Haydarkon qishlog'i chekkasidagi Seleng'ur g'orida ilk paleolit davriga oid madaniy qatlamdan tosh parchalari va siniqlaridan yasalgan qirg'ichlar, tishsimon qurollar, qo'l cho'qmorlari, tosh bo'laklari topilgan. Shuningdek, g'or-makondan yovvoyi hayvonlarga tegishli bo'lgan 5 mingdan ortiq suyak qoldiqlari aniqlangan (Sagdullayev, 2021 42-b.)

Bu esa ibtidoiy odamlar g'or-makonda ancha uzoq muddat hayot kechirganiklaridan dalolatdir. Ibtidoiy qurollar bir davrga tegishli bo'lmasdan ilk paleolitning olduvay va ashel davrlarini o'z ichiga oladi. Tosh qurollarni o'rganish davomida ularning sekin-astalik bilan takomillashib borishini kuzatamiz. Makonning eng muhim topilmalari bo'lgan odam suyaklari 3-, 2- qatlamlardan topilgan. U yerdan odamning yelka suyagining bir bo'lagi, bosh suyagi engak qismining bir bo'lagi, 14 ta tish topilgan (Egamberdiyeva, 2011 21-b.). Jahon arxeologiyasida juda kamyob bo'lgan bunday topilmaning Farg'onadan topilishi uni yanada mashhur qildi va juda qadimiy o'tmishi borligi bilan dunyo olimlari e'tirofiga tushdi. Ko'plab tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan mazkur suyak qoldiqlari aynan nechta odamga tegishli ekanligi, ularning Yoshi, jinsi haqida bahslar hali ham davom etib kelmoqda. Chunki, oradan minglab yillar o'tgani sayin bu kabi ma'lumotlarni aniqlash yanada murakkablashadi. Shunday bo'lsada, ko'plab tadqiqotlar natijasida bu yerdan topilgan tishlar 4 ta individga mansubligi aniqlangan.

O'rta poleolit davriga oid bo'lgan eng dastlabki yodgorliklardan biri bu Teshiktosh g'or makonidir. U yer 1938-yilda A.P. Okladnikov rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan topilgan. O'rta Osiyo hududlarida tadqiqotchilar tomonidan o'rta paleolit davriga oid ko'plab makonlar aniqlangan, lekin eng mashhur topilmalar aynan Boysun tog'idagi

Teshiktosh g‘or makonidan topilgan. Tadqiqotlar natijasida g‘or makonning beshta madaniy qatlamidan 3000 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Shuningdek, turli hayvonlar – qoplon, yovvoyi ot, eshak, quyon va turli qushlarning suyak qoldiqlari aniqlangan. Tosh qurollar orasida qirg‘ichlar alohida o‘rinni egallab ularning ba’zilari kesgich qurol vazifasida ishlatilgan (Sagdullayev, 2021 44-b.).

Jahonga tanilgan topilma esa bu shubhasiz 9 yashar bolaning skelet suyaklaridir. Bu bola neandertal tipidagi qadimgi odam vakili hisoblanib, dafn etilganida ibtidoiy diniy qarashlar va marosimlarga amal qilingan holda uning jasadi atrofiga echki shohlarini qadab qo‘yilgan.

Neolit davriga oid bo‘lgan Uchtut yodgorligi Navoiy viloyatidan topilgan. Eng ahamiyatli tomoni bu yer chaqmoqtosh qazib olish va birlamchi ishlov berish ustaxonasi bo‘lgan. Uni Ya. G‘ulomov rahbarligidagi ekspeditsiya 1960-yilda topgan (Egamberdiyeva, 2011 60-b). Odamlar bu manzilgohga asosan chaqmoq toshlarni kovlab olish maqsadida kelgan. Shu sababli dastlab chaqmoq toshlarni yer ustida ko‘rinib turgan joylaridan sindirib olgan bo‘lsalar, keyinchalik 4,5 va 5 metr chuqurlikkacha bo‘lgan joylardan kovlab olishlariga to‘g‘ri kelgan. Kovlash uchun kuraksimon qurollardan foydalanilgan.

Arxeologik izlanishlarning uchinchi bosqichi 1991-yildan hozirga qadar davom etmoqda. Mustaqillik sharofati bilan bu borada ishlar yanada qizg‘in olib borilmoqda. Ayniqsa, shu sohaga qiziquvchi yoshlarning ko‘pligi, olib borilayotgan tadqiqot ishlarining samaradorligi tariximizni anglashdagi yoshlarning beqiyos o‘rnini bildirib turadi.

Bulardan tashqari yana ko‘plab hududlarda arxeologik izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ular natijasida ko‘plab qadimgi odamlar, ibtidoiy jamiyatlarning yashagan manzilgohlari tadqiq etilgan. Arxeologiyaning yurtimizga kirib kelishi va tariximizdagi ko‘plab savollarga oydinlik kiritishdagi ishtiroki, shubhasiz, beqiyosdir. O‘zbek arxeologiyasining ham jadallik bilan rivojlanyotganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ayniqsa arxeologiyada qo‘llanilovchi so‘nggi rusumdagi texnologiyalar yordamida o‘rganiladigan joylarni dronlar yordamida kuzatish yoki qazmasdan turib uning ichidagini ko‘ra oladigan (GPR) moslamalar kabi bir nechta zamonaviy texnologiyalarni ham qo‘llash tobora ko‘payib bormoqda.

Bu kabi yangi texnologiyalaridan foydalanish kuzatilayotgan obyektga zarar yetkazmagan holda uni to‘liq o‘rganish, ichki va tashqi qismlarini ko‘rish, uning ilk chizmalarini chizib u haqida dastlabki xulosalar olish imkoniyatini beradi. Bu esa vaqt va mablag‘ tomonidan anchagina tejamli ravishda obyektni o‘rganishni va tadqiq imkoni beradi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ilm va ma’rifatga e’tibor berilgan joyda rivojlanish yuz beradi. O‘tmishni o‘rganish esa barcha ilmlarning ibtidosidir. Chunki biz yashayotgan hozirgi

jamiyat ham kechagi kundagi yutuq va kamchiliklarning natijasidir. Shunday ekan, ertangi kunimiz yutuqlarga boy bo'lishi uchun bugundan bilimlarni boyitib borishimiz, moziyni teranroq anglashimiz darkor. Bizga noaniq bo'lgan tarixiy jihatlarini aniqlashtirishimiz, hududimiz bo'yicha ma'lumotlarni jamlab yangi qirralarini ochishmizda yanada chuqurroq tahlil va tadqiqotlar olib borishimiz zarur. Zero, yurtimiz tarixini o'rganish, kelajak avlodga yetkazish va davlatchiligimizning aniqlanmagan jihatlarini aniqlash ham ajdodlar ham avlodlar oldidagi muhim burchimiz hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. *Ibragimov R.* O'rta Osiyo arxeologiyasi, Toshkent-2020. 7-bet.
2. *Egamberdiyeva N.A.* Arxeologiya. Toshkent-2011. 13-bet.
3. *Sagdullayev A.S.* O'zbekiston tarixi. Donishmand-ziyosi. Toshkent. 2021. 42-bet.
4. *Окладников А.П.* Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш: Палеолитический человек. М., 1949 С. 7-85.
5. *Латынин Б.А.* Некот орые ит оги работ Ферганской экспедиции 1934 г. // АСГЭ. Вып. 3. Л.: Издательство Государственного Эрмитажа. 1961. С. 109-171.
6. *Массон М.Е.* Городища Ст арого Термеза и их изучение // Труды Узбекистанского филиала АН СССР. Серия I. Вып. 2. Ташкент, 1940.
7. *Толстов Сергей Павлович*. Древний Хорезм: Опыт ист .-археол. исследования / С. П. Толстов ; Моск. ордена Ленина гос. ун-т им. М. В. Ломоносова. — Москва : 16-я тип. треста "Полиграфкнига", 1948. — 352 с.
8. *Шишкин В.А.* Узбекистанская археологическая экспедиция 1961 г. (Предварительное сообщение о полевых работах экспедиции) // ИМКУ, Ташкент: 1963. Вып. 4. 1963. 160 с

**F.M. Jumaniyazova**
*Qoraqalpoq davlat universiteti*
*Tarix fakulteti arxeologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

# OROL VA KASPIY ORALIG‘IDA KO‘CHMANCHILARNING MODDIY MADANIYATI

Orol-Kaspiy oralig‘idagi arxeologik tadqiqotlarda qadimgi va o‘rta asrlardagi ko‘chmanchilarga tegishli ko‘p topilmalar uchradi. Ular qadimgi, o‘rta asrlardagi ko‘chmanchilarga oid bo‘lgan madaniyat va hayotiy qarashlarini o‘rganish imkoni berdi. Orol-Kaspiy oralig‘idagi yodgarliklarning biri Qasqa jol yonidagi to‘rtinchi qo‘rg‘on yodgorligidan yalpoq shakldagi g‘ildirak, bronzadan yasalgan oyna topildi. Bu oyna orqa tarafi gravirkaga chizma usulda naqsh va o‘ng tafida g‘ozga o‘xshash qush rasmi, ya’ni bir-birini to‘ldiruvchi rasmlar bilan bezatilgan. Bu oyna YYevrosiyo hudularida tarqalgan bronza oynalarga o‘xshash. V.N. Yagodinning fikricha shunaqa bezalgan oyna M.G. Moshkova eramizdan avvalgi IV–III asrlarda Proxorovka madaniyati (Orenburg shahri) dan bo‘lgan (Древняя и средневековая..., 1978 стр. 150).

Bu to‘rtinchi qo‘rg‘ondan topilgan katta temir shamsherda o‘zining analogiyasi bo‘yicha Janubiy Ural, Volga bo‘yida proxorovka madaniyatiga xos bo‘lgan. Umuman bu erda Ustyurt va Kaspiy–Orol oralig‘ida deb atalgan hududda arxeologik topilmalari Yevrosiyo hududi bilan madaniy aloqa bo‘lganligini tasdiqlaydi (Вишневская, 1973 стр. 160).

V.N.Yagodin tadqiqotlarida topilgan boshqa bir topilma – suyakdan yasalgan oq-yoyning birinchi Duvana qabristoni o‘ttizinchi qo‘rg‘onidan topilgan. Bu qabiristonda topilgan oq-yoy Yevrosiyodagi hun-sarmat madaniyatlariga oid topilma. Uni Kenko‘l, Qirg‘iz hududlarida, Tushlik Sibirda uchratgan (Руденко, 1962 В. 100). Bunday misollarni Ustyurt va unga tutash hududlarda boshqada madaniy topilmalar orqali isbotlab ko‘rsatish mumkin.

Bu manbalar yozma ma’lumotlar bilan ham tasdiqlangan. Qadimiy xalqlar, ko‘chmanchilarning madaniyati bo‘yicha tarixiy ma’lumotlar manbalarda Gerodot, Strabon asarlaridan boshlab, hozirgi zamon arxeologik manbalarda uchramoqda (Вишневская, 1973 стр. 160).

Qizil rabot yodgorligida arxeolog B.A. Latvinskiy grifon boshli bronza to‘qa (mill.avv. III–II asr) topadi (Древняя и средневековая..., 1978 стр. 145).

Markaziy Osiyoda ikki daryo oralig‘ida saklar badiiy madaniyati bo‘yicha S.P. Tolstov boshchiligida Xorazm ekspeditsiyasi a’zolari Uygarak, Tegisgan qabristonidan topti. Bu sak san’ati meroslari to‘liq e’lon qilinmadi. S.P. Tolstov “Sirdaryo deltasidagi skif qavmlari” ning (Древняя и средневековая..., 1978 стр. 136) moddiy madaniyati boyicha

yozdi. Orol bo‘yi sak-massagetlar bo‘yicha V.E. Tarn , V.V. Struve, A.N. Bernshtam, S.P. Tolstov yozdi. U “Orolbo‘yi skiflar va Xorazm” maqolasini yozdi (Вишневская, 1973). Sirdaryoning qadimgi anhori Quvandaryo, Yangidaryo bo‘ylarida yarim ko‘chmanchi chorva xo‘jaligi yashagan. Soli Varvar qavmlari yodgorliklari, Jetiasar, Chirikrabot, Babish molla, Balandi, Barak Tam, Uygarak, Tegiskan yodgorliklari saqlangan edi (Ягодин, 1963 стр. 190).

Inkardaryo bo‘yida Sak-sakafavaklar yodgorligi tadqiq qilindi. Massaget qavmlari botqoqlar, ko‘llarda yashagan, deb yozadi Strabon. Sirdaryo bo‘yi Tegiskan, Uygarak yodgorliklaridan S.P. Tolstov tadqiqoti natijasida saklar maqbarasi, o‘likni yoqish, o‘likni yerlash o‘ziga xos xususiyatlarini aniqladi. “Hayvon” usulida tog‘ echkisi boshi, ikki hayvon qanoti, oltin blyashkada eshin tulg‘asi , Orol bo‘yi saklar badiiy san’atini ko‘rsatadi (Древняя и средневековая..., 1978 стр. 145).

Tagiskan qabridan oltin blyashkada sher rasmi solingan, Uygarak qabristonidan kiyik qanoti topildi. Ilk o‘rta asrlardagi Yevrosiyo ko‘chmanchilarining badiiy san’atida, turkiy qavmlar, VII–VIII asrlarda, amaliy madaniyat hukmronlik qildi. Turklarda naqsh o‘yish avalldan dasturiy bo‘lgani aniq. Naqshlar kigizga, suyak va metallarga o‘yib yasaganlar.

Kigizdagi naqshalar 300 morfologik geometrik figuralar bo‘ldi. O‘simlik ornamentlar ko‘chmanchilar badiiy san’atida o‘rin olgan. Sibir hududida badiiy san’atda kigiz, palas, g‘alli da 300 morfologik naqshlar berilgan. Hayvonlar qomati bir-biridan aniq ayrilib turadi. Saxro ko‘chmanchilarning badiiy san’ati ornamentalizmi stilida, bir narsaning harakatlarin beradi. Turkiy ko‘samlarning bel kamarida geometrik naqshlar o‘rin olgan. Qadimgi xases (Qirg‘iz) badiiiy san’atida oltin blayxada o‘simliksimon ornament bo‘lgan, eski dastur “hayvon” uslubida do‘ratsh qo‘shiliuvi “rasm” ilk usullar paydo bo‘lgan (Древняя и средневековая..., 1978 стр. 155). 300 morfologik rasmlarda “yangi badiiy san’at” lash o‘simik naqshisimon naqshlar o‘yish paydo bo‘ldi. Qushlar, hayvonlar rasmlarida, o‘simlik va har xil gullar rasmlari bor. Ko‘chmanchilarning taqinchoqlari o‘simlik tarzli formalaridan ishlangan (Ягодин, 1963 стр. 166).

Janubiy Orol saklari Eron ahamoniylar, Baktirya, Xorazm va Xitoylarning Chjou yana Xan imperiyasi davridagi badiiy san’ati bilan tanishgan (mil.avv. VIII asrdan boshlab saklar oralig‘ida keng tarqalgan) hayvon shaklisimon turi ko‘p tarqalgan. Ko‘pgina buyumlar bo‘ri, tuya, yo‘lbars, burgut shaklidagi naqshlarni solganlar. Saklarning tushunishicha xudolar odamlarga qanotli ot, qushlar va boshqada hayvon ko‘rnishida ko‘rinadi, deb o‘ylagan. O‘sha obrazlarning mifologiyasi afsonalarda keng o‘rin olgani uchun “hayvon shaklisimon” usul ham paydo bo‘ldi.

Saklarning zargarlik hunari (zirak, bronzadan yasalgan uzuk, hayvonlar rasmlari bezalgan tumorlar) Tagisken, Uygarak, qabriston hududlarida topilgan (Вишневская, 1973 стр. 145).

Umuman aytganda, ertadagi va o'rta asrlardagi ko'chmanchilarning o'zaro munosabati natijasida yangi etnos madaniyatlar paydo bo'ldi. Kaspiy-Orol oralig'ida, Janubiy Orol bo'ylari, Sirdaryo va Amudaryo bo'ylarida yangi madaniyat shakllandi. Bu tarixiy masalani biz Janubiy Orol bo'yi xalqlarining o'rta asr arxeologik madaniyatidagi ayrim yangi o'zgachaliklardan, voqealarni tahlil qilamiz. Masalan, Janubiy Orol Kerder xalqining makon joyi Kuyuk qal'a yodgorligi topilishida arxeolog V.N. Yagodinning o'rni katta. U 1961- va 1967-yili Qusqana tog' mikro oazisdagi Kuyik qal'a yodgorligini tadqiq qildi.

Kuyuk qaladan topilgan numizmatik buyumlar VII–VIII asr boshi (712-yilgacha) tangalar topildi. V.N. Yagodin Kuyuk qa'laning shimoliy-g'arbiy hududidan ilk o'rta asrga tegishli qabrdan "oba" kasalligi bo'lganligini aniqladi. Qabr davrlar o'tishi bilan buzilgan. Marhum suyaklari yerga ko'milgan, boshi shimoliy-g'arbiy yo'nalishida, qabr ichida oyna, munchoq, sopol idish siniqlari topilgan. Bu topilmalar Sirdaryo hududida topilgan "Jetti asar" yodgorligiga o'xshash. Lekin V.N. Yagodin Qusqana tog' oazisida turkiy qavmlar kelgan, ularning moddiy madaniyati saqlangan, degan fikrni aytmagan (Ягодин, 1963 стр. 200).

Shuni ta'kidlab aytish kerakki Orol bo'yi va Kaspiy hududidagi xalqlarning moddiy madaniyati, ularning o'zaro aloqasi tufayli rivojlangan. Yuqorida keltirib o'tilgan hududlarda bir-birining buyumlari yaqinligi, o'xshashligi isbotlaydi. Orol bo'yi hududlarida tadqiqotlarni rus olimlari olib borgan. Ko'pincha V.N. Yagodinning mehnatlari orol bo'yi xalqlarining tarixiga o'zining katta hissasini qo'shgan. Hozirgi kunda Yagodinning shogirdlari Orol bo'yi hududlarida ko'p tadqiqotlar qilib yanada tarixni boyitgan (Древняя и средневековая..., 1978 стр. 155).

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Древняя и средневековая культура юго-восточного Устюрта. Ташкент 1978. С 155.
2. *Руденко С.И.* Культ ура хуннов и ноинулинские курганы. М.-Л,1962. С.107.
3. *Вишневская О.А.* Культ ура саков низовьев Сырдарьи 1 т ысячилет ие до н.э. М.,1973. С.167
4. *Ягодин В.Н.* Куюк-кала. М. 1963. С. 200.

**J.B. Jumayev**
JDPU tarix fakulteti o'qituvchisi
jurabekjumayev738@gmail.com

# SOVETLAR NAMUNASIDAGI YANGI TASHKIL ETILGAN MASKANLARDA AHOLINING MA'NAVIY HAYOTI

Ma'lumki, sobiq sovetlar tuzumi davrida aholini majburiy ko'chirish asnosida Sirdaryo va Jizzax cho'llarida qo'riq va bo'z yerlar jadal o'zlashtirilib, aholining yangi-yangi turar joy maskanlari qad ko'tardi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bu hududlarda ko'proq paxta yetishtirib, markaz sanoatini paxta xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojini qondirish edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar sobiq SSSR markaziy mintaqalarining sanoatini paxta xom ashyosi bilan ta'minlovchi asosiy baza vazifasini bajarib keldi. Natijada, respublikamiz sanoati bir yoqlama rivojlantirildi, aholining ma'naviy-maishiy turmush darajasi esa boshqa ittifoqdosh respublikalarga qaraganda ancha past darajada bo'lib qolaverdi. Bunga esa xalq xo'jaligini boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va respublika xalqining manfaatlari bilan hisoblashmaydigan mustamlakachilik siyosati sababchi edi (Boltayev, 2007 128-b.).

Sobiq SSSRda partiya va hukumat tomonidan demokratik tamoyillarning e'lon qilinishi, amalda esa so'z bilan ish o'rtasidagi uzilish, xalq hokimiyati haqida balandparvoz va'zlar aytish, so'z bilan ishning nomutanosibligi, turli qarorlarning qabul qilinishi, aholi ongiga "sotsialistik turmush tarzi" ning singdirib borilishi, byurokratiyaning kuchayishi, tanqid va oshkoralikning yo'qligi kabi omillar 70–80-yilarning birinchi yarmida turg'unlik holatlarini keltirib chiqardi. O'rganilayotgan davrda qishloqni sotsialistik asosda qayta qurish o'z samarasini bermadi. Buning asosiy sababi byurokratik boshqaruvning nihoyatda markazlashtirilishi, iqtisodiy muammolarni siyosiy usullar va uslublar bilan hal etishga intilishlar, vaqtinchalik tuzatish va o'zgartirishlar edi.

Targ'ibot mashinasi ayniqsa, yangi tashkil etilgan sovet namunasidagi aholi maskanlarida boshqa mintaqalarga qaraganda samaraliroq ishladi. Bunga sabab, xalqning turli joylardan ko'chirib keltirilishi, nisbatan yoshlardan tarkib topganligi va ko'p diasporali ekanligi bo'lsa, ikkinchidan, ularning ko'z oldida (qadimgi qishloqlar bilan solishtirganda) "buyuk" o'zgarishlar sodir bo'layotganligida edi.

Cho'l bag'rida tashkil etilgan posyolkalarda yagona sovet madaniyatini barpo etish maqsadida yangicha urf-odatlar va marosimlar keng tashviqot qilindi (2). Vaqt o'tishi bilan sovet kishilarining yangi "sotsialistik turmush tarzi" shakllandi, degan soxta g'oyalar aholi

ongiga singdirib borildi. Natijada, jamiyat hayotida umumsovet marosimlari va bayramlari an'ana tusiga kirishni boshladi.

Yangi o'zlashtirilgan yerlarda o'ziga xos ijtimoiy ma'naviy muhit shakllantirildi. Cho'l bag'rida bunyod etilgan ko'p millatli aholi massivlarida o'zbek xalqining milliy qadriyat, urf-odat va an'analariga zarba berilib, ularni "o'tmishning zararli sarqiti" sifatida ta'riflash avj oldirildi. Sobiq Ittifoq miqyosida olib borilgan, ayniqsa, O'zbekiston SSRda keng quloch yoygan kommunistik mafkuraning dinga qarshi kurash borasidagi siyosati o'zlashtirilayotgan cho'l zonalarida ayniqsa, "nihoyatda muvaffaqiyatli kechdi".

Bizga ma'lumki, XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda dinga va diniy qadriyatlarga qarshi yangi harakatlar boshlanib ketdi (Tangrikulov, 2022 105-106-b.). Mazkur siyosat cho'l bag'rida barpo etilayotgan aholi maskanlarida faol qo'llanildi. Ushbu yillarda respublikada diniy idoralarni qattiq nazorat ostiga olish, ularning sonini kamaytirish va faoliyatini doimiy nazorat ostida olib turish kuchaytirildi (4,83-v.).

Ma'lumki, jamiyat hamisha ma'naviyatga rag'bat beruvchi dinga ehtiyoj sezadi, uning ruhiy ko'magiga tayanadi. Binobarin, tarixda diniy ta'qiblar qanchalik kuchaymasin, u xalq xohish-irodasini sindira olmagan va vaqt o'tishi bilan aholining dinga bo'lgan ishonchi qaytadan namoyon bo'lavergan. Buni to'g'ri anglab yetgan sovet mafkura mashinasi o'zining turli o'ylab topgan sun'iy bayramlari va tantanalarini jamiyat hayotiga majburan singdirmoqchi bo'ldi.

Cho'l aholisining katta qismi qishloq hududlaridan ko'chirib keltirilganligi bois, ular uchun ham o'ylab topilgan mafkuraviy mazmundagi "Qurultoy", "Urug' qadash marosimi", "Yoshlarni paxtakorlar safiga tantanali qabul qilish", "Birinchi gul bayrami", "Ilk maosh", "Qizil karvon" ("Birinchi oq oltin karvoni"), "Paxta bayrami" ("Hosil bayrami") hamda "Komsomolcha to'y" lar ham qishloq ommasi hayotiga keng kirib keldi (Tangrikulov, 2022 107-b.).

Kommunistik mafkura hukmronligi davrida dinga e'tiqod qiluvchilarga qarshi ateistik kurashning ko'r-ko'rona olib borilishi milliy urf-odat va marosimlarimizga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Suhbatdoshimiz, Sotsialistik mehnat qahramoni Tinchlik Berdibekovning ta'kidlashicha, o'zlashtirilgan hududlarda tashkil etilgan yangi posyolka (sovxozlar) larning barchasi bir qolip asosida qurilgan edi.

Posyolka markazida magazin va maishiy xizmat do'konlari (sartaroshxona, ustaxona, hammom), choyxona, klub, yozgi kinoteatr, savxoz idorasi (kontora), istirohat bog'i va boshqalar joylashgan edi. Uning atrofi bo'ylab aholining qator uylari joylashgandi. Klubda har kuni kechqurun sovet mafkurasini targ'ib qiluvchi turli xil kinolar namoyish qilinardi.

Sovxoz markazi kechki payt eng gavjum maskanga aylanardi" (5) Tinchlik Berdibekovning yana ta'kidlashicha, cho'lquvar yoshlar shu tariqa yangicha urf bo'lib borayotgan turmush tarziga tezda moslashib bordilar.

"Komsomolcha to'y" lar, deb talqin qilingan to'y marosimlari ham selsovetlarda tuzilgan to'y komissiyalari nazorati ostida o'tkazilardi. Mazkur komissiya to'ylarda urf-odatga aylanib ketgan rasm-rusumlarga barham berish borasida turli xil chora-tadbirlarni qo'llab, xalq orasida yangicha urfga kirgan to'ylarni o'tkazishning tashabbuskori edilar. Qadriyatlarimizga bo'lgan bunday yondashuv "beshik" va "nikoh" to'y marosimlarini o'tkazilishida o'z aksini topdi. Xususan, oila qurish chog'ida bo'lajak er-xotinga nikoh o'qitilishi eskilik sarqiti sifatidagi odat sifatida baholandi (6). Biroq, keyinchalik qayta qurish davriga kelib milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni tiklash bo'yicha muayyan sharoit va imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa-da, ammo kommunistik mafkuraning tazyiqi pasaymadi va hatto yangi o'zlashtirilgan hududlarda bironta masjid qurilmagan. Faqat bugungi mustaqillik sharoitidagina diniy qadriyatlarimiz cho'l zonalarimizda ham o'z qadrini tobora topib bormoqda. Sovet namunasidagi posyolkalar (sovxozlar) da aholi bahordan kech kuzgacha asosan dalada, ish bilan band bo'lardi. Bolalar bog'cha va maktablarga qatnardi. Bu ta'lim maskanlari to'liq sovet mafkurasi asosida ish yuritib, ko'plarida ta'lim rus tilida berilar edi. Ittifoq davrida rus tiliga birlashtiruvchi kuch sifatida qarash kommunistik partiya dasturlari, syezd qarorlarida o'z aksini topgan bo'lib, unda "yagona sovet xalqi" ning yuzaga kelishi xususidagi konsepsiya ilgari surilgan bo'lib, shubhasiz, bu yagona xalqning muomala vositasi rus tili edi (7). Anjumanlarda belgilangan vazifalar asosida rus tilini maktablarda o'qitish kuchaytirildi, "rus tili- ikkinchi ona tili" degan shiorlar ilgari surildi, "millatlar va elatlarning ulug' tarixiy baxti", butun jahon diqqat -e'tiborini o'ziga tortgan rus tili umumiy fikr almashish vositasiga aylandi (8,1-b.).

Yangi o'zlashtirilgan cho'l zonalarida milliy tillarning mavqei va ta'sir doirasi kenga-yish o'rniga asta-sekin yil sayin torayib boraverdi. O'zbek tilida kitoblar chop etish, jurnal va gazetalar chiqarish soni va nusxasi kamayib ketdi, hatto uning o'quvchilari soni ham yil sayin keskin qisqarganligi kuzatildi. O'zbek tilini chuqur o'rganishga qiziqishning pasayib ketganligi maktablarda shunga olib keldiki, ko'pgina yosh yigit-qizlar o'z ona tillarini yaxshi bilmaydigan darajaga tushib qoldilar. Ilmiy-texnika va tibbiyot ziyolilari, ma'muriy idoralarning rahbar xodimlari ko'pincha o'z ona tillarida muomala qilishga qiynaladigan bo'lib qoldilar, rasmiy hujjatlar faqat rus tilida yuritiladigan bo'ldi. Natijada, o'zbek tiliga nisbatan e'tiborsizlik, hurmatsizlik kuchayib bordi, bu holat jamoatchilik noroziligiga olib keldi, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirib yubordi (Bobojonova, 1999 20-21-b.).

Ayni paytda O‘zbekistonning barcha hududlarida bo‘lgan ateistik ish uzluksiz va murosasiz yurgizildi. Bu ishga partiya, sovet, profsoyuz, komsomol tashkilotlarining, shahar va rayon partiya komitetlarining malakali kadrlari jalb etildi. Hayotning barcha sohalarida yangicha ishlash va yangicha yashash uchun tinimsiz kurashish vazifa qilib qo‘yildi.

KPSS Markaziy Komitetining 1981-yil 22-sentyabrdagi “Ateistik tarbiyani kuchaytirish to‘g‘risida” gi qarori natijasida dinga qarshi kurash yanada avj oldirildi (4, 47-55-v.). XX asr 80-yillari o‘rtalariga kelib bu jarayon yanada kuchaytirildi. Hattoki, eng yuqori minbarlardan turib, “sinfiy, partiyaviy pozitsiyalarda turib chinakam xalq an’analari va urf-odatlarini jamiki zararli va yot an’ana hamda urf-odatlardan forig‘ qilish, g‘oyaviy dushmanlarning odamlarni milliy tuyg‘ularini qo‘zg‘atib, bundan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga bo‘lgan urinishlariga zarba berish kerak”,- degan chiqishlar qilib turildi (10). Buning oqibatida bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan, uzoq yillar davomida nishonlab kelingan “Navro‘z” bayramiga ham diniy tus berildi, aynan mana shu yillarda muqaddas bayramimiz ta’qibga uchradi.

Kommunistik mafkura yangi urf-odatlarni joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratib kelgan bo‘lsa-da, respublikada yangi ilg‘or marosimlar va rasm-rusmlarni hayotga keng joriy etish sohasidagi ishlar sust olib borilayotganligi ta’kidlab kelingan (11). Mahalliy sovetlarning deputatlari tez-tez kolxoz, sovxoz, qishloq, hattoki rayon kutubxonalaridan “Grajdanlik kodeksi”, “Grajdan-protsessual kodeksi”, “Mehnat kodeksi”, “Oila va nikoh kodeksi” va boshqa deputatlik faoliyatlarida o‘zlariga zarur bo‘ladigan huquqiy aktlarni topa olmaganliklari haqida ko‘p bora ta’kidlaganlar (12, 55-v.). Demak, bundan ham bilish mumkinki, bu kabi huquqiy hujjatlar bilan qishloq joylarida yashovchi aholining aksar qismi tanish bo‘lmagan.

Albatta, asrlar davomida shakllangan, xalqimiz hayotiga chuqur singib ketgan urf-odat va marosimlarni keskin tarzda o‘zgartirib yuborish ko‘pincha salbiy oqibatlarga ham olib kelgan. Ba’zan ahvol shu darajagacha ham borib yetardiki, o‘z qarindoshlarining dafn marosimiga qatnashishga eskilik sarqiti sifatida qaralgan, janozada qatnashishga siyosiy jihatdan tus berilib, ijtimoiy jihatdan xatarli, deb baholangan. Shuning uchun ham ayrim rahbar partiya xodimlari o‘z yaqinlarining dafn marosimlariga qatnashishning ilojini topa olmaganlar, marosimlarda ishtirok etganlarga esa qat’iy intizomiy va partiyaviy choralar ko‘rilgan. Biroq, tahlil qilinayotgan yillarda yangi o‘zlashtirilgan yerlar aholisining ijtimoiy -siyosiy, ma’naviy hayotida, madaniyat va san’at sohasida ham ma’lum bir o‘zgarish va yutuqlar qo‘lga kiritilganligini ham ta’kidlash o‘tishimiz lozimdir.

O'zbekistonda paxta yakkahokimligini mustahkamlash jarayonida o'tkazilgan chora-tadbirlar davomida bir qator cho'l mintaqalar faol o'zlashtirildi. Bu jarayonda 1970-yillardan keyin Sirdaryo, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlaridagi cho'llarni o'zlashtirish ayniqsa faol kechdi. Shu davrda Nurota vohasidan Sirdaryo va Jizzax viloyati hududlariga ko'plab aholi ko'chirib keltirildi va ular shu yurtning mahalliy aholisiga aylanib bordi.

Xulosa qilib aytganda, o'tgan qisqa davrda o'zbek xalqi ozod va obod vatanga, kelajak istiqboli erkin va demokratik jamiyatga ishonchi bo'lgan yurtga ega bo'ldi. Vatanparvarlik va milliy g'urur kishilar ma'naviy kamolotining asosiy mezonlaridan biriga aylandi. XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda sovet totalitar tuzumi keltirib chiqargan oqibatlar respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Bir-oq, zafarli o'tmish, boy tarix, o'troq madaniy turmush tarziga ega bo'lgan, o'z yuksak ma'naviyati va madaniyati bilan ajralib turgan o'zbek xalqi o'zligini saqlab qoldi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Болтаев А.* Мирзачўл-Жиззах: ўтмиши ва бугуни (1900-2000 йиллар). Тошкент: "Фан", 2007.
2. Атеистик тарбияни кучайтирайлик // Ёш ленинчи. 1985 йил 24 август.
3. *Тангрикулов Ж.Э.* Даврий матбуотда Ўзбекистоннинг қайта қуриш йилларидаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий жараёнлари тарихи. Тарих фан. фалсафа докт. (PhD) дисс...Тошкент: 2022.
4. O'z MA, 2806-fond, 1-ro'yxat, 4-ish, 47,55, 83-varaqlar.
5. Dala tadqiqotlari: Berdibekov Tinchlik. 1944-yilda tug'ilgan. Jizzax viloyati Zafarobod tumani Uzun qishlog'i.
6. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати". 1986 йил 14 ноябр.
7. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати". 1987 йил 4 сентябр.
8. "Фан ва турмуш" журнали. Тошкент: 1984. № 12-сон.
9. *Бобожонова Д.* Ўзбекист онда иж т имоий-иқтисодий муносабатлар (70-80 йиллар мисолида) . Тошкент: "Шарқ".
10. "Совет Ўзбекистони". 1986 йил 31 январ сони.
11. "Совет Ўзбекистони". 1986 йил 7 октябр сони.
12. O'z MA, 2806-fond, 1-ro'yxat, 12-ish, 55-varaq.

**F.B. Kamoliddinov**
*O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti*
*kamoliddinov9494@gmail.com*

**F.I. Userbayeva**
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich tarix yo‘nalishi talabasi*
*feruzauserbayeva@gmail.com*

# O‘ZBEKISTONDAGI ARXEOLOGIK OBYEKTLAR VA ULARNI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Mazkur maqolamizda yurtimizda joylashgan arxeologik yodgorliklar haqida fikr yuritiladi. Hamda ushbu yodgorliklarni bugungi kundagi holati, xalqmizning o‘tmish tarixini o‘zida jamlagan arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish borasidagi bugungi kundagi amalga oshirilayotgan ishlar xususida fikr va mulohazalarimiz ushbu maqolamizda o‘rin olgandir.

O‘zbekistonda jami 8,2 mingta moddiy meros obyektlari mavjud. Ulardan arxeologik yodgorliklar yarmidan ko‘pi – 4,8 mingni tashkil etadi. Bu obyektlarni muhofaza qilish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan muqaddas qadamjolarini asrab-avaylash, ularni muhofaza qilish, obod qilish, noyob yodgorliklarni ta’mirlash masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biridir. Shundan kelib chiqib, 1993-yil O‘zbekiston 120 dan ortiq davlatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO)ga a’zo bo‘ldi. 1994-yil BMT va YUNESKO ko‘magida Jahon turizm tashkilotining Ipak yo‘li, deb nomlangan xalqaro seminari o‘tkazildi. Mustaqillik yillarida, muqaddas qadamjolarda yotgan avliyo va allomalarning faoliyatiga bag‘ishlab, YUNESKO rahbarligida xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan sanalar tashkil etilishi bilan bir qatorda, ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Buning natijasida, Termizning 2500 yillik, Shahrisabz shahrining 2700 yillik, Qarshining 2700 yillik yubileylari nishonlandi.

O‘zbekiston Respublikasi YUNESKO tashkilotining teng huquqli a’zosi sifatida Xivadagi Ichanqal’a qo‘riqxonasida (1990) hamda Buxoroning tarixiy markazida (1993) joylashgan yodgorliklar, Shahrisabz shahridagi Temur va Temuriylar davriga oid me’moriy yodgorliklari (2001) va Samarqand shahri markazidagi tarixiy yodgorliklar (2002) Xalqaro Jahon Madaniy merosi Qo‘mitasiga 13 ta mashhur yodgorliklar sifatida ro‘yxatga olindi.

Surxondaryodagi Oq ostona bobo, Hakim Termiziy me’moriy majmualari, Qirqqiz saroyi hamda respublikadagi Arab ota, Ishratxona, Mirsaid Bahrom maqbaralari, Bahouddin, Chor Bakr, Shayx Muxtor Valiy majmualari, shuningdek, Raboti Malik, Jarqo‘rg‘on va

Vobkent minoralari, jahon moddiy yodgorliklari ro'yxatiga kiritilishi uchun arizalar taqdim etildi (Alimardonova, 2021 12-b).

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**. Ko'plab tadqiqotchilar arxeologiya sohasida o'zining izlanishlarini olib borishgan, va hozirgi kunda izlanishlar davom etmoqda. Misol uchun Farg'ona vodiysi XIX asr oxiridan boshlab tadqiq etila boshlangan va bu yerning o'rganilish jarayonlarida rus tadqiqotchilarining hissasi katta. M.V. Masson bu yerda arxeologik razvedka ishlari bilan shug'ullanib, 2 ming yil muqaddam bu yerda ulkan shahar bo'lganligi haqidagi xulosani berdi. Axsikentning tarixiy arxeologik obyekt ekanligi xususida qiziqarli ma'lumotlar 1946–1948-yillarda A.N. Bernshtam rahbarligida Pomir-Oloy arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan qazuv ishlari asosida erishilgan. A.N. Bernshtam tadqiqot natijalariga asoslanib shaharda ilk hayot Kushon saltanati davrida boshlangan, biroq Axsikentning gullab-yashnashi Turk xoqonligi davriga to'g'ri kelgan va keyingi davrlarda (IX–X asrlar) Farg'onaning yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan, degan fikrni bildirgan edi va Axsikent yodgorligining loyihasini chizgan, ayrim joylarda qazilma ishlarini o'tkazgan (Mamatqulov, 2022 b-944).

**Natijalar va muhokama**. O'zbekistonning har bir hududi tarixiy jarayonlarda ishtirok etgan bo'lsa ham, bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida jami 1321 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, shundan 1043 ta arxeologiya, 210 ta arxitektura, 43 ta monumental, 35 ta diqqatga sazovor joylar mavjud. Birgina Surxondaryoda 561 ta madaniy merosga oid tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib, ularning yosh davri paleolit bosqichidan, to XX asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ulardan 44 tasi arxeologik, 36 tasi arxitektura va muqaddas qadamjolar, 39 tasi monumental va san'at, 42 tasi diqqatga sazovor turistik joylarni tashkil etadi (Бернштам, 1952 244-b).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi PK-4095 sonli Qaroriga ko'ra, viloyatdagi 8 ta turistik obyektlar Jarqo'rg'on minorasi, Sheroboddagi Xo'jaikon tuz g'ori, Uzun tumanidagi Oq ostona bobo maqbarasi, Oltinsoy tumanidagi So'fi Olloyor, Mavlono Muhammad Zohid va Xo'jaipok ziyoratgohlariga olib boruvchi 59 km yo'llar ta'mirlandi.

2020-yilda mazkur sohada koronavirus pandemiyasi bo'lishiga qaramay, vohadagi Madaniy meros va turizmni rivojlantirish bo'limlari tomonidan muhim tadbirlar amalga oshirildi. Qashqadaryoda 2020-yil 8 oy davomida 7100 nafar xorijiy sayyohlar, 48 000 nafardan ortiq mahalliy sayyohlar tashrif buyurdi. Bu 2019-yilning shu davriga nisbatan anchayin past ko'rsatkichdir. Qashqadaryo viloyati tarixida ilk bor ingliz tilidagi "Inside

Kashkadarya” jurnali Amazon.com orqali AQSH va dunyoning boshqa davlatlarida sotuvga qo‘yildi. Viloyatning turistik, siyosiy, ijtimoiy-madaniy hayotini yoritishga mo‘ljallangan jurnalning ilk soni Qashqadaryoning turizm salohiyatiga bag‘ishlandi. Bunda vohaning ziyorat, eko, etno va ekstremal turizm yo‘nalishlari keng ochib berildi (Ruziyeva, 2014 b-19).

Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrdagi “Moddiy madaniy me’ros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Qarorning 10-bandiga asosan YUNES-KO ning Umumjahon merosi ro‘yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanishi belgilandi. Ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari Madaniy meros departamenti hamda YUNESKO ning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshirishiga oid tartib o‘rnatildi. Shuningdek, ‘Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida’gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida VI bobi alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarga oid qator normalar belgilangan.

YUNESKO ning Umumjahon merosi ro‘yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko‘ra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar sifatida belgilab qo‘yilishi ushbu hududlarning huquqiy maqomiga aniqlik kiritdi va ularni muhofaza qilishning qonuniy asoslari yaratildi. Rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari YUNESKO ning Umumjahon merosi markazı bilan kelishib olish yo‘lga qo‘yildi. Masalan, 2020-yilda YUNESKO ning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish uchun 11 ta loyiha Umumjahon merosi markaziga yuborilgan. 2020-yil sentyabr oyida Buxoro tarixiy markazida rejalashtirilgan obyektning loyihasi yuzasidan Umumjahon merosi markazining ijobiy xulosasi olindi (Xashimov, 2019 b-23).

O‘zR FA Arxeologiya instituti va O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat inspeksiyasi bilan birgalikda arxeologik yodgorliklarni ro‘yxatga olish va katalogini yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar jarayonida qariyb 30 foiz yodgorliklar qabriston sifatida foydalanilayotganligi ma’lum bo‘ldi. Xususan, birgina Shahrisabz tumanida bu ko‘rsatkich 23 foizni tashkil etmoqda. Zero, sobiq sho‘rolar davrida amalga oshirilgan ushbu amaliyot natijasida yodgorliklarni qariyb 2 metrlik madaniy qatlamni buzilishiga olib kelgan.

Ayni vaqtda yodgorliklar noto‘g‘ri, noqonuniy ravishda olib borilgan qazishmalar, yodgorliklar yoki uning atrofidan tuproq olinishi kabi jarayonlar ham arxeologik

yodgorliklarning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Yuqoridagi qayd qilingan omillarni tahlil qilgan holda yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilishda quyidagi kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish samarali natija beradi.

Birinchidan Respublikadagi arxeologik yodgorliklar katalogini yaratish va yagona GIS sistemasiga kiritish hamda yodgorliklarni muhofaza chegralarini belgilash. Hozirgi vaqtda Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlarida ushbu ishlar deyarli o'z yakuniga yetgan bo'lsa, qolgan viloyatlarda bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchidan, yodgorliklar muhofaza qilishda keng aholi qatlamini jalb etish va ularda o'z tarixiga, qadriyatiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish va bu borada ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish. Zero, har bir fuqaro o'zining shahri, qishlog'i, mahallasida joylashgan arxeologik yodgorlik haqida to'liq tasavvurga ega bo'lib, uning ahamiyatini anglab yetsagina xalqimizning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashni o'z burchi deb biladi. Ayni vaqtda Afrosiyob, Axsikent, Qanqa, Dobusiya, Kofirqala, Sopollitepa, Jarqo'ton kabi yirik arxeologik yodgorliklarga mahalliy va xorijiy turistik marshrutlar uyushtirish ham aholi orasida arxeologik yodgorliklar ahamiyatini yanada oshishiga imkon yaratadi.

Uchinchidan, yodgorliklarni saqlash borasidagi qonunlarning ijrosi davlat nazoratini kuchaytirish va bu borada keng jamoatchilik institutlari-ya'ni mahallalar nazoratini yo'lga qo'yish ham muhim ahamiyat kasb yetadi.

**Xulosa**. Bugungi kunda ko'plab sohalar singari arxeologiya sohasi ham rivoj topmoqda. Arxeologik yodgorliklar tariximiz, madaniyat va ma'naviyatimiz hamda qadriyatlarimiz timsoli sifatida baholanar ekan, uni saqlash avaylash va kelajak avlodga yetkazish dolzarb vazifadir. Afsuski, o'tgan asrning 60–80-yillarida yurtimizdagi ko'pgina yodgorliklar qisman yoki to'liq buzilgan bo'lib, bu holat ko'plab arxeologik yodgorliklarni paxta ekin maydonlarini kengaytirish, tepalik tuprog'ini ekinzorlarga o'g'it sifatida solinishi natijasida yuzaga kelgan.

Shu bilan birga, 2009-yil 13-oktyabrda qabul qilingan "Arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun arxeologik yodgorlik va uni muhofaza qilish hamda undan foydalanishning huquqiy asoslarini qayd etdi.

Yuqorida qayd qilinganidek, arxeologik yodgorliklar tarixning moddiy namunasi bo'lib, uning qisman yoki to'liq buzilishi tariximizning qaysidir qismini butunlay yo'q bo'lib ketishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi vaqtda arxeologik yodgorliklarni qisman yoki to'liq buzilishi ikki omil – tabiiy tabiat jarayonlari va inson omillari bilan bog'liq. Arxeologik yodgorliklarini tabiiy tabiat

jarayonlari natijasida buzilishi, bu birinchi navbatda daryo, soylarning qirg'oqlarini tabiiy eroziyasi, yog'ingarchilik natijasida yodgorliklar chekkalarini qo'porilib tushishi hisoblanadi. Ma'lumki, yurtimizdagi aksariyat qadimiy shahar, qishloq, manzilgohlar xarobalarining katta qismi suv manbaiga yaqin joylashgan bo'lib, daryolarning qirg'oqlarini yemirilishi, o'zanlarning o'zgarishi, toshqin va sellar kabi tashqi ta'sirlar natijasida yodgorliklarni daryoga yaqin qismlarining yemirilishiga va qo'porilib tushishiga olib kelmoqda. Bunday yodgorliklar sirasiga Dabusiya, Kofirqala, Axsiket kabi qadimiy shahar xarobalarini kiritish mumkin. Albatta, bunday jarayonni oldini olish juda qiyin bo'lib, ayrim holatlarda buning iloji yo'q. Shu bois yemirilishi mumkin bo'lgan hududlarni arxeologik jihatdan o'rganish hamda imkoni bo'lsa, daryo qirg'oqlarini mustahkamlash uchun kompleks chora tadbirlarni ko'rish samarali natija beradi.

Shundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, bu sohadagi ishlar salmoqli ekanligini hamda bugungi kunda bu sohani rivojlantirish, shuningdek, hududimizda joylashgan arxeologik obyektlarni muhofaza qilishimiz zarurdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. *Alimardonova Z.M.* Modern concept of tourism development in Surkhandarya region // Central Asian Journal of innovations on tourism management and finance. Vol:02, Issue:02, Feb 2021.
2. *Берништам А.Н.* Ист орико-археологические очерки центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. Москва 1952 С.244-245.
3. *Ruziyeva D.L.* Ways of development and promoting of cultural tourism in Uzbekistan // Economics and management: theory and practice: Collection of scientific articles. Vol. 2-Verlag SWG imex GmbH, Nürnberg, Deutschland, 2014.
4. *Xashimov M.* YUNESKO faoliyatida diniy bag'rikenglik tamoyillari (O'zbekiston Respublikasi misolida): Tarix fan. Nomzodi diss. avtoref, Toshkent islom universiteti, Toshkent-2009.
5. *Mamatqulov E.* (2022). Taraqqiyot strategiyasi yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar asosi. Oriental renaissance Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 950-953.

**L.A. O'ng'alov**
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Arxeologiya" kafedrasi II bosqich tayanch doktoranti.*
*lungalov@bk.ru*

## NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASI

Markaziy Osiyoning tarixi o'rganilishini kutayotgan hududlaridan biri Nurota tog' tizmalaridir. Nurota tog'lari qadimiy So'g'd va Buxoro vohasi hududini issiq Qizilqum qumlari bilan qoplagan. Uzoq o'tmishda Zarafshon vohasiga faqat Ilon o'tti tog' darasi orqali chiqish mumkin edi (yo'l aylanma yo'l bo'lgani uchun uni ilon yo'liga qiyoslagan) Jizzax va Nurotadagi eng muhim nuqtalar qal'a devorlari bilan himoyalangan (O'ngalov, 2023 48-53-b.).

Bu hudud Zarafshon hamda Mirzacho'l tabiiy geografik tumanlarining bir bo'lagi hisoblanib, tizmaning bir qismi Ustrushona davlatining shimoli – g'arbiy sarhadlarini tashkil etgan. Nurota tizma tog'lari esa ikkala hududni bir-biridan ajratib turadi. Janubda Oqtog' va Qorachatog', Shimoliy - g'arbda Qizilqum cho'llari, Sharqda Morguzar tizma tog'lari orasida joylashgan Nurota tog'lari Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlari hududidagi relyefi o'ziga hos mintaqa bo'lib, tog'ning har ikkala tarafidagi soy vodiylari, obikor vohalar, qir-adirliklarda o'nlab qishloqlar va aholi punktlari joylashgan. Turkiston tizma tog'larining Shimoli-g'arbiy tarmog'i hisoblangan Nurota vohasi Janubda Morguzar tizmasidan Sangzor daryosining Ilono'tdi darasi bilan ajralib turadi.

Nurota tog' tizmasi Qizilqum hududining cheksiz kengliklariga qaragan shimoliy yon bag'irlarida buloq suvlari oqib o'tadigan ko'plab tog' soylari mavjud, daralarda va ularning oldida aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan aholi punktlari paydo bo'ldi.

Nurota tog' tizmasining tarixiy-geografik joylashuviga doir mulohazalardan ko'rinib turibtiki, bu hudud qadimdan bir nechta tarixiy madaniy o'lkalarni bog'lashga xizmat qilgan. Yozma manbaalarda yaqin davrgacha bu tizmadan o'tgan dasht savdo yo'llari, qurulish va ruda konlari haqida so'z yuritiladi.

Nurota tog' tizmasi aholisining etnomadaniyati, ilk, rivojlangan o'rta asrlar, xonliklar va mustamlakachilik davri tarixiga oid qator tadqiqotlar olib borilgan. Lekin biz shug'ullanmoqchi bo'lgan tosh davriga oid tadqiqotlar bu hudud uchun deyarli yangilikdir. Chunki bu o'lkaning tabiiy geografik xususiyatlari tosh davri topilmajoylarini saqlanishini qiyinlashtirgan. Shu sababdan bo'lsa kerak tizimli tadqiqotlarni biz uchratmadik.

Biz siz bilan aynan Nurota tog‘ tizmasining turli qismlarida tosh davriga oid olib borilgan dastlabki tadqiqotlarni ko‘rib chiqamiz.

Bu hududning tosh davriga oid dastlabki fikrlar akademik Y. G‘ulomovning hozirgi Nurota va Qo‘shrabot hududlaridagi qishloq atrofidagi dala ekspeditsiya yodnomalarida uchraydi. Olim o‘z qaydlarida bu hududlar bronza davrida faol o‘zlashtirilgan hudud ekanligini. Tosh davri jamoalari izlari ham mavjudligi to‘g‘risida xulosa bergan.

Nurota tog‘ tizmalarining Qoratog‘ yonbag‘irlarida 1958 yil arxeolog M.R.Qosimov chaqmoqtosh ustaxonasi va chaqmoqtosh xomashyosi «konlari»ga duch keldi (Касымов, 1966 стр. 21-27.). Keyingi tadqiqotlari davomida paleolit va neolit davriga oid tosh ustaxonalari tadqiq etildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Nurota tog‘ tizmasining janubiy yonbag‘irlarining ibtidoiy tarixi Zarafshon vodiysi ibtidoiy jamoalari bilan aloqador edi. Keyingi yillar davomida Nurota tog‘ tizmasida tosh davriga oid izlanishlar ko‘p uchramaydi.

2013-yil Nurota tog‘ tizmasining shimoliy qismida ham tosh davriga doir yangiliklar yuzaga chiqa boshladi. Gap shundaki, shu yilda atoqli olim R. Sulaymonov rahbarligida O‘zR FA O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi va Tokio universiteti o‘rtasida tuzilgan shartnomaga ko‘ra O‘zbekistonning tosh davrini o‘rganish bo‘yicha xalqaro hamkor ekspeditsiya tashkil qilindi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi O‘zbekistonning tosh davri yodgorliklarini multidissiplinar yondoshuvlar yordamida o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Birinchi dala tadqiqot mavsumida (2013-yilda) O‘zbekiston- Yaponiya xalqaro hamkor ekspeditsiyasi Nurota tizmasining shimoliy qismida o‘rta paleolitga oid ochiq tipdagi Poshshot makonini ochib o‘rgandi. Makon Nurota shahridan taxminan 12–14 km shimoliy-g‘arbda, Nurota tog‘ tizmasi shimoliy etaklarida joylashgan. Bu yerdagi Nurota tog‘ tizmasining chekka etaklarida, botiqning anchayin keng hududiga, janub-sharq yo‘nalishi bo‘ylab yuqoridagi tog‘ cho‘qqisiga qarab namlik bag‘ishlagan buloq joylashgan.

Buloqning bevosita janubiy-g‘arb tomonida paxsa va xom g‘ishtdan qilingan qasrning xarobalari joylashgan va u yig‘ma sopollariga ko‘ra antik va o‘rta asrlarda hukm surganligi to‘g‘risida xulosa berilgan. Qasr Nurota vohasini g‘arb tomondan himoya qilib turgan. Buloq hamda qal’ani dastlab kuzatgan R.H. Sulaymonov va A.K. Kabirovlar buloq irmog‘i va qal’a shimoliy etagidan kremniydan ishlangan bir nechta uchirindi topib olishgan edilar (Сулейманов, 2016 стр. 299). Buloqdan 50 m janubroqdan qidiruv qazishmasi yotqizilib (1×1 m) va 70 sm gacha chuqurlashtiriladi. Qazishmaning stratigrafiyasi quyidagicha – yupqa ustki qatlam tagidan qazishma tubigacha qattiq kulrang gumusli tuproqdan iborat va topilmalar uchramaydi.

Bunga ekspeditsiyaning xulosasi quyidagicha bo'lgan; pleystotsen davri yotqiziqlari pastroqda joylashgan. Bundan tashqari, Ko'lbuloq, Qo'tirbuloq va boshqa shunga o'xshash yodgorliklarni qazishdan qo'lga kiritilgan tajribalarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, Poshshotdagi qadimgi odamlar faoliyatining izlari buloqqa yaqinroq hududlarda konsentratsiyalashgan.

Buloq hovuzini qayta-qayta tozalashlarda, qal'a qurilishida va uni ta'mirlash ishlari davomida buloq yaqinidagi madaniy qatlamlar buzilgan va loy bilan yuqoriga irg'itib yuborilgan. Shundan so'ng buloq hovuzi atrofidagi 50 va 100 metr radiusni, shuningdek, oqib tushgan qal'a devorlari qoldiqlarini kuzatish jarayonida 30 ga yaqin kvarsli uchirindilar va ularning siniqlari yig'ib olinadi, ular o'rta paleolit davri bilan sanalandi. Bundan tashqari, massiv plastina bo'lagidan ishlangan uncha katta bo'lmagan yonlama qirg'ich ham topildi va u to'q jigarrangli mayda qumli jinsdan ishlangan. Qirg'ichning ish qirrasi tik va u tangasimon retushlash yordamida shakllantirilgan.

Bu yerdan ikkita yaxshi sifatli kremniylardan ishlangan buyumlar ham topilgan. Ulardan biri yelkali prizmatik plastina edi. U yirik va atipik ko'rinishga ega bo'lib, yorqin och kulrangsimon-jigarrang jinsdan ishlangan. Ikkinchi buyum esa kulrang kremniydan ishlangan qoldiq nukleus bo'lib, unga bir taraflama ishlov berilgan. Ikkinchi tomoni esa tekis qobiq bilan qoplangan. Bundan tashqari, bu yerdan tilga olingan kremniy jinslariga tegishli bir nechta mayda uchirindilar ham aniqlangan.

Poshshot topilmajoyining topilishi, unda kremniydan ishlangan tosh materiallarga duch kelinishi Nurota tog' tizmasining tosh davriga oid yangi masalalarni o'rtaga tashlagan edi. Olimlar fikricha, bu yerdan topilgan kremniy xomashyosi 100 km atrofida uzoqlikdagi Uchtut xomashyo konlaridan yoki yaqin atrofdagi tosh konlardan olib kelingan. Poshshot makoni tosh buyumlari industriyasi uchun xos xususiyat Angillak va Omonqo'ton topilmalariga o'xshashligi qayd etildi. Shu bilan paleolit davri deyarli o'rganilmagan Nurota tog' tizmasidan Poshshot nomli mutlaqo yangi yodgorlik aniqlandi va ilmiy muomalaga kiritildi.

Nurota tog' tizmasining tosh davriga oid yana bir yangilik ham 2013-yilda qayd etildi. 2013-yilning bahorida O'zR FA Arxeologiya instituti va SamDU Arxeologiya kafedrasining paleolitchilar guruhi Jizzax viloyatining Forish tumani hududlarida qidiruv ishlarini olib bordi va bu yerdan bir qator yangi yodgorliklar topib o'rganildi (Сайфуллаев, 2014 16-б.). Bu yodgorliklardan biri Go'rdara edi. Bu yodgorlik Forish tumanidagi Birlashgan qishlog'ining shimoliy chekkasida joylashgan Nurota tog' tizmalariga qarashli Go'rdaraning yuqori qismida, hozirda sinib tushgan harsang ayvonnning tagida olib

borilgan qazish ishlari natijasida uchta tosh buyum topildi. Bu yerdan topilgan tosh buyumlar orasida ikki yoqlama ishlov berilgan qirg'ich, qirg'ichcha hamda kesgich qurollari topildi. To'plamdagi qirg'ich kremniylashgan oxaktoshdan ishlangan. Go'rdaraning yuqori qismidan topilgan tosh buyumlar so'ngi paleolit davrini xarakterlaydi. Bu yodgorlikdan tashqari ekpeditsiya tomonidan Forish tumani hududida Yangiqishloq, Azimbuloq yodgorliklari ham topib o'rganilgan.

Yuqoridagilardan ko'rdikki, Nurota tog' tizmasining shimoliy va janubiy yonbag'irlaridan tosh davri mavjudligi tog'risida signal beruvchi yodgorliklar va topilmalar topildi. Bu asosan hozirgi Nurota va Forish tumanlari hududlarida edi. Lekin, Nurota tog' tizmasining shimoliy va janubiy qismi oralig'idagi hozirgi Qo'shrabot tumani hududlarida tosh davriga oid yodgorliklar uchratilmagan edi. Olimlarning izlanishlari va kuzatuvlari tez orada bu hududning ham tosh davri jamoalari tarixini ochib beruvchi materiallar topilishiga imkon berdi.

2018-yilning mart oyida Samarqand davlat universiteti va Germaniyaning Arxeologiya instituti Yevroosiyo bo'limi bilan hamkorlikda 2018–2020-yillarda "O'zbekiston-Germaniya arxeologik ekspeditsiyasini tashkil etish va Zarafshon vohasida razvedka ishlarini olib borish" bo'yicha shartnoma imzolagan edi. Shu munosabat bilan 2018-yilning 21-aprel–30-may kunlari Qo'shrabot tumani va unga qo'shni hudularda qo'shma arxeologik ekspeditsiya tashkil etiladi. G'orlarda olib borilgan izlanishlar natijasida 2 ta tosh buyum qo'lga kiritiladi. G'orlardan topilgan tosh qurollari esa ishlov berish texnikasiga ko'ra so'ngi paleolit (40–12-ming yilliklarni o'z ichiga oladi) davriga mansub. Mutaxassislar tomonidan bu topilmalar yoshi 30–25 ming yilliklarga oid deb xulosalanadi. Bu topilmalarning topilishi olimlarni keyingi yillardagi tadqiqotlar olib borish uchun qiziqish uyg'otdi (Аванесова, 2020 12–20 б.).

Ushbu jamoaning bu hududdagi keyingi tadqiqoti 2022-yil iyul-avgust oylari davomida dala qidiruv ishlari bilan boshlandi. Qidiruv ishlariga B. Sayfullayev, A. Rajabov, doktorant A. Imomov, L. Ungalov, M. Berdiqulov, A. Baxronovlar jalb etildi. Ekspeditsiya o'z oldiga Qo'shrabot tumani hududidagi tosh davri yodgorliklarini aniqlash va ilmiy tahlil qilish vazifasini qo'ydi. Tadqiqotchilarning metodikasining xususiyati o'rganilayotgan hududda chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan yalpi qidiruv ishlarini olib borish va qidiruv davomida qisman qazish ishlarini olib borishdan iborat edi (Сайфуллаев, 2023 15-18 б.).

Arxeologik tadqiqotlar institut xodimlari tomonidan Minishkar, Pangat, Oboy qishloqlari xududini arxeologik jihatdan o'rganish, mintaqaning tosh davriga oid topilmalari qo'lga kiritilgan joylarining xaritasini yaratish borasida izlanishlar olib bordi.

Tadqiqot uchun rejalashtirilgan butun hududni qamrab olish orqali jadal tadqiqotlar amalga oshiriladi. Mahalliy aholining ko'rsatmalari va tipik kuzatuv orqali yuqorida nomlari keltirilgan qishloqlarning turli hududlarida tadqiqotlar olib boriladi. Bu tadqiqot jamoaga ko'plab topilmalarni qayd etishga katta yordam beradi.

Tadqiqot davomida Oboy qishlog'i boshlanishida kuchli kremniylashgan ohaktoshdan iborat qoya aniqlanadi. Bu yerda olib borilgan izlanishlar davomida tosh qurollarini yasashda ishlatiladigan kuchli kremniylashgan ohaktosh xom ashyosi ko'plab topilgani qayd etilgan. Bu punktni ustaxona deb aytishga hali erta deb baholangan. Sababi ushbu joyda hozircha ibtidoiy ustalar tomonidan yasalgan tosh buyumlar aniqlanmaydi. Lekin shu qishloqqa yaqin Qizilboshbuloq topilmajoyidan mazkur punktdan aniqlangan xom ashyodan yasalgan so'ngi paleolit davriga oid uchirindi qo'lga kiritiladi.

Ushbu uchirindining tashqi tomoni kuchli mog'or (patina) bilan qoplangan bo'lib, qattiq uchirindi bilan sindirilganligidan dalolat beruvchi negativ mavjud edi.

Olimlar jamoasi izlanishlar davomida qo'lga kiritilgan tosh buyumlarni ikki davrga ajratish haqida fikr yuritishgan. So'nggi paleolit davriga oid uchirindilar, kvarsdan ishlangan qirg'ich, kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan nukleuslar yasalish texnikasi va patina bilan qoplanganligi uchun so'ngi paleolit davri bilan sanalangan.

Yashil kremniydan ishlangan, retushlangan uchirindining distal qismi, kremniydan ishlangan plastinalar yasalish texnikasi va saqlanish darajasiga ko'ra neolit davriga oid deb hisoblanadi.

Nurota tog' tizmasida joylashgan Pangat, Oboy, Minishkar, Qumoloqli (Qo'shrabot tumani) qishloqlari hududida o'tkazilgan qidiruv ishlari birinchi navbatda kam sonli bo'lsada mintaqa tosh davrida odamzod tomonidan o'zlashtirilganligini asoslovchi paleolit va neolit davriga oid mehnat buyumlarini topishga imkon beradi. Bunday tadqiqotlar orqali, mintaqada davom ettirilish kutilayotgan tadqiqotlar Zarafshon vohasi tosh davri arxeologiyasini o'rganishda qator ilmiy yangiliklar qo'lga kiritishi shubhasiz. Dastlabki qo'lga kiritilgan natijalar ham bundan dalolat beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Аванесова Н., Луно Э., Эргашев О., Холматов А.* Ўзбекистон-Германия археологик экспедициясининг 2018 йилда олиб борган тадқиқотлари натижалари. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. №12. Самарқанд-2019. 12-20 бетлар. Ўзбекистонда Археологик тадқиқотлар. №12. Самарқанд. 2020. Б.12-20. (Avanesova N., Luno E., Ergashev O., Kholmatov A. Research conducted in

Koshrabad district in 2018-2019. Archaeological research in Uzbekistan. No. 12. Samarkand. 2020. B.12-20)

2. *Вишняцкий Л.Б.* Палеолит Средней Азии и Казахст ана. Изд-во «Европейский дом». Санкт-Петербург, 1996. -стр. 221. (Vishnyatsky L.B. Paleolithic Middle Asia and Kazakhstan. Izd-vo "European House". St. Petersburg, 1996. -S. 221.)
3. *Касымов, М. Р.* Древнейшие шахт ы по добыче камня в Узбекист ане. Ташкент . 1966. стр. 21-27.
4. *Ранов В.А.,* Несмеянов ст р.А. Палеолит и ст рат играфия ант ропогена Средней Азии. Душанбе, 1973. -стр. 77. (Ranov V.A., Nesmeyanov S.A. Paleolithic and stratigraphy of anthropogenic Sredney Asia. Monday, 1973. -S. 77.)
5. *Сайфуллаев Б., Эргашев О., Раджабов А., Унгалов Л., Имомов А.* Нурот а т оғ тизмасининг шимолий қисмидан топилган тош даврига оид янги топилмалар. // Марказий Осиё халқларининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий тарихи, моддий ва маънавий маданияти // М.Х Пардаевнинг 65 йиллигига бағишланган республика илмий амалий конференцияси материаллари. Самарқанд-2023. В. 15-18 (Sayfullaev B., Ergashev O., Radjabov A., Ungalov L., Imomov A. New Stone Age finds from the northern part of the Nurota mountain range. //Socio-economic, political history, material and spiritual culture of the peoples of Central Asia // Materials of the republican scientific and practical conference dedicated to the 65th anniversary of M.Kh Pardaev. Samarkand-2023. B. 15-18)
6. *Сайфуллаев Б.Қ., Эргашев О.Т., Рахимов К.А., Ражабов А.Ю., Аллаёров Ў. Пардаев Ш.М.* Жиззах воҳасининг палеолит даври\\Ўзбекист онда Археологик тадқиқотлар. Самарқанд. 2014. -Б. 16. (Sayfullaev B.Q., Ergashev O.T., Rakhimov K.A., Rajabov A.Yu., Allayorov O‘. Pardaev Sh.M. Paleolithic period of Jizzakh oasis\\Archaeological research in Uzbekistan. Samarkand. 2014. -B. 16.)
7. *Сулейманов Р. Х.* и др. Памят ники палеолит а в Яккабагском районе Кашкадарьинской области и Нуратинском районе Навоийской области // Археологические исследования в Узбекистан, Выпуск 10., Самарқанд - 2016 – стр. 299.
8. *O‘ngalov L.* Nurota tog‘ tizmasining tosh davri arxeologiyasining o‘rganilish tarixi. Scienceproblems.uz. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. №12/1. Б.48-53

**D. Omonov**
*Samarqand arxeologiya instituti doktoranti*

# XO‘JA RUSHNOI YODGORLIGIDAGI BIRINCHI VA UCHINCHI QAZISHMALARDA OLIB BORILGAN TADQIQOT NATIJALARI

2023-yili Qashqadaryo viloyati Muborak tumani hududida joylashgan Xo‘ja Rushnoi arxeologik yodgorligida Samarqand arxeologiya instituti xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Madaniy Meros agentligi tomonidan rasmiylashtirilgan 0231 tartib raqamli ochiq varaqa va 320-raqamli ruxsatnoma asosida, aynan ushbu muassasa tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar.

Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston hududida deyarli uchramaydigan chig‘atoylar va temuriylar davriga xos bo‘lgan qishloq yodgorligida tadqiqot ishlarini amalga oshirib, ushbu tadqiqotlar natijasida qo‘lga kiritiladigan malumotlar asosida XIV-XV asrlarga oid qishloq hayoti, arxetekturasi va moddiy madaniyatini yoritib berish.

Xo‘ja Rushnoi arxeologik yodgorligi Qashqadaryo viloyati Muborak tumanida, Qarshi Buxoro A 380 magistral yo‘lining Qarshi shahridan kelishdagi 60-km dan 1 km shimolda joylashgan. Arxeologik yodgorlik bugungi kunda Xo‘ja Rushnoi qabristoni bilan chegaradosh bo‘lib ushbu qabristonning shimoli-sharqiy tomonida joylashgan. Yodgorlikning nomi ham aynan ushbu qabriston nomidan olingan. Yodgorlikka eng yaqin aholi punkti bu Muborak shahri bo‘lib, yodgorlik va shahar o‘rtasidagi masofa 10 km ni tashkil qiladi. Sobiq ittifoq davrida bu hududlar O‘zbekiston sovxozi tarkibiga kirgan.

Yodgorlik haqidagi dastlabki ilmiy malumotlar 1993–1995-yillar Muborak tumanidagi Zanjir Saroy arxeologik yodgorligida tatqiqot ishlariarxeolog tarix fanlari doktori A.A. Raimqulov tomonidan taqdim qilingan. A.A. Raimqulov ushbu yillarda yodgorlikda dastlabki qidiruv kuzatuv ishlarini amalga oshirgan va yodgorlik ustida tasodifiy topilgan sopol buyumlar va yodgorlikning topografik xususiyatlaridan Temuriylar davriga tegishli qishloq ekanligini taxmin qilgan (Rayimqulov, 2018).

Bugungi kunga kelib aynan Chig‘atoylar va Temuriylar davriga xos qishloq yodgorliklarini O‘zbekiston hududida uchratish bir muncha mushkul. Bunga sabab sifatida ko‘plab omillarni ko‘rsatishimiz mumkun. Biroq Xo‘ja Rushnoi arxeologik yodgorligi joylashgan hudud tabiiy sharoitlari inson yashashi uchun noqulay bo‘lganligi sababli ushbu qishloq tanazzulga yuz tutgandan so‘ng insonlar bu hududni qayta o‘zlashtirishga qiziqmagan va bugungi kunda ham ushbu hududlarda aholi istiqomati kuzatilmaydi. 2023-yilning 1-avgustidan 13-sentabriga qadar Xo‘ja Rushnoi arxeologiya yodgorligida olib borilgan

tatqiqotlar ushbu yodgorlikni kamyob Chig‘atoylar va Temuriylar davriga xos qishloq yodgorligi ekanligini ko‘rsatib berdi.

2023-yilgi tatqiqotlar davomida yudgorlikda 50 ta tepalik ro‘yxatga olindi va ushbu tepaliklar qishloqning yaxlit bir ko‘rinishini tashkil qildi (1-rasm).




*1-rasm. Yodgorlik o’rnida mavjud bo’lgan qishloq xaritasi.*

Xo‘ja Rushnoi arxeologiya yodgorligidagi 1-qazishma yodgorlikning sharqiy qismida joylashgan, ro‘yxatga olingan 50 ta tepalikning 4-tartib raqamidagi tepalik ustida amalga oshirildi. 1-qazishmaning kengligi dastlab 6 x 6 m qilib belgilandi. Dastlab belgilab olingan qazishma hududining ustki qismi tozalab olindi. Ustki qatlamdan Temuriylar davriga taalluqli tanga va ko‘plab sopol parchalari yig‘ib olindi. Qazishmaning yuqori qismida devorlarning saqlanishi yaxshi holatda emas. Tadqiqotlar davomida qazishmaning sharqiy qismidan 30–40 sm chuqurroqqa kavlab tushildi.

Aynan o‘sha hududdan devorning yaxshi saqlangan qismi topildi. Ushbu devor bo‘ylab qazishma davom ettirliganda qazishmaning shimoliy qismidan ham devor izlari topildi. Qazishmalar topilgan devorlar bo‘ylab davom ettirilganda 1-qazishmadagi 1-xonaning barcha 4 tomondagi devorlari ham aniqlandi. Xonaning uzunligi 5 m, eni 3,5 m ni tashkil qiladi. Xonaga kirish qismini biz dastlab xonaning janubiy-sharqiy devorining shimoliy-sharqiy tarafida deb taxmin qilgan edik. Broq biz taxmin qilgan predmet eshik o‘rni bo‘lib chiqmadi, ushbu joy tokcha ekanligi aniqlandi. Tokchaning parametrlari kengligi 90 sm, devor yuzasidan 10 sm ichkariga kirgan.

Xonaning kirish qismi shimoliy sharqiy devorning sharqiy burchagida aniqlandi, uning kengligi 90 sm bo‘lib, xonaning ichki tomonida, kirish qismining teng yarmida kengaygan va kengligi 95-97 sm ga yetgan. Kirish qismining poli tepalikning 0 nuqtasidan 1,55 m chuqurlikda aniqlandi. Xonaning ichki tomoniga kiraverishda pol qismi biroz chuqurlashib 0 nuqtadan 1,90 m pastda joylashgan. Xonaning ichki tomoniga qarab yurilganda pol yana ko‘tarilib xonaning asosiy pol qismi yuzasi balandligiga chiqilgan. Ushbu pol 0 nuqtadan 1,60 m chuqurlikda joylashgan.

1-xonaning ichki qismida bitta oziq ovqat o'rasi, supa, tandir va o'choq qoldiqlari topildi. Supa xonaning janubi-sharqiy burchagida joylashgan, supaning eni 1,30 m, uzunligi 1,90 m, supaning poldan balandligi 20 sm ni tashkil qiladi. Supaning shimoli-g'arbiy burchagida o'choq qurilgan. O'choq og'zining diametri 50 sm, o'choq loyining qalinligi 5 sm. Supaning shimoliy chegarasida kul o'rasiga o'xshash tandir qoldig'i topildi. Tandirning diametri 70 sm (2-rasm).

1-xonaning janubi-g'arbiy tomonida oziq-ovqat o'rasi topildi. Uning kengligi 80 sm, uzunligi 1,10 m ni tashkil qiladi. Chuqurligi pol yuzasida 1,15 m ni, 0 nuqtadan 2,55 m. O'raning eng ostki qismidan qamish qoldiqlari topildi. Bu shundan dalolat beradiki o'raning ostiga qamishdan to'qilgan to'shama yozib qo'yilgan.

1-xonaning shimoli-g'arbiy devorining qalinligi 1 m ni tashkil qiladi, shimoli-sharqiy devor 70 sm qalinlikda, janubi-sharqiy devori 80 sm qalinlikda, janubi-g'arbiy devori 60 sm qalinlikda. Devorlarning turli xil nuqtalarida qalinligi turlicha ko'rinishda, chunki devorlarning saqlanish darajasi yaxshi darajada emas, shu sababdan biz devorlarning qalinligini belgilashda ularning yaxshi saqlanib qolgan joyidan belgilab oldik. Xonadan topilgan ashyolar va xonaning tarkibiy qismidan malum bo'ldiki xona xo'jalik xonasi vazifasini o'tagan.

1-xonaning konturlarini to'liq ochib olish maqsadida qazishmani dastlab shimoli-g'arbiy tomonga qarab 2 m kengaytirildi.

1-xona ochilgan hududning yuqori oqova qatlamidan 3 ta tanga topilib, ularning 2 tasi XV asrga oid Temuriylar davri tangalari ekanligi aniqlandi (Казанцев, 2006).

1-xonaning shimoli-sharqiy devori tashqi tomonida, xonaning kirish qismidan shimoli-g'arbiy burchak qismi tomonga qarab 1,10 m yurilgandan yana bir supa o'rni aniqlandi. Ushbu supa 0 nuqtadan 1,45 m chuqurlikda joylashgan, eni 1,30 m bo'lib, uzunligini aniqlashning imkoni bo'lmadi. Chunki supaning bir tomoni 1-xonaning shimoli-sharqiy devoriga tutashgan ikkinchi tomoni esa qazishmaning shimoli g'arbiy chegarasi tomonga qarab cho'zilgan.

1-xonaning shimoli-g'arbiy tomonidan madaniy qatlamlar kesmasi chizib olindi. 1-xonada 3 ta madaniy qatlam aniqlandi. 1-aplift qatlam, 2-o'rtacha qattiqlikdagi och sarg'ish rangli qatlam, 3-pol ustidagi och qo'ng'ir rangli kul aralash qatlam.

1-qazishma janubi-sharqiy tomonga qarab dastlab 4 m kengaytirildi. 1-xonaning janubi-sharqiy tomondagi devorining o'rtasida qo'shni 2-xonaga o'tish eshigi mavjud. Ushbu eshikning eni 80 sm. Eshikning ostki qismi 2-xonaning polidan 30 sm balandlikda, 0 nuqtadan 1,20 m chuqurlikda joylashgan.

2-xonaning poli 0 nuqtadan 1,5 m chuqurlikda joylashgan. Xonaning ichida birorta supa yoki tandir, o‘choq va boshqa shunga o‘xshash predmetlar aniqlanmadi. Xonaning shimoli-sharqiy burchagidan toshnovning ostki qismi topildi. Biroq bu toshnovning ostki qismi Xo‘ja Rushnoidagi so‘nggi qurulish davriga taalluqli bo‘lib, biz tarifini keltirayotgan xonalarga aloqasi yo‘q. Bunday toshnovlarni biz XIII–XIV asrlarda Xorazim arxitekturasida kuzatishimiz mumkun. M.Sh. Kdirniyazov keltirgan malumotlarga ko‘ra toshnov ustiga terilgan pishgan g‘ishtlar xonaning pol qismidan 50–60 sm chuqrlikda joylashgan (Кдырниязов, 2002). Biz mana shu toshnovning topilishi orqali yodgorlikda ikkita qurilish davri mavjud degan xulosaga keldik (2-rasm).

2-xonaning eni 2,5 m, uzunligi 5,5 m ni tashkil qiladi. Xonaning shimoli g‘arbiy devori qazishmada ochilgan 3 ta xona uchun ham umumiy tashqi devor vazifasini o‘tagan. 2-xona hududida ham ushbu devorning qalinligi 1 m ni tashkil qiladi.

Xonaning janubi-sharqiy devorining qalinligi 60 sm ni tashkil qiladi, xonaning janubi-g‘arbiy devorining qalinligi 50 sm bo‘lib, ushbu devor 2-xona va 3-xonani ikkiga ajratib turadi. 2-xonaning shimoli-sharqiy tomonidan madaniy qatlamlar kesmasi chizib olindi.

Unga ko‘ra xonada 4 ta madaniy qatlam borligi aniqlandi. 1-aplift qatlam, 2- tuproq aralash kul qatlam, 3-och qo‘ng‘ir rangli yumshoq qatlam va to‘q qora rangdagi kul qatlam, bunday kul qatlam kesmada ikki qator ko‘rinish bergan.

2-xona tuzilishiga ko‘ra yotoqxona vazifasini o‘tagan. 1-qazishmaning janubiy-g‘arbiy chegarasi tomonda yana bir xona o‘rni aniqlangach qazishma shu tomonga qarab yana 2,5 m kengaytirildi va qazishmaning umumiy kengligi 12,5 x 8 m xolatiga keltirildi.

3-xona 2-xonaning janubi-g‘arbiy tomonida joylashgan. Biroq uning ikkinchi xonadan dastlabki farqi unga qo‘shni xonadan emas balki alohida tashqi eshik orqali kirishida.

3-xonaning eni 3 m, uzunligi 4,5 m ni tashkil qiladi. Yuqorida aytganimizdek 3-xonaning ham shimoli-g‘arbiy devori uchchala xona uchun ham umumiy bo‘lib, ushbu devorning 3-xona hududidagi qalinligi ham 1 m ni tashkil qiladi.



*2-rasm. 1-qazishmada ochilgan xonalar.*

Xonaning janubi-g‘arbiy qismidagi devorining

qalinligi 60 sm, janubi-sharqiy qismidagi devorining qalinligi 70 sm ni tashkil qiladi.3-xonaga kirish qismi xonaning janubi-sharqiy devorining shimoli-sharqiy burchagida joylashgan bo‘lib, uning eni 90 sm ni tashkil qiladi. Eshikning ostki qismi xona poli yuzasi bilan tekis qilib qurilgan. Xonaning poli 0 nuqtadan 1,60 m chuqurlikda joylashgan.

3-xonada 3 ta o‘ra mavjud bo‘lib, ularning birinchisi xonaning shimoli-g‘arbiy burchagida joylashgan. O‘raning kengligi 1 x1 m ni tashkil qiladi. 2-o‘ra xonaning janubi-g‘arbiy burchagida joylashgan bo‘lib, o‘raning kengligi 1,5 x 1,10 m ni tashkil qiladi. 3-o‘ra xonaning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, uning kengligi 90 x 50 sm ni tashkil qiladi. Ushbu o‘ralar malum bir sabablarga ko‘ra chuqurligi to‘liq ochib ko‘rilmadi.3-xona tuzilishi va xonadan bir nechta o‘ralarning aniqlanishiga ko‘ra kompleksda oziq-ovqat ombori vazifasini o‘tagan degan xulosaga kelindi (3-rasm). Xonalar devorlari guvalalardan qurilgan. Guvalalar yaxshilab pishitilib devorga qurimasdan terib ketilgan va devorlar paxsa simon shakldа ko‘tarilgan. Guvalalarning o‘rtacha kattaligi bo‘yi 17, 15 sm, eni 13 sm ni tashkil qilgan.

Qazishmada ochilgan dastlabki qurilish davriga oid xonaning kengligi 3 x 4 m ni tashkil qiladi. Xona sharqiy devorining qalinligi 80 sm, 75 sm balandlikda saqlanib qolgan. Xona janubiy devorining qalinligi 60 sm, 75 sm balandlikkacha qismi saqlanib qolgan. Xona g‘arbiy devorining ham qalinligi 60 sm bo‘lib, 70 sm balandlikkacha bo‘lgan qismi saqlanib qolgan. Xona shimoliy devorining ham qalinligi 60 sm bo‘lib, ko‘rib turganimizdek xonaning faqatgina sharqiy devori qolganlariga nisbatan qalin. Chunki xonaning old tomoni aynan shu taraf bo‘lgan. Bunday deyishimizga yana bir sabab xonaga kirish qismi ham aynan sharqiy devorning shimoliy tomonida. Xonaga kirish eshigi shimoli-sharqiy burchagida joylashgan. Eshikning eni 80 sm, ostki qismi pol bilan tekis qilib ishlangan.Kirish qismidan ichkariga kirganda chap tomonda, sharqiy devorning eng ostki qismida tokchaning o‘rni aniqlandi, tokchaning eni 40 sm, balandligi 30 sm. Tokch tepaga qarab torayib borib uchburchaksimon ko‘rinishga kelgan.




*3-rasm. Birinchi qazishmada ochilgan xonalar chizmasi.*



*4-rasm. 3-qazishmada ochilgan xona.*

Xonada supaning o‘rni ham aniqlandi. Ushbu supa xonaning janubi-sharqiy qismida joylashgan. Supaning uzunligini aniqlash imkoni bo‘lmadi, chunki so‘nggi qurilish davriga taalluqli toshnov aynan mana shu supaning bir qismi va janubiy devor ustidan kesib tushgan. Supaning eni 1,5 m ni tashkil qiladi, balandligi 34 sm. Supaning usti somon qo‘shilgan loy bilan suvoq qilingan. Supa to‘liq devor paxsasiga urilgan guvalalarga o‘xshash guvalalardan qurilgan (4-rasm).

Xonaning ichki qismida, xonaning shimoliy tomonida ustun o‘rni topildi. Ushbu ustun o‘rni ikki qator qilib qo‘yilgan ikkita 23 x 23 x 5 hajimdagi pishgan g‘ishtdan hosil qilingan. G‘ishtlarning ostiga tuproq uyilgan. Ustun o‘rnining umumiy balandligi 20 sm.

Xonaning sharqiy devori tashqi tomonida uchta o‘choqning o‘rni aniqlandi. Ushbu o‘choqlarning ikkitasi aylana shaklida, bittasi uchburchak ko‘rinishda. Aylana shakldagi o‘choqlar birinchisining diametri 30 sm bo‘lsa, ikkinchisining diametri 40 sm. Uchburchak ko‘rinishdagi o‘choqning bo‘yi 40 sm, eni 25 sm bo‘lib, sharqiy tomondan g‘arbiy tomonga qarab ensizlashib borib uchburchak ko‘rinishni hosil qilgan.

Ushbu o‘choqlarning o‘rni joylashgan hudud ehtimol ayvonsifat qilib yopilgan. Ushbu komplekis bitta xona va ayvondan iborat degan taxminga kelinmoqda. Ushbu kompleksda kambag‘alroq yoki kichikroq oila yashagan bo‘lsa kerak (5-rasm).



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Xo'ja Rushnoi yodgorligining 1- va 3-qazishmalarida ochilgan turar joy komplekslari yodgorlikning 1-qurilish davriga tegishli. Yuqorida aytib o'tkanimizdek, bu ma'lumotni 1-qazishmaning 2-xonasida va 3-qazishmada ochilgan xonaning janubiy tomonlarida ochilgan 2-qurilish davriga ta'lluqli tashnovlar isbotlaydi. 1-qurilish davri chig'atoylar hukumronligining so'ngida paydo bo'lib, 1387-yilga qadar davom etgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning ma'lumotlariga ko'ra To'xtamishxon 1387-yilda Buxoro shahrini qo'lga ololmagach Termizga yurish qiladi.

Bu yurish chog'ida Buxoro-Termiz yo'nalishi bo'ylab yo'lida uchragan shahar va qishloqlarni vayron qiladi (Sharafiddin al-Yazdiyning "Zafarnoma"sida aytiladi). Aynan manashu yo'nalishda joylashgan Zanjir Saroy va Xo'ja Rushnoi yodgorliklari dushman xujumi natijasida vayronaga aylanadi. Mana shu voqeadan so'ng Zanjir Saroy qayta tiklanmagan. Biroq Xo'ja Rushnoi aholisi xarobaga uchragan o'z qishlog'i ustida yana qaytadan hayot nashidasini qura oladi. Yodgorlikning so'nggi qurilish davri haqida keying tadqiqotlar davomida ma'lumotlar olamiz degan umiddamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Rayimqulov A. A.* Janubiy Sug'dning VIII-XIV asrlar davri tarixiy topografiyasi. Dis. dok. tar. fan. Samarqand, 2018.
2. *Богомолов Г.* Элемент ы домусульманских верований в Согде и Шаше в эпоху средневековья // O'ZBEKISTON MODDIY MADANIYATI TARIXI 41-nashr, 81 b.
3. *Казанцев А.Г.* Исламские монет ы VII-XVI веков. Обзор. Екатиренбург 2006 г, с 237.
4. *Кыдырниязов М.Ш.* Культ ура Хорезма в XIII-XIV вв. Дис. Нукус - 2002 г, с 364.
5. *Мирзаахмедов Д.К.* Ремесло Самарканда IX – XV вв. //, Вестник МИЦАИ, выпуск 5, 2007.
6. *Худяков Ю.С.* Вооруж ение средневековых кочевников Юж ной Сибири и Централъной Азии. Новосибирск издателъство «НАУКА» Сибирской отделение 1986.
7. *Шарафиддин Али* Яздий. "Зафарнома". Н: "Шарқ", Тошкент 1997.

**S.T. Amonov**
Y.G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti tayanch doktoranti
azimxonomonov2@gmail.com

# KESHNING QADIMGI DAVR MAKONLARI TOPOGRAFIYASI

Hozirgi Kesh vohasi va uning tarixiy topografik xaritalarini yaratish, hududning qadimiy ko'rinishi va hozirgi kundagi holatlarini tahlil qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda. Qadimiy Kesh Qashqadaryo vohasining asosiy shaharlaridan biri hisoblanib poytaxt maqomiga ham ega bo'lgan. Kesh vohasi tarkibiga kiruvchi hozirgi kundagi hududlar ya'ni Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi va G'uzor tumanlari tarixan ushbu vohaning ajralmas bir bo'lagi sifatida mavjud bo'lgan. Ushbu hududlarda odamlar qadimgi davrdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelishgan. Ob-havosi quruq, tog'li hududlarida esa yo'gingarchilik yaxshi bo'lgan.

Janubiy Sug'dning ikkita vohasi Naxshab va G'uzor vohalarining antik va ilk o'rta asrlar davri shaharlari va qishloq makonlari qoldiqlari bo'lgan arxeologik yodgorliklarning tipologiyasi masalalari bilan dastlab R.H. Sulaymonov shug'ullangan (Сулейманов, 2000 С. 32–39). Olim tomonidan Naxshab va G'uzor vohalari yodgorliklari tepaliklarning tashqi 10 ta relyefi, topografik xususiyatlariga ko'ra turga ajratilgan va har bir turning o'ziga xos xususiyati tahlil qilingan. Janubiy Sug'dning yuqori Kesh vohasi yodgorliklari va ularning topografik xususiyatlari bu hududda tadqiqot olib borgan, tadqiqotchilarning, xususan KATE (Kesh arxeologik topografik ekspeditsiyasi) olimlarning u yoki bu ishlarida albatta tahlil qilingan bo'lsada, ular turlicha turlarga bo'linib, umumiy tarzda turlarga bo'lib o'rganilmagan. Bu tadqiqotning amalga oshirilmaganligi sabab Kesh vohasi tarkibiga kiruvchi Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi tumanlari hududlaridagi arxeologik yodgorliklar to'la hisobga olinmagan. Ko'p yillar davomida Yakkabog', Shahrisabz va Kitob tumanlari yodgorliklarining katta qismi hisobga olingan bo'lsa-da, Qamashi va Chiroqchi tumanlarida arxeologik qidiruv ishlari deyarli olib borilmagan.

Janubiy Sug'd arxeologiyasida oq nuqta bo'lib turgan bu muammoni bartaraf qilishga faqat keyingi yillardagina qo'l urildi. Kesh vohasi hududidagi arxeologik yodgorliklarini hisobga olish borasidagi tadqiqotlar bir necha yil davomida O'zR FA Arxeologiya tadqiqotlar institutining A. Raimqulov boshliq guruhi tomonidan olib borildi. Olib borilgan arxeologik qidiruvlar davomida 2012-yilda Yakkabog' tumani (Raimqulov, 2013), 2013 yilda Shahrisabz tumani tumani (Raimqulov, 2014), 2014-yilda esa Kitob tumani arxeologik

yodgorliklari hisobga olindi. Keyingi 2015–2016-yillarda esa G‘uzor va Chiroqchi tumanlarida ham arxeologik qidiruv ishlari davom ettirildi va bu tadqiqotlarda ushbu dissertatsiya muallifi ham ishtirok etdi.

Qashqadaryo vohasining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu hududdan eng qadimgi odamlarning makonlari topib o‘rganilganligi bizga ma’lum. Samarqand va Surxondaryo viloyatlaridagi arxeologiya yodgorliklari topilmalarini bir-biri bilan solishtirganda, bu yerlarda ham odamlar qadimdan yashab turli-xil xo‘jalik sohalarini rivojlantirgan degan xulosaga kelish mumkin. Ilk temir davriga kelib Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida joylashgan qadimgi Kitob vohasi ham jadallik bilan o‘zlashtirila boshlaganligini olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ham bilish mumkin. Kitob tumani, Shahrisabz, Samarqand va Buxoro viloyatlariga yaqin bo‘lganligi uchun ham qadimdan Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan bo‘lib, dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topgan hududlardan biri hisoblangan. Biz arxeologik tadqiqotlar olib borishni maqsad qilgan Kitob tumani, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi va Shahrisabz tumanlari hamda Samarqand viloyati, Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Voha hududining katta qismi shimoliy va sharqiy chegaralari bo‘ylab cho‘zilib ketgan. Bu joylarning ko‘p qismini Hisor va Zarafshon tog‘ tizmalari (balandligi 400 metr) egallagan. Mavjud baland tog‘ tizmalari tuman hududini sovuq havo oqimidan to‘sib turgani uchun, iqlimi bu joylarda eng mo‘tadil hisoblanadi. Vohada o‘rtacha temperatura 18 gradusni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatining asosiy daryosi hisoblangan Qashqadaryo, Kitob tumanining baland tog‘laridan boshlanadi.

Tumanning Varganza qishlog‘idan, daryo tog‘lar orasidan chiqib, Qashqadaryoning keng vohasiga tushadi. Varganzadan Oqsuv daryosigacha vodiyning kengligi 150 – 300 metrga yetadi. Tuman hududidan Qashqadaryoning bir necha yirik irmoqlari -Kichikjar, Oqsuv, Jinnidaryo, Oqdaryo oqib o‘tadi. Tuprog‘i; Shahrisabz, Kitob botig‘ida tiniq bo‘z, daryo bo‘yida allyuvial bo‘z, tog‘ qismida qo‘ng‘ir tuproqlar ko‘proq uchraydi. Sug‘oriladigan yer maydoni 18700 gektarga yaqin. Qashqadaryo vohasining yuqori qismida Zarafshon tog‘ tizmalarining janubiy yonbag‘irlarida joylashgan Angillak g‘oridan topilgan yuqori paleolit davriga oid makon, neolit davriga oid diniy inshoot-sajdagohlarning mavjudligi hamda 2007-yilda Hazrati-Bashir tosh davri yodgorliklarining (Kitob tumani) topilishi insoniyat yashashi uchun qulay muhit bo‘lganligidan, ushbu hududda insonlar tosh davridan boshlab yashaganliklaridan dalolat beradi. Chunki bu o‘lkaning o‘ziga xos boy tabiati, serunim va sersuv yerlari juda qadimdanoq insonlarning hayot kechirishi uchun juda qulay bo‘lib kelgan. Shu tariqa tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida bizga ma’lum yoki noma’lum bo‘lib kelgan ko‘plab qadimiy qabilalarning o‘troqlashuviga sabab bo‘lgan.

So‘nggi bronza, ilk temir davridan boshlab (miloddan avvalgi birinchi ming yillikning oxiri) vohada ilk bor o‘troqlashgan aholi yashaydigan manzilgohlardan iborat qadimiy qishloqlar paydo bo‘ladi. Ilk temir davriga kelib voha aholisining son jihatidan ko‘payishi natijasida yangi manzilgohlar, mustahkam va qalin himoya devorlariga ega bo‘lgan ilk shaharlar bunyod bo‘lishiga olib keladi. Aynan shu davrga oid bo‘lgan yodgorliklar Qashqadaryo vohasining sharqiy chekka qismida Sho‘robsoy havzasida joylashgan bo‘lib Uzunqir, Podayotoqtepa va Sangirtepa yodgorliklaridir. Bu yodgorliklar alohida daryo bo‘ylarida qad ko‘targan bo‘lib umumiy suv manbaidan foydalangan, ularda qadimgi sug‘orish tizimining mavjud bo‘lganligi yangi dehqonchilik vohalarini bunyod qilish imkonini bergan. Bu davrda Sho‘robsoy havzasida inson xo‘jalik faoliyatining rivojlanishi tufayli qishloqlar kengayib shaharlar bunyod qilingan shu bilan bir vaqtda shaharsozlik madaniyati ham shakllana borgan.

Shahrisabz tumani joylashgan Qashqadaryo viloyati nafaqat O‘zbekistonning, balki O‘rta Osiyoning eng yirik va muhim tarixiy-geografik mintaqalaridan biri sanaladi va u O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlari bilan chegaralangan. Tabiiy chegaralari shimolda Zarafshon tizmalari va uning davomi bo‘lgan Jom, Ingichka va Zirabuloq–Ziyoviddin suvayirg‘ichlari, shimoli-sharqda Turkiston tizmalari, sharqda va janubiy-sharqda Hisor tizmalari, janubida Sandiqli va Nishon cho‘llari orqali Amudaryo bilan chegaralangan bo‘lsa, g‘arbida Qarshi cho‘llari orqali bepoyon Qizilqumga tutashib ketgan. Vohaning o‘rtasidan O‘rta Osiyoning yirik daryolaridan biri Qashqadaryo oqib o‘tadi. Uning uzunligi taxminan 300 km atrofida. Zarafshon, Turkiston va Hisor tog‘laridan oqib keluvchi katta-kichik daryolar, o‘nlab soylardan suv olgan Qashqadaryo vohani o‘rtasidan kesib o‘tib, qadimda Poykent atroflarida Zarafshonga quyilgan, hozirda esa Qarshi cho‘lining g‘arbiy etaklarida qumlarga singib ketadi. Biz fikr yuritayotgan Shahrisabz tumani Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida joylashgan. Voha sharqda Tojikiston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlari bilan, janubda Yakkabog‘ va Qamashi, g‘arbda Chiroqchi, shimolda Kitob tumanlari bilan chegaradosh bo‘lib, Hisor tog‘ tizmasining g‘arbiy etaklarida joylashgan. Turkiston va Hisor tog‘laridan oqib tushadigan Qashqadaryo, Tanhozdaryo, Qizildaryo, Oqsuv daryolari va juda ko‘plab soylar vohada ko‘plab jarliklarni hosil qilgani holda, qirg‘oqlarini yuvib vohaning tekislikda joylashgan hududlariga minerallarga boy oqiziqlarni olib keladi. Bu holat bu hududda jada qadimdanoq sun’iy sug‘orish tizimlarining shakllanishiga va dehqonchilik madaniyatining rivojlanishiga imkon yaratdi. Shahrisabz tumanining janubiy qismidan Tanhozdaryo, shimoliy qismidan esa Oqsuv daryosi oqib o‘tadi. Vohada sug‘oriladigan yer maydoni taxminan o‘n sakkiz ming gektarga yaqin

bo'lib, uning katta qismi past tekisliklardan iborat. Vohaning asosiy suv manbai Tanhozdaryo va Oqsuv daryolardir. Tanhozdaryo Hisor tog' tizmasining g'arbiy yon bag'irlaridan, 3900 m balandlikdagi Kichikg'ozi ko'lidan boshlanadi va Chopiq qishlog'idan yuqoriroqda dastlabki sug'orish tarmoqlariga ega bo'ladi.

Quyi o'zani esa Nushkent qishlog'i yaqinidan Qashqadaryoga quyiladi. Tanhozdaryoning uzunligi 93 km ga teng. Tanhozdaryo qor va yomg'ir qisman muzliklardan to'yinadi. Shahrisabzning yirik sug'orish tarmoqlaridan yana biri Qashqadaryoning yuqori irmog'i hisoblangan Oqsuv daryosidir. Daryo Hisor tog' tizmasining g'arbiy yon bag'ridagi muzliklardan boshlanadi va daryoga 2444 m balandlikdan, chapdan Dahansoy, Obikixona, Gelendaryosoy, Ravot, Sujar kabi irmoqlar, o'ngdan esa Shutsoy kelib qo'shiladi.

Daryoning umumiy uzunligi 62 km ga teng. Qashqadaryo vohasi hududi, uning asosiy suv manbai bo'lgan Qashqadaryo, uning o'nlab irmoqlari bo'lgan daryolar va katta kichik soylari bo'ylarida, Hisor va Turkiston tizmalarining etaklari, daryoning o'rta va quyi oqimlaridagi suv bilan bog'liq dehqonchilik va bog'dorchilik uchun o'ta qulay sharoit, dehqonchilik vohalariga tutashib ketgan. Keng yaylovlar va o'tloqlar bu o'lkada juda qadimdanoq insonlarning hayot kechirishiga, tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida bizga ma'lum va noma'lum bo'lgan ko'plab qadimiy qabilalarning o'troqlashuviga va shu asnoda keyinchalik dehqonchilik, shaharsozlik madaniyatlarining shakllanishiga va yuksak darajada rivojlanishiga zamin yaratdi.

**Xulosa.** Janubiy Sug'dning ilk o'rta asrlarga mansub qishloqlarini o'rganish o'tgan asrning 50–60-yillarida asosan S.K. Kabanov va qisman u boshliq guruh tomonidan olib borilgan bo'lib, bu davrda Qarshi vohasida Oytug'ditepa, Kultepa, Kichiktepa, Pishaktepa, Qo'shtepa 2, Pirmatbobotepa, Qashqadaryoning o'rta oqimida Kindiklitepa, Ovultepa, Jangaltepa, Toshtepa kabi qishloq makonlari qoldiqlari o'rganilgan. Bu tadqiqotlarda qadimiy qishloqlarning topografik xususiyatlar, moddiy madaniyati va qisman qishloqlar aholisining diniy va dunyoviy qarashlari tadqiq etilgan. Keyinchalik, ya'ni 70–80 yillarida bu ishlar Toshkent davlat universitetining Kesh arxeologotopografik ekspeditsiyasi (KATE) tomonidan davom ettirildi va ekspeditsiya a'zolari tomonidan Qoravultepa, Chechaktepa, Sarkobtepa kabi yodgorliklar o'rganildi. Bu tadqiqotlarda ham qishloqlarning me'moriy xususiyatlari, moddiy madaniyati, aholining diniy va dunyoviy qarashlari, san'ati va hokazolar o'rganilgan. 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Qarshi vohasida bu boradagi tadqiqotlar A. Raimqulov tomonidan yana davom ettirildi. Bir necha yillik tadqiqotlar jarayonida Yerqo'rg'on yodgorligi yaqinida joylashgan Kunjutlitepa qishloq makoni,

Yerqo‘rg‘on shahar yodgorligi hududida joylashgan, bu yerda shahar vayron bo‘lgandan keyin paydo bo‘lgan kulollar qishlog‘i xarobalari to‘laligicha ochib o‘rganildi. Shu bilan birga A. Raimqulov tomonidan Qal’ayi Zohaki Moron yodgorligi arkida kichikroq qasr qoldiqlari ham ochildi . A. Raimqulov tadqiqotlarining avvalgi tadqiqotlardan farqi va asosiy ahamiyati – olim tomonidan to‘laligicha ochilgan Kunjutlitepa va kulollar qishlog‘i misolida birinchi marta ilk o‘rta asrlar davri qishloq makonlarining ichki tuzilishi, me’moriy xususiyatlari, xo‘jaliklar joylashuvi, qishloq aholisining maishiy turmushi masalalari aniq arxeologik dalillar natijasida tahlil etildi.

XX asrning 80-yillarida M.H. Isomiddinov rahbarligida A. Raimqulov tomonidan Yakkabog‘ tumani O‘rta qishlog‘i yaqinida joylashgan To‘rtko‘ltepa yodgorligining katta qismini ochib o‘rganilishi Janubiy Sug‘dning ilk o‘rta asrlarga oid qishloqlarining shu paytgacha noma’lum bo‘lib kelgan jihatlari va xususiyatlari mavjud ekanligini ko‘rsatdi. Shuning uchun, mana shu imkoniyatlar sababli, ushbu dissertatsiyada Kesh vohasining qishloq makonlarining ichki tuzilishi, moddiy madaniyati, qishloq aholisining maishiy turmushtarzini yanada chuqurroq o‘rganishga urg‘u berildi.

Kesh vohasi joylashgan Qashqadaryo viloyati nafaqat O‘zbekistonning, balki O‘rta Osiyoning yirik tarixiy-geografik mintaqalaridan biridir. U O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo viloyatlari va Turkmaniston va Tojikiston Respublikasi bilan chegaralangan. Viloyat hududi, asosan, Qashqadaryo botig‘ini o‘z ichiga olgan, tabiiy chegaralari shimolda Zarafshon tizmalari, shimoli-sharqda, sharqda va janubi-sharqda Hisor tizmalari, janubda Sandiqli va Nishon cho‘llari orqali Amudaryo bilan chegaralangan bo‘lsa, g‘arbida Qarshi cho‘llariga tutashib ketgan Maydoni. 28,6 ming kv. km. Kesh Xitoy manbalarida turli nomlar bilan eslatiladi. Jumladan Katta Xan Uyi tarixi (miloddan avv. 206 - va milodiy 25-yillari) bu shahar Suse, yoki Suxe sifatida talqin qilinib, uni kichik Qang‘ podsholigining markazi ekanligi eslatilgan. Bir oz keyinroq Xitoy yilnomasi “Beyshi” da (386-618-yy.) esa, bu mulklik Shii yoki Shi deb ataladi. Unda eslatilishicha, Shi mulkligining rezidensiyasi Qang‘ yerlaridir. Uning hukmdori Dichje bo‘lgan. Dichje hukmronligi davrida Ki-shi, yoki Kesh qurilgan Antik davrda Aleksand Makedonskiy armiyasi tarkibida bu tuproqqa qadam qo‘ygan yunon tarixchilari bu vohadagi ikkita shahar – Nautaka va Ksenippa to‘g‘risida ma’lumot berganlar. Bu shaharlarning joylashgan o‘rinlari xususida fanda uzoq yillar davomida turlicha qarama–qarshi fikrlar, taxminlar, farazlar hukm surdi. Antik davrdan boshlab, qolaversa mana shu shaharlar misolida Qashqadaryo vohasi ikkita tarixiy–geografik hududga bo‘lina boshlaydi, bu – qadimgi Kesh va Naxshab, o‘rta asrlardagi Kesh– va Nasaf va hozirgi kunlardagi Shahrisabz va Qarshi

vohalaridir.

Yuqoridagilardan xulosa shuki VII asr boshlarida, undan sag'al keyinroq Kesh juda kuchli mulklikka aylanib, butun Qashqadaryo hududini, balki Eski Kesh (Kitob) hududini ham egallagan bo'lishi mumkin deyilgan (Isomiddinov, 2014. 82-83-bet).

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Isomiddinov M.H., Yarqulov A.A.* Naxshab hunarmandchiligi tarixi. Toshkent, 2014.
2. *Raimqulov A.A., Suyunov S.S., Saidov M.M., Rajabov A.*Yu. "O'zbekis-tonning arxeologik yodgorliklari katalogi. 5 tom. Qashqadaryo viloyati. 1-qism. Yakkabog' tumani". Samarqand, 2013.
3. *Raimqulov A.A., Suyunov S.S., Saidov M.M., Qodirov R.Q., Sandiboev A.* "O'zbekistonning arxeologik yodgorliklari katalogi. 5 tom. Qashqadaryo viloyati. 2-qism. Shahrisabz tumani". Samarqand, 2014.
4. *Сулейманов Р.Х.,* Древний Нахшаб. Ташкент , 2000.

**O'.D. Ozodova**
*Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*
*ozodovaogiloyozodova41@gmail.com*

# BRONZA DAVRI MANZILGOHLARINING O'RGANILISH TARIXI: FARG'ONA VODIYSI CHUST MANZILGOHI MISOLIDA

Ushbu maqolada miloddan avvalgi III ming yillikka oid bo'lgan bronza davri yodgorliklarining o'rganilish tarixi va bu yodgorliklarning o'ziga xos jihatlari Farg'ona vodiysida miloddan avvalgi II ming yillikda vujudga kelgan Chust madaniyati misolida yoritib beriladi.

Bronza davri Markaziy Osiyo hududida miloddan avvalgi III ming yilliklarning o'rtalarida boshlandi. Aynan shu davrdan boshlab qadimgi aholi jez buyumlaridan foydalana boshlagan. Ming yillar davomida faqat toshdan foydalanib kelgan aholi mil.avv IV mingyilikka kelibgina misdan foydalanishga o'tdi. Ammo misning yumshoq va elastikligi mehnat qurollarining chidamliligini kamaytiradi. Bu omillar yangi metalni xo'jalikka kirib borishiga turki bo'ldi va bronza paydo bo'ldi. Bronza misdan ko'ra ancha qattiqroq va chidamliroq edi. Har bir davrda bo'lganidek, dastavval bronzadan ham zeb-u ziynat yasash maqsadida foydalaniladi. Keyinchalik, mehnat qurollari ham bronzadan yasaladigan bo'ldi va bu metall xo'jalikda keng tarqaldi. Mehnat qurollarining aksariyati bronzadan yasalganligini hisobga olib, arxeologlar bu davrni shartli ravishda "Bronza davri", deb e'tirof etishadi.

Bronza davrining manzilgohlari O'zbekiston va Tojikistonning janubiy qismida, shuningdek, Turkmanistonda ham talaygina. Ular orasida Surxondaryodagi Sopolli va Jarqo'ton madaniyati yodgorliklari ajralib turadi. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida ham bronza davrida o'ziga xos madaniyat shakllangan. Farg'onadagi bunday madaniyatlardan biri bu - Chust madaniyatidir.

Chust Farg'ona vodiysini o'troq aholisini shimollik chorvadorlar bilan bog'lagan qadimgi yodgorlik hisoblanadi. Buvanamozor yaqinida ilk arxealogik tadqiqotlar olib borgan akademiklar Y.G. G'ulomov, A.A. Asqarov ва M. Voronets, V. Sprishevskiy, Y.A. Zadneprovskiy, B.X. Matboboyev, U. Rahmonov va boshqalarni aytib o'tishimiz mumkin (Abdullayev va b., 2022 1-b.).

Chust madaniyati yodgorligi 1951-yili M.E. Voronets tomonidan Farg'ona vodiysidan topib o'rganilgan. Topilgan arxeologik yodgorlikka eng yaqin aholi punkti Chust shahri bo'lganligi uchun madaniy yodgorlik shartli ravishda Chust madaniyati, deb nomlangan.

Farg'ona vodiysida mil. avv. II ming yillik oxiri – I ming yillik boshlarida o'ziga xos Chust madaniyati shakllandi. Bugungi kungacha Farg'ona vodiysida Chust madaniyatiga mansub 70 dan ortiq yodgorliklar o'rganilgan. Bular jumlasiga Chust Dalvarzintepa, Ashqoltepa, Bo'ztepa, Chimboy va boshqalar kiradi. Chust madaniyati yodgorliklarining eng chekkalari bir-biridan 100 km masofada joylashganligi ushbu madaniyatni keng tarqalganligini ko'rsatadi (Arabboyev, 2023 3-b.).

Chust madaniyati so'nggi bronza va ilk temir davriga oid bo'lib, u mil. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida shakllangan. Olimlar olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning rivojlanish davrini 2 davrga bo'lib ko'rsatadilar:

1. So'nggi bronza davri bo'lib, mil. avv . II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragidan to mil. avv. VIII asrgacha davom qilgan.

2. Ilk temir davri bo'lib, mil. avv. VIII—VII asrlarni o'z ichiga oladi (Egamberdiyeva, 2011 87-b.).

Chust madaniyati o'zida ikki xil arxeologik davrni birlashtiradi. Arxeologlarning fikricha, Chust madaniyati bronza davrining so'nggida vujudga kelgan va u rivojlanishda davom etib, ilk temir davriga ham ko'chgan. Ko'plab madaniyatlar aholining ko'chmanchi tarzi sabab rivojlanmay qolganligini hisobga olsak, Chust madaniyati chorvador hayot tarzidan o'troq hayot tarziga o'tishi uning temir buyumlardan foydalanish jarayonini tezlashtirdi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Shimoliy Farg'onadagi Chust guruhiga G'ovasoy havzasida Chust, Ko'ksaraksoy sohilida Qoraqo'rg'on, Kosonsoy vodiysida To'raqo'rg'on, Tergovchi I, II, Go'rmiron, Yoztepa yodgorliklari kiradi. Sharqy Farg'ona guruhi yodgorliklari Dalvarzintepa guruhi, deb nomlanib, ular Qoradaryoning so'l sohilida joylashgan. Mazkur guruhga Dalvarzintepa, Ashqoltepa, Axshar va G'ayrattepa yodgorliklari kiradi. Qoradaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan O'zgan guruhiga Dehqon, Chimboy, Qoraqo'chqor I va II, O'zgan, Qashqaterak, Do'nbuloq yodgorliklari kiradi (Arabboyev, 2023 4-b.).

Chust madaniyatiga oid yodgorliklar asosan tog' va tog'oldi hududlarida, shuningdek, daryolar va buloqlar bo'ylaridan topilgan. Madaniyatning ilk namunasi ham Buvanamozor bulog'i yaqinidan topilgan.

Bu madaniyatga tegishli yodgorliklar Namangan, Andijon, Farg'ona, viloyatlarida 70 dan ortiq bo'lib, ulardan 10 ga yaqinini arxeologlar V. Sprisheviskiy, B. Matboboyev, Yu. Zadneprovskiylar tomonidan tadqiq etilgan. Chust yodgorligi tepalikda joylashgan bo'lib, maydoni 210x200 metrni tashkil etadi. Chust madaniyatini yaratgan dehqonlar yerto'la, paxsa va xom g'ishtdan qilingan uylarda yashagan Chust qishloqlari atrofi mudofaa

devorlari bilan o‘ralgan (Turdiboyeva, 2023 3-b.). Chust madaniyati arxeologlar tomonidan dehqonchilik madaniyati sifatida ham ko‘rsatiladi. Dehqonchilik manzilgohlari ichida esa Dalvarzintepa yodgorligi alohida o‘rinni egallaydi. Dalvarzintepa yodgorligida mudofaa devorining qoldig‘i qazib olingan. Shuningdek, Dalvarzintepadan Chust madaniyatiga mansub bo‘lgan yodgorliklardan tosh va jez o‘roqlar, pichoqlar tosh yorg‘uchoqlar hamda arpa, bug‘doy va ular uchun qazilgan o‘ralar ham topilgan. Ammo ba’zi arxeologlar bu o‘ralarni turarjoy, deb ham hisoblashadi.

Chust madaniyati yodgorliklarini qazish jarayonida ularning quyi qatlamidan doira shaklida qurilgan ko‘plab o‘ralar topilgan. Masalan. Chust makonida 60 ta, Chimboyda esa 16 ta shunday o‘ralar ochilgan. Bu o‘ralarning qanday maqsadda qurilganligi to‘g‘risida har xil fikrlar mavjud. Ba’zilari kulba desa, ba’zilari uni g‘alla o‘ralari deb talqin qiladi. Akademik A. Asqarov ham uni g‘alla o‘rasi deb hisoblab, ularning maydoni kulba uchun juda noqulay ekanligini ta’kidlaydi (Egamberdieva, 2011 88-b.).

Chust madaniyatida dehqonchilikda tashqari hunarmandchilik sohasi rivojlangan. Ayniqsa, metall hunarmandchiligi yuksak taraqqiy etganligini qazishma davomida topib o‘rganilgan metall buyumlar isbotlaydi. Shuningdek, muayyan bir mozor bo‘lmasa ham, uy ichiga ko‘milgan odam qoldiqlari topilgan. Ularning kam qismigina hunarmandchilik buyumlari bilan dafn etilgan.

Xulosa qilib aytganda, bronza davrida O‘rta Osiyoning eng qadimgi xalqlari rivojlanishda bir pog‘onaga yuksaldi. Metaldan foydalanish jarayoni kuchaydi. Bundan tashqari, turarjoy binolarining ko‘rinishi o‘zgardi. Bu jarayonlarni Farg‘ona vodiysining bronza davri yodgorligi Chust madaniyati yodgorligida ham kuzatishimiz mumkin. Chust madaniyati chorvador hayot tarziga ega aholisining o‘troq dehqonchilik madaniyatini yaratishi va rivojlantirishini o‘ziyoq bu yodgorlikning qimmatini belgilab beradi. Shuningdek hunarmandchilik buyumlari va mehnat qurollarining shakli ham o‘ziga xos uslubda edi. Chust madaniyatiga o‘xshash qurollar boshqa bronza davri yodgorliklarida ham uchraydi. Bu esa tashqi aloqalarning rivojlanganini ko‘rsatib beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *B Abdullayev, Tursunaliyev Sanjarbek Narimonjon O‘gli* CHUST MADANIYATI // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/chust-madaniyati
2. *N.A.Egamberdieva. Arxeologiya.* -T .: «Fan va texnologiya», 2011 erus.uzhttp://erus.uz/index.php/er/article/download/4371/5272/4639
3. https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/7529/4870

**N.N. Rashidov**
*Samarqand Arxeologiya instituti,*
*Ipak yo‘li Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti*
*Ilmiy xodim, stajyor-o‘qituvchi*
*niyoz.rashidov@mail.ru*

**R.SH. Otaboyev**
*Samarqand shahar stomatologiya poliklinikasi vrachi*

# O‘ZBEKISTON HUDUDIDA JISMONIY ANTROPOLOGIYANING PALEOPATOLOGIK TOMONDAN O‘RGANILISHI

Bioarxeologik izlanishlar fanlararo tadqiqotlar sifatida tafsiflanib, hozirgi kunda arxeologiyaning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston hududida ham o‘tgan asr davomida va yaqin davrlar ichida juda kam bo‘lsa-da arxeologik qazishmalarda qo‘lga kiritilgan inson suyaklari, hayvonlar suyaklari, o‘simliklar qoldiqlari va boshqa topilmalar tadqiq qilinib o‘rganilib kelinmoqda. Ushbu maqolada jismoniy antropologiya sohasida paleopatologik tadqiqotlar qay darajada olib borilganligi ko‘rib chiqildi. Nashr etilgan maqolalardagi ma’lumotlar tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston hududida arxeologik qazishmalar chog‘ida qo‘lga kiritilyotgan inson qoldiqlarida paleopatologik tadqiqotlar ancha kam va cheklangan darajalardagina olib borilgan. Endilikda navbatdagi izlanishlarimizda buni hisobga olishimiz va shu yo‘nalishdagi tadqiqotlarga ko‘proq urg‘u berishimiz talab etiladi.

Ikki daryo oralig‘i, xususan, hozirgi katta qismini tashkil qiluvchi O‘zbekiston yerlaridagi arxeologik qazishmalar davomida topilgan antropologik topilmalar qay darajada o‘rganilgani xususida avvalgi ilmiy ishlarimizda ham aytilgan edi (Rashidov, 2021). Ushbu maqolamizda esa, asosan, mamlakatimiz hududlaridagi arxeologik qazishmalarda qo‘lga kiritilgan inson suyaklarining paleopatologiyasi yoritilganligi darajasini ko‘rib chiqamiz.

Ixtiyorimizda bu yo‘nalishdagi ilmiy ishlar kam bo‘lganligini hisobga olib, barcha davrlarga oid yodgorliklarning antropologik materiallari bioarxeologik jihatdan o‘rganilganligiga e’tibor qaratishga qaror qildik. Ham mahalliy ham xorijiy tadqiqotchilar tomonidan biz o‘rganyotgan yo‘nalishdagi ilmiy maqolalar nashr qilingan. Bunda qisqacha berilgan bo‘lsa-da, T. Xodjayovning Sopollitepa yodgorligi aholisida kariyesning uchrashi haqida bergan ma’lumotini (Ходжайов, 1977), shuningdek boshqa tadqiqotchilarning, masalan G.V. Rikushina va V. Kufterinning Sopolli madaniyatiga oid Bo‘ston-VI yodgorligi aholisida og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari paleopatologiyasining o‘rganilishini misol keltirishimiz mumkin (Рыкушина, 2015).

G.K. Xodjayovaning hammualliflikda yozgan hisobotida qazishmalarda olingan skeletlarda uchrovchi paleopatologiyalar haqida ham axborot beriladi. Bu esa bioarxeologik tadqiqot yo'nalishi o'sha davrda ham muhim ma'lumotlarni berishiga aniq ishora edi (Ходжайова, и др., 1987). Keyingi davrda Soren Blaunning 2005-yilda qiziqarli maqolasi nashr qilindi va bunda Ustyurt hududidan topilgan skeletning paleopatologiyasi o'rganiladi (Blau, et al., 2005).

Eng so'nggi tadqiqotlardan O'zbekiston-Amerika qo'shma ekspeditsiyasining bir qator natijalarini: barqaror izotop tahlillari va bir skeletdagi patologik holatning o'rganilishini misol keltira olamiz. Yuqorida aytganimiz kabi jismoniy antropologiyaning bioarxeologiya sohasida tadqiqotlar unchalik ko'p emasligi ma'lum bo'ladi, shundan kelib chiqib endilikda bajarishimiz kerak bo'lgan asosiy vazifalardan biri bioarxeologiya sohasidagi tadqiqotlar ko'lamini oshirish hisoblanadi, zero artefaktlarning barchasini "gapirtira" olish qimmatli tarixiy xulosalarning ishonchliligini ta'minlaydi.

**Materiallar va metodlar**. Maqolani yozish uchun shu vaqtga qadar nashr qilingan mavzuga aloqador ilmiy ishlar to'plandi va tahlil qilindi. Ulardagi bayon etilyotgan antropologik materiallarning o'rganilish darajasi ko'rib chiqildi.

**Natijalar**. O'zbekiston va Markaziy Osiyoda eng ko'p jismoniy antropologik tadqiqotlarni olib borgan olim, O'zbekiston tarixini o'rganishga sezilarli hissa qo'shgan antropolog Telman Xodjayovning "Sopollitepa bronza davri aholisining antropologik tarkibi" monografiyasida Sopollitepa yodgorligidan olingan antropologik topilmalar paleoantropologik jihatdan keng yoritilgan, hududda yashagan ushbu davr kishilarining jismoniy tiplari, odontologik-morfologik xususiyatlari, osteometriya ma'lumotlari, demografiyasi bayon qilinadi. Sopollitepaliklarning odontologik xususiyatlari haqidagi bo'limida kares (6/42 holatda) aniqlangan bo'lsa, qolgan qismida, asosan, tishlar anomaliyasi va morfologiyasiga oid ma'lumotlar o'rganilgan, paleopatologiya yo'nalishiga oid ma'lumotlar umumiy tarzda qisqacha yoritib berilgan (Ходжайов, 1977).

Sopolli madaniyatiga oid boshqa yodgorlik Bo'ston-VI bioarxeologik jihatdan yuqoridagi yodgorliklarga nisbatan ancha yaxshi tadqiq qilingan (Avanesova, et al., 2010; Дубов, и др., 2015; Рыкушина, 2015; Куфтерин, 2018; Kufterin, 2020). Qabristondan jami 87 individ ma'lumotlari tadqiqotlarga jalb etilgan. Shundan karesning uchrashi 9,2 % (7/76) (Avanesova, et al., 2010), boshqa bir adabiyotda esa kares 48 individ tekshirilganda 23 individda aniqlangan (47.9 %) (Рыкушина, 2015). Tish emali gipoplaziyasi ham turli metodik yondashuv bo'lgani uchun 5,3 % (N-?) (Avanesova, et al., 2010), 78 % - 33.3 % (32/41-I1 - C va 13/39-P1 – M 3 tishlari tekshirilgan) kabi turli ko'rsatgichlarni bergan, kolleksiyalar

bilan solishtirib o'rganishda, albatta, buni inobatga olish talab etiladi (Рыкушина, 2015). Odontogen abstsess ham N. Avanesova va hammulliflar maqolasida 10,5 % (8/76) bo'lsa, Rikushinaning 2015-yilgi axborotida 12,2 % (10/82) ni tashkil qilgan.Adabiyotlarda Bo'ston VI aholisida travmalar (kranial-2,4 %, postkranial-7 %), hayotlik davrida tishlarning yo'qotilishi (26.6 %), osteoartritlar (umurtqada-23,3 %, boshqa holatlarda 2,4 %), pereostal reaksiya (2,3 %) va boshqa alohida paleopatologik ma'lumotlar (mashg'ulotlar yuklamasining suyaklarda aks etishi) keltirib o'tilgan.

G.K. Xodjayovaning M.I. Moldavskiy bilan tayyorlangan 1987-yildagi hisobotiga e'tibor beramiz. Bunda tarixiy jarayonlarni yoritishda paleopatologiyaning ahamiyati juda yaxshi tushuntirilgan va quyidagi bir nechta yodgorliklardan qazib olingan skeletlarning bioarxeologik ma'lumotlari berilgan. VII–VIII asrlarga oid Tuqqal'a, XIII asrga oid Uturliktepa, Mizdahqon (XIX asr), Surxondaryo viloyatining Dalvarzintepa yodgorligida antropologik topilmalarida bir nechta turdagi patologiyalar aniqlangani aytilgan.

Hisobotda faqat alohida skeletlardagi tirsak bo'g'imi ankilozi, pastki jag' atrofiyasi, dumg'aza va tishlar anomaliyasi, qisman bo'lsa-da, karesning populyatiyada tarqalish chastotasi, ayrim bo'g'im kasalliklarining uchrashi, umurtqa pog'onasi kasalliklari haqida ma'lumot bor. Hisobotning oxirida esa, kelajakda kolleksiyalarda tizimli paleopatologik, rentgenologik tadqiqotlar o'tkazish istiqbolli ish bo'lishi ta'kidlanadi (Ходжайова, и др., 1987).

T. Xodjayovaning 1990-yilda O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi jurnalining 24-sonidagi maqolasida ham jismoniy antropologiyada paleopatologiyaning ahamiyati katta bo'lishi haqida so'z boradi va ayrim yodgorliklardagi alohida skeletlarda uchragan ba'zi patologik holatlar haqida umumiy ma'lumotlar berilib, ushbu fan sohasi tizimli o'rganish kerakligi bilan xulosalangan (Ходжайова, и др., 1990).

Soren Blauning hammualliflikda chiqargan maqolasi e'tiborga molik. 2005-yilda dunyoning nufuzli "Amerika jismoniy antropologiya jurnali" da Ustyurt hududi Devkesgan-6 yodgorligidan olingan Qo'rg'on 5b skeleti tahlil qilib ko'rilgan. AMS sanalash metodiga ko'ra I – III asrlrga tegishli bo'lib, Markaziy Osiyoda moxov kasalligi qadimda uchraganligini ko'rsatuvchi birinchi dalil bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Albatta, maqolada diffirensial diagnostika ma'lumotlari keltirilib, suyaklarda moxov kasalligi hosil qilgani kabi patalogiyalarni yuzaga keltiruvchi boshqa kasalliklar ham sanab o'tiladi (Blau, et al., 2005).

Boshqa bir yodgorlik Toshbuloq kolleksiyasida shu bugunga qadar olib borilgan bioarxeologik tadqiqotlarni ham sanab o'tish joiz. Izotopik, paleopatologik va arxeobotanik izlanishlar shular jumlasidandir

(Hermes, et al., 2018; Spengler, et al., 2018; Greer, et al., 2021). Inson suyaklaridan olingan kollagen oqsili namunalarning azot va uglerod izotoplari tahlillari natijalariga ko‘ra Toshbuloq aholisi ovqatlanish ratsionlari O‘zbekistonning 9-13 asrlardagi Farg‘ona, Xorazm, Toshkent hamda Turkmanistonning Dehiston (11-12 asr, Temir davri), Janubiy Qozog‘istonning O‘tror (2-4-asr), Yettisuv (2-6-asr) shaharlari aholis ratsionlariga yaqin turishi aniqlangan (Hermes, et al., 2018).

Toshbuloq kolleksiyasida umumiy paleopatologik tadqiqot olib borilmagan, biroq kolleksiyadagi Br-8 shifrli skeletning jismoniy xususiyatlari va patologik holati bo‘yicha “Xalqaro paleopatologiya jurnali” da alohida maqola nashr qilingan (Greer, et al., 2021). Br -8 qabrda ochilish jarayonida skeletning noodatiy dafn qilinganligi dastlabki taxminlarni o‘rtaga tashlagan, mazkur inson o‘rta yoshlardagi erkak kishi bo‘lib, umri davomida spondiloepifizar displaziya (tizimli suyak kasalligi) dan aziyat chekkan. Jismoniy holati cheklangan bo‘lishiga qaramay bu inson o‘z davri uchun o‘rtacha umr kechirgan, bu bilan boshqa odamlarning ko‘magi katta rol o‘ynaganligini, jamoada ijtimoiy jipslik mavjudligini ko‘rsatishi aniqlangan (Greer, et al., 2021). Toshbuloq kolleksiyasi antropologik materiallari bioarxeologik tadqiqotlari doirasida, hozircha, boshqa ilmiy maqolalar nashr qilinmagan.

**Xulosa.** O‘zbekiston hududida har yili ko‘plab arxeologik qazishmalar olib boriladi. Hozirgi kunda nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda arxeologik qazishmalarda qo‘lga kiritilgan barcha artefaktdan unumli foydalanish va turli fanlararo yo‘nalishlarni qo‘llash talab etiladi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ma’lum davr yoki yodgorlik haqida bilimlarni qo‘lga kiritish va tarixiy jarayonlarni xolis baholay olish barcha arxeologlar oldidagi muhim vazifalardan biridir. Shunday ekan, hozirda oz sonli bo‘lgan jismoniy antropologiyaning bioarxeologiyaga (paleopatologiyaga) oid bo‘lgan tadqiqotlarini ko‘paytirishni O‘zbekiston antropologlari oldida turgan muhim vazifalardan biri deb hisoblaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Avanesova N. A., Dubova N. A. and Kufterin V. V.* Seletal remains from Buston VI - a Sapalli culture cemetery in Uzbekistan // Archaeology, Ethnology and Anthropology of Eurasia. - [s.l.] : Elsevier B.V. , 2010. - 1 : Vol. 38. - pp. 118-137.
2. *Blau Soren and Yagodin Vadim* Osteoarchaeological evidence for leprosy from western Central Asia // American Journal of Physical Anthropology. - [s.l.] : John Wiley & Sons, Ltd, 2005. - 2 : Vol. 126. - pp. 150-158. - 0002-9483.
3. *Greer Sean Y. and Bullion Elissa A.* Reconstruction of anatomy and care provision-

ing in a severe case of spondyloepiphyseal dysplasia // International Journal of Paleopathology. - [s.l.] : 1879-9817/© 2021 Elsevier Inc, 2021. - 34 (2021). - pp. 147-154.

4. *Hermes Taylor R. [et al.]* Urban and nomadic isotopic niches reveal dietary connectivities along Central Asia's Silk Roads // Scientific Reports. - 2018. - Vol. 8.
5. *Kufterin Vladimir V.* Bioarchaeology of the BMAC population // The World of the Oxus Civilization / book auth. Lyonnet Bertille and Dubova Nadezhda A.. - 2020. - 9781315193359.
6. *Rashidov Niyoz* O'zbekiston V-XIV asrlar jismoniy antropologiyasi tarixshunosligi // O'zbekiston arxeologiyasi. - Samarqand : Samarqand arxeologiya instituti, 2021. - 2 : Vol. 25. - pp. 82-103.
7. *Spengler Robert N. [и др.]* Arboreal crops on the medieval Silk Road: Archaeobotanical studies at Tashbulak // PLoS ONE / ред. Yan Xiaoyan. - 2018 г.. - 8 : Т. 13.
8. *Дубов Н. А. и Куфтерин В. В.* Антропология населения Южного Узбекистана эпохи поздней бронзы (по материалам некрополя Бустон VI) [Серия «Этническая антропология Средней Азии»]. - Москва : Старый сад, 2015. - Т. 4 : стр. 186. - 987-5-89930-148-3.
9. *Куфтерин В. В.* Палеопатология населения Бактрийско-Маргианского археологического комплекса и некоторых сопредельных территорий: краткий обзор // Вестник археологии, антропологии и этнографии. - [б.м.] : ФИЦ ТюмНЦ СО РАН, 2018 г.. - 2 : Т. 41. - 2071-0437.
10. *Рыкушина Г. В.* Одонтологическая характеристика населения эпохи поздней бронзы, оставившего памятник Бустон VI // Антропология населения Южного Узбекистана эпохи поздней бронзы (по материалам некрополя Бустон VI) / авт. книги Дубова Н. А. и Куфтерин В. В.. - Москва : Старый сад, 2015.
11. *Ходжайов Т. К.* Антропологический состав населения эпохи бронзы Сапаллитепа. - Ташкент : "Фан", 1977. - стр. 111.
12. *Ходжайова Г. К. и Молдавский М. И.* Антропологическая характеристика древнего и современного населения Узбекистана в связи с вопросами этногенеза и этнической истории / Материалы к палеопатологии Узбекистана / Самаракандский археологический институт. - Самарканд : [б.н.], 1987. - стр. 158-167.
13. *Ходжайова Г. К. и Молдавский М. И.* Материалы к палеопатологии Узбекистана [Журнал] // История материальной культуры Узбекистана. - Ташкент : "Фан", 1990 г.. - 24. - стр. 220-228.

**I. Rasulov**
*Y. G‘ulomov Nomidagi Samarqand Arxeologiya Instituti*
*kichik ilmiy xodimi*

## GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ARXEOLOGIK TADQIQOT HUDUDLARINING RAQAMLI XARITASINI YARATISH

Ma’lumki, arxeologik obyektlarini o‘rganish, qayta tiklash, qazish ishlarini hajmini aniqlash, ma’lum bir obyektning geometriyasi haqida to‘liq va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun geodezik va kartografik o‘lchash ishlarini talab etiladi. Hozirda arxeologiya sohasida hududdagi obyektni aniq joyini topish talab qilinyapti, shu sababi o‘lchashda iqtisodiy tejamli va samarali o‘lchov usulini topishda zamonaviy elektron taxometr, GPS, GNSS qurilmalar va GAT (geografik axborot tizimi) dasturlaridan foydalanilmoqda.

Respublikamizda arxeologik tadqiqot obyektlarini yer hisobini yuritishda aniqlik darajasi oshirilmoqda, shunga ko‘ra amaliyotda zamonaviy geografik axborot texnologiyalar va uchuvchisiz uchish qurilmalari foydalanish asosida yer hisobini yuritishning aniqligi va mukammalligi yaxshilanmoqda (Mo‘minov, 2020).

Buning uchun joylardagi mutaxassislar arxeologik tadqiqodlar uchun ajratilgan yer maydonlaridan to‘g‘ri foydalanishni kuchaytirish, yerlarning holatini o‘rganish uchun bugungi kundagi zamonaviy geografik axborot tizimlaridan uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish amaliyotga keng joriy qilinmoqda (Бугаевский Л.М 2000).

Arxeologik obektlarni elektron xaritalarini yaratishda zamonaviy GAT dasturlarini qo‘llash zarur. Zamonaviy GAT – bu integratsiyalashgan, masshtabli platforma bo‘lib, u markazlashgan holda ma’lumotlarni saqlash, ular bilan ishlash imkonini beradi. Ma’lumotlar bilan amallar bajarishni GAT ning ishchi dasturiy ta’minoti - Web-brauzer, mobil qurilmalar, GAT logikasiga o‘rnatilgan ishchi dasturlari amalga oshiradi. Mobil GAT dan ishlab chiqarishni ko‘plab sohalarida, hatto tibbiyot va elektr liniyalarida ham foydalanilmoqda.

GAT dasturlaridan biri bu ArcGIS dastur bo‘lib u yirik hajmdagi statistik ma’lumotlarni (raqamli xarita ko‘rinishida taqdim qilish) geografik jihatdan tasavvur qilish imkonini beradi (Safarov va b., 2008). Bunda barcha ko‘lamdagi xaritalar, yer uchastkalarining planidan dunyo xaritasiga qadar tuziladi va tahrir qilinadi. ArcMap – ArcGIS ESRI kompaniyasining asosiy ilovasidan biri bo‘lib, fazoviy ma’lumotlar bilan ishlash, rastrli qatlamlarni fazoviy bog‘lash va ArcMap ilovasi interfeysining o‘ziga xos imkoniyatlarini o‘rganish va foydalanuvchilarga keng imkoniyatlarni taqdim etadi:




*1-rasm. ArcMap-ilovasining ishchi oynasi*

fazoviy ma’lumotlarni vizuallashtirish;

- fazoviy ma’lumotlar bo‘yicha qaror qabul qilish;
- xarita yaratish, uni nashrga tayorlash va nashr qilish;
- foydalanuvchilarning ishini avtomatlashtirish, yangi vositalar yaratishga imkon beradigan shaxsiy uzatmalarini ishlab chiqish va boshqalar (Safarov va b., 2016).

ArcGIS – bu komponentlar umumiy modeli bibliotekasining dasturiy bo‘limlariga asoslangan GIS bo‘lib, ArcObjects™ deb nomlanadi (Safarov va b., 2012). ArcObjects tarkibiga ko‘plab dasturiy komponentlar kiradi. U oddiy obyektlar (masalan, alohida turgan orienter obyektlar) va murakkab obyektlarni (masalan, ArcMap™ bilan ishlash uchun xaritalarni) tavsiflash imkonini beradi. Ushbu komponentlar majmuada zamonaviy GIS ning boy funksional imkoniyatlari bilan ishlab chiqaruvchilarni ta’minlaydi.

Raqamli xaritalarini yaratish uchun quyidagi amallarni bajaramiz.

- joyni havodan turib raqamli fotokamera yordamida suratga tushiriladi;
- transformatsiyalangan suratlardan joyning fotoplani yoki fotosxemasi tuziladi;
- fotoplan olib joyga borib deshifrovka (biror obyektning soni va xarakteri uning suratdagi ko‘rinishiga qarab aniqlanishi) qilinadi;
- suratlarni ArcGIS dasturiga masshtab bo‘yicha tushiramiz;
- deshifrovka qilingan fotoplan yoki fotosxemaga qarab ArcGIS dasturiga raqamli xarita chiziladi, shu bilan birgalikda ma’lumotlar ham komputerga kiritilib borilad.

Fazoviy bog‘lanish orqali hududning xaritasi keltirilgan (2-rasm).



*2- rasm. Fazoviy bog‘lanish orqali hududning xaritasi*

Quyida ArsGIS 10.2 dasturida tayyorlangan raqamli xarita ma’lumotlar bazasining ko‘rinishi keltirilgan (3-rasm).




*3-rasm. ArsGIS 10.2 dasturida tayorlangan raqamli xarita ma’lumotlar bazasi*

Andijon viloyati Andijon shahar arxeologik obyekt yerlarida olib borilgan monitoring ishlari natijalari asosida geoaxborot tizimlaridan foydalangan holda kunlik ma’lumotlarni o‘zgartirish va ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beruvchi arxeologik yodgorlik obyektlarini elektron xaritasi yaratildi. Ushbu xaritadan bir vaqtda arxeologik tadqiqodlardan topilgan yodgorliklar, buyum qiymatlari va boshqa ma’lumotlarni olish mumkin. Andijon viloyati Andijon shahar hududidagi arxeologik yodgorlik yerlarning hamda Andijon viloyati Andijon shaharidagi mahallalar hududlarining va boshqaruv sektorlarining chegaralari xaritalari quyidagi rasmlarda keltirilgan (4-rasm).




*4-rasm. Dastur yordamida yaratilgan Andijon viloyati hududlarining va boshqaruv*




*5-rasm. Dastur yordamida yaratilgan Andijon viloyati Andijon shahri hududidagi arxeologik yodgorlik xaritasi*

Ushbu dasturning yana bir afzalligi shundaki, ushbu dasturdan oldin yaratilgan **“Oazis”** dasturida bitta xaritani yaratish uchun ketadigan vaqtda “GAT” dasturida ikki-uchta xaritani bemalol chizib tugatish mumkin (Raklov, 2003). Umuman olganda, GAT dasturining yaratilishi, undan to‘liq foydalana olish ish unumdorligini oshiradi va hozirgi zamon talablariga to‘liq javob bera oladi deb hisoblash mumkin (Heather Kennedy, 2009).

Arxeologik obyekt yerlarida ishlarni tashkil etishda har bir massivga to‘g‘ri keladigan ish maydonini to‘g‘ri aniqlash va arxeologik obyekt chegarasi yuzasidan kelib

chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni oldini olish va yerlarning monitoringini o‘tkazishni osonlashtirishdir.

**Xulosa.** Tadqiqotning maqsad va vazifasi respublikamizda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotgan arxeologik obyektlarni chegaralarini aniqlash, joyning topografik karta planini tuzish, arxeologik obyektlarni elektron xarita va ma’lumotlar bazasini umumiylashtirgan xolda shakillantirish, vaqtni tejash demakdir. Zamonaviy elektron taxometr, GPS, GNSS qurilmalar va GAT (geografik axborot tizimi) dasturlaridan foydalanib arxeologik obektlarni o‘lcham va chegaralarini aniqlab madaniy meros obyektlarini kelgusi avlodlarga yetkazish va turizmni rivojlantirishdan iborat. Bunda o‘zgarishlarni nazorat qilish va mavjud topilgan obyektlarning joylashuv o‘rni bo‘yicha kartaga tushirib borish muhim hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Heather Kennedy.* Introduction to 3D Data: Modeling with ArcGIS 3D Analyst and Google Earth. Wiley 2009/ 350 p.
2. *Mo‘minov O.O.* Arxeologiyada qadimgi hududlar landshaftlarini tuzishda gatning o‘rni (o‘tmishga nazar 2020 yil)
3. *Safarov E.Yu., Musayev I.M., Abdurahmonov X.A.* Geografik axborot tizimlari. – T.: Noshir, 2012. – 152 b.
4. *Safarov E.Yu., Musayev I.M., Abduraximov X.A.* Geoaxborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent 2008 y.
5. *Safarov E.Yu., Allanazarov O.R.* va boshq. Kartografiya va geovizuallashtirish. – T.:Iqtisod – Moliya, 2016. – 171 b.
6. *Бугаевский Л.М, Светков В.Я.* Геоинформационная сист ема: Учеб. пособие для вузов. – М.: Zlatoust, 2000
7. *Воякин Д.А., Сорокин Д.В.* Новье мет оды документ ации в археологии: и практика, Алматы: институт археологии им. А.Х. Маргулана МОН рк. 2020, 840 с.
8. *Раклов В.П.* Географические информасионные сист емы (ГИС) в тематической картографии. – М.: ГУЗ, 2003.

**T.Z. Ruziboyev**
*Samarqand arxeologiya instituti*
*2-kurs tayanch doktorant,*
*timurruziboyev72@gmail.com*

# JIZZAX VOHASIDAN TOPILGAN YANGI QOYATOSH RASMLARI XUSUSIDA BAZI MULOHAZALAR

2023-yildagi Jizzax viloyati Forish va G'allaorol tumanlarida o'tkazilgan arxeologik dala-tadqiqotlari davomida 22 ta soyda qoyatosh rasmlarini o'rganildi. Shulardan 3 ta soydagi qoyatosh rasmlari oldin topilgan ammo 19 ta soydan yangi qoyatosh rasmlari topilib GPS qurilmasi yordamida koordinatalari olinib, dastlabki tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ilmiy tadqiqotlar davomida topilgan qoyatosh rasmlari yodgorliklari orasida Nurota tog' tizmasi hududiga kiruvchi Mojrumsoy, Mingbuloqsoy, Sig'amsoy, Go'rdarasoylardan yirik yirtqich hayvonlar – gepard, qoplon, sher tasvirlari qayd etildi.

Bu hududlardan topilgan yirtqich hayvonlarni yakka holatda turgan yoki kompozitsion manzaralarda ko'rish mumkin. Kompozitsion tarzdagi manzaralarda yirtqichlar tog' echkilariga, yovvoyi cho'chqalarga hujum qilayotgan holatlarda mohirlik bilan tasvirlangan.

Markaziy Osiyoda neolit va bronza davriga tegishli bo'lgan qoyatosh rasmlarida asosan yovvoyi hayvon rasmlari urib-cho'kichlangan. Shu bilan birgalikda bronza davrida qoyatosh rasmlari asosan soya, kontur va naqshdor bezakli uslublarda tasvirlangan. Shuningdek, alohida ta'kidlash joizki, bu davr petrogliflari turli-tabiat hodisalari, ya'ni quyosh qor, yomg'ir, shamol, zilzila va hokazolar ta'sirida toshning asl holati kabi bir xil rangga kirgan, singan, yorilgan, darz ketgan holatlar kuzatiladi ( Хужаназаров, 2018 40-44 б.).

Yirtqich hayvonlar topilgan hududlardan biri Mojrumsoy qoyatosh rasmlari orasida kompozitsion tarzdagi manzaralardan birida hayvonlar o'rtasida ov jarayoniga bag'ishlangan bo'lib, bunda ikkita tog' echkisini o'tirgan holatda poylayotgan mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich (qoplon?) tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu surat qoplon yumaloq tumshuqli, baquvvat tanali, uzun oyoqli qilib soya uslubida tasvirlangan (1-rasm). Bunday ko'rinishdagi qoyatosh rasmlari O'zbekison hududidagi bronza davriga tegishli Quduqchasoy qoyatosh rasmlari yodgorliklarida uchraydi (Холматов ва б., 2014 103-110 б. 2- расм.). Shu bilan birgalikda, Mingbuloqsoydan topilgan qoyatoshlarning birida yirtqich qoplon yoki gepard tasviri uchraydi



*1-rasm. Odam, qoplon, bo‘ri, tog‘ echkilari tasvirlari*



*2-rasm. Gepard yoki Leopard*

Shu bilan birgalikda, Mingbuloqsoydan topilgan qoyatoshlarning birida yirtqich qoplon yoki gepard tasviri uchraydi. Uning tumshug‘i, kalta bo‘yni va uzun tanasi xol-xol qilib chizilgan. Ammo qadimgi rassom tomonidan bu hayvonning oyoqlari pastki qismigacha tasvirlanmagan, shuningdek, toshning sinib tushishi oqibatida yirtqichning quloqlari, boshining va tanasining ustki qismlari ko‘rinmay qolgan. Bu tasvir petrogliflarning chizilish uslubiga ko‘ra naqshinkor-bezakli uslubda urib-cho‘kichlangan va oftobda kuyish darajasiga ko‘ra kuchli bo‘lganligiga guvohi bo‘lamiz (3-rasm). Bunga o‘xshash tasvirlar Nurota tog‘ tizmasidagi Sarmishsoy, Qoraqiyasoy, yodgorliklarida topilgan va mutaxassislar tomonidan bronza davri bilan sanalangan (Хужаназаров, 43 б.,



*3-rasm. Bars, yovvoyi cho‘chqalar, tog‘ echkilar tasvirlari*

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikka oid petrogliflar asosan soya va sxematik uslublarda tasvirlangan. Shuningdek, bu davrga oid qoyatosh rasmlarining ko‘pchiligi sirtida nuqtasimon, oval, cho‘zinchoq, uchburchak, to‘rtburchak va noaniq shakldagi asbob izlari qolgan. Sak-skif davri qoyatosh rasmlari asosan o‘zlaridan qadimgi bo‘lgan tasvirlardan nisbatan ixchamroq, kichikroq va, ko‘pincha, bir xil ya’ni hayvon (zvereniy) uslubda tasvirlanganligini sohaning yetuk mutaxasislaridan M. Xo‘janazarov va A. Xolmatovlar ta’kidlab o‘tganlar.

Mingbuloqsoydan topilgan yana bir qoyatoshda bars, yovvoyi cho‘chqalar, yurib ketayotgan tog‘ echkilari, belgi tasvirlari, chala qolgan tasvirlar urib-cho‘kichlangan. Bu tasvirlardan ayniqsa bitta bars tasviri kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Bu qoyatoshdagi bars rasmi realistik (soya) uslubida ishlanganlini va oftobda kuyish darajasi kuchli bo‘lganligini guvohi bo‘lamiz. Shuningek, Kochaksoydan topilgan yovvoyi yirtqich hayvon (gepard yoki leopard) tasvirida tumshug‘i va quloqlari yumaloq tarzda, tanasi cho‘ziq, oyoqlari uzun va ingichka shuningdek qayrilma dumli tarzda urib-cho‘kichlangan (4-rasm). Bu tasvir qoyatosh rasmlarining chizilish uslublariga ko‘ra soya uslubida ifodalangan va oftobda o‘rtacha darajada kuyganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sig‘amsoyda sherlar tasriviri ham mahorat bilan hayvon uslubida urib-cho‘kichlangan. Bunda sher vazmin tanali, yirik boshli, qalin va qisqa bo‘yinli, uzun va qayrilma dumli, baquvvat oyoqli qilib tasvirlangan. Bu tasvirning oftobda kuyishi yuqori darajada bo‘lgan. Bundan tashqari qadimgi rassomlar tomonidan bu yirtqich hayvon tasviri 20 sm kattalikda urib-cho‘kichlangan (5-rasm). Bu petroglifga o‘xshash rasmlar Buqantovdagi Qirbuqan yodgorligida sak-skif (ilk-temir) davriga tegishli hayvon uslubida ishlangan ko‘plab sher va arslonlar tasviri topilgan (Хужаназаров и др., 2003).





*4-rasm. Bug‘u, tog‘ echkilari, gepard tasvirlari*



*5-rasm. Sherlar va tuya tasvirlari*

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Jizzax vohasidan topilgan yirtqich hayvon tasvirlari hamma qoyatosh rasmlariga tegishli bo‘lgan yodgorliklarda ham uchrayvermaydi.

Shuningdek, bunday petrogliflar asosan bronza va ilk temir davri qoyatoshlarida ko‘proq topilgan ammo, keyingi davr petrogliflari orasida kam kuzatiladi.

**FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. *Хужаназаров М.* Сармишсой (қоят ош расмлари, илмий т адқиқот лар). Тошкент, 2018. Бб-40-44.
2. *Холматов А.Н. Хужаназаров М.* Қудуқчасой қоятош расмлари Ўзбекистон археологияси №2(9) Samarkand 2014. № 103-110 б. 2- расм.
3. *Хужаназаров М.* Сармишсой (қоятош расмлари, илмий тадқиқотлар). Тошкент, 2018. Б-43. Расм-44.
4. М.Хўжаназаров, А.Н.Холматов. Қорақиясой қоятош суратлари тадқиқотларига доир. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи №37. Samarkand 2012. Бб-54-57.
5. O‘ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
6. *Хужаназаров М.М., Развадовский А.* Пет роглиф гуруҳининг 2002 йилда олиб борган дала ишлари // Археологические исследования в Узбекистана 2002 год // Т. 2003.

**D.B. Tajimuratov**
Samarqand arxeologiya instituti
stajyor tadqiqotchisi
tajimuratovdoniyor55@gmail.com

# XORAZMNING ANTIK DAVRI URBANIZATSIYA JARAYONLARI

Ma’lumki, davlatchilikning boshlanishi sifatida jamiyat hayotida urbanizatsiya jarayonlari muhim o‘rin tutadi. Jahon tarixida qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy kabi ilk davlatlar shakllangan hududlarda shaharlarning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Urbanizatsiya jarayonlari natijasida shaharlar rivojlangan hamda ularning nufuzi ortib borgan. O‘zbekiston tarixida urbanizatsiya jarayonlari bronza davridan boshlangan. Qadimgi Xorazm hududida urbanizatsiya jarayonlarining boshlanish davrini aniqlash bugungi kunda muammoli masalalardan biridir. Tadqiqotlar davomida Xorazm hududida shaharlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini tadqiqotchilarning asarlari, maqolalari va ilmiy ishlari natijalaridan ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqish davrida, ya’ni bronza davrida urbanizatsion jarayonga asos solina boshlangan. Hunarmandchilikning alohida soha bo‘lib ajralib chiqishi, savdo–sotiqning rivojlanishidan boshlab ilk urbanizatsion jarayonlar kuzatila boshlangan. Dastlab protoshahar, ilk shaharlar shakllanib, vaqt o‘tgan sayin jamiyat va shaharlar tuzilishi murakkablashib borgan. Bu, asosan, uning geografik joylashuviga, ixtisoslashuviga, siyosiy maqomiga va aholining to‘planishi jarayonlariga bog‘liq holda kechgan.

XX asrda Xorazm hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintaqada shaharlarning rivojlanishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqot natijalari e’lon qilindi. Shaharlar tarixiga bag‘ishlangan ilmiy to‘plamlar, monografiyalar va ko‘p sonli maqolalar chop etildi. XXI asr boshlarida ham qadimgi shaharlarning o‘rganilishi bo‘yicha keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirildi. Antik davr mil.avv IV milodiy IV asrlarni o‘z ichiga olib, bu davrda Xorazm hududida urbanizatsiya jarayonlari faol kechgan (Рапопорт и др., 2000 С. 25).

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgach, qadimiy tarixni obyektiv tiklashga harakat boshlandi. Birinchi navbatda davlatchilikning shakllanish jarayonlari tahliliga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi navbatda ilk shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari olimlarning diqqat etiborida bo‘ldi. Shaharsozlik madaniyati tarixi ham yozma ham arxeologik tadqiqot natijalarining tahlili asosida o‘rganila boshlangan. O‘lkamiz tarixi bo‘yicha eng qadimiy yozma manba “Avesto” da eng qadimgi shahar “Kvadrat Vara”

haqida yozib qoldirilgan. Mustaqillik yillarida Xorazm arxeologik etnografik ekspeditsiyasi a'zolari o'zlarining faoliyatlarini Rossiya Fanlar Akademiyasining Etnologiya va antropologiya instituti doirasida davom qildirganlar. Qadimgi Xorazm qal'a-shaharlari tarixini o'rganishni yanada yuqori darajada davom qildirganlar. Bu, asosan, turli tabiiy fanlarning yutuqlarini va ilg'or texnologiyalarni arxeologik tadqiqot ishlariga joriy etish bilan bog'liq edi.

Xiva shahrida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida uning 2500 yillik tarixga ega ekanligini asoslab bergan. (Мамбетуллаев и др., 1997 C.3-9). Qadimgi Xorazm hududida shaharlarning rivojlanishi, ularning o'rganilishi, hududda arxeologik tadqiqotlarning boshlanish davri 1936-yildan boshlanadi. S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya etnografiya ekspeditsiyasining tadqiqotlarida dastlabki urbanistik jarayonlar haqida ma'lumotlarni uchratamiz. Xususan Ko'zaliqir, Bozorqal'a, Qo'rg'oshinqal'a va Anqaqal'ada o'tkazilgan tadqiqotlar davomida Xorazmda urbanizatsiya jarayoning boshlanish hududi sifatida ko'rsatib o'tgan. (Толстов, 1948 C.113).

Qadimgi Xorazm hududida mil. avv. VII–V asrlarga oid shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bo'yicha O.A. Vishnevskaya va M.G. Vorobyeva asarlarida, antik davrdagi Xorazm shaharlari tarixi bo'yicha Y.A. Rapoport va E.E. Nerazik tadqiqotlarida ham muhim ma'lumotlar uchraydi.

O.A. Vishnevskaya, V.N. Yagodin, M. Mambetullaev, S.B. Bolelov, S.R. Baratov kabi tadqiqotchilar o'z asarlari yoki maqolalarida Ko'zaliqir va Xumbuztepa yodgorliklari Qadimgi Xorazm hududida urbanizatsion jarayonga asos solgan degan fikrni ilgari suradilar.

Akademik A. Sagdullayev asarlarida ham Xorazm hududida urbanizatsiya jarayonlari bo'yicha masalalarni ilmiy jihatdan asoslab bergan. Xorazm hududida urbanizatsiya jarayonlarining boshlanishi haqida akademik A.S. Sagdullayev tadqiqotlarida Marg'iyona va Baqtriya aholisining migratsiyasi natijasida Xorazmda Ko'zaliqir madaniyatining vujudga kelganligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Bu fikrni V.N. Yagodin ham ma'qullagan. V.N. Yagodin tadqiqotlariga ko'ra, Janubiy Xorazmga Baqtriyadan ziroatchi aholi guruhlarining kirib kelishini isbotlab beradi. Ular voha hayotiga ilg'or hunarmandchilik ko'nikmalarini, uy-joy qurish an'analarini tadbiq etib, urbanizatsiya jarayonlarining boshlanishiga poydevor yaratganlar. (Ягодин, 2009 C. 116-117). V.N. Yagodinning asarida aholining hunarmandchiligi, uy-joy qurish ko'nikmalari va urbanizatsiya jarayonlari haqida ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Qadimgi Xorazm hududida urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni akademik A. Asqarovning asarlari va maqolalaridan ham ko'rib o'tishimiz mumkin (Ягодин, 2009).

Xorazm hududida mil.avv. IV–III asrlar madaniy xo'jalik hayotida ulkan yuksalishlar bo'lgan davr hisoblanadi. Bu xususida akademik A. Asqarov o'zining asarlarida ham ma'lumotlar keltirib o'tgan. Mil.avv. IV – milodiy III asrlar davomida urbanistik jarayon quyi Amudaryoning har ikkala sohilida rivojlangan. O'lkada yuzga yaqin katta-kichik qal'alar qad ko'targan. Mamlakatda siyosiy vaziyat barqarorlashadi, yangi yerlarni obod qilish, shaharlarning yiriklashib borib, markazlashish boshlanadi. (Асқаров, 2015 46 б.). Qadimgi Xorazmda ilk urbanizatsiya jarayonlarining boshlanishini arxeolog olim S.R. Baratov Ko'zaliqir va Xumbuztepa yodgorliklari bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, Quyi Amudaryo bo'ylarida urbanistik jarayonlarning boshlanishida janubdan kelgan aholining ta'siri bo'lgan. Amudaryoning quyi oqimi dastlab Murg'ob vohasidan kelgan aholi tomonidan o'zlashtirilgan bo'lsa, keyinchalik ahamoniylar bosqini va siyosati natijasida Marg'iyona, Baqtriya hududlaridan aholi kelib joylashgan degan fikrlarni ilgari suradi. (Баратов, 2007 С. 22–34).

Y.Y. Nerazik tadqiqotlarida ham Xorazmda urbanizatsiya jarayonlari haqida so'z yuritiladi. Uning fikricha Xorazm vohasida urbanizatsiya jarayonlarining omillari ko'p jihatdan noaniq bo'lib, tub joyli aholining iqtisodiyotida dehqonlar va chorvadorlarning o'zaro munosabatlari asosiy harakatlanuvchi kuchni tashkil etgan, shuningdek, madaniy jihatdan yuqori darajada taraqqiy topgan janubiy viloyatlarning ta'siri va bu o'lkalardan Quyi Amudaryo yerlariga aholining kirib kelishini inobatga olish lozim, deb yozib o'tgan (Неразик, 2005 С. 545).

M.A.Itina o'z asarlarida Xorazmda urbanizatsiya jarayonlari haqida so'z yuritar ekan, shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi haqida ham o'z fikrlarini ham bildirib o'tadi. Qadimgi Xorazm shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi haqida masala ilgari surilishi jarayonida, ular savdo, hunarmandchilik, diniy va siyosiy markazlari sifatida muhim rol o'ynaganligini ta'kidlaydi. (Итина, 1981 С. 13).

Keyingi davrlarda M. Mambetullayev va G'. Xodjaniyazovlarning tadqiqotlarida Xorazm vohasida shaharsozlik madaniyati va harbiy istehkomlarning tarixi bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. (Ходжаниязов, 2007 Б. 63–70).

Xorazmda bu davrda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishi haqida tadqiqotlarda muhim ma'lumotlar uchraydi. Xususan, P.A. Pugachenkova ham shunday fikrlarni bildirib o'tadi: Mil. avv. V—IV asrlarda qadimgi Xorazm davlati shakllandi, o'ziga xos "urbanizatsion portlash" sodir bo'ldi, shahar markazlarining butun bir turkumi yuzaga keldi. Sarhadlarda chegara qal'alari tizimi va uzun devorlar barpo etildi.

Ko'chmanchilar Xorazm chegaralaridan, eski qishlov joylaridan surib chiqarildi. Le-

kin bu ko‘chmanchilar bilan urush munosabatlarida bo‘lindi, degani emas. O‘troq dehqonlar va shahar aholisining ko‘chmanchilar bilan o‘zaro munosabatlari ikki xil ko‘rinishda bo‘ldi. Ular ba’zan chorvachilik xo‘jaligi mahsulotlarini tinch ayirboshlashgan bo‘lishsa, ba’zan urush holatida bo‘lishgan. Dashtliklarda yashovchi xalqlar talon-toroj qilish maqsadida shaharlarga qo‘qqisdan hujum qilib turishgan. (Пугаченкова, 1958 С. 43).

Qadimgi Xorazmning shaharlarini arxeologik jihatdan o‘rganish bugungi kunda keng miqyosda davom etmoqda. 2019 yilda Rossiyaning Sharq davlat muzeyi, Rossiya FA Arxeologiya instituti bilan hamkorlik asosida Qoraqalpog‘iston–Rossiya Janubiy Orololdi kompleks arxeologik ekspeditsiyasi tashkil qilindi. Hamkorlik davomida Ustyutda ko‘chmanchi chorvadorlarning Gunjeli qo‘rg‘onlari va Katta Qirqqizqal’a yodgorliklarda tadqiqot ishlari olib bordilar. (Китов, 2019 С. 52– 70).

Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyati Axamoniylar imperiyasi hukmronligidan oldin vujudga kelgan. Axamoniylar qadimgi Xorazmda o‘zining hukmronligini o‘rnatgan bo‘lsa-da, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmaganlar. Qadimgi Xorazm hududidan ahamoniylar uslubida bunyod etilgan Qal’aliqir qal’asigina aniqlangan. Mil.avv.V asrning oxiri – IV asrning boshlarida o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lini boshlagan qadimgi Xorazm davlatida shaharsozlik madaniyatini keng rivoj topgan.

Xorazm shahar xarobalarida amalga oshirilgan yangi arxeologik tadqiqotlar natijasida Quyi Amudaryo hududlarida ilk shaharsozlik madaniyatidan dalolat beruvchi yangi ma’lumotlar topib tekshirilgan va tadqiqot natijalari e’lon qilingan. N.A. Egamberdiyeva tadqiqotlarida ham Xorazm hududida urbanizatsiya jarayonlari haqida muhim ma’lumotlar mavjud. N.A. Egamberdiyeva tadqiqotlarida Amudaryoning quyi oqimida tashkil topgan qadimgi Xorazm davlatida urbanizatsion jarayonlar mil.avv. VI asrdan boshlangan degan fikrni ilgari suradi. Bunga sabab qilib janubdan ko‘chib kelgan aholining ta’siri kuchli bo‘lganligini aytib o‘tadi. Shuningdek, qadimgi Xorazmning g‘arbiy va sharqiy tomonlari iqtisodiy rivojlanishi bir-biridan farq qilgan. Bunga Amudaryoning o‘ng va chap qirg‘og‘ini suv bilan turlicha ta’minlashi ham sabab bo‘la olganligini ko‘rsatib o‘tgan. (Эгамбердиева, 2021 208-b.).

Bundan ko‘rishimiz mumkinki, irrigatsiya tizimi bilan bog‘liq masalalar shaharlarning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Xorazmda antik davrda urbanizatsiya jarayonlarining tez suratlar bilan o‘sishi to‘g‘risida yaqin yillarda qilingan tadqiqotlarda ham ma’lumotlar berilgan.

Jumladan, tadqiqotchi X.O. Matkarimov ham o‘z tadqiqotlarida Xorazm hududida madaniy yutuqlarni faqat boshqalardan olib o‘zlashtirilmaganligi, moddiy va ma’naviy

madaniyat mazmunini boyitish va yangi asoslarda rivojlantirish vazifasi doimiy ravishda muvofiq ko'nikmalar va tajribaga tayanganligi haqida so'z yuritiladi.

Xorazmda bunday amaliy tajriba mavjud bo'lganligini e'tirof qilish to'g'ri keladi. Ana shuning uchun ham antik davri vohada xo'jalik, hunarmandchilik va binokorlik sohalaridagi faoliyatning yangi shakllari vujudga kelib, urbanizatsiya jarayoni jadal rivoj topgan. Shuningdek, sivilizatsiya taraqqiyotida mamlakatning yagona markazlashgan davlat ostida birlashuvi katta ahamiyatga ega bo'lgan. (Маткаримов, 2021).

**Xulosa**. qadimgi Xorazm hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalarida urbanizatsiya jarayonlarining qaysi davrdan boshlanib, qanday kechganligi xususida fikr-mulohazalar tahlil qilindi. Tadqiqotlar davomida Xorazm vohasi hududida urbanizatsiya jarayonlari haqida ma'lumotlar tahlil qilinib quyidagi xulosalarga kelindi: - Xorazm vohasi hududlarida arxeologik tadqiqotlar natijasida ilk urbanizatsiya jarayonlarinig boshlang'ich davri sifatida mil.avv. VI asr belgilanadi; - urbanizatsiya jarayonilarining rivojlanashida faqat mahalliy aholining emas, balki janubiy hududlardan ko'chib kelgan aholining ham ta'siri bo'lgan; - Amudaryo havzasida urbanizatsiya jarayonining rivojida irragatsiya tizimi bilan bog'liq o'zgarishlar ham sabab bo'lgan; - Voha hududida antik davrda urbanizatsiya jarayonlari jadallashadi. Aynan bu davrda siyosiy vaziyat barqarorlashib, yangi yerlarni o'zlashtirish, shaharlarning yiriklashib borish jarayoni kuzatilgan; Xorazm vohasida antik davrda xo'jalik, hunarmandchilik va binokorlik sohalaridagi faoliyatning yangi shakllari vujudga kelib, urbanizatsiya jarayoni jadal rivoj topgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Рапопорт Ю.А., Неразик Е.Е., Левина Л.М. В* низовьях Окса и Яксарт а. Образцы древнего Приаралья. – Москва: Индирик, 2000. – С. 25.
2. *Мамбетуллаев М., Р.Абдиримов* Основные эт апы развит ия города Хивы. // Общественные науки в Узбекистане. 1997. №7-8. -С.3-9.
3. *Толстов С.П.* Древний Хорезм. Опыт ист орико-археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948. С.113
4. *Ягодин В.Н.* Генезис и формирование раннехорезмийской государст венност и // История государственности Узбекистана. – Ташкент: Ўзбекистон, 2009. С. 116-117.
5. *Асқаров А.* Ўзбек халқининг келиб чиқиш т арихи. –Ташкент: O'ZBEKISTON, 2015. – Б. 46.
6. *Баратов С.Р.* Некот орые проблемы археологических исследований древних

культур Хорезма. // Ўзбекистон тарихи. №–4. 2007. – С.22–34.

7. *Неразик Е.Е.* Древние города Хорезма и пут и их развит ия (IV в.до н.э. – IV в.н.э.) // Центральная Азия. Источники, история, культура. – М.: ИВЛ РАН, 2005. – С. 545.
8. *Итина М.А.* Хорезмская экспедиция – основные итоги и перспективы исследований // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: ИВЛ, 1981. – С. 13.
9. *Ходжаниязов Ғ.* Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: O'zbekiston, 2007. – Б. 63 – 70
10. *Пугаченкова Г.А.* Пут и развит ия архит ект урм Юж ного Туркменист ана в порм рабовладения и феодализма. //ТЮТАКЭ. Т. VI.Ашхабад, "1958". – С. 43.
11. *Китов Е.П., Болелов С.Б., Балахванцев А.С.* Возвращение в Древний Хорезм: исследования совместной российско-каракалпакской экспедиции на Устюрте и Большом Кырк-Кызе // Восток (Oriens). 2019. № 6. С. 52– 70
12. *Эгамбердиева Н.А.* Амударё ҳавзаси худудларининг қадимги маданияти (Милоддан аввалги VIII – милодий IV асрлар). Toshkent "Innovatsiya-Ziyo", 2021. B. 208.
13. *Маткаримов Х.О.* Хоразм воҳасида археологик тадқиқотлар тарихи (қадимги даврга оид тарихий реконструкция муаммолари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. – Нукус, 2021

**O. Tursunov**
*Samarqand arxeologiya instituti tayanch doktoranti*

# MARKAZIY SUG‘D KO‘CHMANCHI CHORVADORLAR MADANIYATINING O‘RGANILISHI

O‘rta Zarafshon vohasi tarixiy manbalarda “Markaziy Sug‘d” deb ham nomlanib, qulay tabiiy geografik sharoit tufayli insoniyat tomonidan o‘rta paleolit davridan boshlab o‘zlashtirilgan. Tarixiy tarqqiyotning keyingi bosqichlarida o‘lkada shahar madaniyati shakllangan, dehqon va chorvadorlarning muhim madaniy aloqa markazlaridan biri bo‘lgan.

Sug‘d hududida chorvador ko‘chmanchilar tarixiga oid tadqiqot ishlari o‘tgan asrda hamda hozirgi kunda ham olib borilib ularni o‘rganishda asosan qabr qo‘rg‘onlar muhim bo‘lib hisoblanadi. Qabr qo‘rg‘onlardan topilgan moddiy madaniy topilmalar xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, diniy urf-odatlari kabilarni o‘rganishda birlamchi asosdir. Sug‘d hududida yashagan xalqlar ularning kelib chiqishi, joylashuvi haqidagi qimmatli ma’lumotlar hozirgi kunda, asosan, Xitoy yilnomalarida, arab tarixchilari asarlarida ko‘plab uchratish mumkin.

Markaziy Sug‘d hududida bu boradagi daslabki tadqiqot ishlari XX asrning 60–70-yillarida sovet olimlari tomonidan Panjikent vodiysida olib borilgan. Zarafshon daryosining o‘rta oqimlarida miloddan avvalgi 2000-yillikdan boshlab dehqonchilik bilan shug‘ullangan madaniyat shakllangan. Miloddan avvalgi 1500-yillar, bronza davrining so‘nggiga borib Andronova-Tozabog‘yob madaniyati Samarqand vohasida ham yoyiladi. Vohada o‘rganilgan, bronza davriga oid ko‘plab chorvadorlarga mansub mozor-qo‘rg‘onlarda dasht-Andronova jamoalariga xos xususiyatlar kuzatiladi. Panjikent shahri yaqinida joylashgan Dashti Qozi mozor-qo‘rg‘onlaridagi qabrlarda murdalarning ko‘pchiligi chap tomoniga yonboshlatib, oyoqlari bukilgan holda boshi g‘arbga qaratilib dafn etilgan (Исаков, 1989 C. 145-167).

Qabrlarda jasad bilan birga, sopol idishlar, turli xildagi bezak buyumlari, oxra, hamda ko‘mir kukuni va bo‘lakchalari qayd qilingan. Sopol idishlar qo‘lda yasalgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi tuvaksimon shaklda, turli xil, uchburchak, archasimon shakldagi kertik va tarnovchasimon bezaklardan iborat. Bu sopol idishlar Qozog‘istondagi Andronova madaniyatining so‘nggi bosqichlari va Tozabog‘yop sopol idishlariga o‘xshashdir. Antropologik xususiyatiga ko‘ra ikkita marhumning Andronova jamoalariga mansubligi aniqlangan ( Исаков, 1989 C. 145-167). Samarqand viloyati Urgut yaqinidagi, miloddan avvalgi XII-XI asrlarga oid, Mo‘minobod mozor-qo‘rg‘onlaridagi marhumlarning dafn etilishi va sopol

idishning yasalishida andronova madaniyati xos bezak va shakllar aks etgan. Ayollar bezaklarida esa, asosan, Andronova madaniyatining Tozabog'yop bosqichiga oid materiallar bilan yaqin o'xshashlik ko'zga tashlanadi (Аскаров, 1968 56-62-б.).

Ma'lumki Yevro Osiyo dashtlaridan chorvador ko'chmanchi aholi kirib kelishining eng rivojlangan davrlaridan biri antik davrda ayniqsa, miloddan avvalgi I ming yillikning so'nggi choragida kuzatilgan. Ushbu davrda kirib kelgan yuechji, usun, xun va boshqa qabilalarining ba'zi guruhlari Sug'dning dehqonchilik vohalari atrofidagi chorva uchun qulay joylarida ham qolib ketgan va bu yerlarni makon tutishgan.

XX asr 60-yillarining boshlarida, arxeolog olimlar Zarafshon daryosining o'rta oqimlarida tizimli tarzda arxeologik qidiruv va qazuv tadqiqot ishlarini boshladi, tizimli arxeologik qidiruv va qazuv ishlari davomida chorvadorlarga tegishli qabr qo'rg'onlar aniqlandi. Eng ko'pi Samarqand vohasining janubiy tomonidagi Ohalik qabristoni, Mironqul qabristoni, Sazag'on qabristoni va Samarqand vodiysining shimoliy tomonidagi Oqjartepa qabristoni shular jumlasidandir. Bu hududlar qadimda Darg'om orti cho'li deb atalgan. Ushbu qabrlarning ko'pchiligining davri miloddan avvalgi IV va milodiy VI asrlar orasiga oid madaniyatlarga tegishliligi aniqlandi. Tadqiqotlardan shunday xulosalarga kelindiki ular saklar, sarmatlar, yuyechji, eftalitlar kabi manbalarda eslatilgan xalqlar bilan bog'liq madaniyatlarga tegishlidir.

XX asrning 70-yillarida Akademik G.A. Pugachenkova tomonidan Ishtixon va Qo'shrabot tumanlarida Orlot mozor qo'rg'onlari o'rganilgan. Ushbu mozor qurg'onlarning o'rganilishi natijasida Markaziy Sug'd hududida chorvador ko'chmanchi qabilalar turmush tarzi moddiy topilmalari o'rganildi. Qabr qo'rg'onlardan ko'plab sopol buyumlar qurol yarog'lar zargarlik buyumlari kabi arxeologik topilmalar olingan bo'lib, ushbu topilmalar ko'chmanchi sak qabilalariga tegishli madaniyatga doir ekanligi ilmiy jihatdan isbotlab berildi. O.V. Obelchenko tomonidan 1963–1967-yillarda Samarqand shahridan janubig'arbda joylashgan Sazg'onsoy, Mironqulsoy hamda Oxaliksoy hududida bir nechta qabr qo'rg'onlarni ochib o'rganildi. Sazag'on yodgorligidan dastlab 10 dan ortiq qabr qo'rg'onlar ochib o'rganildi. Sazag'on qabrqo'rg'onlaridan sopol buyumlar tangalar qurol yarog'lar ko'plab topildi. Ushbu qabrlar Tojikiston hududidan topilgan Aruktau qabr qo'rg'onlariga o'xshashligi va bir madaniyatga doir ekanligi tadqiqotchilar tomonidan qayd qilingan. Mironqulsoy hududida 17 ta qabr qoqrg'on ochib o'rganildi. Qabr qo'rg'onlardan ko'plab arxeologik topilmalar qo'lga kiritildi. Buning natijasida Sug'dda VII–VIII asrlargacha bo'lgan dafn marosimlari evolyutsiyasi hamda aholining madaniyati tarixi bo'yicha yangi ilmiy xulosalarga kelindi.

O.V. Obelchenko O‘rta Zarafshon vohasidagi chorvadorlarga mansub ko‘plab mozor-qo‘rg‘onlarni o‘rganib, Sug‘dga dasht madaniyatining ta'siri ayniqsa antik davrda – milod boshlarida nihoyatda kuchli ta'sir ko‘rsatganligini asoslab, ularning qabr tuzilishi, dafn marosimlari va ashyoviy buyumlar tahliliga ko‘ra xronologik jihatdan uchta guruhga bo‘l-gan (Обельченко, 1991 С.76).

Birinchi guruhga mansub mozor-qo‘rg‘onlar miloddan avvalgi VII–III asrlarga oid bo‘lib, ko‘plari yog‘och bilan yopilgan, oddiy gruntli qabrlardir. Marhumlar boshi g‘arb tomonga qo‘yilib, tagiga qamish to‘shab (ba’zan boshiga qamishdan yostiq qo‘yilgan) holda dafn etilgan. Shuningdek, qabrga qizil rang sepish, bo‘rli tayoqcha, siniq boshli sopol idish, qurbonlik toshi qilich va xanjarlar (Lavandak) qo‘yilishi kuzatiladi (Обельченко, 1991 С.76).

Ikkinchi guruhi miloddan avvalgi II–I asrlarga mansub bo‘lib, bu qabrlar shimol-janub yo‘nalishida g‘arbga biroz og‘dirilgan tarzda qazilgan. Marhumlar ko‘proq janubi-g‘arbiy yo‘nalishda dafn etilib, shimoliy devordan lahadga tuynuk qo‘yilgan. Ularda yorma qabrlar ko‘pchilikni tashkil etib, g‘arbiy uzun devor tagidan yorma qazilgan va zina qoldirilgan. U ayvondan qamish va ohaktosh bo‘laklari bilan ajratilgan.

Uchinchi guruh esa milodning I–VII asrlariga mansub bo‘lib, bu davrga kelib, yorma ayvondan xom g‘isht bilan ajratilgan. Qurollar kam uchraydi. Marhumlar oldingi (janubi-g‘arbiy) yo‘nalishda dafn etilib, ko‘proq gilamga o‘xshash to‘shamaga yotqizilgan.

Yorma oldingilarga o‘xshasa-da, endi tushuvchi o‘radan pastda joylashgan. Shu paytgacha yorma bilan ayvon o‘rasi bir xil tekislikda joylashgan edi. Qabrlarga qo‘yilgan buyumlar ham oldingiday qo‘yning old oyog‘i, turli xil shakldagi ko‘zalar, qurollar, ba’zan tuxum ham uchraydi. Barcha guruhdagi dafn marosimlarida olov izlari kuzatiladi. Marhumlar yakka va juft holda dafn etilib, ko‘pmartalik qabrlar va groblar ham mavjud. Jasadlar asosan, uzala chalqancha yotqizilib, bukchaytirilgan va oyoqlari tizzasidan yig‘ilib, ikki tomonga yotqizilgan tarzda dafn etilgan (Обельченко, 1991 С.76).

1999-yildan boshlab, Italiyaning Bolonya universiteti va Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti bilan hamkorlikdagi guruh Samarqand vohasining o‘rta qismi, janubiy tomonlaridagi turli davrga oid qadimgi yodgorliklarda katta maydonlarda arxeologik qidiruv va qazuv ishlarini olib bordi. Buning natijasida mozor qo‘rg‘onlarning shakliy xususiyati, o‘lchami, saqlanish holati bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar qo‘lga kiritildi. Shu bilan birga, yodgorliklarning morfologik xususiyatlarini kuzatish va ilmiy tahlillarni birlashtirib, ularning davriga aniqlik kiritildi. 2000-yil Samarqand viloyatining Payariq tumani markazi Chelak shahridan 5 kilometr chamasi janubi-sharqda, Batrak va

Chandir qishloqlari oralig‘idagi qadimiy Ko‘ktepa shahri xarobalari o‘rnida badavlat ayol – “Sak malikasi”ning qabri ochib o‘rganildi. Uni o‘zbek arxeologlari fransuz mutaxassislari bilan birga topdilar. Malika hayotligi davrida foydalangan pardoz buyumlar, oltin tugmachalar va taqinchoqlar bilan shohona bezatilgan libosda dafn etilgan. Yangi eraning boshlarida yashagan ushbu malikaning qabridan topilgan buyumlar katta tarixiy ahamiyatga ega. Ular orasida 250 ga yaqin tilla taqinchoqlar – tillaqosh, tilla tugmachalar, kumush ko‘zgu, yarim qimmatbaho toshlar va shishadan yasalgan munchoqlar bor.

2002-yildan O‘zbekiston-Italiya arxeologik guruhi Samarqand viloyati Nurobod tumanida joylashgan Sazag‘on yodgorligida arxeologik qidiruv va qazuv ishlarini boshlashdi. 2003-yildan ushbu hududda arxeologik qazishma ishlarini olib borishdi va miloddan avvalgi IV–II asrlarga oid antik davr qal’asi ustida miloddan avvalgi I – milodiy I asrlardagi ko‘chmanchi chorvador xalqlarning qabrlarini aniqlandi.

Hozirgi kunda ham Markaziy Sug‘d hududida mozor-qo‘rg‘onlarni o‘rganish, ularni ilmiy tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish borasida bir qancha ishlar qilinmoqda. Jumladan 2022-yilda Samarqand tumanida 50 ta mozorqo‘rg‘on qayd etilgan. Ulardan yaxshi saqlanib qolgan mozorqo‘rg‘onlar 25 ta, qisman yaxshi saqlanganlari 15 ta, yuqori darajada vayron bo‘lganlari 8 ta, butunlay vayron bo‘lganlari esa 2 tani tashkil etadi (1-rasm).




*1-rasm*

Qoratepa tog‘ oldi hududidan topilgan mozorqo‘rg‘onlarning asosiy qismi to‘p-to‘p ko‘rinishda joylashgan bo‘lib, ular asosan tog‘ oldi pasttekisliklarda joylashgan Bu joylar bir tomondan tabiiy suv manbaiga yaqin bo‘lsa, ikkinchi tomondan uch taraflama tog‘lar bilan o‘ralgan. Bu esa turar-joy aholisining qulay sharoitda yashaganligini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki Sug‘d hududi o‘zining tabiiy sharoiti, iqlimi, geografik joylashuvi borasida boshqa hududlardan ajralib turgan. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan tadqiqotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, bronza davridan boshlab o‘rta asrlar davrida ham ko‘chmanchi chorvador xalqlarning ushbu hududga kirib kelganligini hamda o‘troqlashib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Buning asnosida esa Sug‘d hududida yuksak madaniyat shakillangan va aholining etnik tarkibi madaniyati urf odatlariga ham sezilarli tasir ko‘rsatgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2022-yilda O‘zbekiston –Italiya Xalqaro qo‘shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Samarqand , Jomboy va Bulung‘ur tumanlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar hisoboti. Samarqand, 2023.
2. O‘zbekiston–Italiya qo‘shma Arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Samarqand, Ohalik va Sazag‘an hududlarida 2021-yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar hisoboti. Samarqand, 2022
3. *Simone Mantillene, Samaritdin Suyunov*, Darg‘om oldi dashtlari va Samarqand vohasining ilk taraqqiyoti, “O‘zbekiston va Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasi tizimida” O‘zR FA MAM Samarqand arxeologiya institutining 50-yilligi munosabati bilan tashkil etildgan xalqaro ilmiy onlayn konferensiya matriallari, Samarqand, 2020.
4. *Аскаров А.А.* Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде // ИМКУ – Тошкент: 1968. - №8.
5. *Исаков А., Потемкина Т.М.* Могильник племен эпохи бронзы в Тадж икист ане// СА. 1989.-№1.
6. *Обельченко О.В.* Культ ура ант ичного Согда. – М.: Наука, 1991.

**G.J. Xo‘jamuratova**
*Qoraqalpoq davlat universiteti Tarix fakulteti Arxeologiya yo‘nalishi*
*1-kurs talabasi*
*gulbanuxojamuratova4@gmail.com*

## QORAQALPOG‘ISTON ARXEOLOGIYASINING RIVOJLANISH TARIXI

Odamzodning mehnat faoliyati asosida paydo bo‘lgan tarixiy va madaniy meros obyektlarini avaylab asrash, ularni tadqiq etish, batafsil o‘rganish va ulardan samarali foydalanish hozirgi O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari tarafidan tashkil etilgan tarixiy va madaniy meroslarga e’tibor berib tadqiqot ishlarini olib borish ularni saqlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Arxeologiyaning rivojlanib borishi orqali Qoraqalpog‘istonning tosh davri, eneolit davri, jez davri, o‘rta asrlar tarixi keng o‘rganilmoqda va tarixiy voqeylik tiklandi. (Мамбетуллаев ва б., 2010 54 б.).

Ustyurt kengliklariga qadimiy odamlar tomonidan paleolitning mustye davridan mezolit va yangi tosh davrlarida makon qilingan va keyinchalik ko‘chmanchi sak qabilalari Ustyurtni o‘zlashtiradilar. Ustyurt kengliklari topib o‘rganilgan tosh davriga oid qurollar odamlarning Markaziy Ustyurtda o‘troq yashab ovchilik bilan shug‘ullanganligidan darak beradi. Yuqori pleystotsen oxirida ob-havoning qattiq sovib qurg‘oqchilik bo‘lib, Orol-Kaspiy bo‘ylarida o‘simliklar, hayvonlar kamayib ketishi sababli gominidlarning yashashi qiyinlashgan. Shunga qaramasdan, Ustyurt kengliklarida hayot bronza davrigacha davom etgan. (Мамбетуллаев ва б., 2010 126 б.).

Qoraqalpog‘iston hududida mustye davri yodgorliklari Ustyurtdagi Borsakelmas hududining shimol-g‘arbida joylashgan Esen-1, 2 Qoraquduq yodgorliklari kiradi (Мамбетуллаев ва б., 2014 139 б.).

Qoraqalpoqlarning tarixi uzoq davrga borib taqaladi. Buning yaqqol misoli qilib Qoraqalpog‘istonning ajoyib yetti mo‘jizasini keltirish mumkin bular: Qo‘yqirilgan qal’a , Shilpiq, Aranlar qadimgi kasblik qurilishlari, Nazlimxan sulu, Tuproqqal’a , Davkesken qal’asi - O‘rta Osiyodagi eng qadimgi bojxona, Aqshaxan qal’a, bularning har biri juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib nafaqat qoraqalpoq xalqi balki butun O‘rta Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati, turmush tarzi, mehnat faoliyati haqida batafsil manbalarni o‘z ichiga oladi (Хожаниязов ва б., 2004 10 б.). Xo‘jayli shahrining qadimgi va o‘rta asrlardagi belgili bo‘lgan Mizdahqondagi ko‘pchilik arxitektura yodgorliklar va ularga tegishli ma’lumotlar omadli yetti soni bilan ifodalanadi.

Bu 2 ming yildan ortiq tarixga ega muqaddas joyga kelgan ziyoratchilar ham yetti tosh yig'masdan turib ketmaydilar. Buning sababi, rivoyatlarga ko'ra, har yili xalifa Erejep yodgorligidan bir tosh qulab, u tugagach oxir zamon boshlanar ekan. Shuning uchun kelgan ziyoratchilar yetti tosh yig'ib uning umrini yana yetti yilga cho'zar ekan (Хожаниязов ва б., 2004 15 б.).

Tuproqqal'a yodgorligi bundan ikki yarim ming yilga yaqin vaqt oldin qurilgan. Qal'a fanga birinchi bor 1938-yili aniqlanib, 1952-1957-yillarda arxeologlar tarafidan o'rganilgan. Aniqlangan ma'lumotlar bo'yicha mil.avv. IV asrlarda qal'a joylashgan oraliq butun Qoraqalpog'istonning qadimgi yerlari juda fayzli, suvlari toza bo'lgan, foydali mahsulotlar olis-olis o'lkalarga karvonlar orqali yuborilgan.( Мамбетуллаев ва б., 2014 108 б.).

O'zida butun bir tarixni saqlab turgan yana bir joy bu – Tuproqqal'a bo'lib Markaziy Osiyoning eng taniqli yodgorliklaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'rta Osiyo madaniyati tarixi bilan shug'ullanuvchi dunyo olimlari, aynan, Tuproqqal'a manbalaridan foydalanmoqdalar. Tuproqqal'a 1938–1950-yillarda S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. (Хожаниязов ва б., 2004 55 б).

1902-yili Chilpiq bilan yaqindan tanishgan rus sayohatchi olimi A.E. Rossikova yodgorlik daryo bo'yida joylashgani, tabiati chiroyli, go'zal bo'lgani va yerlik aholi orasida tarqalgan rivoyatga ko'ra, uni dunyoda tengi yo'q kuchga ega pahlovon Chilpiq tomonidan qurilgani haqida yozadi. Yodgorlikda urushdan oldin Y.G'. G'ulomov va S.P. Tolstov va oltmishinchi yillar oxirida Y.P. Manilov arxeologik qidiruv ishlarini olib bordi. 1959-yili etnograf olim X. Esbergenov tomonidan Chilpiq omadli urug'lar yashaydigan qadam joy, deb ta'rif bergan. O'rganishlar natijasida Chilpiq I–V, VII–VIII, IX–XI asrlarga tegishli bo'lgan yirik aholi punkti ekanligi aniqlangan (Хожаниязов ва б., 2004 25 б.).

1930–1940-yillar va so'nggi yillarda mashhur olimlar Y.G'. G'ulomov va S.P. Tolstov ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyalarini tashkil etib, jahon ahamiyatiga ega bo'lgan yodgorliklarni topdilar. Hozirgi kunda bu yodgorliklarni YUNESKO ning jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritish ishlari olib borilmoqda (Хожаниязов ва б., 2004 77 б.).

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:


1. *М. Мамбетуллаев, М. Туребеков, О. Юсупов* (Қарақалпақстан тарийхы. Нокис 2010) 139 бет.
2. *М. Мамбетуллаев, М. Туребеков* (Археология. Нокис 2014) 131 бет.
3. Ғ. Хожаниязов, Ж. Хәкимниязов (Қарақалпақстанның әжайып жети естелиги. Нокис 2004) 94 бет.

**Yoo Inyoung**
*SamDU Arxeologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi,*
*juanjoy@gmail.com*

# ANTIK VA O‘RTA ASRLAR KOREYA VA O‘ZBEKISTON TARIXINING O‘ZARO ALOQADORLIGI MASALASINING O‘ZBEKISTON TARIXCHILARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI

O‘zbekiston tarixiy taraqqiyotining ildizlari qadimgi davrlardanoq shakllanib, rivoj topib kelgan. O‘zbekistoni tarixan dunyo xalqlari madaniyatlari hamkorligida o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini bajargan. Bugungi kunda o‘z ahamiyatini qayta tiklagan Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan O‘zbekiston hududining antik va o‘rta asrlar davri savdo-iqtisodiy aloqalari yuksak taraqqiy etgan. Markaziy Osiyo sivilizasiyasining asosini tashkil etgan ishlab chiqarish va savdo-iqtisodiy aloqalar rivojini tadqiq etishga ko‘plab tadqiqotchilarning e’tibori qaratilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston hududidagi davlatlarning antik va o‘rta asrlarda Koreya yarim orolidagi davlatlar bilan savdo va diplomatik munosabatlari maxsus dissertasiyaviy tadqiqot obekti sifatida o‘rganilmagan. Zero, bugungi kunga qadar tarix fanining muhim tarmoqlari bo‘lgan manbashunoslik tahlillari hamda arxeologiya sohasida O‘zbekiston hududida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, bu tadqiqotlar davomida qo‘lga kiritilgan hunarmandchilik ishlab chiqarishi va moddiy madaniyat namunalari hamda ular asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar mazkur davrda O‘zbekiston va Koreya mintaqasi aholisining tarixiy aloqalarini alohida tadqiq etishni taqozo etadi.

Ikki mintaqa o‘rtasida antik va o‘rta asrlarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning sekinroq kechganligi sababli ushbu tadqiqot yo‘nalishiga doir ma’lumotlar yozma manbalarda ham nisbatan kam uchraydi. Koreyslar va Markaziy Osiyo xalqlarining o‘zaro aloqalari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ushbu mintaqada joylashgan ba’zi viloyatlari zamonaviy ilmiy izlanishlarga ko‘ra, koreys etnosining genezisida ham muhim rol o‘ynagan (Пан Мин Кю, 2008. 154-159).

Oltoy va O‘rta Osiyo hududida joylashgan xalqlarning koreyslar etnogenezida qatnash ganiga qaramay, Koreya va O‘rta Osiyo mintaqasi o‘rtasidagi aloqalar VII asrgacha bo‘lgan yozma manbalarda qayd etilmagan. O‘zbekiston hududida tadqiqot mavzusiga doir ilk ma’lumotlar Samarqanddagi Afrosiyob devoriy suratlarida uchraydi. Afrosiyob devoriy suratlari O‘zbekiston tarixini o‘rganishdagi muhim madaniy me’ros obyektigina bo‘lib qolmasdan, balki Buyuk ipak yo‘lidagi xalqaro diplomatik munosabatlar tarixini o‘rganishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy tarixiy hujjat hisoblanadi.

1965-yil Samarqand shahridagi qurilishi rejalashtirilgan yangi ko'cha aynan ana shu qadimiy shahar xarobalari ustidan o'tishi belgilandi. Yo'l o'tadigan hudud tekislanayotgan vaqtda nodir topilma, dunyo tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlar beruvchi devoriy suratlar aniqlandi. Eng yomoni, buldozer devoriy suratni qoq o'rtasidan ikki bo'lib o'tgan edi.

1966-yilda O'zSSR Ministrlar Sovetining qaroriga binoan O'zSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumi huzurida Afrosiyob shahar xarobasida arxeologik ishlarni rejalashtirish, arxeologik qazishma ishlarini muvofiqlashtirish uchun Ilmiy Kengash tuzildi. Kengash tarkibiga Y.G'. G'ulomov – ekspeditsiya rahbari, V.A. Shishkin – Afrosyobda qazishmalar olib buruvchi guruh boshlig'i, G.A. Pugachenkova, M.Y. Masson kabi O'zbekistonning yetakchi tarixchi va arxeologlari kiritildi. Mutaxassislar Afrosiyobning 23-qazishmasidagi devoriy suratlarni tadqiq etishni boshlashdi. Devoriy suratlarni tadqiq etishga boshchilik qilish L.I. Albaumga yuklatildi. L.I. Albaum galereyaning g'arbiy qismidagi devorga chizilgan 24–25- figuralarini tarixiy manba va etnografik ma'lumotlar asosida tahlil qilib, ularni Koreya elchilari, degan xulosaga keladi (Альбаум, с. 74-75).

Shunday qilib, Afrosiyob devoriy suratlaridagi elchilar tasviri O'zbekiston va Koreya tarixidagi o'zaro aloqalarni o'rganishda noyob tarixiy manba bo'lib qoldi (金元龍, 1976 129, 130-b.).

Antik va ilk o'rta asrlarda Koreya va Turkiston mintaqalari aholisining iqtisodiy va madaniy aloqalari tarixini o'rganish mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada alohida monografik tadqiqotlar yaratilmagan bo'lsada, mavzuni yoritishda muhim ilmiy asoslarga ega bo'lgan qator ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Jumladan, o'zbekistonlik olim V.S. Xanning ilmiy izlanishlari natijasida yuzaga chiqqan ba'zi ma'lumotlar fan uchun shubhasiz o'z tarixiy haqiqati bilan qimmatli. U "Koreya tarixi" nomli monografiyasida Koreya va Markaziy Osiyo xalqlarining diplomatik va madaniy aloqalari Koguryo davriga borib taqalishini, VII asrda Turk hoqonligi va Koguryo o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganligi, koreyalik nufuzli rohib Xechxonning VIII asrda O'rta Osiyoga sayohat qilganligi haqida ma'lumot beradi. Lekin bu sayohatning tafsilotlari haqida so'z yuritmaydi. V.S. Xan koreys olimlari Silla podshohi Xengdok (IX asr) maqbarasidagi granitdan yasalgan haykalni Markaziy Osiyo mintaqasidan chiqqan kishining tasviri, deb hisoblashlarini keltirib o'tadi (Хан., 2013. 123 б). O'zbekiston va Koreya o'rtasida antik va o'rta asrlarda amalga oshirilgan hamkorlik aloqalari haqida tadqiqotchi N.E. Karimova tomonidan e'lon qilingan maqolalarda ham qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Muallifning "Uzbekistan i Koreya: istoricheskiye svyazi.", "O'zbekiston va Koreya Respublikasi munosabatlarida tarix va zamonaviylik", "Hyech'oning Markaziy va Janubiy Osiyo tarixi

xaqidagi esdaliklari" nomli maqolalarida Buyuk ipak yo'lidagi madaniy almashinuvlarning Koreya madaniyatiga ta'siri, Markaziy Osiyo mintaqasi va Koreyadagi ilk o'rta asrlar davlatlarining diplomatik aloqalari yoritiladi (Хан., 2013. 123 б.).

Hyech'oning Markaziy va Janubiy Osiyo tarixi haqidagi esdaliklari nomli maqolasida Xitoy yozma manbalarida keltirilgan koreys ruhoniysining Hindiston va Markaziy Osiyoga sayohati yoritiladi. Xitoylik sayyohlarning Tan imperiyasi davrida G'arbga sayohati davomida yozib qoldirgan esdaliklari anchagina. Ular orasida Xuan Zang, Xui Li va Yan Zonglarning esdaliklari muhim bo'lgan. Ushbu maqolada muallif Xitoylik sayyohlar keltirib o'tgan ma'lumotlar bilan birga Koreyalik budda rohibi Hyech'o tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlarni ham keltirib o'tadi. Sayohat esdaliklarida nafaqat Hindistondagi, shuningdek, VII asr boshlarida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy madaniy hayotning rivoji, budda jamolarining turmush tarzi haqida tarixiy ma'lumotlar keltiriladi (Каримова, 2015, С. 45-46).

Sillaning poytaxti Kyonchju har tomonlama kengayib, shu shaharda saroylar, zodagonlar uchun turar joylar barpo qilinadi. Shaharning o'rtasida "Oy qasri" nomli hashamatli qasr quriladi. Bu qasrning ichida VII asrda "Yulduzlarni kuzatish uchun minora" ham barpo qilinadi.

Xitoy orqali Sillaga xorijiy savdogarlar kirib kelganlar va sillalik savdogarlar, elchilar va sayyohlar xorijiy davlatlarga yo'l olganlar. Tadqiqotchilar Samarqand hukmdori Varxumanning saroyi devorlariga chizilgan suratlarda aks ettirilgan ikki personajlar liboslari va tashqi qiyofalariga qarab, aynan Silladan kelgan mehmonlar ekanliklarini ta'kidlaganlar. VII–VIII asrlarda Silla ko'pgina davlatlar bilan diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatganligini hisobga oladigan bo'lsak, yuqoridagi fikrga qo'shilish mumkin (Бердимуродов,. 2015 393 б.).

Movaraunnahrda arab istilosining boshlanishi va Silla davlatining kuchayishi bilan ikki mintaqa davlatlarining o'zaro aloqalari Xitoy orqali davom ettirilishi masalasi taniqli arxeolog A.A. Anarboyevning Arablar bosqini va sug'd-turk zodogonlarining taqdiri nomli maqolasida atroflicha bayon qilinadi. Sug'd bilan Silla o'rtasidagi aloqalaridan darak beruvchi madaniy me'ros obekti Silla hukmdori Von Seon (785–798) qabri yaqinidagi toshdan yasalgan ikki xaykallar hisoblanadi. Qirolning qabri Kyonchju shaxridan 12 km masofada joylashgan. Bu qabristonda qirol xonadoniga mansub bir nechta aslzodalarning haykallari bilan birga Sug'd va Farg'ona mintaqasi odamlariga o'xshash qiyofalar aks ettirilgan ikkita haykal joylashgan. A. Anarboyevning yozishicha, bu yerdagi ikki haykal o'z tashqi kiyofasi, liboslari va boshqa xarakterli belgilariga ko'ra Sug'diylarga tegishlidir.

Shuningdek, A. Anarboyev II–III asrlarda Sug'd savdogarlari Xitoy, Vyetnam va Koreya davlatlari xududlarida bir necha savdo koloniyalari barpo qilganliklarini, shunday savdo koloniyalaridan biri Kyonchju shahrida ham bo'lganligini takidlagan (Анарбаев, 2016 23-31 б.).

Sug'd bilan Koreya yarim orolidagi davlatlarning o'zaro madaniy ayriboshlash borasida olib borgan hamkorligi masalasi yuzasidan Samarqand davlat universiteti professori B.S. G'oyibovning izlanishlari diqqatga sazovor. Muallif "On the History of Early Medieval Sughd-Korean Relations" (2022-y) nomli maqolasida ikki mintaqa o'rtasidagi tarixiy aloqadorlik masalalarini kengroq yoritibgina qolmay, zamonaviy koreys yozuvining shakllanishida sug'd yozuvining ta'siriga alohida to'xtalib o'tiladi.

O'rta asrlarda Koreya madaniy hayotiga Buyuk ipak yo'li nafaqat iqtisodiy va diniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan, balki bu madaniy aloqalar almashinuviga ham olib kelgan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab madaniy aloqalar rivojlanishi asosan Koreya harf-fonetik alifbosining shakllanishiga hissa qo'shgan. M. Isxaqovga ko'ra, Koreya alifbosining shakllanishida Koreya mintaqasi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi uzoq muddatli madaniy aloqalar kuchli ta'sir o'tkazgan. Olimning aytishicha, miloddan avvalgi to'rtinchi va uchinchi asrlarda uyg'ur yozuvi va mo'g'ul yozuvi oromiy yozuviga asoslangan sug'd yozuvi asosida shakllangan. Koreya yozuvi (hangil) ushbu yozuv namunalariga asoslangan holda shakllangan. M. Isxaqovga ko'ra, yigirma ikki harfli sug'd yozuvida harflarning imlosi uyg'ur, mo'g'ul va Koreya yozuvlariga qaraganda Sug'd yozuvida yaqinroq (Goyibov, 2022 P 50-63).

B. G'oyibov Markaziy Osiyo va Koreya yarim orolidagi o'zaro munosabatlar er. av. V asrdan boshlanib, keyingi davrlarda ham Buyuk ipak yo'lida olib borilgan xalqaro munosabatlar doirasida davom etganligini tarixiy adabiyot va manbalar orqali asoslab bergan. Buyuk ipak yo'li nafaqat iqtisodiy va diniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan. balki, bu madaniy aloqalar almashinuviga ham olib kelgan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab madaniy aloqalarning rivojlanishi Koreya harf-fonetik alifbosining shakllanishiga hissa qo'shgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, antik va o'rta asrlarda O'zbekiston hududidagi davlatlarining Koreya yarim oroli davlatlari bilan madaniy, savdo va diplomatik munosabatlariga doir masalalar zamonaviy o'zbek tarixchiligida yoritilgan bo'lsa-da, bu talab darajasida emas. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlar endigina keng yo'lga qo'yila boshladi. Ushbu yo'nalish istiqbolli hisoblanib, muammoni o'rganish yuzasidan tadqiqotlarni hamkorlikda amalga oshirish natijasida O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi

qadimgi aloqalar haqida ko‘plab yangi ma’lumotlarni qo‘lga kiritishimiz shubhasiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. *Пан Мин Кю.* Проблема происхождения населения Корейского полуострова (по данным антропологии). Археология, этнография и антропология. Евразии. 2008. №2. – С. 154-159
2. *Альбаум Л.И.* Живопись Афрасиаба. Ташкент . 1975. – С. 74-75.
3. 金元龍, 『사마르칸드 아프라시압 宮殿壁畵 使節圖』, 『考古美術』129.130, 1976
4. *Хан.В.С.* Корея тарихи. «Baktria press». Т.:2013. – 123 б
5. *Каримова Наталя.* Сведения Хуэй Чао по истории Центральной и Южной Азии. ORIENTAL STUDIES 2015, № 1. – С. 59.
6. *Бердимуродов А.Э.* Самарқанд тарихидан томчилар. Тошкент . 2015. Б.393
7. *Анарбоев А.А.* Араблар босқини ва суғд-турк зодагонларининг тақдири. O‘zbekiston arxeologiyasi. 2016. № 2 (13). Б.23-31.
8. *Bobur Goyibov*. On the History of Early Medieval Sughd-Korean Relations. UNESCO ICDH NEWSLETTER. 2022. Vol 4. P.50-63.
9. *Исхаков М.* К истокам корейского алфавита. Самаранд шахрининг умумбашарий маданий тариққиёт тарихида тутган ўрни” мавзуида Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. Тошкент-Самарқанд, 2007, Б.221-224

**Б.Д. Мадреймов**
*Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети*
*Археология кафедраси доценти в.б.*
*Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори PhD*

# УСТЮРТНИНГ СЎНГГИ ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ ЕСЕН-2 УСТАХОНАСИНИНГ ФУНКЦИОНАЛ АҲАМИЯТИ

Есен-2 топилмажойи Борса-Келмес ботиғининг жанубий чеккасидаги шу номли тепалик устида жойлашган (Бижанов, 1979 68 б) ва у Е.Б. Бижанов ҳамда А.В. Виноградовлар томонидан 1977 йилда очилган (Виноградов и др., 1978 522). Ёдгорлик унча баланд бўлмаган текис юзали тепаликка туташган ва унинг майдони 90х40 кв. м. Бу ерда кучли кремнийлашган оҳактошнинг парчаланган пластлари конлари жойлашган.

Есен-2 индустриясининг муҳим тош буюмлар гуруҳи бифаслар ва уларнинг синиқлари ҳисобланади. Улар коллекциянинг қарийб 1/3 қисмини ташкил қилади (Виноградов, 1981 С. 55). Бифаслар асосан тош плиткаларидан ишланган. Кам сонли бутун ва деярли тугалланган бифаслар бўлакларига кўра айтиш мумкинки, есенликлар имкон қадар юпқа, бироқ кенг ва йирик қуроллар ясашга ҳаракат қилганлар (бўйи 10-12 см дан кам эмас. А.В. Виноградов Есен-2 маконида учта: параллель леваллуа учиринди-пластиналар, радиаль нуклеуслардан чақмоқлаб олинган нотўғри дорсалли учириндилар ва бифаслар ишлаб чиқаришнинг техник анъаналарини ажратган (Виноградов, 1981 56 б.).

Есен-2 топилмажойида учта эмас, балки иккита – параллель-леваллуа чақмоқлаш ҳамда бифаслар ишлаб чиқариш техник анъаналари ҳукм сурганлиги аниқланди. Коллекциядаги қолган йўнилғилар тановорларни чақмоқлашга тайёрлаш ва бифаслар ишлаб чиқаришда ҳосил бўлган техник маҳсулотлар ҳисобланади. Есен-2 тошга ишлов бериш устахонасида тошларни чақмоқлаш худди бифасларда бўлгани каби оғир ва енгил тош ҳамда органик шох ушатғичлар ёрдамида амалга оширилган.

Есен тошга ишлов бериш устахонаси бирламчи ишлов берилган индустрияси техник-типологик жиҳатдан сўнгги палеолит даврини характерлайди ва қуйидаги хусусиятларга эга:

1. Нуклеуслари коллекциянинг йўнилғиларига қисман мос келади. Бу афтидан, ташриф буюрувчиларнинг йўнилғилардан ташқари, нуклеусларни ва йўнилғиларни ҳам маконга олиб кетишганлиги билан изоҳланади.

2. Йўнилғилари орасида субпараллель равишда бир ёки икки зарб майдондан чақмоқланган леваллуа типидагилар ҳам учрайди.

3. Йўнилғилар зарб майдончалари асосан фасеткалаштирилган, аммо уларни текис зарб майдонлардан чақмоқлаш амалиёти ҳукм сурган.

4. Маданий-даврий жиҳатдан ушбу комплекс сўнгги палеолитнинг бошларига хос бўлган параллель леваллуа маданиятига киритилиши мумкин ва бу ҳақда органик шох ушатғич ёрдамида йўнилган бифаслар ва пластиналар гувоҳлик беради.

Есен-2 топилмажойининг функциональ характери ҳақида ҳам турли фикрлилик мавжудлигини кўриб ўтдик. Муаллифлар уни устахона, макон-устахона каби номлар билан аташган. Аммо улар топилмажойда тошга ишлов бериш айнан бифаслар ишлаб чиқаришга йўналтирилганлигини ҳам инкор этмайдилар. Есен-2 топилмажойининг асосий тош буюмлари иккиёқлама ишлов берилган артефактлардан иборатлигидан келиб чиқиб, уни бифаслар ишлаб чиқаришга ихтисослашган устахона дейиш мумкин. Ушбу устахонадан бифаслардан ташқари, параллель-леваллуа типидаги йўнилғилар ва уларга мос нуклеуслар ҳам тановорлар сифатида маконларга олиб кетилган бўлиши мумкин.

Ўрта Осиёнинг тош даври тошга ишлов бериш устахоналарига бағишланган нашрларида (Касымов, 1969 265-268 б.; Касымов, 1972 37 б.) ихтисослашган устахоналар айирбошлашнинг пайдо бўлишининг маҳсули сифатида неолит давридан пайдо бўлиши таъкидланган. Аммо, таъкидлаш жоизки, товар айирбошлашгача эволюция қилган ихтисослашган устахоналар узоқ эволюцион йўлни босиб ўтган ва специализациялашган устахоналар палеолит давридаёқ пайдо бўлган. В.П. Любиннинг “зарур бўлса ихтисослашган устахоналар ўрта палеолит даврида ҳам ҳукм сурган бўлиши мумкин”, деган фикрларини эсга оламиз (Любин, 1965 55-56 б).

Бунга қўшимча қилиб, айтиш мумкинки, ихтисослашган устахоналар ҳақиқатда палеолит даврида пайдо бўлган, яъни қадимги тош даври жамоалари маълум бир турдаги тош қуролларнигина ясаш учун хом ашё конларига ташриф буюришган. Аммо бундай ихтисослашув айирбошлаш учун эмас, балки ҳали ишлаб чиқарувчи жамоанинг эҳтиёжлари билангина чекланган бўлган. Шунинг учун, Есен-2 топилмажойини функциональ жиҳатдан бифаслар ишлаб чиқаришга ихтисослашган, бироқ бу ихтисослашув бир жамоанинг хўжалик заруратлари билан “чекланган” устахона дейишимиз мумкин. Шундай қилиб, Борса-Келмес ботиғида жойлашган Есен-2 топилмажойининг янгича талқини Ўзбекистон тарихида янги саҳифаларни очди. Есен-2 топилмажойи Ўрта Осиё тарихини мутлақо янги ихтисослашган

устахона билан бойитди. Ўрта Осиёнинг тош даври тошга ишлов бериш устахоналари орасида бифаслар ишлаб чиқаришга ихтисослашган Есен-2 устахонаси қўшилди.

Аммо бу ихтисослашув неолит даврида бўлгани каби товар айирбошлаш учун эмас, балки ишлаб чиқарувчи жамоанинг ўз эҳтиёжлари билан чекланган устахоналардир. Есен-2 устахонасининг комплекси асосан бифаслар ишлаб чиқаришга йўналтирилган бўлиб, Ўрта Осиё ҳудудида унга ўхшаш индустриялар учрамайди. Есен-2 устахонасининг бифаслари юпқалиги туфайли ёдгорликни сўнги палеолит даври билан саналаш мақсадга мувофиқдир. Ёдгорликдан топилган юпқа пластиналар, параллель леваллуа характеридаги йўнилғилар бу фикрни тасдиқлайди. Энг муҳими, Есен-2 топилмажойи бифаслари органик шох болға ёрдамида ишлов берилганлиги билан ажралиб туради.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:


1. *Бижанов Е.* Находки памят ников палеолит а на юго-восточном Устюрте // Вестник КФАН УзбССР. N.3. Нукус. 1979.
2. *Бижанов Е.* Палеолит Уст юрт а // Вест ник КФАН УзбССР. N.1. 1988.
3. *Виноградов А.В.* Древние охот ники и рыболовы среднеазиат -ского междуречья. М. 1981.
4. *Виноградов А.В., Бижанов Е.Б.* Первые палеолит ические на-ходки с юго-восточного Устюрта // АО 1977 г. М. 1978.
5. *Касымов М.Р.* Кремнеобрабат ывающие маст ерские и шахт ы каменного века Средней Азии \\Изд-во «ФАН». Ташкент. 1972.
6. *Касымов М.Р., Крижевская Л.Я.* О классификации кремнеобрабат ывающих мастерских \\СА, №1. М. 1969.
7. *Любин В.П.* К вопросу о мет одики изучения ниж непалеолит ических каменных орудий \\МИА, №131. М. 1965.

**Н.А. Махкамова**
Самарқанд археология институти
2-курс таянч докторанти
nigoramaxkamova1986@gmail.com

# МАРКАЗИЙ СУҒДНИНГ АНТИК ДАВР ОШХОНА КУЛОЛЛИК ИДИШЛАРИ

(Оқтепа кулоллик идишлари мисолида)

Кейинги йилларда халқимизнинг бой моддий ва маданий меросини асраб авайлаш, қадимий тарихимиз, бой маданиятимизни халқимизга хамда жаҳон ҳамжамиятига тарғиб қилиш, ҳозирги даврнинг муҳим вазифалари ҳисобланади. Бошқа ҳудудлар сингари Ўзбекистон шароитида ҳам бутун бошли шаҳарлар, қишлоқлар кўшк ва қўрғонлар ҳозирда ер остида ётибди. Бу маконлардаги одамларнинг турар жойлари, балки уларнинг турмуш тарзи билан боғлиқ буюмларни ўрганиш, илмий жиҳатдан таҳлил қилиш, археология фанининг муҳим хусусияти ҳисобланади. Ўлкамиз тарихини ўрганишда арабларгача бўлган даврни кўпроқ археологик материалларга асосланиб ўрганимиз. Археологик топилмаларнинг асосини эса кулоллик буюмлари ташкил қилади.

Аждодларимиз тарихи ва маданиятини ўрганишда кулоллик буюмларининг аҳамияти жуда катта. Сопол бир қарашда оддий, аҳамиятсиз буюмдек кўринсада, тарихийлик нуқтаи назаридан бошқа буюмлардан қолишмайди. Бу идишлар орқали шаҳар ва қишлоқларнинг даврини аниқлаш, у ерда яшаган халқларнинг ҳаёти, турмуши ҳақида муҳим маълумотларни олиш мумкин. Кулоллик идишлари фақатгина одамларнинг кундалик турмуш-тарзида фойдаланиладиган буюм бўлмасдан, балки кишиларнинг ички дунёсини, маънавий ҳолатини намоён қилувчи, амалий санъат намуналаридан ҳисобланади.

Марказий Суғд ёдгорликларини археологик қазиш жараёнида мутахассислар кулоллик намуналарига озми-кўпми таъриф бериб ўтган. Шу орқали ёдгорликларни ёки ўрганилаётган жойни қайси даврга оидлигини, қайси халқлар яратганини, у халқларнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва маданий ҳаёти масалаларига оид қимматли маълумотлар олиш имконини беради. Бир қатор археологлар кулоллик ҳунармандчилиги намуналари бўйича етук мутахассис бўлиб, бу соҳада муҳим изланишлар олиб борган ва фан учун катта аҳамиятга эга бўлган янгиликларни ёзиб қолдирган. Антик даврга оид ёдгорликлар Ўрта Осиёда жумладан, Марказий Суғдда жуда кўп очиб ўрганилган ва ўрганиш ишлари давом этмоқда. Буларга Афросиёб II, III, IV босқичлари (Шишкин, 1969; Шишкина, 1974),

Қулдортепа (Ставиский, Урманова, 1958), Кумушкент, Умараминтепа (Пугаченкова, 1989), Кўктепанинг юқори қатламлари (Ширинов., Исомиддинов, 2002), Талли Барзу (Григорьев, 1946), Қўйтепа (Fabiana Raiano, 2014), Оқтепа ва бошқа ёдгорликларни айтишимиз мумкин.

Бу ҳудуднинг қадимги, антик давр кулоллик идишларини ўрганишда Афросиёб, Кумушкент, Кўктепанинг юқори қатламлари эталон намуна бўлиб хизмат қилади. Оқтепа кулоллик идишларини таснифлашда тўртинчи ва бешинчи стратиграфик қатламдан олинган идишлар, сопол мажмуаси ва бошқа идиш парчалари бир-биридан сезиларли даражада фарқ қилмайди. Уларда кўплаб, қизил, жигарранг ангобли сопол парчалари мавжуд, баъзан эса қора ангобдаги кулоллик буюмлар ҳам учрайди.

**Кўзалар.** Кулоллик идишлари орасида сон жиҳатидан кўп учрайдиган кулоллик идишлар сирасига киради. Улардан хўжалик ишларида, ошхона, ўчоқ бошида ва бошқа суюқлик, ичимлик сақлашда, ишлатишда маҳсулотлардан фойдаланишда ишлатилган. Шунингдек, сув сақлашда хум ва катта ҳажмли кўзалардан, уни ташишда ўртача ҳажмли кўзалардан яъни обкўзалардан, сувдан фойдаланишда эса кичик ҳажмли кўзалардан обдаста, офтобалардан фойдаланилган (Пардаев, 1998).

Кўзаларнинг аксарияти синиқ парчаларидан иборат бўлиб, улар ўз шакл тузилиши, ўлчамлари ва уларнинг фойдаланишига қараб тўрт тоифага бўлинади.

-тоифани тор бўғизли, калта бўйинли, баъзи ҳолларда узун бўйинли, тана тузилиши ноксимон кўринишдаги кичик ҳажмли кўзалар ташкил этади. Уларнинг гардиши тик, хиёл ташқарига қайрилган, гардиш боши учли, баъзилари ташқарига қайрилган, баъзан тўмтоқ, тўғри тўртбурчаксимон ҳолатда (1-расм. 1).

2-тоифа биринчи тоифа кўзаларини такрорласада, фарқли жиҳатлари бор. Улар кенг бўғизли, узун бўйинли, тана тузилиши овалсимон, чўзиқ кўринишдаги ўртача ҳажмдаги кўзалар ташкил этади. Уларнинг гардиши 14 см.дан, 17 см.гача бўлган кўзалардир. Хамири соз тупроқдан, кулоллик чархида тайёрланган, устки томонига силлиқланиб пардоз берилган, қизил, жигарранг, қўнғирранг ангоб берилган (2-расм). **Косалар.** Бу турдаги идишлар тўғридан-тўғри ошхона идишлари бўлиб, овқатланиш билан боғлиқдир. Косалар



***1 расм.*** *Кўзалар*

ўз фойдаланиш хусусиятига, шакл ва ўлчамларига қараб олти тоифага бўлинади.

1-тоифа идишлари паймонасимон косалар киради. Бундай кулоллик идишларининг барчаси яхши сифатли қизғиш тупроқ лойидан кулоллик чархида тайёрланган. Уларнинг ички томони жигарранг, ташқи томони қора, баъзилари иккала томони ҳам қизил, оч сариқ ангоб билан бўялган ва пардозлаш жараёнида ялтиратилган, ташқи томонида горизонтал чизиқлар ҳосил бўлган. Паймонасимон косаларнинг деворлари юпқа, ён деворлари конуссимон шаклда юқорига кескин равишда кенгайиб борувчи, гардиш қисми ён деворидан кескин ажралиб туради. Гардиши тўғри, учи ўткир, тўмтоқ, ичкарига қайрилган бўлиб, ўлчами 15 см.ни ташкил этади (3-расм. 2). 2-тоифа косалар лойи ўртача даражада эланган, қизғиш тупроқ лойидан қўлда ясалган бўлиб, гардиши тик, тўғри, учи тўмтоқ, хиёл ичкарига қайрилган. Бу идишларнинг тана тузилиши ярим сферик шаклда, хумдонда бир текисда пиширилмаган, қуюқ кулранг, қизғиш ангоблар билан бўялган (3-расм. 3).



2 расм. Кўзалар

3-тоифага оид идишлар шакл ва ясалиши жиҳатидан иккинчи тоифа косаларини эслатади. Хамири пишиқ, кулоллик чархида ясалган, гардиши қуш тумшиғисимон ташқарига хиёл қайрилган, учи тўмтоқ, гардишининг ташқи лабига лентасимон тўғри чизиқ бўйлаб жигарранг ангоб берилган (3-расм. 4).4-тоифа, бу турдаги идишлар кулолик чархида ясалган. Лойи пишиқ, гардиши ва танаси қўшилиб кетган, хиёл ташқарига букилган, гардиш боши учли, оч қизил ангоб берилган (3-расм. 5).

5-тоифадаги косалар ўртача даражада эланган, қизғиш тупроқ лойдан кулоллик чархида ясалган бўлиб, гардиши тик, учи тўмтоқ, хиёл ташқарига қайрилган. Бу идишларнинг тана тузилиши ярим сферик шаклда, ички ва сиртки томонига қизил ангоб берилган (3-расм. 6).



*3 расм. Косалар*

**Пиёлалар.** Ушбу идишларнинг келиб чиқиши косалар билан боғлиқ. Юнон косаси “фиала” дан кейинчалик ўзбекча пиёла номи келиб чиққан (Исомиддинов, 1993). Пиёлалар дастурхон идишлари сирасига кириб, улардан турли хилдаги дамламалардан тайёрланган чой ва сув ичилган бўлиши мумкин. Улар тўрт нусхада қайд этилган бўлиб, уларни уч тоифага ажратиш мумкин.




4 расм. Пиёла ва финжонлар

1-тоифага гардиши тик, учи ўткир, ўлчами 8 см, хамири ўртача пишшиқликда, қизил ангоб берилган, ярим сферик шаклдаги пиёлаларни ташкил этади. (4-расм, 1).

2-тоифанинг гардиши тик, хиёл ташқарига қайрилган, учи тик, қўлда ишланган. Баъзи ҳолларда учи тўмтоқ, қўлда осон ишлаш учун дастаси ёпиштирилган финжонларни ташкил этади (4-расм, 2-3).

3-тоифа идишлари паймонасимон косаларнинг мўъжаз нусхаси бўлиб такрорланади. Гардиши тик, учи ўткир, конуссимон, белидан кескин ичкарига қайрилган, хамири пишиқ, юзасига қизил ангоб берилган (4-расм, 4). Марказий Суғд аҳолиси Юнон-Бақтрия давлати таркибига кириши муносабати билан юнон маданияти, юнон ананалари маҳаллий халқ турмуш-тарзига кириб боради. Жумладан, сопол ишлаб чиқаришда ҳам катта ўзгаришлар юзага келади. Антик даврга оид Оқтепа кулолик идишларини ўрганиш натижасида шундай хулоса қилишимиз мумкинки, бу даврда идишларнинг турлари, салмоғи кенгайиши билан биргаликда, ишланиш технологиясида ҳам катта ўзгаришлар юзага келади. Бу айниқса дастурхон ва шоҳона идишларини юксак дид ва маҳорат билан ишланганлигини, бошқа давр (антик давргача бўлган) идишларидан, эстетик гўзаллиги билан ажралиб туради.

Кейинги йилларда Суғднинг антик ва илк ўрта асрлар шаҳар ва қишлоқ маконларида олиб борилган кенг қамровли археологик ишлар натижасида қўлга киритилган кулоллик идишларини ўрганиш асосида, кулоллик ҳунармандчилиги идишлари таҳлил қилиниб, уларни бир тизимга солиш ҳозирги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Fabiana Raiano Study on the Ceramic Materials (The archaeological Project in the Samarkand area (Sogdiana)excavations at Kojtepa), (2008-2012) Samarkand-Napoli 2014. 247-315.
2. *Григорьев Г.В.* Тали Барзу как памят ник домусульманского Согда // КСИИМК. Вып. XIII. – М. –Л., 1946. С. 96-103.
3. *Исомиддинов М.* Сополга бит илган т арих. Тошкент . “ФАН”, 1993. 29 бет.
4. *Пардаев М.Ҳ, Пардаев А.Ҳ* Жиззах во-асининг IV-VI асрлардаги кулоллик идишлари // ИМКУ вып. 29 Самарқанд. 1998. 64 бет.
5. *Пугаченкова Г.А.* Древност и Мианкаля. Ташкент : «ФАН», 1989. С. 40-65.
6. *Ставиский Б.Я., Урманова М.К.* Городище Кулдор-тепе (Работы 1955 г.) // СА. №1. – М., 1958.
7. Ширинов Т.Ш, Исомиддинов М.Х. Кўна Самарқанд археологияси // Самарқанд, 2002. 41 бет.
8. *Шишкин В. А.* К ист ории археологического изучения Самарканда и его крестностей // Афрасиаб вып 1. Ташкент, 1969. С. 89.
9. *Шишкина Г. В*. Керамика конца IV—II вв. до.н.э. (Афрасиаб II) // Афрасиаб вып 3. Ташкент, 1974. С. 49.

**А.Ш. Умаров**
*Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети*
*Таянч докторанти*
*komarovanvar88@gmail.com*

# XIX АСР ОХИРИ ВА XX АСР БОШЛАРИДА НУРОТА ТУРКМАНЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.

Этноснинг маълум бирликларга бўлиниши жаҳон халқлари шаклланишида кўп учрайдиган ходисалардан ҳисобланади. Бу ҳолат ўзбек халқининг шаклланишида ҳам мавжуд. Ўзбекларда 92 та уруғнинг учраши мазкур ходиса билан изоҳланади. Ўзбек уруғларининг ҳар бири узоқ ва ўзига хос тарихга эга эканлиги боис, мазкур уруғларнинг таркиби, этник тарихи масалалари кўплаб элшунос олимларнинг тадқиқот мавзуларидан бири бўлиб келмоқда. Мана шундай йирик уруғлардан бири Нурота тукманлари ҳисобланади.

Нурота туркманлари тарихда Қизилқумдан жанубда чўл ва даштлар воҳалар билан аралаш жойлашиб, уларнинг асосий аҳолиси Дашти Қипчоқдан чиққан ярим кўчманчи турмуш тарзига ўтган ўзбек уруғ-қабилалари бўлган. XIX аср охири-XX асрнинг бошларида икки дарё оралиғининг ички дашт чўлларида туркманлар, қозоқлар, қирғизлар, кўп сонли ўзбек аҳолиси орасида “оролчалар” сингари жойлашган. Шу сабабдан бу халқларнинг барчаси ўзбеклар билан аралашишнинг у ёки бу босқичида бўлган. Аралашиш жараёнларига ғарбда-туркманлар, шимолда-қозоқлар, шарқда-қирғизлар ва тожиклар, уйғурлар тортилган. Ассимиляция давомида кўп сонли ўзбеклар анъаналари, тили кенг ўзлаштирилсада, туркманлар, тожиклар, қозоқлар ва бошқа этнослар вакиллари ўз этник онги, этнонимини сақлаб келмоқда. Нурота воҳасидаги тожиклар, ўзбек-туркманлари бунга мисол бўла олади. Нурота туркманларининг жойлашиш ҳудуди XX асрнинг 20-йилларида Нурота туманидан четга чиқиб, Зарафшон дарёсининг ўрта оқимидан (Кармана-Жиззах) Қизилқумгача бўлган тоғолди кенгликларни қамраб олган. Бу жойларда шимоли-шарқдан жануби-ғарбга томон деярли тўғри чизиқлар шаклида учта: Нурота, Оқтоғ, Қоратоғлар жойлашган. Биринчиси Қизилқум чўли бўйлаб ўтиб, (энг баланд нуқтаси 2169 м.) фақат воҳани эмас, бутун Зарафшон воҳасини шимолий совуқ оқимлардан сақлаб туради (Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2003 420-б.).

Тарихий статистик маълумотларга қараганда, Оқтоғ ва Қоратоғ оралиғидаги қишлоқларда XX асрнинг биринчи чорагида (1925 йилгача) Нурота туркманларидан 30-35 минг киши яшаган (Мошкова, 1950 с. 155-159.).

Ўзбек-туркманлар XX асрнинг ўрталаригача қишлоқларда зич яшаб, 2 та йирик уруғ-жамоа уюшмаси "олти ота қозоёқли" ва "беш ота манғишлов"га бўлинган. Олти ота қозоёқлилар: ойтамғали, қўштамғали, қонжиғали, бўғажили, қозоёқлиларга бўлинган. Уларнинг ҳар бири яна 6 тадан кичик уруғ-жамоаларига бўлиниб "24 ота туркманлилар", деб аталади.

Иккинчи этник гуруҳга кирган уруғ-жамоадагилар "беш ота манғишлов"лар "чиликли", "қуниш", "анна", "сиртсулув", "қизил", "боғожат" қавмларига бўлинган. Улар аксари Нурота тоғлари атрофидаги Жўш, Чуя, Қўшработ, Қўрғон, Пчот, Ажрим, Пангот, Қовунчи, Зарбанд, Оқтепа, Майдонсой ва яна кўплаб қишлоқларда яшайдилар. "Олти ота қозоёқли"лар ёки тамғали туркманлар Нурота воҳасининг жануби-ғарбий қисмидан то Қўйтошгача, Қувкалла, Гараша, Хўроб, Илонли, Қорабдал, Накрут, Эшмоқсоқ, Гулчамбар, Болғали, Жарбулоқ, Кўса, Чағишмон (Сағишмон), Ғужумсой, Сафарота ва яна бошқа қишлоқларда жойлашганлар (Мусаев, 2005 Б-71).

Туркман-жузлар ҳар бири саккизтадан уруғ жамоага бўлинган. Вахтамғалилар: қозоёқли, кўзтамғали, кесовли, болғали, қозоқ, жариқбош, алифли, ботеш, жилонтамғалилар, потас, қарға, юрга (юрчи), эгачи, болохўр, кўса, тароқли, яс (ясси) уруғ жамоаларини ташкил этган (Дала этнографик маълумотлар. Қўшробод тумани 2023 й.).

Этнолог Ф. Толиповнинг ёзишича, 1976 йили Собиқ Иттифоқ Фанлар академиясининг Н.Н. Миклухо-Маклай номидаги антропология ва этнография институти, Туркманистон ФА нинг Ш. Ботиров номидаги тарих институти билан ҳамкорликда Нурота ўзбек-туркманларининг этногенези ва антропологик (ирқий) типини аниқлаш мақсадида махсус экспедиция уюштиради.

Экспедиция аъзоларининг асосий қисми Нурота туркманлари дастлаб ўтроқлашган: Жўш, Чуя, Қўшработ, Навкат қишлоқларида, шунингдек, Оқтош-Чашма қишлоғи ("Ғазғон" давлат хўжалигида) бўладилар. Кичикроқ гуруҳ тоғнинг жануби ва жануби-шарқида жойлашган Қувкалла ҳамда Гараша қишлоқларида яшайдиган ўзбек-туркманлар орасида тадқиқотлар олиб боради.

Тадқиқотлар натижаларига кўра, Нурота туркманлари Каспийбўйи туркманлари билан этногенетик жиҳатдан ягона илдизга эга бўлишлари билан бирга, уларнинг юз, тана тузилишлари, ҳатто, тишларининг тузилишларида ҳам ўхшашлик кўзга ташланиши таъкидланган. Ҳар икки ҳудуд аҳолиси танасининг ранги, юз ва кўз тузилишидаги ҳозирги антропологик фарқлар ва ўзгаришларига эса узоқ йиллар

мобайнидаги табиий-географик муҳит ҳамда иқлимнинг таъсири катта бўлганлиги олимлар томонидан қайд этилди.Гараша қишлоғида ўзбек-туркманларининг "бўғажили" этник жамоаси таркибидаги: "жовбосар", "бузоқ", "мехоям", "қозоқ", "гирра" уруғлари яшайди. Тадқиқотчиларнинг фикрича, бу этник жамоалар аждодлари дастлаб Нурота тоғ тизмасининг марказий қисмида, яъни Оқтепа, Қўшработ, Жўш қишлоқларида яшашган.

Ўзбек-туркманларини Гараша қишлоғига келиб жойлашиши борасида икки хил фикр мавжуд: биринчиси – ўзбек-туркманлар табиий шароити қулай кенг яйловлар, сув манбалари илинжида узоқ муддат мобайнида, босқичма-босқич кўчиб келиб жойлашганлар. Иккинчиси – қишлоқдаги хўжалар ташқи душманлар – ёвдан ҳимоя қилиш учун ўзбек- туркманларини Оқтепа, Қўшработдан махсус кўчириб келтирганлар.

Дастлаб қишлоқ ҳудудига қўштамғали ва ойтамғали уруғ вакиллари келиб ўрнашган. Улар маълум вақт яшаганларидан сўнг Қорабдал қишлоғига кўчиб ўтадилар. Маълумотларга қараганда, ўзбек-туркманларини Гарашадан Қорабдалга кўчиб ўтишларига эшонлар ва ўзбек-туркманлар ўртасидаги келишмовчилик сабаб бўлган. Оқтепа, Қўшработ ва Қувкалладан бекжиғалилар: жовбосар, бузов, гирра, қозоқ мехоям, жингичка уруғлари вакиллари Гарашага келиб жойлашган. Кўчишга сабаб аҳоли сонининг ўсиши, яйлов ва сув манбалари учун курашнинг кучайиши, этник можаролар бўлгани эҳтимол (Толипов, 2008 18-20 б.).

Ўзбеклар таркибидаги туркман-юз эли тарихининг илмий жихатдан ўрганишни XIX асрниг иккинчи ярмидан, В.В. Радлов, А.Д. Гребёнкин, А.Хорошхинлар бошлаб бердилар.

Нурота беклигида яшаган туркманлар ҳақида илк бор немис олими туркшунос В.В. Радлов 1868 йили ёзган (Радлов, 1989 с. 162-166.).

В.В. Радлов Нурота торлигидаги Қоратоғ тизмасининг жануби-ғарбий этакларида жойлашган Оқчоп қишлоғидан бошлаб, шарққа томон сафар қилиб, то Қорабдал қишлоғигача бўлган қарийиб 100-150 километрлик масофада жойлашган қишлоқларнинг этник таркиби, хўжалиги, суғориш тизими ва қишлоқларга олиб борувчи йўлларни ўрганди.В.В. Радловнинг фикрича, Бухоро амирлиги худудига кирувчи Нурота беклигида яшовчи ва ўзини туркман, деб атовчи гуруҳ; учта катта уруғга- қозоёқли, қонжиғали, бўғажилига бўлинади ва улар Зарафшон воҳасидаги бошқа ахоли сингари ўтроқ яшайдилар (Радлов, 1880. С. 3,9, 51, 55, 63, 64.).

В.В. Радловнинг Нурота тоғ олди қишлоқларига қилган бу сафари 1868 йилда

Зарафшон вохасининг бир қисми Самарканд шахри билан биргаликда Россия империяси бошқарувига ўтгач юз берган ва бу ҳудуд Зарафшон округи, деб аталган.

Шу округнинг Каттақўрғон уездида яшовчи туркманларнинг баъзи қабила ва уруғларини А.Д. Гребенкин 1872 йилда Москвада нашр қилинган махсус тўпламда “Рус Туркистонидаги ўзбеклар” номли маколасида (аниқроғи хисоботида) баён қилади. Бунда ўзбекнинг Каттақўрғон уездида яшовчи ва ўзларини туркман, деб атовчи эл таркибидаги бўгажали қабиласи ўрда, яссситовон, чисғош, кўзтамғали, жилонтамғали, жомонтуркман, жодир уруғларидан, қонжиғали қабиласи ийитбўрбой, қийқим қабиласидан, ойтамғали қабиласидан тўпор ва сарт уруғларидан ташкил топган. Қозоёқли қабиласининг таркибига қизил-жодрақ уруғини киритиб, бу уруғнинг қоракиса, борoқ, читмас, қўштамғали номли тўртта тармоқ уруқ (майда урук) қа бўлинишини кўрсатган (Гребенкин, 1872 С. 105-108.).

В.В. Радлов, А.Д. Гребенкинлар билан деярли бир даврда Туркистонга келиб, ўзбекнинг туркман-юз элини этнографик жиҳатдан ўрганган тадқиқотчилардан яна бири А. Хорошхиндир. У 1876 йилда Нурота тизма тоғининг шимолий-шарқий ёнбағирларида яшовчи ва ўзларини туркман деб атовчи аҳолининг айрим уруғлари хақида қисқа маълумотлар ёзиб қолдирган. Бу маълумотлар ичида туркманларнинг XII аср ўрталарида Сирдарёнинг ўнг қирғоғидан, козирги Туркистон шахри атрофидан кўчиб келиш сабабларини билдирувчи қизиқ бир тарихий ривоят хам бор.

Унда айтилишича, XII аср ўрталарида туркманларга оға-ини Оқмон ва Қорамонлар бийлик килган. Улар Туркистон (Ясси) тоғ атрофида чорвачилик билан машғул бўлиб кўчиб юришган. Бирок, тариқат пирларидан бири бўлган Қул Хўжа Ахмад Яссавий билан улар ўртасида ўғирланган от туфайли низо чиққач, туркман элининг бийлари Оқман ва Қорамонлар Туркистонни ташлаб Каспий буйидаги Болқон буғозига кўчишга мажбур бўлган. Уларнинг кўчиш йўли Мовароуннаҳр орқали ўтган бўлиб, Нурота тоғлигидан ўтишда уларнинг бир қисми бу ерларда колиб кетади (Хорошхин, 1876 С. 246,399, 519).

Подшо Россияси даврида Туркистонга юборилгап рус тадқиқотчиларидан яна бири М.С. Андреев бўлиб, у 1916 йилда Нурота туманига, униег шимоли-шарқий ҳамда шимол (терскай) томонидаги қишлоқларга сафар қилган. Сафардан мақсад — ўз кўзи билан кўрган қишлоқларни, аҳоли сонини, сойларни, кечувларни, йўлларни, булоқ сувларини географик картага тушириш, аҳолининг этник таркибини, гуруҳларга бўлинишини аниқлаш эди ва бу унинг хисоботларида қайд этилган (Андреев, 1923 С-12). 1917 йилдан кейин кўп ўтмасдан Туркистонга М.С. Андреев ва И.И. Зарубинлар

юборилди. Булар олдига хам Туркистон халқларини этник-ўзаро яқинлик, лингвистик, тилдаги тафовутлар ва маданий жихатдан ўрганиш мақсад қилинган эди.

Шўролар даврида ўзбек-туркманларни илк тадқиқ этилиши 1921 йили этнолог М.С.Андреев томонидан ташкил қилинган Самарқанд экспедицияси доирасида бошланган. Олим ўз ҳисоботида Самарқанд вилоятида яшаган туркманлар ўзбекларнинг таъсирига шунчалик кучли учраганки, улар ўзларини ўзбек қабилаларидан бири, деб ёзади. Айни пайтда туркманларни ўзбеклардан жисмоний хусусиятлари, шевалари, холи гилам тўқишлари билан фарқланишларига ҳам эътибор қаратади (Андреев, 1924).

Россияси мустамлакачиларининг олдидаги энг муҳим бўлган стратегик муаммо — ягона (яхлит) Туркистонни миллий этник гурухларга бўлиб ташлаб, улар ўртасида доимий душманлик муносабатларини кучайтиришга олиб келадиган восита — давлат чегараларини ўтказиш эди. Бироқ, бу муаммо Туркистон халқларининг тарихан шаклланган миллий таркибини, урф-одатларини, хар бир этник бирликнинг тарқалиш чегараларини аниқлашни талаб қилар эди. Ушбу муаммоларни хал қилиш мақсадида 1920-1922 йиллар давомида Петроград ва Москва шаҳарларидан ҳарбий инженерлар, топограф-картографлар, геолог, биолог, географ, тарихчи, этнограф, шарқшунос, диалектолог-тилшунос, антрополог ва бошқа бир қанча мутахассислар, тадқиқотчилар партия кўрсатмаси бплан Туркистонга юборилди ва Турккомиссия таркибига киритилди.

Турккомиссия бу ишни чўзмаслик мақсадида, яхлит Туркистонни парчалашнинг, бўлиб ташлашнинг қўйидаги режасини лойихага қўшимча қилди:

1) Туркистонни Ўзбекия, Қирғизия, Туркманияга бўлиб юборувчи этнографик карта тузиш топширилсин!

2) Бу уч қисмга бўлинишнинг ёки қушилишнинг шарт-шароитлари пухта аниқлансин! 13 июнь 1920 й.

Партиянинг махсус топшириғи билан Турккомиссия таркибида Туркистонга юборилганлар орасида М.С. Андреев ва И.И. Зарубинлар хам бор эди. М.С. Андреев 1921 йилда Самарқанд вилоятига сафар қилган ва ўзларини ўзбекнинг туркман элиданмиз, деб ҳисобловчи аҳолининг қишлоқларини бориб кўриб, уларнинг қандай уруғларга мансуб эканлигини ёзиб қолдирган (Андреев, 1922 С. 125-126).

И.И. Зарубин ҳам Самарқанд вилоятининг аҳолиси, уларнинг сони, этник таркиби, хар бир этник гуруҳларнинг тарқалиш чегараларини аниқлаш мақсадида Турккомиссия таркибида иш олиб борди. Унинг 1920-1924 йилларда Самарканд

вилоятида олиб борган илмий текишриш ишларининг хисоботи Ленинградда 1926 йилда китоб бўлиб босилиб чиқди. У ўзининг ушбу асарида, ўзбекнинг туркманларини ўрганган бошқа тадқиқотчилар орасида биринчи бўлиб, ўзбек туркманига нисбатан «нурота туркмани» атамасини қўллайди (Зарубин, 1926 С.16-18).

Бу атамани у Жиззах уездининг Синтоб волостида яшовчи туркманларга нисбатан ишлатган. Унинг фикрича, Нурота туркманлари ўзбекларга тил ва турмуш тарзи жихатидан яқин бўлса-да, аслида мутлоқа мустақил этнографик гуруҳдир. Бу асарда яна уларнинг келиб чиқишлари хақидаги бир ривоятни, хамда нурота туркманлари билан каспийбуйи туркманларининг келиб чиқишлик жиҳатдан бир-бирлари билан қон-қардош эканликлари ҳақидаги маълумотларни, ҳам учратиш мумкин.

Нурота туркманлари уруғ-қабила тизимлари ва жойлашувлари ҳақида 1920–1924 йиллардаги Бутунроссия аҳоли рўйхатлари маълумотлар беради. Ўрта Осиёни миллий ҳудудий районлаштириш комиссияси доирасидаги аҳоли ҳақидаги боб муаллифи И.П. Магидович ўзбек-туркманларни асл туркманлардан келиб чиққанига шубҳа билан қараган, сабаби рўйхатга олиш пайтида Нурота туркманларининг барчаси она тили, деб ўзбек тилини кўрсатганлар. Миллати ҳақидаги саволга эса ўзбек-туркманлар, деб жавоб берганлар. Магидовичнинг шубҳасини Нурота ва Каспийорти туркманлари айрим уруғ қабилалари номлари бир хиллиги ҳам йўқота олмайди, чунки бу номлар айрим ўзбек қабилаларида ҳам учрайди.

Магидовичнинг ёзишича, ўзбек-туркман номли унчалик катта бўлмаган туркман ўзаги атрофида янги қабила иттифоқи сифатида шаклланиб, унинг тарихий тақдири туркман қабилалариникидан ўзгача кечган (Материалы по районированию Средней Азии, 1926 С. 231).

Шундай қилиб, ўзбек туркманларининг уруғлари, уларнинг тили, шеваси, урф-одатлари, тарқалиш чегаралари, қишлоқлари, шу қишлоқларга олиб борадиган йўллар, кечувлар, сувлар, булоқлар, хўжалик ҳаёти хақидаги маълумотларни ёзиб қолдирган беш тадқиқотчи маълумотлари фақат илмий мақсадни кўзлаб эмас, балки айрим ғаразли мақсадларда фойдаланиш учун ҳам қилинган. Гарчи булар Туркистонни бўлиб, парчалаб ташлаш, маъмурий топшириқни бажариш, ҳисобот учун тўпланган маълумотлар бўлсада, бироқ фан учун зарур маълумотларни учратамиз. Унда, Нурота туркманларининг XIX аср охири ва XX аср бошларидаги этник таркиби қисман бўлсада, ўз аксини топган.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. *Андреев М.С.* Из поездки в 1916 г. в Нурат инские горы и прилегающую к ним часть Кзыл-Кумов-Восток. №1(5). Ташкент. 1923.
2. *Андреев М.С.* Некот орые результ ат ы эт нографической экспедиции в Самаркандскую область в 1921 г. – ИторГО, т. XVII, 1924.
3. *Андреев М.С.* Некот орые результ ат ы эт нографической экспедиции в Самаркандскую область в 1921 (Доложено в заседании Турк. отд. Р.Г.О. 27/I - 1922 г.)
4. *Гребенкин А.Д.* Тадж ики. Узбеки. Мелкие народност и Заравшанского округа // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу Политехнической выставки. Вып. V. Статьи по этнографии, технике, сельскому хозяйству и естественной истории. М., 1872// узбеки русский туркестан сборник изданный по поводу политической выставки. Вып. V М., 1872.
5. *Зарубин И.И.* Население Самаркандской област и, его численност ь, эт нографический состав и территориальное распределение // Тр. Комиссии по изучению племенного состава населения СССР и сопредельных стран. Л., 1926. Вып. 10.
6. Материалы по районированию Средней Азии. кн. 1. Территория и раселения Бухары и Хорезма. ч.1. Ташкент. 1926.
7. *Мошкова В.Г.* Некот орые общие сведения о родопленном сост авы узбеков, каракалпаков и туркмен // Труды института археолгии и этнографии. М. 1950. Вып.2.
8. Мусаев Н. Нурота тоғлари ёнбағирлари аҳолисининг этник таркибига оид баъзи мулохазалар.//Ўзбекистонда этнодемографик жараёнлар Т., 2005.
9. *Радлов В.В.* Из Сибири. О населении Зерафшанской долины. –М.., 1989
10. *Радлов В.В.* Средняя Зерафшанская долина // Записки Императ орского Русского географического общества по отделению этнографии. Т. 6. СПб, 1880.
11. *Толипов Ф.* Мозийга бўйлашган маскан. –Т.: Ниҳол. 2008.
12. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. т.6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриѐти. 2003
13. *Хорошхин А.П.* Сборник ст ат ей касающихся до Туркест анского края. СПб, 1876.
14. Дала этнографик маълумотлар. Қўшробод тумани 2023 й.

**С. Т.Нурматов**
Магистрант II курса Самаркандского государственного университета
SokhibNur@yandex.com

# РОЛЬ МЕСТНОЙ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ РЕГИОНА

До недавних пор считалось, что сложение среднеазиатской археологии связано с периодом присоединения региона к Российской империи, а соответственно основная роль в становлении археологической науки отводилась, большей частью, русским исследователям. Не приуменьшая заслуг наших учителей-наставников, остановимся на роли местной интеллигенции в процессе изучения древностей Средней Азии.

После присоединения Средней Азии к Российской империи, в регионе происходит множество событий, в которых одним из положительных эффектов можно выделить тесное общение передовых представителей узбекского народа с деятелями мировой археологической науки. Первые упоминания об археологических собраниях, составленных местными жителями Самарканда, относятся к 80 годам XIX века. Н.И. Веселовский в статье «Существуют ли в Средней Азии подделки древностей» писал: – «Некоторые туземцы (купцы или ювелеры) еще по старой памяти продолжают собирать древности в надежде сбыть их кому-нибудь из русских (я приобрел в Самарканде три коллекции монет и разных других древностей)» (Императорская археологическая комиссия, 2009 стр. 169). Археолог П. Уварова, в 1890 г. посетившая Туркестанский край и побывавшая в Самарканде, так же сообщает о наличии археологических собраний у местных жителей, которые, как полагала Уварова «собирают их ради курьеза, иногда торгуют ими, но в основном хранят, не умея разобраться и на самом деле, не интересуясь ими». Однако имеются несколько случаев, когда частные коллекционеры древностей добровольно передавали их музеям (Gorshenina, 2004 стр. 65). Это служит ярким примером заинтересованности владельцев частных собраний в развитии музейного дела, исторического знания местного населения, а также их активное участие в общественной жизни Туркестана. Д.И. Эварницкий в небольшой заметке: «К вопросу об учреждении в Самарканде музея древностей» называет имя одного из составителей археологического собрания Гафиза Самаркандского (умершего 1892 году). Один из первых русских коллекционеров Самарканда – капитан Л.С. Барщевский приобрел коллекцию Гафиза у его наследников.

Стараниями русского офицера состав коллекции был значительно приумножен, в частности за счет находок предметов древности в пределах Восточной Бухары и особенно за счет находок, сделанных самим Барщевским на городище Афрасиаб. Далее Д.И. Эварницкий свидетельствует, что в составе обширной коллекции Барщевского находились сотни керамических фрагментов, изделия из стекла и бронзы, обломки оссуариев с украшениями, до 500 терракот и почти 1000 монет. Конечная судьба коллекции Гафиза-Барщевского была очень печальной. Нуждавшийся в деньгах Барщевский вынужден был продать коллекцию французу из Лиона некоему Манжини, но небольшая ее часть была куплена купцом Решетниковым из Москвы, которая в 1896 году была передана Самаркандскому статистическому комитету, подготавливающему открытие музея в городе.

Наиболее значительными и интересными фигурами собирателей и любителей старины следует считать самаркандцев Мирза Барата, Мирза Бухари и ташкентца Акрама Аскарова. На этих выдающихся сынах узбекской земли остановимся поподробнее. О Мирзе Барате очень интересные сведения сообщает писатель В. В. Крестовский. В своей книге «В гостях у эмира Бухарского», он рассказывает, что «почтенный человек, некто Мирза Барат, сын муллы Косима, каллиграф и художник, составляет альбомы куфических, сульских и магилинских надписей, украшающих фронтоны, купоны и минары самаркандских храмов». Затем Крестовский перечисляет памятники, с которых Мирза Барат «срисовывал с точным соблюдением красок» все имеющиеся на них надписи. Среди этих памятников медресе Шердор, мечеть Биби-ханым, надписи с могильных плит и стен мавзолеев Шах-и-Зинда и надпись на надгробии Амир Тимура в мавзолее Гур-Эмир. Кроме того, им были зарисованы «обе надписи на скале Тамерлановских ворот в Джиззакском ущелье». Но все это, - заключает Крестовский, - «только еще начало почтенного труда, предпринятого Мирза Баратом» (Крестовский, 1887 стр. 71). Научные интересы Мирзы Барата не ограничивались фиксацией убранства памятников архитектуры Самарканда. В одной из своих работ Н.И. Веселовский сообщает, что в 80-х годах Мирза Барат перевел с таджикского на узбекский язык известное сочинение Абу-Тазира ходжи «Самария». Этот перевод опубликовал в Ташкенте в 1884 году Н.П. Остроумов (Лунин, 1958 стр. 30).По этим ценным, зачастую справочным данным, мы можем судить о Мирзе Барате как об энтузиасте и ценителе памятников самаркандской старины, как о человеке высокой культуры и патриоте Отечества.

Большим поклонником исторических поделок был Мирза Бухари, купец из

Самарканда. Он был хорошим коммерсантом, имел ткацкую фабрику что давало ему возможность приобретать исторические артефакты. Вскоре после знакомства с Н.И. Веселовским в 1885 году, о нем узнали в научных кругах Российской империи.

В октябре 1887 года он принял участие в сельскохозяйственной выставке в городе Харькове, после которого он путешествовал по Москве и Санкт-Петербургу - главным городам Российской империи. Здесь он лично познакомился с высшими научно-общественными кругами, удостоился приема у Императора Всероссийского Александра III. (Остроумов, 1896 стр. 242). Собрание Мирзы Бухари было большим, он несколько раз передавал часть своих артефактов музеям. В 1883 году любитель древностей сделал самое большое для тех времен пожертвование, он передал Ташкентскому музею солидное количество историко-археологических предметов: две золотые монеты, 10 бактрийских серебрянных монет, 5 куфических серебрянных монет, 2 серебрянные монеты, принадлежащие царю Васудеве, 15 Индийских или древнеперсидских монет, 4 арабские серебрянные монеты; 96 медных монет, 5 золотых колец, 31 печать и др. (Gorshenina, 2004 стр. 65).

В 1888 году на хранение в Императорский Эрмитаж поступила часть коллекции, которая состояла из глиняных статуэток, сосудов, светильников, мелких поделок, медной узорчатой сетки, бронзовых светильников и курильница (Императорская археологическая комиссия, 2009 стр. 810). Так установилась тесная связь между Эрмитажем и крупным среднеазиатским собирателем антиквариатов.

Другой значительной фигурой среди первых узбекских любителей археологии был ученик Н.И. Веселовского Акрам Палван Аскаров. Ученый, много сделавший для изучения истории культуры Средней Азии, сообщает интересные биографические сведения о личности Акрама Аскарова. Из работы Н.И. Веселовского «Киргизский рассказ о русских завоеваниях в Туркестанском крае», опубликованном в 1894 году в Санкт-Петербурге, мы узнаем, что Акрам Палван был уроженцем кишлака Ашту в Ферганской долине и позднее в силу нежелания быть барабанщиком Худаяр-хана, сбежал в Ташкент, который уже был в составе Российской империи. Прозвище «палван» получил он из-за своего громадного роста, силы и тучности. Далее Н.И. Веселовский сообщает, что он явился к нему с предложением «указать места, интересные в археологическом отношении». После этого Аскаров сопровождает Н.И. Веселовского в его поездках по Ташкенту, Бухаре и Ферганской долине. В своих заметках ученый отмечал, что (..) Аскаров был очень способным человеком и быстро воспринимал информацию. Так же он сообщает, что его сильно заинтересовала археологическая наука,

в особенности отметил его интерес к древним монетам. Сопровождая крупного ученого в поездках по Средней Азии, Аскаров овладел навыками опытного археолога. Одина из них – это способность, будучи неграмотным, быстро и очень точно определять город, монетный двор и год чеканки монет. Так же (..) Аскаров собрал большую коллекцию предметов древности, что подтверждает его наставник Н.И. Веселовский (Лунин, 1979 стр. 48).

О крае деятельности (..) Аскарова стало известно в Археологическом обществе в Петербурге. В ознаменовании услуг, оказанных Н.И. Веселовскому во время его путешествий по Туркестану, Аскаров 1887 году был награжден археологическим обществом малой серебряной медалью «За услуги, оказанные Археологии».

Как нам известно, Аскарову удалось показать свое собрание – на сельскохозяйственной выставке 1890 года, после чего оно стало широко известно в научных кругах Ташкента. После смерти Аскарова в октябре 1891 года директор Ташкентской гимназии обратился с письмом в канцелярию Туркестанского генерал-губернатора. В этом письме говорилось следующее: «Опасаясь, что собранный Аскаровым археологический материал, поступил в раздел между его наследниками, пропадут для науки, и позволяю себе беспокоить Вас с просьбой доложить Главному Начальнику Края о смерти Аскарова и об угрожающей его археологической коллекции опасности и просить о сохранении археологических предметов Аскарова впредь до дальнейших распоряжений». 1 ноября в Самаркандской газете «Окраина» была напечатана заметка полковника Н.С. Лыкошина, в которой впервые приводятся сведения о размерах археологической нумизматической коллекции Аскарова: 1) книги на мусульманском языке 34; 2) археологических предметов самых разнообразных 763; 3) монеты медные 14,858; 4) монеты серебрянные 1415; 5) монеты золотые 17 (Лунин, 1958 стр. 36).

Описать коллекцию Аскарова, было поручено археологу Д.И. Эварницкому, служившему в качестве чиновника особых поручений при Туркестанском генерал-губернаторе. В донесении от 26.07.1892 года на имя А.Б. Вревского, бывшего на тот момент генерал – губернатором Туркестана. Эварницкий сообщал, что из 42 оставшихся от собрания Аскарова рукописных книг (Н.С. Лыкошин указал 34 книги) 7 было приобретено для Ташкентской Публичной библиотеки. Кроме того, о начатой Эварницким работе по описании коллекции Аскарова сообщается в газете «Окраина» от 27 июля 1892 года.

В начале августа того же года Д.И. Эварницкий опубликовал в «Туркестанских ведомостях» заметку «Коллекции древностей Акрама Аскарова», в которой сообщалось,

что коллекция отправлена в Петербург на адрес Археологической комиссии. В заметке приводилась опись коллекции Аскарова, однако она во многом расходится с данными приведенными 1891 году Н.С. Лыкошиным. Сообщается, что археологическая коллекция включает «значительное собрание глиняных статуэток (прекраснейшее собрание изображений лиц, а иногда и всей фигуры богов и людей)». В заметке упоминаются ожерелья, камни, перстни, печати, серебрянные сосуды, серьги, кресты, подвески и амулеты, собранные Аскаровым. В заключении автор выражает сожаление о том, что покойник «не оставил нам никаких указаний, каким путем он пришел к мысли собирать древности в крае и как он собирал их» (Лунин, 1958 стр. 36).

Так как никаких данных о приобретении каких-либо вещей или монет для Ташкентского музея в деле не имеется, о дальнейшей судьбе столь значительного и интересного собрания известно лишь из газетных заметок, относящихся к 1912 году. В анонимной заметке под названием «Туземец – археолог» сообщалась, что собрания выдающегося собирателя редкостей, археолога Палванова (т.е Палвана Аскарова), находятся «у некоторых местных казиев, другая часть поступила к полковнику Н.С. Лыкошину, бывшему тогда полицмейстером туземной части города Ташкента». Несколько позже, онв той же газете, опроверг сообщение о том, что часть коллекции попала к нему. В заметке с возмущением было написано, что автор «никогда и не думал брать себе что-либо из собранных Акрам Палваном редкостей» (Чабров, 1957 стр. 147). Вероятно, все оставшиеся вещи попали в руки казиев. Такова печальная судьба значительной и интересной коллекции, собранной узбекским собирателем археологических и нумизматических редкостей А. Аскаровым.

Представленные выше сведения в общих чертах характеризуют первоначальный этап, начавшийся в конце XIX века в накоплении знаний по истории материальной культуры Средней Азии до образования Туркестанского кружка любителей археологии и начала его деятельности (Открытие Туркестанского кружка любителей археологии, 1895 стр. 4, 7). Как мы видим, накопление этих знаний и материалов осуществлялось, с одной стороны, учёными специалистами Петербурга, Москвы и иных научных центров, с другой – усилиями местных жителей: краеведов, любителей старины, коллекционеров. Тем самым подготавливалась почва для создания специализированной научно-краеведческой организации, какой и суждено было стать Туркестанскому кружку, открывшему своей деятельностью второй период в истории археологического изучения Туркестанского края. Таким образом, подытоживая результаты, следует отметить, что вклад местной интеллигенции в изучении прошлого и процесс становле-

ния археологической науки в Туркестане внушительна. Любители археологии в лице Акрама Аскарова, Гафиза Самаркандского, Мирза Бухари и Мирза Барата собрали большую коллекцию редких находок: монеты, книги и разнообразные археологические предметы.

Часть этих собраний сохранились и поступили в фонды хранения одного из крупнейших музеев мира – Государственного Эрмитажа, другая часть в музеи Самарканда и Ташкента. Первопроходцы среднеазиатской археологии, зарождающейся науки в регионе, с рвением начали диалог с научными кругами Российской империи, черпая из них много знаний, и в целом достигли больших успехов, что можно понять, по отзывам В.В. Бартольда и Н.И. Веселовского – знаменитых востоковедов-археологов своего времени. Несмотря на то, что некоторая часть собраний исчезла, даже по имеющимся в архивах данным виден масштаб работы проделанной нашими соотечественниками, по археологии и истории Отечества.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:


1. *Gorshenina S. R.* The Private Collections of Russian Turkestan. Berlin: изд. «Klaus Schwarz Verlag», 2004, 205 стр.
2. Открытие Туркестанского кружка любителей археологии. Ташкент: Типо-литография «бр. Порцевых», 1895. 16 стр.
3. *Веселовский Н. И.* Сущест вуют ли в Средней Азии подделки древност ей? Санкт-Петербург: изд. Имп. АН. 1886, 5 стр.
4. Императорская археологическая комиссия (1859-1917), Санкт-Петербург: изд. «Дмитрий Буланин», 2009, 1192 стр.
5. *Крестовский В. В.* В гост ях у эмира Бухарского. Санкт -Петербург: изд. А.С. Суворина, 1887, 374 стр.
6. *Лунин Б. В.* Из ист ории русского вост оковедения и археологии в Туркест ане. ТКЛА (1895-1917гг), Ташкент: изд. АН Уз ССР, 1958, 320 стр.
7. *Лунин Б. В.* Средняя Азия в научном наследии от ечест венного вост оковедения. Ташкент: изд. «Фан», 1979, 184 стр.
8. *Остроумов Н. П.* Сарт ы. Ташкент : Типо-литография «Ф. и Г. бр. Каменские», 1896, 274 стр.
9. *Чабров Г.* Узбеки – археологи дореволюционного Туркестана // Журнал «Звезда Востока», №1, 1957. 146 стр.

**Н.Ш. Кыдырбаева**
*Студенты 3-курса бакалавриата по специальности археология*

**Т.Х. Калмуратова**
*Каракалпакского государственного университета им. Бердаха*

# К ИСТОРИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ УСТЮРТА

Этнополитическая картина Северного Арало-Каспия в этот период хорошо обрисована секретарем посольства арабского халифата в Волжскую Булгарию Ахмедом ибн Фадланом, который в 922 г. посетил эти земли. По его словам, путь каравана в стране тюрок, т.е. Огузов, был небезопасным, так как последний, будучи неверным, состояли во вражде с Хорезмом. Выехав из Хорезма на Устюрт ранней весной, караван по неизбежной дороге проехал через северо-восточную часть плато и прибыл во второй половине марта к тюркам (Ковалевский. 1956. С. 123).

Другой сведения об Устюрте относятся к I половине XIV века. В 1333 году из Сарая (Низовья Волги) в Куня Ургенч прошел арабский путешественник Ибн Батута, а спустя 225 лет (1558 г.) английский купец Антонио Дженкинсон пересек плато от Мангышлака до озеро Сарыкамыш. Он был первым европейцем, наносившим на карту Устюрт. Но на ней отсутствовало еще даже Аральское море.

После путешествия Дженкинсона до Петровского периода наступает длительный перерыв в исследовании или в сборе сведений об Устюрте. Но известно и другое, что по плато пролегал караванный путь, соединяющий страны востока с Россией и народами, населяющими Поволжье и порою проходили крупные отряды с захватническими целями, о чем свидетельствует так называемый «Чертеж тушеванный разными красками», на котором сравнительно точно указаны географические объекты, находящиеся на территории Средней Азии.

В 1715 году князем Бековичем-Черкасским производятся съемка восточных берегов Каспийского моря, а на основании материалов, собранных посланцами, была составлена к этой карте среднеазиатская часть. Устюрт на ней обозначен надписью «степь пустая».

Первая русская вооруженная экспедиция, организованная по указанию Петра 1 и возглавляемая Александром Бековичем-Черкасским, в 1717 году пересекала Устюрт по линии колодцев - Сам, Белеули, Спуск Караумбет и достигала Хивы, но там обманным путём все члены экспедиции, превышавшей 1,5 тысячи человек, были

поголовно истреблены Хивинцами. После этого трагического случая, до второй половины XVIII века наступает третий перерыв в расширении сведений об Устюрте. Самарский купец Данил Рукавкин в 1753 году и врач Бланкеннагель в 1795 году прошли через Устюрт в Хиву и оставили путёвые записки. Но оба они дали очень мало сведений о пройденном пути.

Плато Устюрт как географический объект появляется только в конце XVII века. Если на карте, составленным С. Ремезовым, Устюрт обозначался как каменная степь без надписей, то на карте Дженкинсона здесь изображен верблюд с надписью рядом «Туркмении».

Первой экспедицией, оставившей сравнительно большой научный, особенно топографический, материал, является экспедиция Ф.Ф.Берга 1825 года. Участник ее доктор Э.А.Эверсманн впервые вел в научную литературу понятие «Устюрт». Но до недавнего времени ученые считали утерянными материалы маршрутной топографической съемки экспедиции и вместе с ними «Натурологический журнал» Эверсманна. Они были найдены в архивах только в 1962 году.

По этой причине профессор Н.Л.Корженевский считал, что «Г.С.Карелин, по-видимому, первый ввел в географическую литературу название Устюрт». Но к сожалению и Эверсманн в своих дневниках записью от 13 января 1826 года дал основание для другого неправильного толкования и написания данного названия, и оно долго бытовало в географической литературе.

«Взобравшись на берег, находимся на гладкой ровной, плоской возвышенности, по-киргизски называемой Устюрт, весьма привычное наименование, знаменующее возвышенность, от слова усть (высокий). Сему названию противополагают они «Астюрт», от слова «аст» (неизменность), под которым обыкновенно разумеют они южную, низкую землю, большею частью населению каракалпаками». А.Н.Левшин (1832): «Усть» - значить высокий, возвышенный, «Урт» - равнина. Подобное объяснение в 1851 г. повторялось А.И.Мукашевым.

Г.К.Конкашпаев (плоская возвышенность), Х.Х.Хасанов (плоская яйла или кыр), Э.М.Мурзаев (высокая страна) дают толкование ему как плоская возвышенность, плато. Русский вариант названия в форме Устюрт, происшедший от каракалпакского дословно «Устирт» означает «возвышенное», «приподнятое» (Уразалыев. 1991, С. 94-96).

Плато Устюрт - огромная каменистая пустыня занимает обширную территорию, расположенную между Каспием и Аралом. С древнейших времен он представляло

собой особую зону, где сталкивались интересы и судьбы различных племен, обитавших на Южном Урале и в Казахстане с одной стороны, Восточном Прикаспии - с другой. Согласно археологическим данным последних десятилетий этот регион был заселен человеком уже в эпоху палеолита и вовлечен в орбиту общего исторического процесса, протекающего на широких просторах Европы и Азии.

Между Аралом и Каспием лежит огромная каменистая пустыня, известная под названием плато Устюрт. Его границы довольно четко очерчиваются обрывами-чинками, местами достигающими 190 м высоты. Несколько неопределенна граница плато на юго-западе, здесь ее условно проводят по линии, соединяющей левый борт впадины Казахлы с мысом Кулангурлан на берегу залива Карабогазгол.

Неопределенны границы и на северо-востоке, здесь они условно проходят по цепи слабо выраженных чинков, образующих борт депрессии, в которой лежат пески Кыздаршыккан и Кашкарата (Викторов. 1971, С. 7). Абсолютные высоты поверхности плато над уровнем моря колеблются в пределах 160—300 м.

Поверхность Устюрта в целом представляет огромную волнистую равнину, поражающую путешественника неоглядностью и суровостью своих ландшафтов. Она более расчленена на юге и имеет равнинный, спокойный характер на севере. Для Устюрта характерны обширные пологие возвышения и подобного же характера понижения (Викторов . 1971, С.22—23).

О природе, историческом прошлом Устюрта впервые подробные сведения стали появляться в связи с развитием торговых отношений между Россией и среднеазиатскими ханствами в XVIII в. Экономическое и политическое проникновение России в Среднюю Азию способствовало возникновению интереса к геологии, географии, этнографии и истории края. Первые данные об археологических памятниках Устюрта мы находим на картах, составленных А. Черкасским. Они считаются наиболее правильными и точными для первой половины XVIII в. (Юсупов. 1978, С.10.) На чертеже, составленном А. Черкасским и его помощниками, отмечена башня Караумбет.

В 1732 г. в Хиву через Устюрт была отправлена торговая миссия во главе с И. Гербером, отметившим на плато развалины трех городов. Первый — Ирнак — находился в районе Мынсуалмаса, второй — в урочище Дзясле, третий — в районе песков Сам, известный под названием Дели-урус . О наличии развалин городищ у Мынсуалмаса оставил сведения также самарский купец Д. Рукавкин, направлявшийся в Хиву в 1753 г.

Значительный материал по истории Оренбургского края и прилегающих к нему

степей, в том числе Устюрта, собран в книге выдающегося ученого П. И. Рычкова «Топография Оренбургской губернии», вышедшей в 1762 г. В работе упоминается о караван-сараях Белеули и Чурук.

В 1825—1826 гг. для изучения Устюрта снаряжается первая русская научная экспедиция под руководством Ф. Ф. Берга. В материалах этой экспедиции имеются данные о направлении торговых путей через плато, о развалинах Белеули, городища Давлетгирей (Курган) и аналогичного памятника между заливами Улу-Кулмагир и Кши-Кулмагир. В более поздних исследованиях об этом городище не упоминается. Возможно, оно было разрушено в результате оползней чинка Устюрта.

Сведения о караванных путях через Устюрт и исторических памятниках приводит А. И. Левшин, который собрал значительный материал по истории Западной части Казахстана и Устюрта. Из археологических памятников он отмечает Давлетгирей (Курганчу) и Белеули . О караван-сарае Белеули Левшин пишет: «Строения сии еще не совсем сохранились доныне. Они были сделаны из каменных плит с кирпичными сводами. При них находился колодец глубиною сажень в 30. Стена, окружавшая сие строение, составляла род замка и имела 4 ворот, покрытых сводами» (Юсупов. 1978, С.10).

В 1842 г. по Восточному чинку Устюрта в Хиву направился Ф. И. Базинер. Он приводит краткое описание руин Давлетгирей, Урги и 12 башен. В 1853 г. подпоручик Алексеев производил топографическое описание северной части Устюрта. Он упоминает развалинах крепости, очевидно, караван-сарая Коскудук у Минсуалмаса и дает описание старых казахских мавзолеев.

Об археологических памятниках Устюрта встречаются сообщения в трудах русских географов и геологов конца XIX — начала XX в. В 1876—1877 гг. под руководством Н. Г. Петрусевича была организована экспедиция для исследования старых русел Амударьи н Сарыкамышской котловины. Н. Г. Петрусевич упоминает о развалинах Девкескена н Адака.

В 1892 г. Общество Рязанско-Уральской железной дороги снарядило экспедицию во главе с С.Н.Никитиным в Закаспийские степи и на Устюрт для выяснения возможности строительства железной дороги от уральской линии через плато Устюрт до Кунграда. Во время исследования С. Н. Никитин отметил все замеченные им памятники Устюрта и нанес их на карту (Викторов. 1971, С.22—23). И.А.Кастанье собрал и систематизировал сведения по истории Оренбургского края, где упоминается о памятниках Устюрта. В 1912 г. Северный чинк Устюрта исследовал геолог

Уральско-Каспийского нефтяного общества М. В. Баярунас. Таким образом, до начало двадцатого столетия сведения об археологических памятниках сводились к попутным упоминаниям или кратким описаниям. На карты наносились наиболее крупные сохранившиеся каменные постройки. Вопрос о датах картированных и охарактеризованных памятников, их значении для понимания исторического прошлого оставался открытым. Для определения функционального назначения и времени возведения сооружений привлекались лишь легенды и предания.

В XX в. продолжается накопление археологических материалов с плато путем отдельных сборов, производимых неспециалистами. Однако наряду со стихийными сборами изучение археологических памятников Устюрта проводится и специалистами. В 1930 г. сотрудник Туркменистанского филиала АН СССР Л.Н. Соколов посетил средневековые городища Ширван-кала и Девкескен.

Специфика археологической проблематики плато обусловлена уже его Географическим положением. Устюрт находится между Средней Азией — страной древних оседло-земледельческих цивилизаций и степями Восточной Европы, где с начала раннежелезного века расселялись многочисленные кочевые племена. Подобное положение Устюрта определило его роль как зоны контакта между весьма отдаленными друг от друга культурами. Тема древностей Устюрта как связующего звена остается центральной для каждого из установленных нами сейчас периодов его освоения, будь это памятники первобытной эпохи, кочевников древности и средневековья или средневековые хорезмийские памятники Устюрта.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. *Викторов С.В.* Пуст ыня Уст юрт  и вопросы ее освоения. Труды Московского общества испытателей природы. М., т.XLIV, 1971, с.7.
2. *Викторов С.В.* Пуст ыня Уст юрт  и вопросы ее освоения. Труды Московского общества испытателей природы. М., т.XLIV, 1971, с.22—23.
3. *Ковалевский А.П.* Книга Ахмеда ибн-Фадлана о его путешествии на Волгу в 921 -922 гг. Харьков, 1956, с.123; Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1, М.-Л., 1939, с.178-179.
4. *Уразалыев Б. О* происхож дении назва ния Уст юрт . Вест ник КК ФАН РУз, №1, 1991, 94-96.
5. *Юсупов Н. К* ист ории и археологического изучения Уст юрт а. Сб. Древняя и средневековая культура Юго-восточного Устюрта. Ташкент, 1978, с.10.

**И.М. Қурбонбоев**
*Самарқанд давлат университети*

## КАТТАСОЙ ЯНГИ ҚОЯТОШ РАСМЛАРИ

Каттасой қоятош расмлари Қоратепа тоғ массиви шимолий ёнбағридан шимолий-ғарб томон оқиб тушувчи йирик сойлардан бирида олиб борилган археологик дала қидирув тадқиқотлар натижасида аниқланди. Бу қадимги қоятош расмлари ёдгорлиги Самарқанд вилояти Ургут тумани ҳудудига қарашли Ёнақишлоқнинг ғарбий қисмига туташ, Самарқанд-Шаҳрисабз автотрассаси ўнг томонида, денгиз сатҳидан 950-1000 метр баландликда жойлашган.

Каттасой унчалик серсув бўлмаган сой даралардан бири бўлиб, асосан булоқ ҳамда қор ва ёмғир сувларидан тўйинади. Баҳорда сойда сув бироз кўпроқ оқса, ёз ойларига келиб булоқларда ҳам сув камаяди. Бу сой дараси ўсимлик дунёсига унчалик бой эмас. Сойда мавсумий ўсимлик турлари ва бутасимон ўсимликлардан бодом кўпроқ учрайди. Ҳозирги кунда бу сой дарасининг текислик жойлари маҳаллий аҳоли вакиллари томонидан сунъий равишда турли мевали боғларга айлантирилган. Каттасойнинг юқори қисмлари бугунги кунда Зарафшон тоғ ўрмонзор қўриқхонаси таркибига киради. Бу ернинг бугунги кундаги ҳайвонот дунёси ҳам ўзига хос бўлиб, асосан майда кемирувчи ҳайвонлар ва тулкилар яшайди. Бугунги кунда мазкур сой дараси маҳаллий аҳоли томонидан чорва молларини боқиш учун яйлов сифатида фойдаланади.

Каттасой қоятошлари кварцли гранадиорит тоғ жинслардан таркиб топган. Бу ердаги расмлар мана шу сойнинг асосан қуёшган қараган (кунгай) ён қайирларидаги қоятошларнинг қорамтир, тўқ ва оч жигар ранг юзаларига қадимги рассом томонидан уриб-чўкичлаб, ўйиб ишланган. Ушбу сой дарасидаги қоятош расмларнинг сюжетлари тури ва уларнинг мазмун моҳияти хилма-хил бўлиб, улар одам, тоғ эчкиси, архар, хонаки эчки, бўри, ит ва кирилл ёзувлари, абстракт (тушунарсиз) тасвирлар ҳамда чала қолган ёки бузилган ва ноаниқ-хира расмлардан иборатдир. Каттасойда расм чизиш учун қулай ва текис сатҳли қоятошлар жуда кам бўлиб, мавжудларининг ҳам юза қисмлари табиий ҳодисалар (қор, ёмғир, шамол, иссиқ ва совуқ) таъсирида синиб қўпорилиб кетган. Бундай табиий жараёнлар қоятошлардаги қадимги тасвирларнинг бузилиб, бугунги кунга қадар сақланиб қолмаганлигини кўрсатади.

Бу ердаги қоятош расмларида асосий сюжет тоғ эчкилари тасвири бўлиб, улар асосан икки ва тўрт оёқда турган ҳолда, қўш қайрилма шохли, айримлари вазмин танали кўринишда, 20Х40 см бўлган ўлчамларда ишланган. Бундай тоғ эчкилар расмлари

мамлакатимиз ҳудудидаги шу каби бошқа ёдгорликларда ҳам жуда кўплаб учрайди (Кондрикова, Хўжаназаров, 1992. Стр. 25-26).

Каттасой қояларида тоғ эчкилари тасвирларининг кўплаб чизилиши мана шу сой дарасида яшаган қадимги ҳайвонот олами ҳақида тасаввур қилиш имконини бериб, мазкур ҳудудда асосан тоғ эчкилари бўлганлигини тахмин қилишимиз учун асос бўлади. Шу жиҳатдан мана шу ҳудудларда яшаган аҳоли вакиллари тоғ эчкиси образи ва улар билан боғлиқ сюжетларни қоятошларга маҳорат билан тасвирлаган. Хусусан, тадқиқотлар давомида бу каби тоғ эчкиларга ўхшаш тасвирлар яна Республикамиз ҳудудидаги Сармишсой (Кабиров, 1976. Б. 36. 15.20.23-расмлар; Хужаназаров, 1998. С. 56), Сайхансой, Такатош (Хужаназаров, 2001. С. 60; 2002. С. 129), Қорақиясой, Хўжакент (Хужаназаров, 1995. С. 67-68) ҳамда Қозоғистоннинг Арпаузен, Қўйбоқар I, II (Кадырбаев, Марьяшев, 2007) ва бошқа ёдгорликлар қоятошларида ҳам ўрганилган. Бу ёдгорликлардаги тоғ эчкилари тасвирлари тадқиқотчилар томонидан турли тарихий даврлар билан саналаштирилган.

Шунингдек, бу ердаги яна бир тасвир киши диққатини ўзига тортади. Бу тасвир сойнинг чап ёнбағридаги йирик харсангтошнинг жанубга томон қараган кичик текис юзасига уриб-чўкичлаш техникасида ишланган бўлиб, унда мушуксимонлар оиласига мансуб қандайдир йиртқич тасвирларган. Бунда ёввойи йиртқич ҳайвон қадимги рассом томонидан узун белли, вазмин танали, боши кичик, калта бўйинли, думи узун ва учи бироз қайрилган, оёқлари бақувват ва қалин кўринишда акс эттирилган. Тасвирнинг бундай ҳаққоний тарзда чизилганлиги, қадимги рассомнинг бу ёввойи ҳайвонни жуда яқиндан билиши ва у ҳақида яхши тасаввурга эга эканлигидан далолат беради. Бу каби ёввойи йиртқич ҳайвонлар тасвирлари соҳа мутахассислари томонидан яна Республикамизнинг турли ҳудудларида хусусан Сармишсой (Кабиров, 1976. Б. 20), Нахрачсой (Холматов, 2018. С. 230-233), Сузмойилота (Холматов, 2018) ва бошқа қоятош расмлари ёдгорликларида олиб борилган тадқиқотлар натижасида аниқланиб ўрганилган

Тадқиқотлар давомида Каттасойда жами 40 дан ортиқ турли мазмундаги қоятош расмлар аниқланди. Жумладан, улар орасида одам тасвири – 1 та, тоғ эчкиси – 15 та, архар – 2 та, бўри – 1 та, ит – 1 та, хонаки эчки – 4 та, турли шаклдаги белгилар – 2 та, кирилл ҳарфидаги ёзувлар – 6 та, чала қолган ёки бузилган расмлар – 10 та, ноаниқ хира тасвирлар – 7 та (1-жадвал). Расмлар ҳажмига кўра қадимги рассомлар томонидан 10 см дан то 30 см гача бўлган турли ўлчамларда чизилган. Бу тоғ водийсида олиб борилган комплекс тадқиқотлар жараёнида қоятош расмларидан ташқари бир нечта эски уй жой харобалари ўрни аниқланди.

1-жадвал

| № | Асосий сюжетлар. | Сони |
|---|---|---|
| 1 | Одам тасвири | 1 |
| 2 | Тоғ эчкиси | 15 |
| 3 | Архар | 2 |
| 4 | Гепард ёки қор барси | 1 |
| 5 | Бўри | 1 |
| 6 | Эчки | 4 |
| 7 | Ит | 1 |
| 8 | Айлана | 1 |
| 9 | Кирилл ёзувлари | 6 |
| 10 | Чала қолган ёки бузилган тасвирлар | 10 |
| 11 | Ноаниқ-хира тасвирлар | 7 |
| | **ЖАМИ:** | 49 |

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:


1. *Кондрикова. М, Хўжаназаров М.М.* Наскальные изображ ения Янбашсая // Ўзбекистон қадимда ва ўрта асрларда, Самарқанд, 1992.
2. *Кабиров Ж*. Сармишсойнинг ثоят ошларидаги расмлар. - Тошкент, 1976.
3. *Холматов А.Н*. Нахрачсой янги ثоят ош расмлари т адثиثот ининг даст лабки натижалари хусусида // Материалы II Международной научно-практической конференции «Global science and innovations 2018: Central Asia». Астана, 2018.
4. *Холматов А.Н*. Сузмойилота қоятош расмлари тадқиқотининг дастлабки натижалари // Археологические исследования в Узбекистане. Самарканд, 2018.
5. *Кабиров Ж*. Сармишсойнинг ثоят ошларидаги расмлар. - Тошкент, 1976.
6. *Хужаназаров М.М.* Наскалные изображ ения Сармишсая. - ОНУ. № 4-5. Тошкент, 1998.
7. *Хужаназаров М.М.* Наскальные рисунки Узбекист ана // От чет о научно исследовательской работе окружающая среда и истоки древного каменного века Узбекистана (промежуточный). АН Рес. Узб. Институт ИА им. Я.Г.Гулямова. Самарканд, 2001.
8. *Хужаназаров М.М.* Наскальные рисунки Узбекист ана // От чет о научно исследовательской работе окружающая среда и истоки древного каменного века Узбекистана (заключительный). АН Рес. Узб. Институт ИА им. Я.Г.Гулямова. Самарканд, 2002.
9. *Хужаназаров М.М.* Наскальные изображ ения Ходж акент а и Каракиясая. Самарканд, 1995.
10. *Кадырбаев М.К, Марьяшев А.Н.* Пет роглифы хребт а Карат ау. - Алматы, 2007.

# MUNDARIJA

**Abdug‘aniyev A**

QIZLARTEPA YODGORLIGINING O‘RGANILISH TARIXI.....5

**Alimov N**

RABINJON YODGORLIGINING TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI.....10

**Altiboyev Y.E**

QADIMIY KESH VOHASI MADANIY OBIDALARINING O‘RGANILISH TARIXI.....13

**Avzgeldiyev B.P**

MAYOLIKA BO‘LAKLARIDAGI POLIXROMATIK BEZAKLARINING ELEMENT TARKIBINI XRF-SPEKTROMETRI YORDAMIDA TAHLIL QILISH.....18

**Baxronov A.H. Tojiyev Sh.A**

URGUT TUMANI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O‘RGANILISHI TARIXI VA ISTIQBOLLARI......26

**Diyarov A.A**

KUSHONLAR DAVRIGA OID BUDDAVIY IBODATXONALARDA FOYDALANILGAN QORA RANGLI BO‘YOQ TAHLILI.....31

**Djurakulov Sh.D**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ARXEOLOGIK EKSPEDITSIYASINING O‘RTA ZARAFSHON VOHASI PALEOLIT DAVRINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI.....37

**Ergasheva R**

EYLATON MADANIYATININGNING O‘RGANILISH TARIXI.....42

**Imomov A.A, Kandaxarov A, Tursunqulov F.N**

ZARAFSHON VOHASIDA O‘RTA PALEOLIT DAVRI MADANIYATLARINING TISHSIMON MUSTE VARIANTI MUAMMOSI.....47

**Islamova Q**

O‘ZBEKISTONDA ARXEOLOGIYA FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....53

**Jumaniyazova F.M**

OROL VA KASPIY ORALIG‘IDA KO‘CHMANCHILARNING MODDIY MADANIYATI.....58

**Jumayev J.B**

SOVETLAR NAMUNASIDAGI YANGI TASHKIL ETILGAN MASKANLARDA AHOLINING MA’NAVIY HAYOTI.....61

**Kamoliddinov F.B, Userbayeva F.I**

O‘ZBEKISTONDAGI ARXEOLOGIK OBYEKTLAR VA ULARNI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....66

**O‘ng‘alov L.A**

NUROTA TOG‘ TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASI.....71

**Omonov D**

XO‘JA RUSHNOI YODGORLIGIDAGI BIRINCHI VA UCHINCHI QAZISHMALARDA OLIB BORILGAN TADQIQOT NATIJALARI.....77

**Amonov S.T**

KESHNING QADIMGI DAVR MAKONLARI TOPOGRAFIYASI.....84

**Ozodova O‘. D**

BRONZA DAVRI MANZILGOHLARINING O‘RGANILISH TARIXI: FARG‘ONA VODIYSI CHUST MANZILGOHI MISOLIDA.....90

**RashidovN.N, Otaboyev R.Sh**
O‘ZBEKISTON HUDUDIDA JISMONIY ANTROPOLOGIYANING PALEOPATOLOGIK TOMONDAN O‘RGANILISHI....93

**Rasulov I**
GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ARXEOLOGIK TADQIQOT HUDUDLARINING RAQAMLI XARITASINI YARATISH....98

**Ruziboyev T.Z**
JIZZAX VOHASIDAN TOPILGAN YANGI QOYATOSH RASMLARI XUSUSIDA BAZI MULOHAZALAR ....103

**Tajimuratov D.B**
XORAZMNING ANTIK DAVRI URBANIZATSIYA JARAYONLARI....107

**Tursunov O**
MARKAZIY SUG‘D KO‘CHMANCHI CHORVADORLAR MADANIYATINING O‘RGANILISHI....113

**Xo‘jamuratova G.J**
QORAQALPOG‘ISTON ARXEOLOGIYASINING RIVOJLANISH TARIXI....118

**Yoo I**
ANTIK VA O‘RTA ASRLAR KOREYA VA O‘ZBEKISTON TARIXINING O‘ZARO ALOQADORLIGI MASALASINING O‘ZBEKISTON TARIXCHILARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI ....120

**Мадреймов Б. Д**
УСТЮРТНИНГ СЎНГГИ ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ ЕСЕН-2 УСТАХОНАСИНИНГ ФУНКЦИОНАЛ АҲАМИЯТИ....125

**Махкамова Н.А**
МАРКАЗИЙ СУҒДНИНГ АНТИК ДАВР ОШХОНА КУЛОЛЛИК ИДИШЛАРИ....128

**Умаров А.Ш**
XIX АСР ОХИРИ ВА XX АСР БОШЛАРИДА НУРОТА ТУРКМАНЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ....133

**Нурматов С. Т**
РОЛЬ МЕСТНОЙ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ РЕГИОНА....140

**Кыдырбаева Н. Ш, Калмуратова Т. Х**
К ИСТОРИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ УСТЮРТА....146

**Қурбонбоев И.М**
КАТТАСОЙ ЯНГИ ҚОЯТОШ РАСМЛАРИ....151